ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

5/2-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Ta'lim sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
N. Jo'rayev	6	O'zbekistonda oliy ta'limning xalqarolashuvi va uni ta'lim sifatiga ta'siri
Sh. Muslimov	12	Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishda kasbiy grafik kompetentlik muammo sifatida
Sh. Primov	15	Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarida kommunikativ o'zini o'zi rivojlantirishning rag'batlantirilishi
M. Baratov	20	Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash
A.X. Tillayev	24	Talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
B.A. Olimov	27	Fizikani raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitishda o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish
R. Boltayeva	31	Kimyo fanini individual yondashuv asosida o'qitishning samarali omillari va tamoyillari
A. Ernazarov	34	Ta'lim klasteri sharoitida o'quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish
N. Atakulova	39	Talabalar dunyoqarashini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va komponentlari
Sh. Kochqarova	43	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini motvatsiyasini kuchaytirishda didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatlar
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
U.X. To'raqulov	49	Raqamli texnologiyalar negizida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda axborot resurslaridan foydalanish
J.R. Axmedov	53	Axborotlashtirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning muhim jihatlari
		MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI NAZARIYA VA AMALIYOT
T.M. Isaqulov	59	Darslarda uch o'lchovli kompyuter grafikasidan foydalanish
A. Tillaboyev	62	Raqamli texnologiyalar asosida astrofizikani o'qitishning ayrim masalalari
F.S. Maxamatova	65	Oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim muhitida intellektual faoliyatga olib kirish yo'llari
M. Mamataliyeva	68	Kreativlik qobiliyatni rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyasining ahamiyati
		MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALI
U. Otaboboyeva	72	Talabalarni badiiy meros asosida ma'naviy-estetik rivojlantirish nazariyasidan foydalanish
L. Shabdullayeva	77	Imom buxoriy asarlari asosida o'quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg'ularini tarkib toptirishning rivojlanish tendentsiyalari

F. Bayjonov	81	Oila va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hamkorligida gender madaniyatni shakllantirish
S. Azimova	86	Farzand tarbiyasida ota-onalar pedagogik madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari
		HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA
B. Abdullayev	89	Imkoniyati chyeklangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari huquqiy madaniyatini shakllantirish omillari va tamoyillari
		MAKTABGACHA TA’LIM
N. Abdullayeva	92	Maktabgacha ta’limda xususiy malaka oshirish instituti – tizim ravnaqining asosiy omili sifatida
N.J. Abdusamatova	97	Maktbagacha ta’im tashkilotlarining rivojlantiruvchi markazlaridagi faoliyat turlariga integrativ yondashuv asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash
D. Xomidova	102	Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarini tashkil etishda tarbiyachining mahorati
Z. Jo‘rayeva	106	Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari
		PSIXOLOGIYA
O‘. Mamajonov	110	Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
O. Qodirov	115	Turli davlatlarda ijtimoiy-psixologik va psixoprofilaktik xizmatning shakllanishi
		KORREKSION PEDAGOGIKA
S. Dangalov	120	Ko‘zi ojiz bolalarni savodga o‘rgatish metodikasi
B. Fozilov	123	Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarda faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish
X. Yunusova	126	Bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishga tayyorlash
		XALQ PEDAGOGIKASI
Sh. Abdujalilova	129	Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limotidan foydalanish
M. Soipnazarova	133	Abdurauf Fitrat asarlarining barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Н. Эргашева	136	Возможности применения технологии искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам в вузе
		КОРРЕКЦИОННАЯ ПЕДАГОГИКА
С. Мухаммадиева	141	Воспитание нравственной зрелости в работе Ахмада Яссави

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YAKKAYU YAGONA TO'G'RI YO'LIDIR

2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinganda, ko'pchilik ziyolilar ruhlandi. Ikkita so'z birikmasidan tarkib topgan yilning nomlanishida ulug' niyat – jamiyatning buguni va ertasiga daxldor bo'lgan maqsadlar aks etgan. Qachon xalqqa e'tibor bo'ladi, qachonki, bizning ilmu ta'limda erishgan yutuqlarimiz sifatli bo'lsa, ya'ni ta'lim sifatga qurilsa, ana shunda natijadorlik haqida, samara haqida gapirsak bo'ladi.

Davlatimiz rahbari respublikamiz bo'ylab qaysi korxona, qaysi tashkilotda bo'lmasin, mutasaddilar bilan uchrashmasin, albatta, uchta so'zni takrorlashlari va talab etishlari bejiz emas. Bular – sifat, samara va natijadorlik. Har bir qilingan harakatning natijasi, samarasi sifatga bog'liqligi ayon. Demak, Prezident o'zi qayta-qayta e'tirof etgani kabi "Najot ta'limda, najot bilimda, najot ilmda". Shunday ekan, jamiyatni, xalqni ulug' maqsadlar sari olg'a boshlashning birdan bir yo'li – yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir".

Shubhasiz, ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turibdi, bu vazifalarni amalga oshirish, bizning, barcha ta'lim sohasi mutasaddilarining oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Yurtboshimizning saylovoldi dasturlarida ta'limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida to'liq yangilanishi, 2030-yilgacha barcha tuman va shaharlarda "Iste'dod – Intilish – Istiqbol" nomli ixti-soslashtirilgan maktablar tashkil etilishi, maktablarga o'z yo'nalishi bo'yicha malakali o'qituvchilar jalb qilinishi kabi rejalari taklif qilindi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Yangi renessans maktab ostonasidan boshlanishi bejizga emas, chunki inson umri davomida oladigan bilim, ko'nikma, malakalarining asosiy qismini maktabda egallaydi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim, tayanch o'rta ta'lim va o'rta ta'limdan iborat. Tabir joizki, Yurtimizda har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim zamonaviy ilg'or metodlar asosida o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va asosida ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Binobarin, Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilashi hamda umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerakligi ta'lim to'g'risidagi qonunlarda ham belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari va darsliklarini zamon talabi, jamiyat yangilanishi, bozor va ish beruvchilarning ehtiyoji va talablari asosida yangilanib bormoqda. Har bir fanning maqsad va vazifalari bugungi yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qilishi, ta’lim – ilm – fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayanilishi, jamiyatning barcha jabhalaridagi strategik yo‘nalishlar bilan bog‘lanishiga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, tabiiy fanlarning o‘quv dasturlari sanoatning bevosita rivojlanishida ushbu yo‘nalishdagi bilimlar (genetik injeneriya, biotexnologiya kabi fanlar) o‘z o‘rniga ega ekanligi, eng yangi kimyo yoki biologik texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, o‘sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkinligi kabi asoslar kiritilmoqda.

Ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi malaka talablarida ko‘zda tutilgan:

– kommunikativ kompetensiya;

– axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;

– o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;

– ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;

– milliy va umummadaniy kompetensiya;

– matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Ta’limdagi muammolarning asl sabablari, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim pedagoglarimizdagi zamonaviy bilim berish, pedagogik mahorat, kompetentlik; ularning o‘z fanini hayot, turmush, ishlab chiqarish bilan bog‘lab, fan-texnikaning eng so‘ngi yutuqlaridan, ilg‘or xorij tajribalaridan, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim oluvchilarga yetkazish malakasining yetishmasligidadir.

Hozirgi davr o‘quv mashg‘ulotlarini ta’lim oluvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol usullarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e’tiborni ularning mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratishni taqozo etmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodkor, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o‘z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o‘z navbatida ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ularni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki, uni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan natijani bermaydi. Bugun kunda o‘qitishning an’anaviy ko‘rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, o‘qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi o‘quv yili oldidan maktablar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uchun ham mazmunga qaratilgan davlat, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, kechiktirib bo‘lmaydigan umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslarini ishlab chiqib, tatbiq etish zarurdir. Bu ulkan vazifalarni tizimli amalga oshirish va uning samaradorligiga erishish mutasaddilarning va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining barchasiga bog‘liq. Asosiysi, yuqorida bayon etilgan mazmunga bog‘liq yangiliklar ta’lim tizimining rivojiga, o‘qitish va o‘rganish jarayonining sifatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Nurbek JO'RAYEV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha proryektori

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIMNING XALQAROLASHUVI VA UNI TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqil O'zbekistonning oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, oliy ta'limdagi xalqarolashuv jarayoni, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqilishi va mazkur islohotlarning ta'lim sifatiga ta'siri masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, xalqarolashuv, integratsiya, oliy ta'lim xalqarolashuvi, globallashuv, konsepsiya, "El-yurt umidi".

В данной статье освещаются изменения в системе высшего образования Узбекистана после обретения независимости, процесс интернационализации высшего образования, разработка концепции развития высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, а также влияние этих реформ на качество образования.

Ключевые слова. Образование, интернационализация, интеграция, интернационализация высшего образования, глобализация, концепция, "El-yurt umidi".

This article highlights the changes in the higher education system of Uzbekistan after independence, the process of internationalization in higher education, the development of the concept of the development of higher education of the Republic of Uzbekistan until 2030, and the impact of these reforms on the quality of education.

Key words. Education, internationalization, integration, internationalization of higher education, globalization, concept, "El-yurt umidi".

Rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari jahon oliy ta'lim tizimida yanada integratsiyalashuviga va ushbu jarayon ta'sirida rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Oliy ta'limdagi xalqarolashuv jarayoni jahon xalqlarini global miqyosda qamrab oldi. Oliy ta'limning xalqarolashuvi dunyoning ko'pgina mamlakatlarida har xil xususiyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni xalqarolashtirishga mustaqillikdan so'ng e'tibor kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgach, dunyoning boshqa davlatlari kabi har tomonlama rivojlanish yo'lidan bormoqda. Mazkur rivojlanishda esa aholining savodxonligi muhim rol o'ynaydi. Shuni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida aholining savodxonligini oshirishda ta'lim tizimida jiddiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ana shunday islohotlar doirasida O'zbekistonda oliy ta'limning xalqarolashuvi xorijda ta'lim olish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish, xalqaro standartlarni oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim tizimida integratsiyani rivojlantirish kabi jihatlarda o'z ifodasini topmoqda. Mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekiston Respublikasi malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezdi. Rivojlangan mamlakatlarda bunday ehtiyojlarni qondirishda yoshlarning oliy ta'lim olishi va ularning malakasini oshirish asosiy vazifa sifatida qaraladi. Shuning uchun mamlakatimizda maxsus fondlar tashkil etildi va grant dasturlari orqali iqtidorli talabalar saralab olinib, rivojlangan mamlakatlardagi oliy ta'lim muassasalariga yuborish va shu yo'l bilan malakali mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Bu borada jahon andozalari

asosidagi zamonaviy bilimlarni egallagan, yurt ravnaqiga xizmat qila oladigan kadrlar bazasini yaratishga e'tibor yanada kuchaytirildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning turmush darajasi sifat jihatidan yaxshilanishi, xorijiy mamlakatlarda yakka tartibda o'qish istagini uyg'otdi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng demokratiya va bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillariga e'tibor qaratdi.

Rivojlangan davlatlar bilan diplomatik-iqtisodiy, madaniy aloqalar yo'nalishida xalqaro hamkorlikni kengaytirish alohida ta'kidlandi. Ana shunday hamkorlik natijasida O'zbekiston Respublikasida xorijiy oliy o'quv yurtlari va filiallari faoliyat ko'rsata boshladi. 2016-yildan so'ng oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yangi bosqichga ko'tarildi. Aksariyat davlatlar qatori O'zbekiston Respublikasi ham oliy ta'lim muassasalari faoliyatini xalqaro talablarga javob beradigan darajaga ko'tarish borasidagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirdi. Jahon oliy ta'limiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv O'zbekiston oliy ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limni xalqarolashtirish siyosatida xorijiy universitetlar va filiallar kampuslari hamda rivojlangan davlatlar bilan korporatsiyalarni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilayotganida ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" Qarori tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada O'zbekistonning kamida 10 ta oliy o'quv yurti xalqaro reytingga ega bo'lishi kerakligi aniq belgilab berildi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari xalqaro maqom olishga harakat qilmoqda. Oliy ta'limni xalqarolashtirish ham O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Oliy ta'limda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar sharoitida konsepsiya oliy ta'limni xalqarolashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Xalqarolashtirish tushunchasi oliy ta'limda bir necha o'n yillar davomida qo'llanilmoqda. Hozirgi vaqtda oliy ta'limni xalqarolashtirish global tushunchaga aylandi. AQSh, Yevropa va Osiyodagi ilmiy-tadqiqotlarning aksariyati oliy ta'limni xalqarolashtirishga bag'ishlangan. Bu jahon akademiyasida ana shu g'oyaning yaxlitligi sifatida yaratilgan adabiyot desak o'rinli bo'lardi. Aytish joizki, bu masala Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham o'rganila boshlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni xalqarolashtirish konsepsiyasi so'nggi 30 yillikda ilmiy adabiyotlarda qayd etilganligini alohida ta'kidlash lozim. Shunga qaramay, O'zbekistonda oliy ta'limni xalqarolashtirishni nazariy asoslovchi ilmiy adabiyotlar yetarli emas. Shuning uchun ham mavzuga oid ilmiy nazariyani tahlil qilishda Jahon akademiyasida yaratilgan ilmiy manbalarga tayanilgan. Butun jahon ilmiy adabiyotlarida oliy ta'limni xalqarolashtirishga turli ta'riflar berilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oliy ta'limni xalqarolashtirishning nazariy tahlilini murakkab hodisa deyish mumkin. Ilmiy manbalarda oliy ta'limni xalqarolashtirishga oid qarash va mulohazalar xilma-xilligi oliy ta'limni xalqarolashtirishning umume'tirof etilgan ta'rifi bo'yicha yagona kelishuv mavjud emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun biz butun dunyo bo'ylab ilmiy adabiyotlarda eng ko'p keltirilgan ta'rifni keltirishni o'rinli deb topdik. Bu borada eng ko'p qo'llaniladigan ta'rif yetakchi olimlar J. Nayt (Knight) va De Vit (De Wit) (1997) tomonidan kiritilgan bo'lib, keyinchalik Jeyn Nayt tomonidan yanada aniqroq ishlab chiqilgan. Jeyn Nayt ta'rifi "milliy, sektor va institutsional darajalarda xalqarolashtirish oliy ta'limning maqsadi, funksiyalari yoki taqdimotiga xalqaro, madaniyatlararo yoki global o'lchovni integratsiyalash jarayoni sifatida belgilanadi".

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni xalqarolashtirish jarayonlari 1991-yilda boshlangan. Lekin oliy ta’limning jarayon sifatida xalqarolashuvi O‘zbekistonda yangi hodisa emas. Tarixiy asosga ko‘ra, u o‘rta asrlarga borib taqaladi, ehtimol undan ham oldinroq. O‘zbekiston tarixda Turkiston, Movarounnahr, Turon kabi nomlar bilan atalgan. O‘rta asrlar davri Movarounnahrning oltin davri edi. Bu davrda dunyo sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan ko‘plab olimlar yetishib chiqdi. O‘sha davrda Movarounnahrda ko‘plab madrasalar bo‘lgan. Madrasa ta’lim dasturlarining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilib, keyinchalik takomillashtirildi. Keyinchalik madrasalar soni ko‘payib, diniy arboblar, siyosiy arboblar, olimlar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlariga aylandi. Buxoro madrasalar shahri va ilm-fan markazi edi. Ahmad Danish (1826–1897) va Sadri Ziyolar Amir Haydar davrida Buxoroga dunyoning turli burchaklaridan talabalar kelib tahsil olgani, ilm-fan rivojlangani, ilgari olimlar bunday muvaffaqiyatlarga erishmaganligini ta’kidlaydilar. Ingliz hoji Byorns Buxoro madrasalarida yetti-sakkiz yillik o‘quv kursini tamomlab, o‘z vataniga bilim zahirasi bilan qaytgan talabalarni butun dunyodan ko‘rish mumkinligini ta’kidlaydi. Butun dunyodan talabalarning yurtimizga kelishi hozirgi akademik harakatchanlikni ifodalaydi. Akademik harakatchanlik ham oliy ta’limning xalqarolashuvining muhim ko‘rsatkichidir. Shu nuqtayi nazardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda oliy ta’limni xalqarolashtirish o‘ziga xos tarixga ega.

Shunga qaramay, oliy ta’limni xalqarolashtirish XXI asrning yangi nazariyasidir. Yangi tashkil etilgan davlatlar oliy ta’lim yo‘nalishlari va ta’lim siyosatini milliy manfaatlarga xizmat qiladigan darajada shakllantirgandan keyingina oliy ta’limni xalqarolashtirish konsepsiyasini qabul qildilar. O‘zbekiston Respublikasini ana shunday davlatlardan biri deb hisoblash mumkin. Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotida yangi davr boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan beri dunyoning boshqa davlatlari qatori har tomonlama taraqqiyot yo‘lida intilib bormoqda. Boshqa mustaqil davlatlar singari O‘zbekistonda ham jamiyat hayotining turli sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilashda, eng avvalo, ta’lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirishga alohida e’tibor qaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining rivojlanish strategiyasini belgilashda oliy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Shu maqsadda me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Oliy ta’lim har bir davlat hayotida, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarini hal etishda muhim o‘rin tutishini hisobga olsak, bu borada ta’lim tizimini muvofiqlashtiruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi. Aytishimiz mumkinki, mustaqillikning dastlabki besh yili balandlikka sakrash strategiyasiga tayyorgarlik davri bo‘ldi. Shu davrda 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Shu 5 yil davomida butun dunyoda eng yaxshi ta’lim modellari o‘rganilib, milliy model g‘oyalari shakllantirildi. 1997-yilda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ishlab chiqildi va yangi normativ hujjat sifatida qabul qilindi. Ushbu milliy dastur balandlikka sakrash strategiyasiga, ta’lim tizimidagi tub islohotlarga asos bo‘ldi. Ushbu normativ hujjatlarni ishlab chiqishda global muammolar va xalqaro munosabatlarni rivojlantirish masalalari ham hisobga olingan. Milliy dasturda oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bakalavr va magistratura dasturlarini o‘z ichiga olgan ikki bosqichli oliy ta’lim tizimi amalga oshirildi. Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash, ularning xorijiy oliy ta’lim muassasalarida malakasini oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, oliy ta’limga xorijlik malakali mutaxassislarni jalb etish, ya’ni ta’lim sohasida integ-

ratsiyani yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi tajribalar ham zarur edi. Bu borada, O‘zbekiston rivojlangan davlatlar bilan xalqaro aloqalarni mustahkamlab, ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganishga kirishdi. Mamlakatda mavjud tarmoqlarni rivojlantirishda, birinchidan, malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezilmoqda. Bunday ehtiyojlarni ta’minlashda iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda oliy ta’lim va malaka oshirishini ta’minlashning asosiy vositasi sifatida qaraldi. Buning uchun maxsus fondlar tashkil etilgan. Iqtidorli o‘zbek yoshlarini rivojlangan davlatlar oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy bilimlarga ega mutaxassis sifatida tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekistonda oliy ta’limning xalqarolashuvi oliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’limni xalqaro andozalar asosida tashkil etish borasidagi sa’y-harakatlarda o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, O‘zbekiston fuqarolarining xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan maxsus jamg‘armalar bu jarayonga keng zamin yaratdi. Rivojlangan davlatlar bilan o‘rnatilgan iqtisodiy va madaniy aloqalar ham ta’lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi.

O‘zbekiston hukumati tomonidan moliyalashtirilayotgan “UMID” jamg‘armasi o‘zbekistonlik iqtidorli talabalarning xorijiy oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. O‘zbekistonning yosh iqtidorli yoshlari “Umid” jamg‘armasi negizida rivojlangan mamlakatlarning nufuzli universitetlariga zamonaviy bilimlarni egallash uchun yuborildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi “Umid” jamg‘armasi shafeligida 1997-2003-yillarda 466 nafar o‘zbekistonlik yosh mutaxassislar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya kabi davlatlarning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida malaka oshirdi. Magistratura va 362 ta bakalavriat dasturlari bo‘yicha.

Bunday hamkorlik va maxsus fondlar tashkil etishdan maqsad mamlakatimizni mustaqil davlat sifatida rivojlantira oladigan mutaxassislarni xorijda tayyorlash, ular o‘rgangan xalqaro tajribani O‘zbekistonda amaliyotga tatbiq etish edi. Biroq, UMID jamg‘armasi g‘oliblari bilan bo‘lib o‘tgan miyaning ajralishi sababli ushbu fond o‘z faoliyatini qisqartirdi. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste’molchi yosh pedagog va tadqiqotchilar malakasini oshirish va tajriba almashish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ-3272-son Qaroriga asosan “Umid” va “Ustoz” negizida “Iste’dod” jamg‘armasi tashkil etildi. Keyinchalik nomi o‘zgarganiga qaramay, ushbu jamg‘arma O‘zbekistonda oliy ta’limni xalqarolashtirishda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Iqtisodiy, siyosiy, madaniy islohotlar natijasida odamlarning turmush darajasi yaxshilandi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijda yakka tartibda oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada, O‘zbekiston Respublikasidan dunyoning turli mamlakatlariga talabalar oqimi vujudga keldi. Mamlakatda mavjud turtki beruvchi omillar bilan birga xalq turmush darajasini sifat jihatidan yaxshilash talabalar migrasiyasining rivojlanishida asosiy omil bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni xalqarolashtirishning hozirgi holati Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruviga kelganidan so‘ng, keyingi 5 yilda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni xalqarolashtirish jarayoni yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. 2017-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu strategiyada mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Ushbu strategiyada oliy

ta’limni yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. “Harakatlar strategiyasi” ning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturida “Boloniya deklarasiyasi” ga qo‘shilish bo‘yicha eng ustuvor vazifa kun tartibiga kiritilgan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda oliy ta’limni xalqarolashtirishga davlat siyosati darajasida jiddiy ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori imzolangan. Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirishda jahonning yetakchi ilm-fan va ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish

O‘zbekistondagi har bir oliy ta’lim muassasasining asosiy vazifasi etib belgilangan. Shuningdek, xalqaro ta’lim standartlari asosidagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Xorijiy hamkor ta’lim muassasalarining yuqori malakali o‘qituvchi va olimlarini o‘quv-pedagogik faoliyatga, mahorat saboqlariga, malaka oshirish kurslariga faol jalb etish masalalari ham hal qiluvchi vazifa sifatida belgilangan. Ushbu tizimdan kelib chiqib, bakalavriat, yosh o‘qituvchi va ilmiy xodimlarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Mazkur Qaror O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari va xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari ko‘plab xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan va qo‘shma dasturlar, ikki tomonlama diplom to‘g‘risidagi shartnomalar imzolangan.

Bundan tashqari, akademik harakatchanlikni oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentabrdagi “El-yurt UMIDI” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5545-son Qarori imzolangan. “El-yurt UMIDI” jamg‘armasi O‘zbekiston yosh mutaxassislari va iqtidorli yoshlarini xorijiy oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishi, akademik harakatchanligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Keyingi uch yilda rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik yanada kengaytirildi. 2018/2019-o‘quv yilida o‘quv jarayoniga AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Avstraliya, Avstriya, Portugaliya, Ispaniya, Italiya va boshqa mamlakatlardan 832 nafar xorijlik mutaxassis jalb etildi. 2018 – 2019-o‘quv yilida 164 nafar abiturient xorijiy yetakchi oliy ta’lim muassasalariga magistratura bosqichiga, 78 nafar abiturient doktoranturaga o‘qishga yuborildi. O‘zbekiston Respublikasining 546 nafar o‘qituvchi, doktorant va ilmiy xodimi amaliyot o‘tashga, 755 nafari malaka oshirishga yuborildi. 2018–2019-o‘quv yilida 32 ta qo‘shma o‘quv qo‘llanma va 2236 ta ilmiy maqola impakt-faktorga ega bo‘lgan ilmiy jurnallarda chop etildi. Talabalarning harakatchanligi ham yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirda 4 milliondan ortiq talaba xorijda tahsil olmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, 2020-yilga borib bu ko‘rsatkich 8 millionga yetgan. (YuNeSKOning Toshkentdagi vakolatxonasi rasmiy xabarida, 2019-yil). O‘zbekiston Respublikasining 85,9 ming nafar fuqarosi xorijda ta’lim olmoqda (YuNeSKO Statistika instituti YuNeSKO instituti, 2021-yil). Bu ko‘rsatkich jahon talabalarining 0,7 foizini tashkil qiladi (YuNeSKO Statistika instituti YuNeSKO instituti, 2021-yil). Bundan tashqari, O‘zbekistonda chet el fuqarolari tahsil olmoqda. Masalan, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetida hozirda 30 dan ortiq xorijlik talabalar

turli mutaxassisliklar bo‘yicha tahsil olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” Qarori belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2 yil davomida O‘zbekistonda 9 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasi tashkil etildi. Ulardan 3 tasi Rossiya, 2 tasi Janubiy Koreya, 2 tasi Hindiston, 1 tasi Amerika va 1 tasi Latviya universitetlaridir. Samarqandda 2018-yilgi Ipak yo‘li xalqaro turizm universiteti ochildi. E’tiborlisi, bu O‘zbekiston Respublikasidagi birinchi mahalliy xalqaro universitet edi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlik alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng yevropa Ittifoqi, YuNeSKO, Jahon banki kabi ko‘plab xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirmoqda. O‘zbekiston oliy ta’limni rivojlantirishda ko‘plab rivojlangan davlatlar bilan xalqaro aloqalar o‘rnatgan. Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur xamkorlik ishlari oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish va malakali mutaxasislarni tayyorlash vazifalarini amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. https://lex.uz/docs/4545884

2. Jane Knight. Updated Internationalization Definition. International Higher Education January 2003 https://www.researchgate.net/publication/248809738_Updated_Internationalization_Definition.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017 yildagi PQ-2909-son. https://lex.uz/docs/3171590.

4. Bunyodjon A’zamov. Culture of using multimedia information technologies in the educational system. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3004

5. Jurayev A.X. Ta’lim tizimiga pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish afzalliklari. O‘zMU xabarlari jurnali. 1/1-son 2020 y.

6. Maxmudov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarishga oid ayrim nazariy yondashuvlar. “Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar” jurnali. № 2 (13) 3, aprel-iyun, 2021 y.

7. Qahhorov O.S. “Ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligini baholash.” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019 y.

Sherzod MUSLIMOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti PhD dotsent

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHDA KASBIY GRAFIK KOMPETENTLIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola texnologik ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar va texnologik ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish yo‘llari haqida yoritilgan. Shuningdek, grafik kompetentlik va kompetensiyalar, AKTning mazmun-mohiyati batafsil ochib berilgan. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish jarayoni muammo sifatida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogika, kompetentlik, kompetensiya, AKT, grafik kompetentlik, grafik faoliyat, qiziqish, motiv, shaxs.

В этой статье рассматриваются пути развития профессиональной графической компетентности студентов, обучающихся по направлению технологического образования, и преподавателей направления технологического образования. Также подробно раскрыты графические компетенции и компетенции, содержание акта. Процесс развития компетентности будущих педагогов технологического образования изучался как проблема.

Ключевые слова. Педагогика, компетентность, компетентность, ИКТ, графическая компетентность, графическая деятельность, интерес, мотив, личность.

This article discusses the ways of developing professional graphic competence of students studying in the direction of technological education and teachers of the direction of technological education. Graphic competencies and competencies, the content of the act are also disclosed in detail. The process of developing the competence of future teachers of technological education was studied as a problem.

Key words. Pedagogy, competence, competence, ICT, graphic competence, graphic activity, interest, motive, personality.

Jahon amaliyotida texnologiya o‘qituvchisining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirishda grafik bilimlar, ob’ektlarning funksional va konstruktiv o‘ziga xosligini bilishga asoslangan ko‘nikma va malakalar (kompentensiyalar)ni samarali qo‘llash, grafik kasbiy yo‘nalganlik va faoliyat tajribasi, grafik axborot texnologiyalari bo‘yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat, uning ahamiyati va muayyan texnologik masalalarga munosabat, texnologiya o‘qituvchisi yo‘l qo‘yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korrektiv mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yo‘nalishida o‘qituvchilar tayyorlaydigan davlat talim standartlari, malaka talablari, o‘quv dasturlarida konstruktorlik, ishlab chiqarish texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishda kasbiy grafik kompetentlik va rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: kasbiy grafik kompetentlik bir tomondan kasbiy rivojlanish jarayonida shakllansa, boshqa tomondan esa, shaxs-

ning mutaxassis sifatida namoyon bo‘lishining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Kasbiy grafik kompetentlik muammosiga nisbatan qiziqishlarning ortishiga qaramasdan, bu fenomenning tabiati, tuzilishi, dinamikasi va funksiyalari haqidagi savollar hali o‘zining yechimini topganicha yo‘q, bir qancha chalkashliklarga ega. Bizning fikrimizcha, buning eng asosiy sababi ushbu muammoning, xususan, shaxsning umumiy tuzilishidagi kasbiy grafik kompetentlik o‘rnida qo‘llaniluvchi ijtimoiy sifatlarning kam o‘rganilganligi bilan bog‘liq. Kasbiy grafik kompetentlik muammosini tadqiq qilish uchun, eng avvalo, bu voqelik shaxs sifatlari tizimida qanday o‘rin egallashini, qolaversa, shaxsning kasbiy va ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashida qanday rol o‘ynashini tushunib olish lozim.

Pedagogik kuzatishlarimiz ko‘rsatadiki, kasbiy grafik kompetentlik muammosini tadqiq qilishga nisbatan ikkita yo‘nalish mavjud: birinchisi, kasbiy rivojlanish, shaxsning komil topishiga yo‘naltirilgan, ikkinchisi esa, kasbiy rivojlanishning texnologik tomonlari va omillariga yo‘naltirilgandir.

Kasbiy grafik kompetentlik va bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishi orasidagi bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, grafik kompetentlikning o‘zida quyidagilarni mujassamlashtirgan murakkab jarayon ekanligini kuzatiladi: kasbiy treninglar, faoliyatni amalga oshirishga nisbatan qo‘yiladigan talablar va standartlarni o‘zlashtirish, mehnat jamoasi doirasida xulq-atvor me’yorlarini tushunish. Chunki kasbiy grafik kompetentlik kasbiy rivojlanish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Kasbiy rivojlanish esa mehnat jamoasi ijtimoiy-ta’limiy muhit bilan uzviy bog‘liq.

Kasbiy grafik kompetentlik muammosini tadqiq qilishda asosiy e’tibor bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishidagi muammoli vaziyatlarni qabul qilish va ularni bartaraf etish usullarini bilishini tahlil qilishga qaratiladi. Kasbiy o‘zini o‘zi anglash borasida qaror qabul qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishi, real imkoniyatlarni aniqlash, imkoniyatlarni qator mezonlar yordamida baholash; adekvat imkoniyatlarni tanlash va amalga oshirish, pedagogik qarorlarning ta’limi dinamikasi bilan muvofiqligi va boshqalar.

Kasbiy grafik kompetentlikni tadqiq qiluvchi jahon psixologlari uchun psixik voqeliklarni tuzilmaviyligi va tizimliligi tamoyili, sifatlarning genetik o‘zaro bog‘liqlik darajasini qidirish, kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish va amalga oshirish jarayonida sifatlarning rivojlanishini tadqiq qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu jahon tadqiqotchilarining an’anaviy va konseptual metodologik bazasi bo‘lib, quyidagilarga xizmat qiladi: kasbiy faoliyatdagi sistemagenez, shaxsning kasbiy rivojlanishi, mehnat faoliyati va boshqalar.

Kasbiy grafik kompetentlikning elementlari tarzida ehtiyojlar, qiziqishlar, yo‘nalishlar, ishonch va kasb orqali qondiriluvchi va amalga oshiluvchi shaxsning motivasion sohasining boshqa tarkibiy qismlari ko‘rib chiqiladi. Kasbiy grafik kompetentlikga erishish uchun shaxs faolligini ta’minlovchi zaruriy bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lish lozim.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, kasbiy grafik kompetentlik – ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan shaxsiy va kasbiy rivojlanish mahsulidir.

Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirishda quyidagilar taqozo etiladi: pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotida muammoli vaziyatlarda aniq qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish; ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun fanlararo o‘zaro aloqadorlikka erishish asosida muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab

chiqish va ularni tizimlashtirish; pedagog kadrlar tayyorlash tizimi sifatini oshirishda ta’limning yangi shakllaridan foydalanish jihatlarini ilmiy asoslash.

Texnologik ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirishni bilim olishga qiziqish va qobiliyatni, texnologik tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan omil sifatida qarash lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida texnologik ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ‘‘rivojlanish’’ tushunchasining ma’nosini ochib beradi. Pedagogik adabiyotda ‘‘rivojlantirish’’ tushunchasi ko‘pincha turli omillar va sharoitlar (tashqi, ichki, ijtimoiy va tabiiy, tashkiliy va o‘z-o‘zidan) shaxsiga ta’siri bilan bog‘liq. ‘‘Rivojlantirish’’ atamasini tushunish, qoida tariqasida, har qanday tashqi boshqaruv kuchlari ta’siri ostida sifat o‘zgarishlari sodir bo‘lgan obyektlarga tegishlidir. Ushbu tahlilga asoslanib, ‘‘kompetentlikni rivojlantirish’’ tushunchasi bizning tadqiqotimizda biz faol ta’limiy harakat sifatida qaraymiz, bu esa shaxsning kasbiy rivojlanishini tezlashtirishga, uning professional faoliyatga tayyor bo‘lishiga qaratilgan ta’lim mazmuni aniq maqsadga ega bo‘lishini ifodalaydi. Kompetentlik faqat faoliyat jarayonida rivojlanishi mumkin. Texnologik ta’lim yo‘nalishi mutaxassislarni samarali tashkil etilgan professional faoliyat va sifatli kasbiy tayyorlash talabalarning umumiy va kasbiy malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida shakllanadigan va bilim, ko‘nikma, munosabatlar, tajriba va shaxsning xulq-atvor modelini o‘z ichiga olgan shaxsning asosiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltiradigan vazifalar turlarini aniqlashga qaratilgan bir qator yo‘nalish va yondashuvlarni aniqladi. Tadqiqotchilar mutaxassisning kasbiy mahoratining professional ko‘rsatkichlari sifatida asosiy ko‘rsatkichlarini ta’kidlashadi. Bu insonning umumiy madaniyati darajasini belgilaydi, uning ma’lumotlari umumiy va o‘ziga xos kasbiy kompetensiya deganda “xabardorlik, har qanday sohadagi obro‘-e’tibor, tahliliy fikrlash qobiliyati va o‘z vazifalarini bajarishda kompleks yondoshish” tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyottlar:

1. Muslimov N.A., Urazova M.B. Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak o‘qituvchining malakasini shakllantirish uchun innovatsion pedagogik shartlar // ‘‘Ilmiy axborot berish’’ Toshkent pedagogika universiteti. – T., 2014. № 1. P.1519.

2. Muslimov N.A., Urazova M.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional malakasini shakllantirishning texnik vositasi sifatida veb-sayt vazifasi // Hayot davomida ta’lim: Barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta’lim: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti, 2014. P 127129.

3. Muslimov Sh.N. “Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish”. – T., 2020. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.

Sherzod PRIMOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
“Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi PhD

PEDAGOGIKA OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KOMMUNIKATIV O‘ZINI O‘ZI RIVOJLANTIRISHNING RAG‘BATLANTIRILISHI

Annotatsiya

Maqolada kelajakdagi o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari to‘g’risida g’oyalar keltirilgan. Pedagogik fanlarning mazmuni pedagogika universitetlari talabalarining kommunikativ kompetentsiyasining gumanistik asoslarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ kompetentsiya, kommunikativ ko‘nikmalar, kasbiy qiziqish motivatsiyasi, kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish.

В статье представлены представления о педагогических основах развития коммуникативной компетентности будущих учителей. Содержание педагогических предметов направлено на развитие гуманистических основ коммуникативной компетентности студентов педагогических вузов.

Ключевые слова. Коммуникативная компетентность, коммуникативные умения, мотивация профессионального интереса, развития коммуникативной компетентности.

The article presents ideas about the pedagogical foundations of the development of the communicative competence of future teachers. The content of pedagogical subjects is aimed at developing the humanistic foundations of the communicative competence of students of pedagogical universities.

Key words. Communicative competence, communicative skills, motivation of professional interest, development of communicative competence.

Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Texnikaviy va kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida”gi va “Ta’lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyalarida, “Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi Bitimida dunyo miqyosida o`qituvchilar maqomini oshirish, xalqaro malaka talablari asosida o`qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalariga katta e’tibor berilgan. Jahonda oliy ta’lim muassasalari o`qituvchilari hamda talaba-bo`lajak o‘qituvchilarni o`qitish sifatiga nisbatan teng sharoitlar yaratish, tajriba almashish va ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko‘maklashish, ta’lim jarayoniga innovasion pedagogik texnologiyalarni kiritishga e’tiborni qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlar yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo`lishi, ularning o‘z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish” oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish bo‘yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ o‘zini o‘zi rivojlantirishini o‘qituvchining kommunikativ kompetentligi tushunchasi mazmuni va tashkil etish shakllari, talabaning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bilan bir qatorda uning kommunikativ o‘-

zini o‘zi rivojlantirishga ko‘maklashadigan tarzda tanlab olinadi. Kun talabi darajasida qo‘yilgan vazifalarga javob bera oladigan, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitishning shakllari va metodlarini izlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur maqsadda o‘qitishning mavjud va faol foydalaniladigan shakllari va metodlari tahlil qilinadi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning shakllari bo‘lib an’anaviy ravishda ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar hisoblanadi. Ularning barchasi qator shubhasiz afzallik va kamchiliklarga ega. Masalan, zamonaviy ma’ruza katta miqdordagi axborot vazifalarni yechishga imkon beradi va bu bilan talaba bevosita pedagogik faoliyatda duch kelishiga to‘g‘ri keladigan muammolar doirasi va ish yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Ma’ruzaga munozara elementlarini kiritish talabaning passiv qabul qiluvchi va so‘ngra o‘quv axborotini mexanik ifodalovchi vaziyatini ma’ruza jarayonining faol ishtirokchisiga o‘zgartirishga imkon beradi (u o‘ylaydi, pedagogik dalillarni qiyoslaydi, xulosalar chiqaradi, ziddiyatlarni ko‘radi, taklif etilgan vaziyatdan chiqish yo‘llarini topadi, o‘rganilayotganga o‘zining munosabatini belgilaydi). O‘zining nuqtai nazarini sharhlash zarurati talabani faol mustaqil o‘qishga, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlarni izlashga undaydi. Ammo ma’ruzada talabalar sonining ko‘pligi barchaga ma’ruzaning faol ishtirokchisi bo‘lishlariga imkon bermaydi, amaliy ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga ko‘maklashmaydi.

Ma’ruza mashg‘ulotlarini qisqartirish va amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim OTMlarda yuzaga kelgan tendensiyalarni oqlash bo‘lib xizmat qilmasligi lozim. OTMda aynan ma’ruzada bo‘lajak o‘qituvchi o‘rganilayotgan masalaning butun ko‘lamini, uning kursning boshqa muammolari bilan o‘zaro aloqadorligini ko‘ra olishi, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasini his qilishi mumkin. Shuning uchun yangicha tashkil etilgan ma’ruza jarayoni talabaga kasbiy (jumladan, kommunikativ) shakllanishida yo‘nalishni ko‘rsatadi, unga o‘zining kasbiy o‘sishi yo‘llarini ko‘rish va uning usullari to‘g‘risida o‘ylashga imkon beradi, kasbiy va kommunikativ o‘zini o‘zi takomillashtirish ehtiyojini ishlab chiqishiga ko‘maklashadi.

Ma’ruza mashg‘ulotlari bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ o‘zini o‘zi rivojlantirishni rag‘batlantirishda ahamiyatli imkoniyatga ega bo‘ladi. Ammo kommunikativ kompetentlik bevosita pedagogi¬k faoliyatda namoyon bo‘ladi va u o‘qituvchining ma’lum kommunikativ ko‘nikma va malakalarining mavjudligini nazarda tutadi. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar, treninglarni o‘tkazish zarurati yuzaga keladi.

Bunda avvaldan belgilangan dasturli va unga qat’iy amal qiluvchi o‘qituvchi-robotni shakllantirish yoki bolalardan ko‘ra ko‘proq o‘zining tashqi ko‘rinishi to‘g‘risida qayg‘uradigan o‘qituvchi-artistni tarbiyalash to‘g‘risida gap bormaydi. Bunda gap bo‘lajak o‘qituvchiga o‘zining xususiyatlari bilan tanishish imkonini berish va bunga mos ravishda talabaga faqat unga xos bo‘lgan takrorlanmas verbal va noverbal kommunikatsiya uslubini qurishiga yordam berish to‘g‘risida boradi. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchi uchun OTMda o‘qish davri – bu aynan uning o‘z kommunikativ o‘zini o‘zi rivojlantirish bilan faol shug‘ullanishiga imkon beradigan va ko‘maklashadigan vaqt bo‘lib, u boshqa komponentlar bilan bir qatorda yosh pedagogning muvaffaqiyatli o‘zini o‘zi amalga oshirishini ham ko‘zda tutadi.

O‘qituvchiga, avvalo, bolalarga mehr-muhabbat, ularga insonparvarlik munosabati xos bo‘lishi kerakligi umumqabul qilingan. Ammo faqatgina bolaga mehr-muhabbatning o‘zigina bolalarning o‘quv materialini qabul qilishlarini qiyinlashtiruvchi, tabiatdan berilgan yoqimsiz ovozni o‘zgartira olmaydi; so‘zlarni va bo‘g‘inlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish yoki noadekvat imo-ishoralarni to‘g‘rilamaydi. Ehtimol, bo‘lajak o‘qituvchiga yu-

zaga kelgan holatni to‘g‘rilashga yordam bera oladigan, qator maxsus mashg‘ulotlar talab etilishi mumkin. Jumladan agar o‘zgartiriladigan hech nima bo‘lmaganida mazkur mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchining kelgusi o‘zini o‘zi takomillashtirishi uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur mashg‘ulotlar bilan bog‘liq boshqa masala talabaning motivatsiyasini rivojlantirishdan iborat. Kommunikativ o‘zini o‘zi takomillashtirish maqsadi aniq, ammo motivlar turlicha bo‘lishi mumkin. Insonparvar yo‘nalgan o‘qituvchi uchun kommunikativ o‘zini o‘zi takomillashtirish nafaqat o‘zi uchun o‘zini o‘zi yaxshilashda, balki samarali o‘zaro munosabatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida kechishi kerak bo‘lib, bu bolalarning rivojlanishiga, ularning individualliklari va o‘ziga xosliklarini saqlashga yordam beradi. Shuning uchun kommunikativ o‘zini o‘zi rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar katta ahamiyatga egadir.

O‘qituvchining kommunikativ kompetentligi bo‘yicha mashg‘ulotlar uchun ularning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda ularning ma’lum tuzilishi ishlab chiqildi va u kommunikativ kompetentlikning tuzilishiga asoslanadi. O‘quv mashg‘ulotini axborot, o‘zini o‘zi anglash va amaliy kabi uchta blokda qurish maqsadga muvofiq (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

O‘quv mashg‘ulotining axborot, o‘zini o‘zi anglash va amaliy bloklari

№	O‘quv mashg‘uloti bloklari	Bloklar mazmuni
1.	Axborot bloki	bayon etiladigan axborot fanlararo xususiyatga ega, chunki falsafa, pedagogika, psixologiya sohasidagi fundamental, metodologik tadqiqot ishlarisiz bugungi kunda insonlar o‘zaro aloqalarining mohiyatini, pedagogik faoliyatning insonparvarlik tabiatini, muloqot mexanizmlarini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mazkur blokda axborot uch ko‘rinishdagi bilimlarni kiritishi mumkin: konseptual, daliliy, amaliy-texnologik
2.	O‘zini o‘zi anglash bloki	bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda o‘zini o‘zi anglash muhim muammolardan biri hisoblanadi. Inson mavjudligining har bir onida uning ongi olamga va o‘z-o‘ziga, ichki dunyosiga yo‘naltiriladi. Ammo boshqalarni baholashdan ko‘ra o‘zini tushuna olish ko‘pincha qiyinroq bo‘ladi
3.	Amaliy blok	maxsus kurs bo‘yicha mashg‘ulotlarda kasbiy kommunikativ ko‘nikma va malakalar to‘liq darajada shakllana olmaydi va bunday bo‘lishi kerak ham emas. Bunda faqatgina bo‘lajak o‘qituvchining bevosita pedagogik faoliyatda ularni kelgusidagi egallashi uchun asos yaratiladi. Amaliy blok metodikasi amaliyotda ayrim talablarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Avvalo, bu talabaning ma’lum psixologik-hissiy holatini yaratish. Bu faqatgina o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar sharoitida erishilishi mumkin, ammo bunday munosabatlar bo‘lajak mutaxassisning rivojlanuvchi shaxsiga “muvaffaqiyatli” ta’sir etish maqsadida o‘rnatilmaydi, balki uning shaxsiy o‘sishi, uning o‘zini o‘zi rivojlantirishini rag‘batlantirishning shartlaridan biri sifatida o‘rnatiladi

Axborot bloki. Konseptual bilimlar talabalarning yetakchi pedagogik g‘oyalarni, insonparvarlikning mohiyati va tabiatini, muloqotning umumiy nazariyasini, insonparvarlik muloqot prinsiplarini bilishlarini ko‘zda tutadi. Daliliylarga talabaning o‘quvchilarning jinsi, yoshi va individual xususiyatlariga ko‘ra, muloqot xususiyatlarini bilishi, muloqot mexanizmlarini, muloqot to‘siqlarini bilishi va tushunishi, axloq qoidalarini bilishi kiritiladi. Amaliy-texnologik bilimlar idrok etish mexanizmlarini, refleksif tinglash qoidalarini, ratsional va hissiy o‘zaro aloqalar usullarini, munozara jarayonini, diqqatni jalb etib turish usullarini, o‘zini o‘zi boshqarish usullarini bilishni qamrab oladi.

Axborot blokini bunday qurish o‘rganish Pedagogika OTMlarining 3-kursning ikkinchi yarim yilligiga to‘g‘ri kelishi tufayli mumkin bo‘ladi va bu vaqtgacha psixologiya va pedagogika bo‘yicha asosiy kurslar o‘rganilgan bo‘ladi hamda egallangan bilimlarni to‘plash rolini ijro etadi. Bundan tashqari, talaba tomonidan avval egallangan bilimlar o‘z o‘rniga qo‘yib chiqiladigandek: pedagogika bo‘yicha bilimlar alohida, psixologiya bo‘yicha bilimlar alohida. Mazkur bilimlarni o‘zaro bog‘lashga, ularning bolalar bilan muloqotdagi o‘zaro aloqadorligini va pedagogik faoliyatdagi o‘zaro ta’sirini ko‘ra olish imkoniyatini beradi. Buning uchun axborot blokining asosiy maqsadi o‘rgatish, “bilimlarni taqdim” etish emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining ularning qadr-qimmatini, o‘qituvchining harakatlari va so‘zlari bilan bog‘lagan holda, o‘z harakatlari va so‘zlarining ma’nosini anglashiga, munosabatlarning uyg‘unlashishiga, muloqotning mazmunligigi va samimiyligiga, fikr, nuqtai nazarlarni almashish, o‘rganilayotgan hodisalarning ko‘p qirraliligini ochishga yordamlashish bo‘lishi lozim.

Bunda ichki dialog, shaxsiy o‘zini o‘zi aniqlash uchun asoslar yaratiladi va bu bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun sharoit hisoblanadi. Psixologlar tadqiqot ishlarida insonni qisqa muddat va yaqin aloqalardan ko‘ra uzoq vaqtdagi tanishida to‘g‘ri baholash qiyinroqdir. Inson esa aynan o‘z-o‘zi bilan eng ko‘proq tanish. Shuning uchun o‘zini o‘zi kuzatish, o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi baholash, o‘z-o‘ziga bahosini uzluksiz aniqlash va uning adekvatligi tomon borish zarur bo‘lib – bular o‘zini o‘zi bilish yuzaga keladigan va insonga o‘zini “yangidan” ochishga yordam beradigan jarayonlardir. O‘zini o‘zi bilishni rag‘batlantirish talabaning o‘zini o‘zi kommunikativ rivojlanishi asosi hisoblanadi. Shaxsiy xususiyatlarini bilish, o‘z harakatlarining tahlilisiz o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Shuning uchun o‘qituvchining kommunikativ kompetentligi tushunchasi bo‘yicha mashg‘ulotlarda o‘zini o‘zi bilishni rag‘batlashtirish uchun refleksiv xususiyatdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Chunki pedagogik refleksiya bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kommunikativ faoliyat subyekti sifatida o‘ziga munosabatini, o‘zini pedagogik faoliyatda oldindan tasavvur qila olishini belgilaydi. O‘zini ko‘ra olishni o‘zaro aloqaning boshqa ishtirokchilarini bahosi bilan taqqoslash qobiliyati talabaga u haqiqatan ham boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishini anglashiga yordam beradi, bu esa shubhasiz o‘zini o‘zi baholashni uzluksiz aniqlash va uning adekvat bo‘lishiga erishishga harakat qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, refleksiya egotsentrik fikrlash faoliyatini, ya’ni o‘rganilayotgan obyektni faqatgina bir standart idrok etiladigan tomonidan ko‘rib chiqish bartaraf etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ijodiy fikrlashni markazlashtirmaslikni talaba faqatgina, u o‘z nuqtai nazarini obyektiv va chetdan baholay olganida, boshqa insonning nuqtai nazarini qabul qilganda, o‘zining shaxsiy bir yoqlama ustanovkalarini yengga oladi. Turli testlarni o‘tkazish bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini o‘zi baholash asosida o‘zining shaxsiy kommunikativ xususiyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

O‘zini o‘zi anglash bloki. Mazkur blok talabalarda katta qiziqish uyg‘otadi va professional testlar bilan bir qatorda ixtiyoriy testlaridan foydalanishga to‘g‘ri kelsa-da, ammo bunda puxta tanlovda ular kommunikativ kompetentlikning alohida tashkil etuvchilarini aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi, talabaning o‘zi va boshqalar to‘g‘risidagi xolis axborotni taqdim etadi va nihoyat samarali o‘qitishning muhim tashkil etuvchilarini yaratish uchun – talabalarda zarur hissiy holat, kerakli motivatsiya va ularning shaxsiy va kasbiy o‘sishlarini rag‘batlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy blok. Mashg‘ulotlarning hissiy ko‘rinishi ijobiy tusga ega bo‘lishi, har bir

talabaning o‘ziga ishonchi va shaxsiy ahamiyatini ta’kidlashga ko‘maklashishi kerak. Bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchini kommunikativ o‘zini o‘zi takomillashtirish qiyinchiliklarini yengishiga ko‘maklashadi, bilish jarayonlariga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, talabaga o‘z qobiliyatlarini, ko‘nikma va malakalarini adekvat baholashiga imkon beradi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi va talabaning o‘zaro aloqalarini yengillashtiradi, talabaning hozirjavobligini kuchaytiradi va kommunikativ o‘zini o‘zi takomillashtirishni rag‘batlantiradi. Keyingi talab talabalarga amaliy blokda bajarish uchun taklif etiladigan mashqlarga taalluqlidir.

Mimika, imo-ishoralar, ovozdan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyatga egaligi, uning o‘zini o‘zi boshqarishini rivojlantirishga ko‘maklashishi ma’lum. Ammo bo‘lajak o‘qituvchining maxsus mashq qilishi to‘g‘risida emas, balki “o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘zini o‘zi uzluksiz takomillashtirishga qodir bo‘lgan, yuqori ma’naviy va axloqiy, pedagogik faoliyatning qadriyatli-ratsional munosabatiga yo‘nalgan malakali mutaxassisning shakllanishi” to‘g‘risida (L.N.Kulikova) gap borganida, bu verbal va noverbal xulqni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlarni tanlashga o‘zgacha yondashishga undaydi.

Mazkur mashqlar bo‘lajak o‘qituvchiga nafaqat o‘z tavsifi xususiyatlarini, balki uning fikrlash obrazlari, uning turli ijtimoiy qadriyatlarga munosabati (axloqiy, fuqarolik, badiiy), uning o‘quvchilar va boshqa insonlarga munosabati va albatta uni egallagan his-tuyg‘ularni ifodalashiga imkon beradigan kommunikativ ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam berishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchining verbal va noverbal muloqot malakalarini egallaganligi ekspressiyaning taqlidiy harakatlariga ko‘ra juda muhim hisoblanadi. Tushunish jarayoniga beixtiyor taqlidga asoslangan hamdardlik mexanizmi qo‘shiladi, buning natijasida oddiy tushunish emas, balki sodir bo‘layotganni alohida hissiy tushunish yuzaga keladi. O‘qituvchi yorqin, ishontiruvchi, hissiy boy ekspressiyani o‘quvchiga “yuqtiradi”, uni (hamdardlik orqali) rivojlanishning umumiy jarayoniga jalb etadi.

Amaliy blokning mashqlarini tanlashga bunday yondashuvda ular talabani o‘zini ifodalashiga, uning muloqot va xatti-harakatlar erkinligi qobiliyatini egallashiga xizmat qiladi. Ammo kommunikativ ko‘nikma va malakalarni samarali egallash faqatgina bo‘lajak o‘qituvchining yetarlicha keng ko‘lamli psixologik-pedagogik tayyorgarligi, chuqur nazariy bilimlari, refleksiv vaziyatini rivojlantirishdagina mumkin ekanligini ta’kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YuNESKO Xalqaro me’yoriy hujjatlari. //O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri L. Saidova. –T.: “Adolat”, 2004, – 19-62 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

3. Primov Sh.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. nom. (PhD) – T.., 2020. – 114-116 b.

4. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008. – 180 b.

5. Djurayev R.H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T., 2010. – 87 b.

6. Abdukadirov A.A. Innovative technologies in education. – T.: Talent, 2008. – 180 p.

7. Djurayev R.H. Interactive technologies in education. – T., 2010. – 87 p.

Ma’rufjon BARATOV,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada dual tizimida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi, kasb-ta’limining mazmuni, oliy ta’lim va ishlab chiqarish uzviyligida kasbiy ta’limni dual tizimini amalga oshirishning didaktik shartlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Didaktika, dual ta’lim, integratsiya, kasbga tayyorlash, diagnostika qilish, muhandis-pedagog.

В статье рассматриваются методика подготовки специалистов к профессиональной деятельности в системе “дуал”, содержание их профессионального обучения, дидактические условия реализации системы “дуал” профессионального образования в непрерывности высшего образования и производства.

Ключевые слова. Дидактика, двойное обучение, интеграция, профессиональная подготовка, диагностика, инженер-педагог.

The article will talk about the methodology for preparing specialists for professional activities in the dual system, the content of vocational education, didactic conditions for the implementation of the dual system of professional education in the continuity of higher education and production.

Key words. Didactics, dual education, integration, professional training, diagnostics, engineer-educator.

Kasbiy ta’limining dual tizimi oliy ta’lim muassasasida konseptual-nazariy va didaktik asoslarga muvofiq muhandis-pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligining tarkibi va mazmunini ishlab chiqishni amaliy tashkil etish bilan bog‘liq. Shu bilan birga, bugungi kunda ushbu ta’lim sohasining holatini tavsiflovchi muammolarni hisobga olish lozim.

Ayniqsa, bu kabi muammolar sohada tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan kasbiy ta’limning uzluksiz tizimini shakllantirish, ushbu turdagi kasb-hunar ta’limining o‘ziga xosligi ikki xil ta’limni integratsiyalashgan holda olib borilishidir.

Qo‘shimcha kasbiy ta’limning mazmunini aniqlashda muhandislik xodimlarini, ularning professional rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan bir nechta:

– bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari va ularni tayyorlashga qo‘yiladigan asosiy talablar, kasbiy tayyorlash sifati va samaradorligini diagnostika qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish;

– hozirgi vaqtda jamiyatning kasb ta’limi o‘qituvchisiga talablarning tobora ortib borayotganligi kasb ta’lim jarayonida pedagogik va texnik bilimlarni integrativ (kompleks) qo‘llash;

– oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida kasb ta’limi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning dual tizimini qurishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va asoslash;

– oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarishda kasbiy ta’limning dual tizimini konseptual modelini yaratish, oliy ta’lim va ishlab chiqarish uzviyligida kasbiy ta’limni dual tizimini amalga oshirishning didaktik shartlarini aniqlash;

– kasbiy-pedagogik tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integrativ ta’lim va uning natijasini diagnostika qilish metodini joriy etish algorimi mazkur ziddiyatlarni hal etishning muhim omili sifatida qaralmaganligi kabi muammolarni yo‘q qilish zarurligini hisobga olish kerakligini ta’kidlaydi.

Uslubiy muammo bir qator tinglovchilarning qanday qilib mavzularni tizimlashtirishni, boshqalarning ish tajribasini tahlil qilishni, ularni amalga oshirishni hamda amalda qo‘llay olishni bilmasligi bilan ifodalanadi. Bunday holda, muallifga ma’lum bir shaxsga xos bo‘lgan ilmiy bilish usulini hisobga olish tavsiya etiladi. Ushbu muammolarni xal etib borish uchun u ish tajribasida ilmiy bilish uslublarini, tizimlashtirishni, tasniflash usullarini, dolzarbligini, yangiligini va amaliy ahamiyatini aniqlashni o‘rganishi hamda faol ta’lim uslublaridan foydalanishi lozim.

Akmeologik muammo – bu baholash tushunchasining noaniqligi, olingan ma’lumotlarning amaliy qo‘llanilishi, ya’ni kasbiy va umummadaniy rivojlanishdagi o‘rni. Ushbu muammoni bartaraf etish ta’lim faoliyatini rag‘batlantirishning shakllanishi bilan bog‘liq. Buning uchun nazariy yondashuvlarni amaliyotga qo‘llash, guruhlarda mustaqil ishni aniq rejalashtirishni tashkil etish tavsiya etiladi.

Shuning uchun, qo‘shimcha kasbning mazmunini aniqlashda faqat ta’limda mavjud muammoni hal qilish uchun emas, balki ehtiyoj bor muhandislik va pedagog xodimlarning psixologik va pedagogik qobiliyatlarini, shuningdek, ularning doimo o‘zgaruvchan kasbiy kompetentligi uchun quyidagi bir qator qo‘shimcha talablarni hisobga olish zarur:

– ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish bo‘yicha boshlang‘ich kasb-hunar ta’lim tizimining umumiy talablari;

– mehnat bozori talablari;

– kasb-hunarga o‘qitishning davlat standartlari, o‘quv rejalari va dasturlarining talablari;

– ishlab chiqarish sohasi talablari;

– ilmiy va texnologik taraqqiyot yo‘nalishlari, ishlab chiqarish vositalari va texnologik jarayonlar.

Nemis tadqiqotchisi M.Stenzel kasb-hunar maktabi o‘qituvchilarida dual ta’lim berishda paydo bo‘ladigan kasbiy malaka oshirish tizimining asosiy qiyinchiliklarni aniqladi. Ular 4 guruhga bo‘linishi mumkin:

1. Kognitiv (bilim) olingan ma’lumotni saqlash ko‘nikmalarining pastligi.

2. Instrumental qiyinchiliklar aqliy mehnat qobiliyatlari va uslubiy qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida rejalashtirishdagi qiyinchiliklar.


3. Mustaqil o‘qish uchun zarur bo‘lgan vaqtni taqsimlash, kerakli ma’lumotlarni mustaqil ravishda topa olmaslik, diqqatni jamlash, sinfda aniq ko‘rish, tinglash va yozish, imtihonlarni topshirishdagi qiyinchiliklar.

4. Ta’sirchan (hissiy) qiyinchiliklar o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni saqlab qolish, izchil ishni davom ettirishga qodir emaslik.

Ushbu qiyinchiliklarning paydo bo‘lishiga olib keladigan sabablar orasida ob’ektiv ta’lim muassasasi tizimida ta’limning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq: o‘quv materiallarining juda ko‘p konsentratsiyasiga nisbatan kichik vaqt oralig‘i, o‘qishdan chetlatilgan katta yoshdagilarning ta’lim olish imkoniyatlariga zid keladi, ko‘pincha bu holat

ta’lim faoliyati uchun yetarli emas.

Dual ta’limida tizimli yondashuvidan foydalanish nafaqat turli bosqichlarni tushunish imkonini beradi, balki tayyorgarlik ehtiyojlarini aniqlashdan dastur bajarilishini baholashga qadar, mashg‘ulotlarni boshqarish va amalga oshirishda ushbu bosqichlarning o‘zaro bog‘liqligini tasavvur qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvga muvofiq qurilgan tayyorgarlik siklining tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Dual ta’lim tayyorlov siklining tuzilishi

Tayyorgarlik davrining bosqichlari 2-rasmda sxematik ko‘rinishda misol qilib keltiradi. O‘quv jarayoni ushbu bosqichlarning tarkibini chuqurroq tushunish uchun uning tarkibiy qismlarga bo‘lindi. Shuni ta’kidlash kerakki, mashg‘ulotlar bu tayyorgarlik davrining bosqichlaridan biri emas, balki, tayyorgarlikni amalga oshirishdir. Bundan tashqari, baholashning aniqlangan tayyorgarlik ehtiyojlari va ishlab chiqilgan dasturni amalga oshirish natijalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash, shuningdek, alohida tinglovchilarning ishini va umuman tashkilotni takomillashtirishda namoyon bo‘lishiga e’tibor berish muhimdir.

Bu borada asosiy ish beruvchi va nazariya va amaliyotni to‘g‘ri tashkil etilishini nazoratga olib borishda asosiy o‘rin tutadigan tarkibni shakllantirishga qaratish lozim. Ular kimlar: oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari, kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ustalari va ishlab chiqarish xodimlaridan iborat qilib belgilanadi.

Keyingi bosqichda esa, tayyorlov usullarini to‘g‘ri tanlab olish zarur. Bunda aynan dual ta’lim tizimida yaqqol sharoit, muhit, jarayon va omillarga xos bo‘lgan usullarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Bular ta’lim va ishlab chiqarish jarayonida kasb ta’limi mutaxassislarining yaratuvchanlik, boshqaruvchanlik, taqiqotchilik, konstruktorlik, pedagogik kabi bilim, malaka, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishda kasb ta’limi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi (“Self-development”, “Natural-reflexive”, “Vitagen”) ta’lim texnologiyalaridan iborat. Bu usullar va texnologiyalar asosida kasb ta’limi mutaxassislarini dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy-muhandislik (Visual C++ da dasturlash) hamda ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, vizuallashtirishda (Visualization and avtomatization) loyihaviy-konstruktorlik, tadqiqotchilik kasbiy kompetensiyalarini shakllantiriladi.

Natijada oliy ta’limning kasb ta’limi yo‘nalishlari bitiruvchilari hamda ishlab chiqarish xodimlarini kasbiy mahorat darajalarini tashxislashning analitik, loyihalash, konstruktorlik va prognostik komponentlari funksiyalarini integrativ muvofiqlashtirish asosida

kasbiy faoliyatga tayyorlash konsepsiyasi mazmunan takomillashtirilganligi baholanib boriladi.

Dual tizimning xususiyatlaridan biri shundaki, universal va mustaqil sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim usullarining ahamiyatini oshiradi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan dual tizimi muhandis-pedagogik kasbiy ta’limida professor-o‘qituvchilar va talabalar amalda qo‘llaydigan metodik aloqa muhim didaktik sharti bo‘lib qoladi va shuning uchun alohida e’tibor talab etiladi.

Xulosa o‘rnida kasbiy faoliyat sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlovchi ta’lim va ishlab chiqarishda kasb ta’limi mutaxassislarini dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, kasbiy tayergarlik bosqichlari, kasbiy tayorgarlikning sifat ko‘rsatgichlari, kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning baholash mezonlari, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari va natijalarni metodologik yondashuvlar (motivatsion, kognitiv, refleksiv) asosida dual tizimida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности / С.Д. Смирнов. – М.: Издательский центр ‘‘Академия’’, 2001. – С. 304.

2. Blum A. The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Education 1981, vol.3, - p. 1-15.

3. Чориев Р.К. Интеграция теоретических и практических знаний как средство совершенствования профессиональной подготовки будущих инженеров-педагогов. // Замонавий таълим, 2020 й. № 3 (88) 38-46 б.

4. Choriyev Ruzimurot Kungratovich, Ismailova Zuxra Karabayevna. Peculiarities of professional self-development of a future teacher in the context of personalityoriented pedagogy. // journal of research and reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852.505-508 pages.

5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. .. ped. f. d. – T., 2007. – 315 b.

6. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nomz. – T., 2000. – 186 b.

A.X. TILLAYEV,
“TIQXMMI” MTU “International House – Toshkent” akademik litseyi direktori,
Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (universitet) Rossiya TIV aspiranti

TALABALARNING KASBIY VA SHAXSIY RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarning o‘quv jarayoniga moslashish davrida universitet o‘quv muhitida kasbiy va shaxsiy rivojlanishini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni, shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini amalga oshirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, universitetning ta’lim muhitiga talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining omili va manbai sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish, universitet, moslashish, ta’lim muhiti, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv.

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты управления профессиональным и личностным развитием студентов в университетской учебной среде в период адаптации к учебному процессу. Профессионально-личностное развитие учащихся рассматривается с точки зрения реализации компетентностного подхода, а также личностно-ориентированных образовательных технологий. При этом образовательная среда вуза рассматривается как фактор и источник профессионального и личностного развития студентов.

Ключевые слова. Профессиональное и личностное развитие, вуз, адаптация, образовательная среда, компетентностный подход.

The article deals with the theoretical and applied aspects of managing the professional and personal development of students in the university educational environment in the process of their adaptation to the educational process. Professional and personal development of students is considered in the context of the implementation of the competence-based approach, as well as personality-oriented educational technologies. At the same time, the educational environment of the university is considered as a factor and resource for the professional and personal development of students.

Key words. Professional and personal development, university, adaptation, educational environment, competence approach.

Talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish muhim psixologik va pedagogik vazifa bo‘lib, ularning yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muvaffaqiyati ularni hal qilish muvaffaqiyatiga bog‘liq. Universitetda o‘qigan yillari davomida talabalarni muhitga moslashtirish jarayonini boshqarish, ularning kasbiy muammolarining butun majmuasini hal qilishga tayyorlik darajasini shakllantirish uchun zarur tashkiliy va mazmunli asos yaratadi, yuqori darajadagi kasbiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, universitetga kirgan va kasb asoslarini o‘zlashtirishga undalgan talaba shaxsiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik tartibning qiyinchiliklari va muammolariga duch keladi. Shu munosabat bilan, barcha birinchi kurs talabalari universitetda o‘qishdagi barcha qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengish uchun shunchalik kuchli va professional motivatsiyaga ega emaslar. So‘nggi yillarda hayotning turli sohalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda, yoshlar o‘zlarining kasbiy

tanlovlaridan xabardorligi, ularning bilim darajasi, o‘quv jarayonida amalga oshiradigan shaxsiy sa’y-harakatlari ularning tanlagan kasbidagi muvaffaqiyatiga bog‘liqligini tushunishlari juda muhimdir.

Talabalarni universitetda o‘qish sharoitlariga moslashtirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunish, universitet o‘quv muhiti talabalarining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi mexanizmlarini o‘rganish uchun ularning kasbiy yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashish jarayoniga e’tibor qaratish lozim.

Hozirgi vaqtda “moslashish” tushunchasi fanlararo kontekstda qo‘llaniladi va quyi tizimlarning o‘zaro ta’sirida muvozanatni o‘rnatish jarayonini tavsiflaydi va tizimda funksional o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan jarayonni belgilash uchun ishlatiladi, bu uning qobiliyatini uzoq vaqt davomida saqlab turishga imkon beradi.

Muddatli rivojlanish. Ushbu nuqtayi nazar shaxsning shaxsiy rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan va u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan kasbiy rivojlanish jarayoni bilan to‘liq bog‘liqdir.

Shaxsning rivojlanishidagi kasbiy va shaxsiy munosabatlar masalalari muhim uslubiy kontekstga ega bo‘ladi. Shunday qilib, bir nechta turli xil fikrlar mavjud. Ulardan biriga ko‘ra, shaxsiy prinsipni rivojlantirishning kasbiy prinsipga nisbatan ustuvorligini ko‘rib chiqish kerak, ya’ni kasbiy rivojlanishning bosh asosi shaxsiy o‘zgarishlar hisoblanadi. Bunday holda, shaxsning shaxsiy va professional shakllanishi haqida gapirish kerak. Yana bir nuqtayi nazar – bu kasbiy o‘zgarishlar har bir shaxsning shaxsiy o‘zgarishiga bevosita ta’sir qilishini tushunish, bu esa kasbiy va shaxsiy rivojlanishning muhimligini ta’kidlash uchun asos bo‘ladi. Biz zamonaviy universitetning ta’lim muhitida talabalarning kasbiy va shaxsiy shakllanishi jarayonini o‘rganishda ham ushbu nuqtayi nazarga egamiz. Talabalarning zarur vakolatlarini shakllantirishni tashxislash orqali biz ularning shaxsiy o‘zgarishlarini, tanlangan professional sohaga qiymat-semantik munosabatni shakllantirishni, tanlangan professional makonda amalga oshirish istagini kuzatamiz.

Talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi jarayoni bo‘yicha bir qator tadqiqotlarda asosiy o‘rinni ijtimoiy moslashuv egallaydi. Buni har bir inson ma’lum bir mustaqillik darajasi, jamiyatda ma’lum bir bosqichni egallash istagi (o‘quv yoki professional jamoa, oila va boshqalar), aloqa, boshqa odamlar bilan aloqa qilish zarurati bilan izohlashi mumkin. Pedagogik lug‘atda quyidagi ta’rif berilgan: “ijtimoiy moslashuv bu – insonning jamiyatga integratsiyalashuvi jarayoni, buning natijasida o‘z-o‘zini anglash va rolli xatti-harakatlarning shakllanishiga, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘ziga xizmat qilish qobiliyatiga, boshqalar bilan yetarli aloqalarga erishiladi”.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, shaxsning moslashuvi ongli ravishda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmiga, shu jumladan, kasbiy faoliyat asoslarini o‘zlashtirish sohasiga xosdir. Shaxsning o‘ziga xos fazilatlari turli sohalarda yuzaga keladigan to‘siqlarni yengib o‘tishda shakllanadi va xulq-atvor xususiyatlarini belgilaydi.

Universitetda barcha umumiy ta’lim vazifalari professional yo‘nalishga ega. Trening quyidagi prinsipga asoslanadi: talabalar fan materialini o‘rganishga qiziqishadi va faol munosabatda bo‘lishadi. Universitet ta’limining o‘ziga xos xususiyati shundaki, talaba kerakli materialni “izlashi” kerak, uning davomida ma’lum o‘quv masalalariga o‘z nuqtayi nazari, mustaqillik shakllanadi. Talabaning faoliyati xilma-xil, ammo unda professional o‘zini o‘zi o‘qitish muhim rol o‘ynaydi. Kasbiy faoliyatga qo‘shilishning muhim sharti bu – o‘z faoliyatiga qiziqish, bu talabalarning ehtiyoj-motivatsion sohasiga ta’sir ko‘rsatadigan sharoitlar, ularning shaxsiy tuzilmalarini rivojlantirish orqali osonlashadi.

Talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining eng muhim manbalaridan biri ularning universitet o‘quv jarayoniga moslashishidir. Biz didaktik moslashuv haqida gapiramiz. N.V. Solovyovaga ko‘ra, “Didaktik moslashuv bu – talabani universitet sharoitlari bilan tanishtirishning murakkab dinamik jarayoni, natijada u yangi ta’lim shakllarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan, olingan ma’lumotlarning katta miqdori, yangi faoliyat subyektiga aylanadi, yanada intensiv aqliy mehnat sharoitida o‘z funksiyalarini maqbul bajarish qobiliyatiga ega bo‘ladi”. Ya’ni, didaktik moslashuv talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining muhim manbai, vakolatli shaxsni shakllantirishning zarur elementi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv muammolari talabalar ta’limni tashkil etish shaklining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Muvaffaqiyatli didaktik moslashish uchun birinchi kurs talabasi o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha ma’lum bilim va ko‘nikmalarga, moslashuvchan fikrlashga, kognitiv mustaqillikning yaxshi rivojlangan darajasiga, turli manbalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatiga, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashga, ravon o‘qishga, yozuvlarni yozishga va boshqalarga ega bo‘lishi kerak. Shunday qilib, talabalarning universitet ta’limiga moslashuvining o‘zaro ta’sir qiluvchi va o‘zaro bog‘liq jihatlarini – psixologik, pedagogik, shuningdek, o‘quv va kasbiy qulayliklarni hisobga olish lozim, Baydak V.Yu. “talabalarni universitetda o‘qishga moslashtirish ularning maktabdagi o‘quv faoliyatini shakllantirish darajasiga bog‘liq va bu o‘quvchining o‘quv faoliyatidan o‘quv faoliyatiga o‘tish jarayoni ekanini aniqlagan.

Shunday qilib, psixologik va pedagogik kontekstda “moslashish” tushunchasining rivojlanishini talabalarning universitet ta’limining o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan tahlil qilib, biz ushbu muammo yanada kengroq va fanlararo bog‘liq ekanligini aniqladik. Pedagogika kasbiy pozitsiyalardan moslashishni kasbiy yo‘naltirish tizimining tarkibiy qismi va kasbiy barqarorlikni shakllantirishning zarur elementi sifatida ko‘rib chiqadi. Moslashuvning butun jarayoniga o‘qishga psixologik tayyorlik, universitet ta’lim muhitidagi psixologik qulaylik, kasbiy rivojlanish makoniga “sho‘ng‘ish” uchun shaxsiy intilish kabi sharoitlar katta ta’sir ko‘rsatadi. Barcha tarkibiy qismlar zamonaviy universitetning ta’lim muhitida talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александровский Ю.А. Состояния психической дезадаптации и их компенсация / Ю.А. Александровский. – М.: Медицина, 1976. – С. 218.

2. Андреева Г.М. Социальная психология. Учеб. для вузов. – М.: Изд-во

‘‘Аспект Пресс’’, 2000. – С. 286. Асадулина И.Г. Педагогический класс: поиски, проблемы, перспективы / И.Г. Асадулина, В.М. Басова, Н.В. Волк // Педагогика. – 1994. – № 6. – С. 55-58.

3. Атутов П.Р. Профессиональная ориентация как педагогическая проблема / П.Р. Атутов // Педагогические основы профориентации учащейся молодежи. – М., 1992. – С. 10-11.

4. Байдак В.Ю. Содержание и методика адаптационной подготовки студентов-курсантов математических специальностей вузов: дис. …канд. пед. наук / В.Ю. Байдак. – Орел: Изд-во Орловского гос. ун-та, 2000. – С. 204.

B.A. OLIMOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti
f.m.f.n v.v. professor

FIZIKANI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISHDA O'QUVCHILARNING HAYOTIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumo'rta ta'lim tizimida fizika fani bo'yicha ta'lim uzviyligini ta'minlagan holda raqamli texnologiyalarni (RT) qo'llash, ularning imkoniyatlaridan o'quv jarayonida foydalanish va yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Nazariy bilimlarini amaliyot bilan boglash orqali o'quvchilarni hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Fizika, nazariya, amaliyot, ko'nikma, umumo'rta ta'lim, o'quv jarayoni, raqamli texnologiya, tahlil, imkoniyat, joriy etish.

В данной статье определены приоритетные направления применения цифровых технологий (ЦТ), использования их возможностей в образовательном процессе и дальнейшего развития, обеспечивающие непрерывность обучения физике во всей образовательной системе. Были рассмотрены вопросы формирования жизненно важных навыков студентов путем увязки их теоретических знаний с практикой.

Ключевые слова. Физика, теория, практика, навыки, общее образование, образовательный процесс, цифровые технологии, анализ, возможность, внедрение.

This article identifies priority areas for the use of digital technologies (CT), the use of their capabilities in the educational process and further development, ensuring the continuity of teaching physics throughout the educational system. The issues of formation of vital skills of students by linking their theoretical knowledge with practice were considered.

Key words. Physics, theory, practice, skills, general education, educational process, digital technologies, analysis, opportunity, implementation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-5032-sonli Qaroriga muvofiq, Respublikamizda ta'lim tizimini texnika – texnologiya o'zgarishini e'tiborga olgan holda yangi bosqichga o'zgartirish, raqamli texnologiyalar (RT)ni ishlab chiqish va o'quv jarayonida qo'llash, fanlarning metodik ta'minotini takomillashtirish, fizika fanini o'qitishda nazariya bilan amaliyotni bog'lash orqali o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, darslarda animatsion, audio-vizual vositalarni hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Fizika eksperimental fan. Fizikadagi laboratoriya va namoyish tajribalar o'tkazish ko'nikmalari egallanadi, olingan eksperimental ma'lumotlardan xulosa chiqarishni va nazariy materialni amaliyotga joriy qilib to'liqroq o'zlashtirishni o'rganish mumkin bo'ladi. Laboratoriya va namoyish tajriba davomida o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o'tkazilgan tajriba davomida ular fizik hodisalarning qonuniyatlarini o'rganadilar, ularni tadqiq qilish usullari bilan tanishadilar, fizik qurilmalar bilan ishlashni o'rganadi-

lar. Iloji bo‘lsa, o‘quvchilar bilan laboratoriya va amaliy ishlarni bajarishga harakat qilinadi, o‘quvchilar qurilmalar bilan ishlash kobiliyatiga ega bo‘ladilar. Ammo laboratoriya va namoyish tajribalarni bajarish uchun kerak bo‘lgan asbob-uskunalar va namunalar yetishmasligi tufayli barcha rejalashtirilgan laboratoriya ishlarini bajarish imkoni bo‘lmaydi. Bu vaziyatdan chiqishlikning yagona yo‘li RTdan foydalanishdir.

Albatta, raqamli texnologiyalardan foydalanib laboratoriya va namoyish tajribalarini bajarish, laboratoriya ishlarni ko‘z bilan kurib qo‘l bilan bajarishni o‘rnini bosa olmaydi, lekin u o‘quv jarayonida katta yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kiritilishi quyidagi imkoniyatlarini beradi:

– ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondoshiladi va tizimliligini kengaytiradi;

– ta’limda o‘quvchilarga beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmamalariga ega bo‘lish imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi;

– atrof-muhitni o‘rganishda katta hajmli jarayonlar bilan ishlash tasavvurlarimizni shakllantiradi;

– tabiat hodisalarini tabiat qonunlari bilan boshqarilishini tushuntirishni ta’minlaydi;

– tabiat qonunlari asosida esa simmetriya tamoyillari yotadi degan mantiqiy ketma-ketlik doimo o‘rinligigi asoslanadi;

– ta’lim tizimining raqamli texnologiya makoniga moslashishi va axborot madaniyatini shakllantirishga zamin yaratadi;

– ta’lim jarayonini diagnostika kilish aniqligini oshiradi va yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi;

Shuni ta’kidlash lozimki, umumo‘rta ta’lim jarayonini raqamlashtirishning afzal tomonlari bilan bir qancha kamchilikdan ham mavjuddir. Ulardan eng muhimi quyidagilar xisoblanadi:

-ta’lim tizimini qisqa vaqt oraligida o‘zgarib turishi (uzviylik va uzluksizlikni ta’minlanmaqanligi);

– DTSti va o‘quv rejalarni qisqa vaqt oralig‘ida tez-tez o‘zgarishi;

– o‘quvchilarning bilim ko‘rsatkich (yozish, hisob, o‘qish, mantiq) sifatlarini pasayganligi;

– o‘quvchilarni mutaxassislik fanlarga qiziqishini kamayishi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganligi;

– o‘quvchilarni dars jarayonida jonli mulokot shaklida namoyon kilish xislatlarining yo‘q bo‘lib borishi.

Quyida RTdan laboratoriya va ko‘rgazma tajribalaridan foydalanib laboratoriya ishni bajarish misol tariqasida keltirilgan:

– fizika fanidan laboratoriya ishlarini, ko‘rgazma va tajribalarni Adobe Flash va 3 DS MAX dasturlari orqali bajarish;

– yangi mavzu materiallarini Power Pointda taqdimot ko‘rinishida tayyorlab multimedia proektori yordamida ekranga tushiriladigan interaktiv illyustratsiya;

– tinglovchilarga dars davomida MS Excel dasturi yordamida fizik bog‘lanishlar grafik diagrammalarini chizish;


– tinglovchilar tomonidan darsda kompyuter texnologiyalari yordamida (MS Power Point, MS Excel va boshqa) o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganish jarayonida.

Umumta’lim maktablarida fizika fanining molekulyar fizika bo‘limiga doir laboratoriya va namoyish bajarishda quyidagi tajriba qurilmalari berilgan. Bu qurilma yordamida bir vaqtning o‘zida uch jarayon (izotermik, izobarik va izoxorik) laboratoriya ishlarini va shunga o‘xshash tajribalarini amaliyotda bajarish imkoniyatiga ega.

Izotermik jarayonlarni amaliyotda bajarish uchun kerakli fizik asbob- uskunalar, ishdan maqsad va ishning bajarilish tartibi, xuddi shuningdek tajribadan olingan natijalardan foydalanib ikkinchi usul, multimediali axborot texnologiyalar (Adobe Flash, 3DS MAX, Borland Delphi7 yoki PHOTOSHOP) dasturlari asosida ham grafiklarni chizib ko‘rsatish mumkin.

Izo jarayonlar. Izotermik jarayonni (T=const bo‘lganda pV=const) tajribada o‘rganib RT orqali dasturlarini tuzib kerakli ma’lumotlar olinib grafiklar chizish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Kerakli asbob va uskunalar: ‘‘Fizika” kabineti o‘guv jihozlar majmuasi bo‘limidan taglik, plastik stakan, metal fiksator, hajmi 1,5 mlli shpris, qisgich, manometr, troynik, termometr.



Ishdan maqsad: ma’lum massali gazning temperaturasi o‘zgarmagan holda bosim bilan hajm ko‘paytmasi o‘zgarmasligini tajribada tekshirish.

Ishning bajarilish tartibi:

– taglikni stol ustiga qo‘ying;

– plastik idishni (1) taqlik ustiga o‘rnating;

– hajmi 150mlli shprisni (2) plastic idish ichiga o‘rnating;

– monometrni (4) troynik (5) orqali plastik idishga ulang.

– shprisning old tomonida ko‘rsatilgan yozuvlardan foydalanib uning hajmini kamaytiring;

– idish ichidagi qazning bosimi o‘zgarishini monometr yordamida kuzating;

– tajribani bir necha marta takrorlang.

Endi yuqorida berilgan labarotoriya ishini Borland Delphi7 dasturlash tilidan foydalanib bajaramiz. Bu quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Dastur tasnifi:

Dastur Delfi7 dasturlash muhitida yaratildi. Jadvalda hajm va bosimlarning qiymatlri hisoblangan. Rasmda T=const, ya’ni 1 ga teng, Hajm 5 мм3 dan 20 мм3 gacha o‘zgargan va bosim o‘zgarishi keltirilgan. V,P lar yordamida grafik chizilgan.

Dastur kodi quyidagicha:

– Procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);

– Var i,j:integer; o‘zgaruvchilarni e’lon qilish;

– Begin (dastur boshlanishi);


– Series1.Clear (grafikni tozalash);

– J:=0; (qadamni xosil qilish);

– StringGrid1.RowCount:=strtoint(Edit2.Text)+1; (jadvalning maksimal qatori soni);

– For i:=StrToInt(Edit1.Text) to StrToInt(Edit2.Text) do (sikl boshlanishi);

– Begin inc(j) (qadamni bittaga oshirish);



– StringGrid1.Cells[0,j]:= inttostr(j); (jadvalning 1-ustini qiymati);

– StringGrid1.Cells[1,j]:= inttostr(j); (jadvalning 2-ustini qiymati ya’ni V);

– StringGrid1.Cells[2,j]:= floattostr(strtoint(edit3.Text)/i); (jadvalning 3-ustini qiymati, ya’ni P);

– series1.AddXY(j,(strtoint(edit3.Text)/i) ,’’,clTeeColor); (qiymatlar asosida grafikni xosil qilish);

– end; end; (sikl tugashi).

Ta’limga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish hamda olingan natijalar tahlili asosida raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘z navbatida laboratoriya va namoyish tajribalarini bajarishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi uchun o‘ziga xos bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son. “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chlora-tadbirlari” to‘g‘risidagi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son. “O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” to‘g‘risidagi Farmoni. https://lex.uz/docs/4312785.

3. Кузнесов А.А., Зенкина С.В. Учебник в составе новой информационно-коммуникационной образовательной среды //Информатика и образование. - 2009. - № 6. – С. 71-79.

4. Боровский А. Програмирование в Delphi 2005 г.

5. Olimov B.A. “Ta’limda raqamli texnologiyalar”, “Raqamli pedagogika: Holati va rivojlanish istiqbollari” mavzuda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 10-may 2022-yil. – T.: TDPU.

6. Касперская Н.И. Цифровая экономика и риски цифровой колонизации: Информационный портал семейной политики. - URL: https:// ivan4. ru/news/traditsionnye_semeynye_tsennosti/(дата обращения: 20.12.2019).

Ra’no BOLTAYEVA,
.....

KIMYO FANINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHNING SAMARALI OMILLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Individual yondashuv asosida kimyo fanini o‘qitishda talabaning individual yo‘nalishi aniq didaktik maqsadlarga erishish uchun mo‘ljallangan alohida didaktik modullar ketma-ketligi sifatida ishlab chiqilishi kerak. Maqolada ilmiy ishlar tahlili asosida kimyo fanini individual yondashuv asosida o‘qitishning samarali omillari va tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ilmiylik, samaradorlik, texnologiklik, instrumentallik, tizim, insonparvarlik, qo‘llanma, vosita, obyekt.

При преподавании химии на основе индивидуального подхода индивидуальная направленность ученика должна разрабатываться как последовательность отдельных дидактических модулей, предназначенных для достижения конкретных дидактических целей. В статье освещены эффективные факторы и принципы преподавания химии на основе индивидуального подхода на основе анализа научных работ.

Ключевые слова. Научность, эффективность, технологичность, инструментальность, система, гуманность, руководство, средство, объект.

In teaching chemistry on the basis of an Individual approach, the individual orientation of the student should be developed as a sequence of separate didactic modules designed to achieve specific didactic goals. The article highlights the effective factors and principles of teaching chemistry on the basis of an individual approach based on the analysis of scientific works.

Key words. Science, efficiency, technicality, instrumentality, system, humanity, application, tool, object.

Bugungi kunda kimyo fanini o‘qitishda iqtisod, huquq, innovatsion menejment bo‘yicha bilimlarni egallash, kompyuter, ekologik “savodxonlikka” ega bo‘lish zarurati tug‘ilmoqda, bu esa mehnat bozorida kompetentli mutaxassis tayyorlash muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Biroq, ko‘plab mualliflar ta’kidlaganidek, kimyo yo‘nalishida talabalarni sifatli tayyorlash murakkablashgan.

Ta’lim vositalariga darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, maketlar, bannerlar, videoroliklar, multimedia, didaktik tarqatma materiallar kiradi. Kimyo fanidan ta’lim vositalari turli asoslarga ko‘ra tasniflanadi. A.A. Grabetskiy, L.S. Zaznobina va boshqalarning asarlarida bir qator belgilarga ko‘ra tasniflangan. Demak, axborotning moddiy tashuvchisi asosida bosma, hajmli, tabiiy, ekranli va boshqalar ajratiladi. O‘quv maqsadlari nuqtai nazaridan ular motivatsion, bilish, umumlashtiruvchilarga bo‘linadi, ta’lim vositalarini - ijodiy ish manbalari sifatida ajratiladi.

Ilmiy ishlar tahlili asosida kimyo fanini individual yondashuv asosida o‘qitishning quyidagi tamoyillarini ko‘rsatish mumkin: ilmiylik tamoyili, samaradorlik tamoyili, texnologiklik tamoyili, instrumentallik tamoyili, metodik tizimni insonparvarlashtirish tamoyili. Ushbu tamoyillarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. Ilmiylik tamoyili bunday tizimning ishlash mexanizmlarini ta’minlovchi mavjud (yoki maxsus ishlab chiqilgan) nazariy qoidalar asosida metodik tizimni qurish majburiyatini nazarda tutadi. Bu tamoyil individual yondashuv bo‘yicha o‘qitishni belgilaydi va tarkibiy tuzilma, tashkiliy shakllar va ta’lim metodlarida aks etadi. Elektron ta’lim

resurslari yordamida individual yondashuv asosida kimyo fanini o‘qitishda talabaning individual yo‘nalishi aniq didaktik maqsadlarga erishish uchun mo‘ljallangan alohida didaktik modullar ketma-ketligi sifatida ishlab chiqilishi kerak.

A.M. Lozinskaya, T.N. Shamalolarning fikriga qo‘shilgan holda, biz didaktik modulni nafaqat o‘quv ma’lumotlarining ajralmas avtonom mazmunini, balki metodik tizimning barcha tarkibiy qismlarini (maqsadlari, mazmuni, tashkiliy shakllari va ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash) o‘z ichiga olgan funksional mustaqil birlik sifatida belgilaymiz. Modullarning texnologik amalga oshirilishi ierarxik jihatdan quyi darajadagi didaktik modullar sifatida qaraladigan maktabning axborot-ta’lim muhitining elektron ta’lim resurslari hisoblanadi. Individual yondashuv bo‘yicha o‘qitish har bir bosqichda ko‘rsatilgan talabaning shaxsiy muhim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak, bu modulning ta’lim mazmunidagi optimal hajmini (elektron ta’lim resurslari) va ta’lim metodlarini tanlashni tartibga solish imkonini beradi. Binobarin, har bir talabaga individual yondashuv maqsadi, tegishli mazmuni, ta’limning metod va vositalari bilan belgilanishi, talabaning fikrlash va o‘z-o‘zini tashkil etishini rag‘batlantirish, oldindan aniq belgilangan mezonlar bo‘yicha natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

2. Samaradorlik tamoyili o‘quv maqsadlarini ishlab chiqishda ushbu metodik tizimning boshqa mavjud (hozir yoki kelajakda) shunga o‘xshash tizimlardan ustunligini ta’minlaydigan xususiyatlarni rejalashtirish zaruratidan iborat. Ushbu tamoyil talabaning kimyo bo‘yicha chuqur bilimga erishishida, talabaning keyingi ta’limga tayyorgarligini shakllantirishda, talabaning qo‘shimcha bilim olish uchun moliyaviy xarajatlarini kamaytirishda, talabalarning uy vazifalarini tekshirish bo‘yicha muntazam ishlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchining mehnat xarajatlarini kamaytirishda namoyon bo‘lishi kerak. Samaradorlik tamoyili Davlat ta’lim standartidagi rivojlanish dinamikasi va o‘zgarishlarini hisobga olgan holda kimyo fanini o‘qitishda individual yondashuvni shakllantirish talabaning elektron ta’lim resurslari asosida, mavzu mazmuni fan rivojlanishining zamonaviy bosqichiga mos keladigan, axborot-ta’lim muhitida taqsimlangan tarmoq resurslari bo‘yicha mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini egallashini talab qiladi. Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan tamoyil talabaga yakuniy davlat imtihonida fan bo‘yicha yuqori ball olish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qishni davom ettirishga yuqori darajadagi tayyorgarlik imkoniyatini beradi.

3. Texnologiklik tamoyili metodik tizimni amalga oshirish boshqa o‘qituvchilarning amaliyotiga osongina o‘tkazilishi, ular uchun tuzilgan metodik tizim talabalar kontingenti bilan o‘qitish samaradorligini yo‘qotmasligini hisobga olgan holda loyihalash kerakligini ko‘rsatadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, individual yondashuv asosida kimyo fanini o‘qitishning har bir bosqichida tabiiy-ilmiy sikl o‘qituvchisi o‘qitadigan fani bo‘yicha individual yondashuvni shakllantirish uchun metodik tizimning barcha tarkibiy qismlari: maqsadlar, vazifalar, mazmun, metodlaridan foydalanish imkoniyati shakllantirilishi kerak. Individual yondashuvni shakllantirish uchun asos bo‘ladigan elektron ta’lim resurslari o‘qituvchi tomonidan ochiq modulli tizimlarda, joriy o‘quv yilidagi nazorat-o‘lchov materiallari talablariga muvofiq va shaxsiy muhim maqsadlarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritilgan to‘plamlardan tanlanishi mumkin.

4. Instrumentallik tamoyili o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan tayyor yoki maxsus ishlab chiqilgan vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Instrumentallik tamoyiliga muvofiq, individual yondashuvni shakllantirish ta’limda AKT va ta’limni boshqarish tizimi xizmatlaridan foydalanishni o‘z ichiga olishi kerak. Shuning

uchun, qo‘llaniladigan texnologiyalar va xizmatlar keng ko‘lamli fanlar uchun foydalanish imkoniyatini ta’minlaydigan mustaqil mazmunli xarakterga ega bo‘lishi kerak. Barcha foydalanuvchilar uchun qo‘llaniladigan texnologiyalarning birligini ta’minlashda foydalanuvchilarning vositalari birlashtirilgan bo‘lishi kerak.

5. Insonparvarlik tamoyili talabalarning va o‘qituvchilarning manfaatlarini loyihalashni hisobga olish, ularning faoliyati uchun maksimal qulaylikni ta’minlashdan iborat. E.F.Zeerning ta’kidlashicha, talabaning shaxsiy salohiyati uning real imkoniyatlari (bilim, ko‘nikma, malaka, qobiliyat, jismoniy va intellektual imkoniyatlar) va intilishlari (shaxsning umumiy yo‘nalishi) hisoblanadi. Insonparvarlik tamoyili elektron ta’lim resurslarini talabalarning individual xususiyatlariga moslashtirish imkoniyati tufayli axborot-ta’lim muhitida o‘qitishda talabaning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi. Shu bilan birga, talaba o‘quv jarayoni ob’ektidan o‘quv ma’lumotlari bilan ishlash metodlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishga o‘tadi. Bundan tashqari, qulay psixologik mikroiqlimni yaratish mumkin bo‘ladi, chunki talabaning xatolari umumiy ko‘rib chiqish uchun taqdim etilmaydi, balki faqat talaba bilan muhokama qilinadi.

Ushbu tadqiqot doirasida yuqoridagi tamoyillarni hisobga olgan holda, individual yondashuv asosida kimyo fanini o‘qitish metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, maqsadlar, ta’lim mazmuni, shakllari, ta’lim metodlari va vositalari pedagogik texnologiya elementlarini, jumladan, kimyo bo‘yicha talaba bilimlarini kiritish diagnostikasi, yakuniy davlat attestatsiyasining nazorat-o‘lchov materiallarida belgilangan mezonlar bo‘yicha o‘quv natijalarini nazorat qilish va baholashni o‘z ichiga oladi. Individual yondashuv asosida kimyo fanini o‘qitish uchun metodik va tashkiliy talablar, metodik tizimlarni qurish tamoyillari bosqichli, amaliyotga yo‘naltirilgan, nazorat - baholash bosqichlarida axborot-ta’lim muhitida individual yondashuv asosida kimyo fanini o‘qitish maqsadlari, mazmuni, ta’limni tashkil etish shakllari, ta’lim metodlarini shakllantirish va aniqlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarova M.T. “Kimyo” kursining didaktik materiallari nokimyoviy ta’lim yo‘nalishlari misolida//Academic Research in Educational Sciences, 2021, Volume 2, Issue 6, Page 736-740.

2. Akbarova M.T., Shayzakova D.A. “Kimyo” kursini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari//Academic Research in Educational Sciences,2022, Volume 3, Issue 5, – 852-859 p.

3. Грабецкий А.А. Использование средств обучения на уроках химии. [Текст]/ А. А. Грабецкий, Л.С. Зазнобила, Т.С. Назарова. – М.: Просвещение, 1988. – С.160.

4. Зазнобина Л.С. Медиаобразование при обучении химии // Химия в школе. - 1995. - № 2. – С. 3-7.

5. Зеер Э.Ф. Психология профессий: учеб. пособие для студентов вузов/ Э.Ф. Зеер. – М.: Академический проект, 2003. – С. 336.

6. Зенков М. Ю.Критерии и оценка качества учебно-методических материалов для дистанционного обучения / М.Ю. Зенков // Дистанционные образовательные технологии в учебном процессе: Сборник тезисов и докладов. – Новосибирск: Издательство СибАГС, 2006. – С. 72-75.

Abdurazzoq ERNAZAROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti fizika kafedrasi
katta o‘qituvchisi, p.f.f.d.

TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING ELEKTROMAGNETIZMGA OID AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim klasteri sharoitida o‘quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Elektromagnetizm, laboratoriya, innovatsiya, politexnik ta’lim, fizik kattalik, fizik eksperiment, laboratoriya jihozlari, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri.

В статье представлена информация о методике формирования у студентов практических компетенций по электромагнетизму в условиях образовательного кластера.

Ключевые слова. Электромагнетизм, лаборатория, инновация, политехническое образование, физическая величина, физический эксперимент, лабораторное оборудование, инновационный кластер педагогического образования.

This article provides information on the methodology of developing students’ practical competencies in electromagnetism in the context of an educational cluster.

Key words. Electromagnetism, laboratory, innovation, polytechnic education, physical quantity, physical experiment, laboratory equipment, pedagogical education innovation cluster.


Jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishlari va qadriyatlari o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda ta’lim tizimiga yangi talablar qo‘yilmoqda. Bu talablar maktabning asosiy maqsadi bo‘lgan – ijtimoiy moslashuvchan ijodiy shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunday sharoitda o‘qituvchining vazifalari o‘quvchiga faqat ma’lum miqdordagi bilim va ko‘nikmalarni berish bilan cheklanib qolmasdan yosh avlodda yangi sharoitga mos keladigan xatti-harakatlar qilishga undaydigan yangicha tafakkurni shakllantirish lozim. Shunga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amaliy kompetentligi rivojlangan o‘quvchilarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablarning sifat jihatidan yangilanishi uchun zamonaviy yondashuv va ta’lim texnologiyalarini izlashni belgilaydi. Bu esa o‘quvchilarning fizika faniga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda o‘qitishning zamonaviy yo‘nalishi bo‘lgan ta’lim klasterini fizika faniga integratsiya qilish, o‘qitish modellarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning ta’lim klasteri sharoitida amaliy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha metodik tizimni ilmiy asosda takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta’lim tizimida qo‘llashning maqsadi muayyan geografik hududda joylashgan ta’limga aloqador sub’ektlarni yaxlit tizimga birlashtirib, ularni ta’lim faoliyatida yagona maqsad va xususiy manfaat yo‘lida muvofiqlashtirishni tadqiq etishdan iborat ekanligi yurtimiz va xorijlik olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Pedagogik ta’lim klasteri faoliyatining asosiy maqsadi sifatida maktabdagi eng yaxshi o‘quvchilarni pedagog kasbiga targ‘ib qilish; bo‘lajak ta’lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo‘lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish; yosh mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarni egallash davri (mobilligi)ni qisqartirish; ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish hamda peda-

gog kadrlar tayyorlashda umumiy o‘rta ta’lim maktablari, ishlab chiqarish korxonalari va OTM hamda boshqa talabgorlar bilan o‘zaro tezkor qayta bog‘lanish imkoniyatini yaratishni keltirib o‘tish mumkin.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri yo‘nalishlari ta’lim, ta’lim va ishlab chiqarishdan iborat bo‘lsa, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri tamoyillari tabiiy aloqadorlik, yo‘naltirilganlik, manfaatlarning xususiyligi kabi komponentlardan tashkil topgan. Bizning ishimizdagi ta’lim klasteri sub’ektlari qilib o‘qituvchi, maktab, tuman xalq ta’lim bo‘limi va tuman elektr tarmoqlari korxonalari belgilab olingan. Ular yagona ob’ekt sifatida o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘lida birlashadilar. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterini amalga oshirish esa sub’ektlar orasida xamkorlikni tashkil etish va ular orasida tezkor aloqani ta’minlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini tashkil etish mexanizmi

Shunday qilib, klaster modelini ta’limning muayyan tarmog‘ida hususan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda samaradorlikka ta’sir etuvchi omil sifatida tadqiq etish, o‘quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini pedagogik ta’lim innovatsion klasteridan foydalanish orqali rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi hamda tadqiqotimizning ilmiy-nazariy asoslari sifatida belgilandi.

O‘quvchilarning bilish jarayoni va olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish orqali ularni tarbiyalash va tasavvurlarini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmi ta’limni ishlab chiqarish sohalari bilan bog‘lash hamda


axborotlashtirish sharoitida amaliyotchi, kashfiyotchi, fasilitator, moderator modeli asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Axborotlarning globallashuvi va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligi iqtidorli o‘quvchilarning bilish imkoniyatlari va intellektual salohiyatiga uyg‘un bo‘lishi talab etiladi. “O‘quvchilarning elektromagnetizm bo‘limiga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish” modeli o‘qitishda qo‘llaniladigan ta’lim (muammoli, qisman izlanuvchan, loyiha, tadqiqot) metodlari, o‘qitishning texnik vositalari orasidagi o‘zaro aloqadorlik elementlarini o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning Elektromagnetizm bo‘limiga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan nazariy-metodologik komponentlar didaktik, texnologik va tashkiliy tamoyillarini qamrab olgan model ishlab chiqildi. Mazkur modelning mazmunli komponenti umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturlari, maktab fizika darsliklari, elektromagnetizmni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning tatbiqi, fizika o‘qitishda amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari, namoyish tajribalari foydalanish modullarining o‘quv-metodik ta’minoti, qo‘shimcha materiallar, metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Tashkiliy-jarayon komponenti esa o‘quvchilarni nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanishga tayyorlash shakllari: masalalar yechish, mustaqil o‘rganish, ijodiy mashq, topshiriqlarni bajarish; metodlari: fizikadan amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriya ishlari, namoyish tajribalari to‘plami, elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalar, fizikaga oid axborot-ta’lim muhiti; texnologiyalari: modulli texnologiya, pedagogik va axborot texnologiyalari, keys-texnologiya; vositalari: reproduktiv, muammoli, ilmiy tadqiqot, amaliy, loyihalash, kuzatishdan tashkil topgan.

Elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun turli texnologiyalar mavjuddir. Bu texnologiyalar o‘quvchilarda eksperimental masalalarni yecha olishga yordam beradi. Masalan, elektromagnetizmga oid turli sxemalardan foydalanishni o‘rganishda, o‘quvchilarga tezkor qarorlarni qabul qilishda yordam beradi.

Fizikadan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun ta’lim klasteri sharoitida o‘quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy komretensiyalarini rivojlantirish masalasi o‘quvchilarning fizikadan ta’lim traektoriyasini belgilab berish, fizik qurilmalarning sanoatda ishlatilish imkoniyatlarini o‘rganishdagi ijobiy dinamikli tashkil etish mexanizmi hamda o‘quv va laboratoriya torshiriqlarining shaxsiy o‘sishga yo‘naltirilganligi muhim hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda ta’lim klasteri sharoitining didaktik imkoniyatlari fizik hodisalarni o‘rganishda topshiriqlar hayotiyligini ta’minlovchi amaliyotga yo‘naltirilgan laboratoriyalari hamda ishlab chiqarish sohalari uyg‘unligining sinergetik ta’sirchanligini aniqlash uchun “Transformatorlarning tuzilishi va kundalik turmushda ishlashtilishni o‘rganish” mavzusida laboratoriya ishi ishlab chiqildi. Ushbu laboratoriya ishining boshqa ishlardan farqi berilayotgan topshiriqlarning kundalik turmushda qo‘llanilishidadir. O‘quvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim ustuvorligini ta’minlash, zamonaviy qurilma va o‘lchov jihozlaridan natija olish ko‘nikma va malakalarini doimiy oshirib borish talab etiladi. Zamonaviy elektron o‘lchov asboblarining ishlash prinsiplarini laboratoriya sharoitida o‘rganishlari ularning kelgusi faoliyatlarida amalda qo‘llay olish kompetesiyasini rivojlantiradi.



3-rasm. Transformatorlarning tuzilishi va kundalik turmushda ishlashtilishni o‘rganish

Elektromagnetizm bo‘limiga oid laboratoriya ishlarini bajarishda amaliy kompetensiyani shakllantirish uchun avvalo o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalaridan kelib chiqqan holda darslarni tashkil etish hamda dars mobaynida interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish samarali bo‘ladi. “Assesment” (inglizcha “baho”, “baholash”) metodi o‘quvchilarning olgan bilimlarini har tomonlama xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u bibliografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual torshirig‘i, bahs-munozara, interv’yu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama, xolis baholash;

o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

“Assesment” metodi o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetning biron-bir bo‘limi tugallanganida) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta’lim oluvchilarning bilimlarini tekshirib olish olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu metodni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida hamda yakka tartibda, uyga vazifa berishda ham foydalansa bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning savollarga bergan javoblariga qarab ularni baholab boriladi. Baholashda asosiy e’tibor o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarining rivojlanganligiga qaratiladi.

№	Savol	Javob
1	Transformator qanday qurilma?	Transformator – bu keng diapazonda o‘zgaruvchan kuchlanishni (tokni) kuchaytirish yoki pasaytirishda ishlatiladigan qurilmadir.
2	Transformatorlarning ishlash prinsipi qanday?	Transformatorlarning ishlash prinsipi o‘zaro induksiya hodisasiga asoslangan. I_1 o‘zgaruvchan tok birlamchi o‘ramda o‘zgaruvchan magnit hosil qiladi. Bu esa, ikkilamchi o‘ramda o‘zaro induksiya EYuKni hosil etadi.
3	Transformatsiya koeffitsienti deb nimaga aytiladi?	Transformatorning ikkilamchi o‘ramida birlamchi o‘ramiga nisbatan EYuK necha marta katta yoki kichikligini ko‘rsatadigan koeffitsient transformatsiya koeffitsienti deb ataladi.

1-jadval. “Assesment” metodini qo‘llash texnologiyasi

Ta’limiy klasterlar monitoringli muhitda o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, monitoringli muhitda o‘quvchilarning o‘ziga xos amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Modelda keltirilgan nazorat-baholash komponenti: nazorat ishlari, dars jarayonida, yakuniy imtihon hamda o‘z-o‘zini nazorat: o‘zini o‘zi tahlil qilish, diagnostik savollar, tashhislash, tuzatish, amaliyotda qo‘llash darajalarini baholash imkonini beradi. O‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarining rivojlanganligini baholash uchun akademik refleksiya hamda mezonlarini o‘zlashtirish muhim amallardan biridir. Akademik refleksiya faoliyatning o‘zgarishga ega bo‘lishga yordam beradi. Bu o‘quvchilarning o‘z faoliyatlari va mulohazalarini o‘zgartirish imkoniyatini beradi. O‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda kreativ darajalari ham muhim rol o‘ynaydi. Bu esa o‘z navbatida kreativ dunyoqarashni kengaytirish va o‘z fikrlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarida yangi va innovatsion ishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Umuman, akademik refleksiya, mezonlarni rivojlantirish va kreativ darajalar o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim amallardan bo‘lib xizmat qiladi. Bu amallar o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sanaladi.

Ushbu modelning barcha komponentlari, amalga oshirish metodlari uyg‘unligida Elektromagnetizm bo‘limini o‘qitishga qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga oid amaliy kompetensiyalarini ma’lum darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib ta’lim klasteri sharoitida o‘quvchilarning elektromagnetizmga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli fizika ta’limi jarayonida o‘quvchilarning akademik traektoriyasini belgilab beradi. O‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishni ijobiy dinamikli tashkil etishga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlari fanlararo integratsiya muhitida shaxsiy o‘sish va kasbiy yo‘nalganlikda qo‘llash metodikasiga bog‘liq bo‘ladi. “Elektromagnetizm” bo‘limini o‘qitishda ushbu modelni qo‘llash o‘quvchilarning fanga oid amaliy kompetensiyalarini ma’lum darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilar amaliy kompetensiyalarining rivojlanganligini baholash mezonlari akademik refleksiyani namoyon etishning reproduktiv, produktiv, kreativ darajalarini axborotni o‘zlashtirish, qayta ishlash va foydalanish jarayoniga differensial moslashtirish asosida takomillashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son Qarori. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.03.2021 y., 07/21/5032/0226-son.

4. Muhamedov G‘.I. Pedagogik ta’lim innovatsion klaster: ehtiyoj, zarurat,natija. // Xalq so‘zi, jamiyat, 15-fevral 2019 y.

Nargizaxon ATAKULOVA,
Andijon davlat universiteti doktoranti DSc

TALABALAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Maqolada ilmiy va diniy dunyoqarash ijtimoiy turmush va tafakkurning o‘ziga xos jihatlari aks etadi. Ilmiy dunyoqarash turli bilimlar bilan aloqadorlik, olamning muayyan manzarasini ifodalovchi g‘oyalar, tushunchalarni o‘zida mujassamlashtirsa, diniy dunyoqarash o‘zida insonparvalik, faollik, milliy qadriyatlarga asoslangan munosabatlar, maqsadlar, etalonlar, me’yorlar, qat’iy qoidalarni mujassamlashtirishga e’tibor qaratish zarurati haqida so‘z boradi. Shu bilan birgalikda shaxsni dunyoning ilmiy manzarasi bilan qurollantirsa, diniy dunyoqarash shaxsni diniy bilimlar bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar. Ilmiy dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy ilmiy, intellektaul komponent, abstrakt tafakkur, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik, dialektik nuqtai nazar, e’tiqod, insonparvalik, faollik, milliy qadriyatlar.

Научное и религиозное мировоззрение в статье отражены специфические аспекты общественной жизни и мышления. В то время как научное мировоззрение предполагает связь с различными знаниями, воплощение идей, понятий, представляющих определенную картину мира, религиозное мировоззрение говорит о необходимости сосредоточения внимания на воплощении в себе гуманизма, активности, национальных ценностных установок, целей, ориентиров, норм, строгих правил. В то время как религиозное мировоззрение в совокупности вооружает человека научной картиной мира, религиозное мировоззрение предполагает вооружить человека религиозным знанием.

Ключевые слова. Научное мировоззрение, религиозное мировоззрение, философская наука, интеллектуальная составляющая, абстрактное мышление, социально-политическая, моральная, эстетическая, диалектическая точка зрения, Вера, гуманизм, активизм, национальные ценности.

The article reflects unique aspects of the scientific and religious worldview, social life and thinking. While the scientific worldview embodies the interrelationship with various knowledge, ideas and concepts that express a certain view of the world, the religious worldview tends to embody humanity, activism, views based on national values, goals, norms, standards and strict rules. the need for attention is mentioned. At the same time, a person is armed with a scientific view of the world, and a religious worldview presupposes equipping a person with religious knowledge.

Key words. Scientific worldview, religious worldview, philosophical, scientific, intellectual component, abstract thinking, socio-political, moral, aesthetic, dialectical point of view, faith, humanism, activism, national values.

Shaxs madaniyatini rivojlantirishning tayanch asoslaridan biri uning dunyoqarashini shakllantirishdir. Dunyoqarash o‘z ichiga moddiy borliqqa falsafiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik nuqtayi nazardan yondashishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda tabiat va jamiyat haqida tafakkur yuritish demakdir. Ilmiy dunyoqarash shaxsni dunyoning ilmiy manzarasi bilan qurollantirsa, diniy dunyoqarash shaxsni diniy bilimlar bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Har ikkala dunyoqarashda ham ijtimoiy turmush va tafakkurning o‘ziga xos jihatlari aks etadi. Ilmiy bilimlar borliqqa bo‘lgan dialektik nuqtai nazarni ifodalaydi. Shuning

uchun ham ilmiy dunyoqarash fikrlash, o‘ylash, tushunish, ob’yektiv borliqni baholash imkonini beradi. Ilmiy dunyoqarash turli bilimlar bilan aloqadorlik, olamning muayyan manzarasini ifodalovchi g‘oyalar, tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur tizimning tarkibiy qismlari sifatida shaxsning nuqtai nazarlari, tasavvurlari, prinsiplari, insonning olamga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi qarashlari, o‘zining ijtimoiy muhit va jamiyatda mavqeni aniqlovchi qarashlarini mujassamalashtiradi.

Ma’lumki, insonni o‘rab turgan tabiat ko‘p qirrali bo‘lib, unda o‘z munosabatlarini olam bilan bog‘liq holda aniqlaydi. Inson o‘zining amaliy hamda bilish faoliyati jarayonida moddiy borliqning muayayn shakli bilan bog‘liq bo‘ladi. Moddiy borliq esa o‘zining ko‘z o‘ngida o‘zini turli ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham inson o‘zini turli yo‘nalishlarda bilishga harakat qiladi. Shaxsning dunyoqrashi tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillar yordamida shakllanadi va muntazam rivojlanadi. Dunyoqarashning sub’yektiv jarayonlari insonda nafaqat moddiy borliqqa nisbatan nuqtai nazar, balki o‘z o‘zi haqida ham umumiy tasavvurning shakllanishida namoyon bo‘ladi. Bu tasavvur shaxsning o‘zligi, o‘z meni, o‘ziga xosligi va shaxs sifatida namoyon bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Individ shaxs sifatida shakllanganida uning dunyoqarashi muayyan darajada namoyon bo‘ladi. Shaxsning barcha o‘ziga xosliklari, sifatlari dunyoqarashning muayyan tarkibiy tuzilish, uning mantiqiy asoslarini belgilaydi. Bunday aloqalar shaxsning qadriyatlarini moddiy borliq bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Ilmiy dunyoqarash shaxsning barcha xususiyatlari va sifatlarini uyg‘unlashtiradi, ularni yaxlit bir butunlik sifatida tarkib toptiradi. Shu asosda ijtimoiy qadriyatlari, shaxsiy nuqtai nazari, fuqarolik xulq atvorining ko‘rinishlari va faoliyatini aniqlashga xizmat qiladi. Buning natijasida esa har bir insonda dunyoqarashga asoslangan e’tiqod shakllanadi.

Dunyoqarashga asoslangan e’tiqod va moddiy borliq ifodasi bo‘lib, bilim kabi ob’yektiv borliqning sub’yektiv ifodalanishini ta’minlaydi. Dunyoqarash jamiyat a’zolarining ijtimoiy tajribasini o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi. E’tiqod esa shaxsning ichki nuqtai nazarini ifodalovchi tushunchadir.

Insonni boshqaruvchilik funksiyasini bajaruvchi e’tiqod uning ma’naviy sifatlarini belgilab beradi. Uning qadriyatli yo‘nalishlari, qiziqishlari, istaklari, his tuyg‘ulari, xatti-harakatlari majmuidir. Zaruriyat tufayli inson harakatlanishga ehtiyoj sezarkan, uning ichki ehtiyojlari, shaxsiy irodasiga muvofiq kelmasa ichki faollik, safarbarlikni namoyon eta olmaydi. Insonning ongi qay darajada bo‘lishidan qat’iy nazar har doim o‘zining natijalari va muayyan bahosiga ega bo‘ladi. Mazkur bilimlar hayotiy sohalarga aloqador bo‘lib, uyg‘unlashgan ongni ifodalab, xalqning muyayan an’analari, kayfiyati, odatlari bilan bog‘liq holda konservativ xarakterkasb etadi. Mazkur bilimlar insonning tushunchalari, hukmlari, xulosalari, farazlar, nazariyalarda o‘z ifodasini topadi. Ular moddiy borliq qonuniyatlari bilan ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Shu tariqa hayotda aniq hamda o‘z o‘zidan vujudga keladigan dunyoqarash mavjud.

Bugungi kunda ilm-fanning taraqqiyoti nafaqat uning nazariy asoslarida, balki jamiyat a’zolarining tafakkur tarzida namoyon bo‘lmoqda. Uning muhim jihatlaridan biri ishonchliligidadir. Mazkur bilimlar ob’yektiv borliq va amaliyot bilan muvofiq keladi. Bu jarayonda haqqoniy dalillar ilmiy dalillarga aylanadi. ilmiy dunyoqarashning muhim jihatlaridan biri uning umumlashgan nazariy bilimlarga aylanishidadir. Mazkur bilimlar ko‘plab hodisa, voqealarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Umumlashmalar ularning birlashishi va oldinni ko‘ra olishni ta’minlaydi. Ushbu bilimlar bir qator vazifalarni yechish prinsiplarini taqdim etadi.

Dunyoqarashga oid umulashmalar orasida metodlogik g‘oyalar muhim o‘rin egallaydi. Bunday g‘oyalar yordamida borliqning barcha qonuniyatlarini ochish imkoniyati vujudga keladi. Ushbu g‘oyalar ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish mexanizmini taqdim etadi. Shuning uchun ham talabalarda dunyoqarashni shakllantirish jarayonida metodologik tushunchalarning shakllantirilishi, ularni umumlashtirish, borliqni tavsiflovchi g‘oyalarning vujudga kelishi, hamda ularning nazariy jihatdan tasvirlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Talabalarda ilmiy hamda diniy dunyoqarashning shakllanishi yosh hususiyatlari bilan bog‘liq jihatlari o‘quv jarayonining dastlabki bosqichida dalillarni to‘plash va tahlil qilish bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim jarayonining dastlabki bosqichidayoq umumiy qonuniyatlar haqida bilim va tasavvur hosil qiluvchi dalillarga murojaat qilinadi. Mazkur qonuniyatlarga insoning barcha harakatlari va rivojlanish jarayoni bo‘ysunadi. Ushbu jarayonda talabalar ko‘plab voqea-hodisalarning tabiat va jamiyat hayoti bilan bevosita bog‘liqligini tushunib yetadilar. Natijada jamiyat hayoti ularning dunyoqarashini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ularning tasavvurlari inson va jamiyat hayotidagi ma’naviy, madaniy o‘zgarishlar, jamiyat hayotining muntazam rivojlanishi, mazkur taraqqiyot har bir shaxsning ongi, tasavvurlari, ilmiy va diniy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishini tushunib yetadilar. Talaba-yoshlarning intensiv tarzda rivojlanishlari mazkur jarayonni qulaylashtirib, talabalarning metodologik yondashuvlar asosida sog‘lom diniy dunyoqarash asoslarini egallashlarini jadallashtiradi. Talabalar ilm-fan asoslarini tizimli tarzda o‘rganish natijasida tabiat va jamiyat hodisalarini chuqurroq anglash va tahlil qilish, uning kelib chiqish xususiyatlari va farqli jihatlarini izlab topish, muvofiqlashish sabablari va ular orasidagi aloqadorlikni aniqlash, tarixiy jarayonlarning qonuniyatlari va rivojlanish dinamikasini bilish, bilish natijasida talaba-yoshlar mustaqil dunyoqarash, xulosalar va umumlashmalarga ega bo‘ladilar.

Talaba-yoshlarning eng zaruriy ehtiyojlari sifatida o‘z menini tasdiqlash, jamiyatda o‘z o‘rnini izlab topishga intilishlarini ko‘rsatish mumkin. Ushbu ehtiyojni qondirish talabalarning jamiyat a’zolari bilan muloqot doirasini kengaytiradi. Ularni o‘z shaxsiy tajribalari doirasidan chiqib atrofdagilarning tajribalarini ijodiy o‘zlashtirishga yo‘naltiradi, o‘z maqsadlari, hayotiy qonun-qoidalarini shakllantirishlariga turtki beradi. Natijada ularning hukmlari, nuqtai nazarlari, o‘z o‘zini baholash ko‘nikmalari rivojlanadi. Mazkur jarayonda talabalarni jamiyatdagi voqea-hodisalarni mustaqil, asosli tarzda baholashga undash alohida ijtimoiy pedagogik asosga ega. Hozirgi globallashuv vaziyatda jamiyatdagi voqea-hodisalarni ob’yektiv baholash ijtimoiy-siyosiy hamda diniy bilimlardan xabardor bo‘lishni ham talab qiladi. Bu davrga kelib talaba-yoshlar jismoniy hamda ma’naviy jihatdan yetuklikka intiladilar. Bu esa ularning ilmiy hamda diniy dunyoqarash asoslarini egallashga tayyorliklarini anglatadi. Talabalar tafakkurining falsafiy yo‘nalishlari, borliqni bilishga bo‘lgan munosabatlari, bilimlarni o‘zlashtirish ehtiyoji ularda fundamental, metodologik g‘oyalar, yuqori darajadagi umumlashtirish, qat’iy nuqtai nazarlar va e’tiqodlar, olamni bilishga intilish, xulq-atvor va faoliyat prinsiplariga qat’iy amal qilish ko‘nikmalarining rivojlanishini ta’minlaydi. Natijada talabalarda shaxsiy o‘z o‘zini anglash va qadriyatlarga amal qilish, o‘z o‘zini baholash, ideallarga ega bo‘lish, hayotiy rejalar tuzish kabi sifatlar rivojlanadi. Talabalarning diniy dunyoqarashlari va nuqtai nazarlari ularning kasbiy axloq-odobi, kasbiy nuqtai nazarlari aniqlashida ham o‘z ifodasini topadi. Mazkur kasbiy odat o‘zida insonparvalik, faollik, milliy qadriyatlarga asoslangan munosabatlar, maqsadlar, etalonlar, me’yorlar, qat’iy qoidalarni mujassamlashtiradi. Shu bilan bir qatorda talabalarda axloqiy-psixologik hamda kasbiy

tayyorgarlikni ta’minlashga ko‘maklashadi.

Milliy axloq-odob me’yorlarini o‘zlashtirgan talabalar o‘zlarining ijtimoiy va fuqarolik burchlarini chuqur anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy vositasi sharqona axloq odob me’yorlarini o‘zida mujassamlashtirgan didaktik hamda badiiy asarlar xalqning ijtimoiy tajribasi, xalq og‘zaki ijodi namunalari, xalq pedagogikasiga oid manbalar, tasavvuf ta’limoti namoyondalarining asarlari, urf odat va an’analardan iborat. Agar talabaning dunyoqarashi, nuqtai nazarlari mazkur vositalar yordamida rivojlangan bo‘lsa, xalqning turmush tarzini va o‘ziga xosligini anglashga muvaffaq bo‘ladi. Natijada o‘z xalqining ravnaqi va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida harakat qilishga intiladi. Chunki talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirish uchun ularni intelekti, irodasi, his tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatilib, faol tarzda amaliy faoliyat ko‘rsatishlariga asos yaratiladi.

Dunyoqarash tarkibidagi intellektaul komponenti borliqni hissiy idrok etishdan abstrakt tafakkurgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Tushunchalarga asoslangan tafakkur ilmiy hamda o‘quv bilishning oxirgi elementi hisoblanmaydi. Buning natijasida abstrakt tafakkurdan aniq fikrlashga yo‘nalgan faoliyat amalga oshadi. Bu esa yuqori talabalarga daraja rivojlanish imkonini beradi. Natijada talabalar diniy bilimlarni chiqur va har tomonlama tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445147

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.07.2021 yildagi O‘RQ-699-son Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida

3. Diniy mutaassiblik: moxiyat, maksadlarva oldini olish yullari / Xasanov A., Yusupov O., Shyermuhamedov K., G‘afurov U., Karimov J. – T.: ‘‘Movaraunnahr’’, 2013, – 160-12 b.

4. Safarova R.G. Mutafakkir ajdodlarimiz merosi ta’lim oluvchilarni intellektual ma’naviy va madaniy jihatdan rivojlantirish manbai // Pedagogika.– T., 2022-yil 5-son. – 14-18 b.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 5-jild, T. Mirzayev va boshq. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 592-226 b.

Sh.S. KOCHQAROVA,
Andijon davlat pedagogik instituti,
“Boshlangich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qituvchi darsda o‘rganiladigan mavzuning ta’limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlangandagina ko‘zlagan maqsadga va samaradorlikka erishishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faolashtirish, didaktik o‘yin, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, loyihalash texnologiyalari va ularning funksiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogika, psixologiya, motvatsiya, didaktik o‘yinlar nazariyasi, ta’lim va tarbiya, pedagogik texnologiya, loyihalash.

В статье в системе начального образования учитель достигает цели и эффективности только тогда, когда он выбирает, какую технологию использовать на научно-методической основе, с учетом учебно-развивающих целей изучаемого на уроке предмета и дидактических функции педагогических технологий. рассмотрены технологии и их функции.

Ключевые слова. Педагогика, психология, мотивация, теория дидактических игр, воспитание и обучение, педагогические технологии, дизайн.

In the article, in the elementary education system, the teacher achieves the goal and effectiveness only when he chooses which technology to use on a scientific-methodical basis, taking into account the educational and developmental goals of the subject studied in the lesson and the didactic functions of pedagogical technologies. technologies and their functions are considered.

Key words. Pedagogy, psychology, motivation, theory of didactic games, education and training, pedagogical technology, design.

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta’lim tizimiga ham bog‘liq ekanligini xisobga olish kerak. Shu bilan birga intellektual salohiyatning o‘sishi, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o‘z ta’sirini o‘tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o‘sishiga ham sezilarli darajada ta’sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’limdagi strategik yo‘nalishlardan biri ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti.

Ta’lim jarayonida bolalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishda didaktik o‘yinlardan keng foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar qanday tashkil etiladi yoki didaktik o‘yinlarning o‘zi nima? degan savol tug‘iladi.

Didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli, o‘quvchilarning bilim olish faoliyati, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan

darslar didiktik o‘yinli darslar deb ataladi.

Didaktik o‘yinli darslarda asosan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. O‘yin ishtirokchilari rollarni, vazifalarni tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya’ni o‘quvchilarning o‘z faoliyatini taxlil va qilishi, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o‘z faoliyatidan ko‘ngli to‘lishi, o‘z bilim va kuchiga ishonch vujudga keladi.

2. Ijodiy muhit tarkib topadi. O‘yin ishtirokchilari muammolarni hal etishda tegishli ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo‘ladilar.

3. O‘yin davomida musobaqa, raqobat, hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga keladi. Shu asnoda his – hayajonli vaziyat paydo bo‘ladi. His – hayajonga yo‘g‘rilgan bilim, ko‘nikmalar inson xotirasida bir umr muxrlanib qoladi.

4. O‘yin davomida belgilangan qonun – qoidalarga amal qiladi. O‘yin ishtirokchilarida ijtimoiy normalarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

5. O‘yin mazmuni, borish, ketma-ketligi, vaqt balansi va o‘fuvchilarning muammolari vaziyatlarni zudlik bilan hal etish, mo‘ljalni to‘g‘ri olishga o‘rgatadi.

Umumiy ddaktika bitta metoddan emas, balki, turli metodlarning butun bir tizimidan foydalanib, ta’limning o‘z tadqiqoti mavzusi bilan, ya’ni uning didaktik tizimlarining maqsadlari, mazmuni, jarayonlari, prinsplari, metodlari, tashkiliy shakllari va vositalarini o‘rganish bilan bevosita yoki bilvosita bog‘lik g‘oyat muhim jihatlarini yoritadi. O‘qitish jarayonining turli jixatlarini tizimlashtirish , taqqoslash va tahlil qilish yolar orasidagi hamda sifatiy bog‘lanishlarni aniqlashtirish imkonini beradi. Ana shu bog‘lanishlar tufayli didaktikada xodisalar (narsalarning xolati, jarayonlar) o‘rtasidagi obyektiv mavjud barqaror aloqalar va munosabatlar aniqlanadi va ta’riflanadi. Bunday aloqalar va bog‘liqliklar sabab-natija, strukturaviy yoki funksional xarakterga ega .

Sabab-natija aloqalari masalan, o‘qituvchi bajaradigan didaktik ishlarning ma’lum majmui (sabab) bilan o‘quvchilarni ro‘y bergan o‘zgarishni aks ettiradigan yangiliklar (natija) o‘rtasida vujudga keladi. Ikkita (yoki undan ortiq) xodisa birgalikda ko‘rinib, nisbatan barqaror struktura hosil qilishini strukturaviy aloqalar deyiladi.

Mana shu qonuniyatning dalili sifatida o‘rta aktablardagi ikki yillik ko‘rsatkichlari ortib borayotgan sinflarda o‘quvchilarning ko‘payib borayotganini aytish mumkin. Va nihoyat funksional bog‘liqlik tadqiq qilinayotgan xodisaning ayrim xarakteristikalari bilan boshqa xarakteristikalarining o‘zgarishi o‘zaro muvofiq vaziyatlarda vujudga keladi.

Didaktik tadqiqotlarda ta’lim jarayoniga bog‘liq ishlar va shu jarayonda amalga oshadigan sharoitlar ko‘pincha erkli o‘zgaruvchan ishlar sifatida, shu bilan birga ular orqali erishiladigan natijalarni odatda bog‘lik o‘zgaruvchan natija deb ifodalanadi.

Ma’lum qonuniyatlarni oydinlashtiradigan va ularni barqarorlashtirish hamda pedagogik ish normalarini belgilashda yordam beradigan didaktik xodisalarni o‘rganishda kuzatish, pedagogik eksperiment, intervyu olish, aniqlashtirish, pedagogik xujjatlarni taxlil qilish, statistik tahlil metodlaridan foydalaniladi. Bunday xolatlarda didaktiklar tadqiqot ishinim kuzatish, psixolog va didaktik testlar, savolnoma-intervyu, savolnoma-anketa, nisbatlar shkalasi kabi vositalarni keng qo‘llaydilar. Kuzatishning moxiyati didaktik xodisalar va jarayonlarni maqsadga muvofiq ravishda, reja asosida va muntazam o‘rganishdan, ularning o‘zgarishini hamda o‘zaro aloqalarni aniqlashdan iboradir. Kuzatishlarni bevosita va bilvosita amalga oshirish mumkin. Birinchi holda mazkur didaktik jarayonning tabiiy rivojlanishini kuzatilib, rejaga muvofik ma’lumotlar to‘planadi. Ana shu jarayonda kuzatuvchining o‘zi qatnashsa, masalan, dars o‘tsa, ishtirokli kuzatish deydilar. Ikkinchi xol, ya’ni bilvosita kuzatish xodisalarni yoki barkaror

texnik vositalar, bayonnomalar va xokazolar yordamida maqsadga muvofik ravishda, muntazam tadqiq qilishga tayanadi.

Kuzatish metodi samaradorligining va uni qo‘llash to‘g‘riligining eng muhim sharti kuzatishlarning maqsadini aniq belgilash va ular uchun aynan mos, kuzatuvchiga ma’lumotlarni reja asosida muntazam ravishda to‘plash imkonini beradigan joylarni tanlash.Chunki bu tadbir mazkur jarayoni yoki hodisani ko‘p marta takrorlash va turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, eksperiment xodisalar yoki jaryonlarning vujudga kelishi yoki ularning borishidagi o‘zgarishlar bilan bog‘lik bo‘lib, bunday o‘zgarishlar mazkur xodisa yoki jarayonlarga qandaydir yangi omilni va kuzatishini kiritish xisobiga sodir bo‘ladi.Ana yangi omil tadqiqotdagi erkli o‘zgaruvchi bo‘ladi va undan kelib chiqadigan o‘zgarish esa erksiz o‘zgaruvchilar hisoblanadi. Umuman eksperimentning mohiyati erkli o‘zgaruvchini (erkli o‘zgaruvchilarni) manipulyasiya qilish imkoniyatidan, ana shu manipulyasiya natijasida ruy bergan o‘zgarishlarni nazorat qilish imkoniyatidan, tadqiqotlarga joriy etilgan shaxslar va guruhlarni tanlashdan iborat deyish mumkin.

Pedagogik eksperimentni labaratoriya eksperimenti shaklida olib borilsa, mazkur jarayon o‘zi uchun maxsus yaratilgan sharoitda vujudga keladi yoki o‘zgaradi; agar tabiiy eksperiment shaklida olib borilsa, uning uchun tipik sharoitida tadqiqot o‘tkaziladi. Olimlar tadqiqotlarga kirishishdan ifodalaydigan ish gipotezalari labaratoriya eksperimentiga ham qamralgan xodisalar yoki jarayonlardan iborat bo‘ladi. Ana shu hildagi gipotezalarni kuzatishlarda ham qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik eksperiment umumiy didaktikada o‘z tadqiqotlarida foydalaniladigan metodlar jumlasiga kiradi. Shu bilan birga u birmuncha cheklangandir. Bunday eksperiment voqyelikning rivojlanishini, unga xos uzluksiz va takrorlanmas o‘zgarishlarni ana shu yo‘sinda muvofakiyatli tadqiq qilish imkoniyatini bermaydi. Vaxolanki , ta’lim-tarbiya jaryonida xususan bunday voqyelikka juda ko‘p duch kelinadi.

Kuzatishlar va eksperiment orqali olib boriladigan tadqiqotlarda o‘zgaruvchanlarning qiymatini o‘lchashga yordam beradigan asosiy vositalarning biri testlardir.

Didaktik testlar har hil yo‘sinda tekshirishlarga, yozma ishlarga va o‘qitish natijalarini nazorat qilishning og‘zaki shakllariga o‘xshaydi va eksperimental tadqiqotlarning natijalarini baholash uchun xizmat qiladi. Testli tadqiqotlar o‘tish natijalarini nazorat qilish va baholashning boshqa usullaridan o‘zining aniqligi va obyektivligi, shuningdek, o‘lchash uchun qulayligi bilan farqlanadi.

Didaktik mashg‘ulotlarda avvalo o‘qish, yozish, oddiy arifmetik operatsiyalar kabi juz'iy ko‘nikmalarning testlari hamda yuqori sinflardagi o‘quvchilarni va o‘quvchilarni tekshirishda yordam beradigan bilimlar va ko‘nikmalarning turli testlari qo‘llaniladi.

Ba’zan didaktik testlarni kasbiy (standartlashtirilgan) va o‘qituvchilik testlariga ajratiladi. Kasbiy testlar tegishli mutaxasislarining tayyorlanishini, diagnostika nazariyasidan kelib chikadigan juda ko‘p shartlarini bajarilishini, shuningdek, standartlashtirish maksadlari uchun zarur uzok muddatli tekshirish adqiqotlarini talab qiladi; o‘qituvchilik testlari ham garchi tug‘ri diagnostika shartlariga javob berishi lozim bo‘lsa-da, o‘zlarini o‘tkazgan mashg‘ulotlarda erishilgan ta’limiy natijalarni tadqiq qiluvchilar tomonidan tuzilishi mumkin emas. Lekin bunday testlar standartlashtirilgan testlarning xarakteriga ega bo‘lmaydi.

Pedagogik xujjatlarni tahlil qilish didaktik tadqiqotlarning quyidagi metodiga bog‘liqdir. Bu metod o‘quv dasturlari, maktab darsliklari va jurnali, pedagogik kengash bayonnomalari va o‘qituvchilarning yozuvlarida, shuningdek, tabiiy va psixologik tekshirish

natijalariga doir hujjatlarda ifodalangan axborotlardan foydalanishga xizmat qiladi. Bunday axborotlar ta’limining mazmuniga, o‘quvchilar atrofdagi muhit (oila ,maktabdan tashqari tengdoshlar guruhi) ning xususiyatlariga, ularning xulqi, sog‘ligi, psixik xolati, tarbiyalashning qiyinligi va xokazolarga doir ma’lumotlardan iborat buladi. O‘quvchilar faoliyatining turli natijalari yozma ishlar, she'rlar, kundaliklar, rasmlar, badiiy va musiqiy asarlar(magnitafon lentalariga yozilgan holda) ham axborotlarning boy manbai bo‘la oladi. Ana shu xujjatlarni tahlil qilish orqali olingan axborotlar o‘quvchi xaqidagi ma’lumotlarni boyitadi va eksperiment hamda kuzatishlarda erishilgan natijalarni talqin qilishda katta yordam beradi.

Xujjatlarni tahlil qilish metodidan o‘tgan davrlarni tadqiq etishda chet u tarixiy metodlarning xususiyatlariga ega bo‘ladi, ikkinchi holda esa qiyosiy pedagogikada foydalaniladigan metodlarga o‘xshaydi.

Didaktik tadqiqotning natijalari, asosan uning yakunlovchi bosqichida amalga oshiriladigan miqdoriy ishlab chiqish statistik tahlilining xar hil metodlari qo‘llanishini talab qiladi. Shuning uchun olingan natijalarni taqqoslanadigan sonli kattaliklarda ifodalash mumkin bo‘ladi.

Statistik tahlil bir tomondan olingan natijalarni statistik tavsiflashni va ikkinchi tomondan gipotezalarni statistik tekshirishni talab qiladi.

Bunday tavsiflash ustunlik qiladigan belgilar uchun xarakterli kattaliklarni, standart va og‘ishni baholash va dispersiya o‘lchashlarini, shuningdek natijalar taqsimlashining xususiyatlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari statistik tavsiflash absolyut sonlarda yoki kursatkichlarning foizlari tarzida, korrelyasion jadval shaklida ifodalangan natijalarni taqqoslashdan iborat bo‘lishi mumkin.

Didaktik o‘yinli texnologiyasida yetakchi o‘rinlarni ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, kommunikativ funksiyalar egallab, qolgan funksiyalar ularga ilova bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘qituvchi darsda o‘rganiladigan mavzuning ta’limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan foydalanishini ilmiy – metodik asosda tanlangandagina ko‘zlagan maqsadga va samaradorlikka erishadi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini faolashtirish, didaktik o‘yin, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, loyihalash texnologiyalari va ularning funksiyalari.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli, o‘quvchilarning bilim olish faoliyati, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didiktik o‘yinli darslar deb ataladi.

Bizning fikrimizcha, kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni, tabiat va tabiiy hodisalarning ob'ektlari o‘rtasidagi aloqalarni badiiy ko‘rinish tarzida yoritish asosida vujudga keltirilgan muammolarni o‘quvchilarning o‘zlaridagi bilim zahiralariga tayangan holda, hamkorlikda, bosqichma –bosqich hal yetish jarayonida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik o‘yinlarni syujetli rolli o‘yinlar deb atash lozim. Bunda o‘yin syujeti tabiatdan yoki jamiyatdan olinadi. Ba’zan tabiat va jamiyatdagi muammolar uyg‘unlashtiriladi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida “Atrofimizdagi olam”fanini o‘qitishda “Orol dardi – olam dardi”, “Tabiatni muxofaza qilish muammolari” mavzularni syujetli rolli o‘yinlar tarzida o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Jumladan “Orol dardi-olam dardi” mavzusidagi syujetli – rolli o‘yinda syujet tabiatdan olnadi va jamiyatdagi munosabatlar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Mazkur didaktik o‘yinda Orol – “ona”, Amudary va Sirdaryo onaning zanjirband

“o‘g‘illari”, yomg‘ir, qor, shudring onaning “qizlari” siymosini gavdalantiradi.

Orol – ya’ni, “ona” o‘zining o‘g‘illari bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryoning diydoriga mushtoq, o‘z dardiga malhamni ulardan kutadi va buni sheriy dard bilan ifoda etadi. Izmi o‘zida bo‘lmagan zanjirband o‘g‘illar ham ona mehriga zor, lekin har qancha harakat qilishmasin onaning xuzuriga yetolmaydi. Tabiat in'om etgan yomg‘ir, qor va shudring ona xuzurida bo‘lsalar ham uning dardini yengillata olmaydilar. Ona va farzand o‘rtasidagi mehr – muhabbat, muruvvat shu tariqa ifoda etiladi.

O‘qituvchi bu didaktik o‘yinni o‘tkazish uchun quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

1. Orol muammolariga oid ma’lumotlarni to‘plashi;
2. Dars ssenariysini o‘quvchilar va adabiyot o‘qituvchilari bilan hamkorlikda tuzilishi;
3. Rollar va vazifalarni o‘quvchilar o‘rtasida taqsimlashi;
4. Muammoni hal etish yo‘llarini belgilashi lozim.

Ijodiy o‘yinlar. O‘quvchilarning ijodiy izlanishi, mustaqilligi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda, qo‘shimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o‘quvchilar guruhining o‘zaro hamkorlikda avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy qo‘llash va izlanishi orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o‘yinlarni ijodiy o‘yinlar deb atash lozim.

Didaktik o‘yinli darslarda hamma o‘quvchilar hamkorlikda ishlaydilar, avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarga qo‘llab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu esa o‘quvchilarning o‘z bilimlariga, iqtidoriga ishonch uyg‘otadi va har bir o‘quvchi sidqidildan hamda jiddiy tayyorgarlik muvaffaqiyat garovi ekanligini anglagan holda bilim olishga kirishadi.

Ishbilarmonlar o‘yini. Jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni aks ettirib, o‘quvchilar ma’lum bir vazifani, topshiriqni bajrish orqali bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollattirish bilan bir qatorda, kasbiy sifatlarni tarkib toptirish, ularni ongli ravishda kasbga yo‘llash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga mo‘ljallangan didaktik o‘yinlar ishbilarmonlar o‘yini deyiladi. Ishbilarmonlar o‘yini ham boshqa o‘yinlar kabi, o‘qituvchi va o‘quvchilardan puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Shu sababli o‘qituvchi vazifalarni bosqichma – bosqich amalga oshirishi zarur:

– Qaysi mavzularni ishbilarmonlar o‘yini tarzida o‘tkazishni belgilash;

– Didaktik o‘yining maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma – ketligi, o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlarini aniqlash va rejalashtirish;

– Didaktik o‘yin davomidla o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan o‘quv – bilish xarakteridagi muammoli vaziyatlar tizimini vujudga keltirish yo‘llarini aniqlash va loyihalash;

– O‘quvchilarni didaktik o‘yinning mavsadi va vazifalar bilan tanishtirish, didaktik o‘yin talab etadigan vazifalarin taqsimlash va har bir o‘quvchiga tegishli aniq yo‘llanmalar, ko‘rsatmalar berish.

– Mazkur o‘quv – bilish harakteridagi muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘quvchilarning avvalgi mavzulardan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tanish, odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini aniqlash.

– O‘quvchilarning didaktik o‘yinga tayyorgarlik faoliyatini kuzatish va nazorat.

O‘quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

– o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

– hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

– o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

– o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

Inson bolasi xar kanday yaxshi rivojlangan xayvon bolasidan shu bilan fark qiladiki, u juda yoshlikdan boshlabok atrofga dikkat bilan nazar tashlaydi, ranglar jilosini ko‘radi, tovushlar simfoniyasini tinglaydi. U atrofdagi narsalarning hilma-hilligidan xayratlanadi, ular xakida o‘ylaydi, kattalarga savollar bilan murojaat etadi yoki o‘sha savolga o‘zi javob izlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O’zbekiston, 2016. -56 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – T.: O’zbekiston, 2017.-104 b.

4. Джабборова Онахон Маннаповна, Джуманова Фотима Ураловна, МахкамоваШохида Рахматуллаевна. (2020). Формирование художественного восприятия будущих учителей. Международный журнал психологии и реабилитации, 24(4), 4087-4095.

5. Джабборова Онахон Маннаповна. (2019). Психологический и педагогическийосновы формирования художественного восприятия учащихся средних школ.школы. Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук, 7 (10), 9-14.

7. Мардонов Ш.К., Жаббарова О.М. Задачи уроков изобразительного исскуствав начальной школе. Академические исследования в области педагогических наук, Выпуск 3, 2020, стр.862-870.

U.X. TO'RAQULOV,
ped. fan. fals. dokt. (PhD), KFU Jizzax filiali

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR NEGIZIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashning axborot zaxiralarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalalari qaraladi. Ushbu maqoladan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish muammolari bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiyalar; bo'lajak o'qituvchi; tayyorlash; kasbiy4 faoliyat; axborot; resurslar; matnli materiallar; matematik modellar; kompyuterli; ta'lim; dastur; multimedia; amaliy dasturlar; majmua; o'quv metodik; katolog; vebinar; to'ldirilgan; boyitilgan; mukammallashtirilgan; amaliy; laboratoriya; apparatlar; dasturlar; funksional vazifalar; bajarish; trening; stendlar; qurilma.

В статье рассматриваются вопросы научно-методического обоснования информационных ресурсов для подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе цифровых технологий. Эту статью могут использовать те, кто занимается проблемами повышения квалификации будущих специалистов.

Ключевые слова. Цифровая технология; будущий учитель; обучение; профессиональная деятельность; информация; ресурсы; текстовые материалы; математические модели; компьютеризированное; образование; программа; мультимедиа; приложения; учебно-методическое; вебинар; наполнение; обогащение; совершенствование; практическое; лабораторное; аппараты; программы; функциональные задачи; выполнение; обучение; стенды; устройство.

The article deals with the issues of scientific and methodological justification of information resources for the preparation of future teachers for professional activities based on digital technologies.This statue can be used by those who are aware of the problems of increasing the qualifications of future specialists.

Key words. Digital technology; future teacher; training; professional activity; information; resources; text materials; mathematical models; computerized; education; program; multimedia; applications; set; educational and methodological; webinar; content; enrichment; improvement; practical; laboratory; devices; programs; functional tasks; implementation; training; stands; device.

Hozirda zamonaviy o'qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashda yangicha sifat o'zgarishlari qilib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish odatiy tusga aylanmoqda. Bunga sabab zamonaviy o'qituvchi innovatsion rivojlangan bo'lishi kerak va bu tabiyki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga innovatsion yondashuvlar qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu masala raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etilishi bilan yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Mazkur maqolada ham aynan raqamli texnologiyalar negizi (RTN)da texnologik ta'lim bo'lajak o'qituvchilari (BTTO')ni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlashning axborot zaxiralarini tizimlashtirish va ularni ilmiy-metodik jihatdan asoslash masalasi qa-

raladi.

Qo‘yilgan masalani hal qilish uchun dastlab RTNda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid axborot resurslarini aniqlab va asoslab oldik.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalariga asoslanib RTNda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning axborot resurslarini quyidagi ketma-ketlikda tayyorlab olish maqsadga muvofiq deb topdik:

Matnli materiallar. Bunda tayyorlanadigan nazariy va amaliy ta’limga oid materiallar tizimlashtirilgan holda tayyorlab quyilgan bo‘ladi va tayyorlangan ma’lumotlar bo‘yicha yangilangan ta’lim mazmunini shakllantirishga oid shart-sharoitlar ham yaratilgan bo‘ladi.

Matematik modellar. Bunda ta’lim jarayoni kechishini tadqiq etishga oid matematik modellar xususan, ta’limni boshqarishning dinamik modeli, maqsadga erishganlikni aniqlash va baholashga oid modellar, ta’lim sifatini aniqlash modellari kabilarga asosiy e’tibor qaratiladi;

Tashkiliy-tuzilmaviy modellar. Bunda ta’lim jarayonidagi holatlar va hodisalar hamda asosiy tashkil etuvchilarning o‘zaro aloqadorligi aks etirilgan tashkiliy-tuzilmaviy va tashkiliy-vazifaviy hamda tashkiliy- tamoyilli ko‘rinishlarni qurish masalasi qaraladi

Komp’yuterli ta’lim dasturlari. Bunda BTTO‘ ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ma’ruza materiallarini o‘rganishga oid laboratoriya va boshqa amaliy mashg‘ulotlarni o‘rganishni takomillashtirishga oid, BTTO‘ni mustaqil mutolani tashkil etishga oid, BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga mo‘lajallangan treninglar o‘tkazishga oid komp’yuterli dasturlarini tayyorlab qo‘yish asosiy e’tiborda bo‘ladi.

Multimedia materiallari. Bunga qo‘yidagi jihoz va vositalar kiritiladi: servisli dasturiy ta’minot; ta’lim oluvchilar bilimlarini tekshiruvchi va testdan o‘tkazuvchi dasturiy ta’minot; kasbiy kompyuterli o‘yinlar va treninglar; elektron vertual stendlar; elektron vertual mashg‘ulotlar; elektron o‘quv adabiyotlar; intellektual, kibernetik va shu kabi yo‘nalishdagi kitoblar; immitatsion modellashtiruvchi dasturiy ta’minot; amaliy dasturiy paketi; muloqotli ishchi dasturlar majmuasi; intellektuallash-tirilgan texnologik xaritalar; informatsion xaritalar; intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimilari va shu kabilar.

Amaliy dasturlar majmuasi. Bunda RTNda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ilmiy- metodik ta’minot tizimini yaratishdagi birinchi va ikkinchi toifadagi ta’minotlar hamda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ilmiy-metodik ta’minotni takomillashtirish bosqichlarning funksional vazifalarini belgilab beruvchi dasturlar asosiy e’tiborda bo‘ladi.

O‘quv - metodik resurslar katologi. Tajribalar va izlanishlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha o‘quv – uslubiy ta’minot BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishda yetakchi va asosiy ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi. U orqali bo‘lajak mutaxassislaridagi kasbiy bilimdonlikni jahon talabi darajasigacha ko‘tarish mumkin.

8. Vebinar texnologiyalarga oid uskunaviy majmua. Hozirda elektron axborot resurslarini ta’minolovchi va ularni qidirib topish va amaliyotga joriy etishda vebinar texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Shu sababli vebinar texnologiyalar oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismiga aylanib bormoqda

Demak, vebinar texnologiyalari hozirda onlayn ta’limni, telekanferensiyalarni, teleseminarlarni va bashqa ommaviy tadbirlarni tashkil etishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Vebinar barcha ta’lim oluvchilarni, shuningdek barcha ishtirokchilarni ularning geografik o‘rni qaerda bo‘lishidan qat’iy nazar barchani birlashtiruvchi vertual auditoriyani shakllantirishga keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yarata oladi.

9. Intelektual resurslar. Bu tarkibiy qismda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ilmiy-metodik ta’minotni takomillashtirishga oid ilm-fan va texnik –texnologiyalar yutuqlari hamda ulardan amaliy faoliyatga foydalanishga oid pedagogik innovatsiyalarga asosiy e’tibor qaratiladi. Bunda ular spravochnik ma’lumotlar, didaktik materiallar va kreativ axborotlar majmua kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad spravochnik ma’lumotlar negizida to‘ldirilgan, didaktik materiallar negizida boyitilgan, kreativ axborotlar negizida mukammallashtirilgan ta’lim mazmunlarini shakllantirishni axborotli qo‘llab-quvvatlash.

10. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga tegishli qurilma va stendlarning funksiyaional vazifalarini bajarishga va trening o‘tkazishga oid apparatlar va dasturlar majmuasi.

Ma’lumki, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari yordamida kasbiy ta’lim mazmunini ta’lim oluvchilar tomonidan tajribalar va amaliy ishni bajarish hamda o‘rganish jarayonlari amalga oshiriladi. Bunday mashg‘ulotlarda mashg‘ulot mavzusi, ishning maqsadi, unga ajratilgan vaqt, mashg‘ulot mavzusining mazmuni, mashg‘ulot bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati, mashg‘ulotni o‘tkazishga oid qurilma va stendlar majmuasi hamda ularni ishlatish bo‘yicha yo‘riqnoma va ko‘rsatmalar, treninglar o‘tkazishga mo‘ljallangan apparat va dasturlar majmuasi o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Bu borada aynan BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi amaliy laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishga oid qurilma, stenedlar, apparat va dasturlar tayyorlanadi. Ularni biz quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlab qo‘ydik:

– BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashga tegishli o‘quv ko‘rgazmali qurollar majmuasi;

– BTTO‘ning yangilangan ta’lim mazmunidan amaliyotda foydalanishga mo‘ljallangan turli maxsus qurilmalar va trenajyorlar.

Harakatchan modellar. Bunga BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modeli, RTNda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillash-tirishga “Tizimiy yondashuv” qilishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli, RTNda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashga mo‘ljallangan ilmiy-metodik ta’minot tizimini yaratishning tamoyilli ko‘rinishi; RTNda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodi ta’minotini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modellari kiritiladi;

– ixtisoslashtirilgan stendlar. Bunga mashq qilinadigan va amaldagi harakatlarni imitatsiyalaydigan stendlar hamda masus ishlab chiqilgan qo‘lbola didaktik qurilmalar kiritiladi;

– maxsus dasturlar. Bunga BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bloklariga oid fanlar bo‘yicha mavzulardagi jarayonlar kechishini imitatsiya qilinadigan maxsus pedagogik dasturiy vositalar tayyorlab qo‘yiladi.

– dastgoh va dastgoh jihozlari. Bunga bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga mo‘ljallangan dastgohlar va ulardagi dastgoh bajaradigan ishlar variantlariga mos namunalar tayyorlab qo‘yiladi.

– amaliy – laboratoriya mashg‘ulotlariga oid standart pribor, apparat va ish qurollari. Bunda amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlarida doimiy ravishda (albatta) qo‘llaniladigan priborlar, ish qurollari, masalalar va shu kabilar tayyorlab qo‘yiladi.

Bu tadqiqot bo‘yicha xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, yuqorida bayon qilingan axborot resurslari RTNda BTTO‘ni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishdagi amaliy faoliyatni optimallashtirishga keng imkoniyatlar

yaratadi:

– tashkiliy-tuzilmaviy modellar fuknsional vazifalarini bajarishni imitatsiya kilishga;

– kasbiy kompyuterli o‘yinlar orqali BTTO‘ning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid treninglar ketma-ketligini optimal ravishda tashkil etishga;

– ta’lim yo‘nalish bo‘yicha multimediali ta’lim texnologilaridan foydalanib BTTO‘ni kasbiy faoliyatiga tayyorlash yo‘llarini optimallashtirishga va shu kabilarga.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘raqulov U.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini takomillashtirish. ped. fan. fals. dokt. (PhD).....diss. –T., 2020, 187 b.

2. To‘raqulov U.X. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini ishlab chiqishga tizimiy yondashuv// Innovatsion yondashuvlar – ilm – fan taraqqiyoti kaliti sifatida: yechimlar va istqbollar: Respublika miqyosidagi ilim – texnik anjumani materiallari to‘plami. – Jizzax, 2020.-B. 318-322.

3. To‘raqulov U.X., O‘rozboev S.E. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida sharq mutofakkurlari asarlaridan foydalanishni texnologiyalashtirish // Abay Qunonboev va sharq mutofakkirlarining pedagogik qarashlari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensisi materiallari. – Jizzax, 2020.- B. 108-110.

J.R. AXMEDOV,
Jizzax politexnika instituti dotsenti

AXBOROTLASHTIRILGAN TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'limni axborotlashtirishning hamda axborotlashtirilgan ta'lim muhitining o'rni va ta'limni axborotlashtirishda axborot resurslardan foydalanishning muhim jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Globallashuv, vazifa, ma'lumot, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar bazasi, axborot, axborotlashtirish, axborotlar banki, bilimlar banki, axborotlashtirilgan jamiyat.

В статье описана роль информатизации образования и информационной образовательной среды, а также важные аспекты использования информационных ресурсов в информатизации образования.

Ключевые слова. глобализация, задача, информация, хранилище данных, база данных, информация, информация, банк информации, банк знаний, информированное общество.

The article describes the role of informatization of education and the information educational environment, as well as important aspects of the use of information resources in the informatization of education.

Key words. Globalization, task, information, data warehouse, database, information, information, information bank, knowledge bank, informed society.

Dunyo miqyosida taraqqiyotning hozirgi darajasi jamiyatni intellektuallashtirish bilan xarakterlanmoqda va shu asosda taraqqiyot dinamikasining bardavomligi ta'minlanmoqda. Shu ma'noda globallashuv davri talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mavjud ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Bunda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, ta'lim mazmunini intellektuallashtirish asosida o'qitishni innovatsiyalashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, zamonaviy mutaxassislar tayyorlash uchun ta'limni optimallashtirish shakllari va ularning metodik ta'minotini yaratish bo'yicha ta'lim tizimida innovatsion metod va texnologiyalar yaratilmoqda. Shuning bilan birga jamiyat taraqqiyotining dinamik ravishda yuksalib borishini etiborga olgan holda bo'lajak mutaxassislarni intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlash zarurati ham kun tartibiga qo'yilmoqda.

Ma'lumki, axborotlashtirilgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki jamiyatning turmush tarzi va qadriyatlar tizimi ham intellektuallashadi, chunki axborotlashtirilgan jamiyatda ta'lim oluvchilarda intellekt hamda bilimlar shakllantiriladi va iste'molga kiritiladi. Pirovard natijada jamiyatni muntazam ravishda intellektuallashtirishga sharoit yaratiladi. Bu esa ko'pchilik tadqiqotchilarning axborotlar negizida bilimlarni yaratish, shakllantirish va ularni qayta ishlash, kerakli manbalarga uzatish bilan bog'liq bo'lgan muhitni yaratishiga olib keladi. Bu sohadagi ishlar rivoji esa bevosita ilmiy hamda ilmiy-pedagogik muassasalardagi tadqiqotchilar va mutaxassislar ijodiy mehnati bilan belgilanadi. Bu vazifalarni innovatsion ta'lim texnologiyalarisiz, shu jumladan axborot texnologiyalarisiz hal etib bo'lmaydi. Bundan ayni shu jarayonlardagi axborotlashtirish muammosini hal qilish dolzarb muammo ekanligi kelib chiqadi. Shu sababli ham axborot-

lashtirish hozirda “Axborotlashtirilgan asr”ning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

Qayd etilgan ketma-ketlikdan amaliyotda keng foydalanish uchun quyidagi tarkibiy qismlarga kuchli e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi:

1. Axborot manbai. Bu insonning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi asos bo‘lib, undan olingan ma’lumotlar axborot manbai bo‘lib hisoblanadi. Bular orqali bilimlarni ishlab chiqish, ilm tarqatish, ta’lim berish, insonlarni ilmli qilish tizimi shakllantiriladi. Ma’lumotlar esa kishi sezgi a’zolari, manbalari yordamida qayd etiladigan tashqi olamdan olingan belgilar to‘plamidan iboratdir.

2. Ma’lumotlar ombori. Bu muayyan jarayon (ta’lim-tarbiya, tadqiqot va h.k) va hodisalarning miqdoriy yoki sifatiy jihatdan ifodalanishiga oid ma’lumotlar to‘plami. Shuningdek, ma’lumotlar ombori kompyuterning xotirasida uzoq muddatda saqlanadigan sonli va sifatiy ma’lumotlar majmui hamdir. Ular bir yoki bir necha yo‘nalishda samarali foydalanishga mo‘ljallangan eng ixcham o‘zaro bog‘liq ma’lumotlar ko‘rinishida shakllantiriladi.

Ta’lim-tarbiya va pedagogik tadqiqotlarda jarayon haqida axborot olishda ma’lumotlar ombori propedivtik asos bo‘ladi va ular axborotlar bankini tashkil etib, manbani qo‘yilgan masalaga qarab o‘rganish imkoniyatini beradi. Bular axborotlashtirilgan ta’lim muhiti (ATM) ni yaratish va ulardan periferiyalarda foydalanish masalalarini hal qilishga mustahkam didaktik asos bo‘ladi, hamda ta’lim oluvchilar o‘zlashtirishini xohlagan paytda (joriy, oraliq, yakuniy va shu kabilar) nazorat qilishga ham axborotli asos bo‘la oladi.

3. Ma’lumotlar bazasi. Bu aniq bir manba (tadqiqot obyekti, ta’lim-tarbiya jarayoni) bo‘yicha miqdoriy va sifatiy jihatdan ifodalangan ma’lumotlar majmuidan iborat bo‘lib, u biror-bir muayan muammo yechimini hal qilishga mos tizimlashtirilgan ma’lumotlar to‘plamidir.

Ma’lumotlar bazasining asosiy maqsadi pedagogik tadqiqot jarayonini ifodalovchi ma’lumotlar tizimini yaratishdan iborat bo‘lib, uning vazifalari esa quyidagilardan iborat: pedagogik tadqiqotning muayan yo‘nalishiga oid axborotlar olish, tizimlarga ajratish; qaralayotgan tadqiqot obyektidagi funksional munosabatini boshqarishdagi axborotli ta’minotni tayyorlash va shu kabilar.

Bular ATMdan foydalanishdagi muayan mavzu yoki fanlarni o‘zlashtirishda va tayyorlangan ilmiy-metodik ta’minotlarni periferiyalarda ham joriy etishda mustahkam ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan didaktik manbadir.

4. Axborotlar. Manbalardan olinib, iste’mol uchun tayyorlangan ma’lumot axborot deb ataladi. Shuningdek, u voqea va hodisalar bo‘yicha iste’moldagi ma’lumotlarni beradi hamda axborotlar yordamida ulardagi jarayonlar mazmun-mohiyati tadqiq etiladi.

Axborot termini kishilik jamiyatining barcha jabhalarida qo‘llaniladi va ular asosida ta’lim-tarbiya jarayoni olib boriladi hamda pedagogik faoliyat boshqariladi. Shu sababli ham axborotlar ta’lim-tarbiya jarayonlarini boshqarishda ham asosiy manba va vosita bo‘lib hisoblanadi. Bunga sabab axborotlar obyektdan (manbadan) olinib ular tizimlarga, qism tizimlarga va hattoki elementlargacha ajratilib, qayta ishlanib rejalashtirilgan maqsad bo‘yicha uzatish algoritmlarini ishlab chiqib, ulardan amaliyotda foydalanishiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Bular axborotlardan amaliy faoliyatda samarali foydalanishning axamiyatliligini ham yana bir bor isbotlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, axborotlar ta’lim-tarbiya jarayonida va ularga bog‘liq bo‘lgan pedagogik faoliyatda, qolaversa kishilik jamiyatida ham nihoyatda ahamiyatli ekan, ya’ni ular insoniyatning axborot ishlab chiqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini ham

belgilab beradi.

5. Axborot resurslari. Ma'lumki, resurs – biror narsa yoki hodisaning zahirasini belgilaydi. Axborot resurslari - bu ma'lumotlar bazalari va banklari, turli xil arxiv materiallari, kutubxona fondlari kabilarni o'z ichiga oluvchi axborot tizimidagi alohida hujjatlar va hujjatlarning butun bir majmuidir.

Axborot resurslarining mukammalligi biror bir faoliyatni olib borishda va boshqarish muammolarini yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, faoliyat olib borishda axborot resurslari algoritm, model, loyiha, dastur, mezon, tamoyil, bilimlar banki va shu kabilar asosiy resurslar bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash mumkinki, axborot resurslari olim va mutaxassislar tomonidan boshqariladigan va ular maqsad-muddaolari yo'lida harakatlantiruvchi didaktik asos bo'lib, u obyektni boshqarishda mustahkam ilmiy-texnik asos bo'la oladi va demakki, axborot resurslari bo'lajak o'qituvchilarni axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim yordamchi bo'la oladi.

6. Axborot tarmoqlari. Bu aloqa tizimlaridagi insonlarning axborot-kommunikatsion texnologiyalari, axborot tizimlari axborotlashtirilgan ta'lim muhiti bilan kommunikativ muloqatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi qurilmalarning bir-biri bilan bog'langan holati.

Tahlillarga ko'ra axborot tarmoqlari quyidagi funksional vazifalarni bajarishda ishonchli ko'makchi bo'la oladi: kompyuter va aloqa vositalari yordamida qo'shimcha aloqa manbalari va materiallariga kirish; ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturiga muvofiq to'plangan audio-vizual materiallardan foydalanish; ishlab chiqarilgan dasturdagi vizual va texnologik manbalar bo'yicha ta'lim beruvchilar, pedagogika mutaxassislari hamda ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro muntazam aloqani ta'minlash; ta'lim muassasalaridagi yangiliklarni tarqatishda o'quv muassasasi bilan jamiyat o'rtasidagi asosiy aloqa tarmoqlari majmuasini tashkil etish ta'lim oluvchilarni zarur axborotlar bilan ta'minlash; ta'lim oluvchilarning individual faoliyat yuritishi.

Shulardan kelib chiqib axborot tarmoqlarining asosiy vazifasi har bir ta'lim oluvchining bilimini kengaytirish hamda ta'lim jarayonida axborotlarni izlash va ulardan samarali foydalanish maqsadida axborotlarning kelib tushishini ta'minlashdan iborat deb qayd etish mumkin.

Demak, axborot tarmoqlari orqali ta'lim oluvchilarning axborot-larni to'plash, axborotlarga xohlagan paytda murojaat qilish va axborot manbalari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish mumkin bo'lar ekan.

7. Axborot vositalari. Bu axborotlashtirilgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga ko'makchi bo'la oladigan kompyuter tarmoqlari, dasturiy-didaktik ta'minotlar ishtirokida amalga oshirish jarayoniga bevosita qatnashadigan moddiy-texnik bazaga tegishli majmua-dir. Ularga o'quv ko'rgazmali qurollar majmuasi (maketlar, plakatlar, kasbiy trenajyorlar, didaktik kasbiy kompyuterli o'yinlar; qo'lbola didaktik qurilmalar; turli xil kasbga oid trenajyorlar; xarakatchan modellar; mashq qilinadigan va amaldagi xarakatga mo'ljallangan stendlar; muayyan mutaxassislarni tayyorlashdagi ixtisoslik fanlari bo'yicha mavzulardagi jarayonlarni namoyish qiluvchi qurilmalar; dastgoh va dastgoh jihozlari; priborlar; ish qurollari; moslamalar; kitoblar; davriy nashrlar; jurnallar; mikro filmlar; slaydlar; vizual ma'ruzalar; intellektuallashtirilgan texnologik xaritalar; kompyuterli tizimlar; audio va video yozuvlar asosidagi manbalar.

8. Axborot texnologiyalari. Ushbu tushunchani yoritishda dastlab axborot texnologiyalari terminiga berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tamiz. X.A. To'raqulov fikricha "Axborot

texnologiyalari - bu aniq bir tizim masalalarining yechimini topish maqsadida axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, ifodalash, tizimlash, uzatish va uni iste’molchiga foydalanishga qulay xolga keltirish jarayonini kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizim va amaliy dasturlar majmuasidir” .

Demak, qaralayotgan muammo maqsad-vazifalarini va axborotlashtirish vazifalarini e’tiborga olgan holda axborot texnologiyalariga quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq ekan: Axborot texnologiyalari – bu ta’lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirishning optimal variantlarini topishda asosiy intellektual manba bo‘lib, u axborotlar ustida bajariladigan amallarni tizimli bajarishni kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiradigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizim va amaliy dasturlar majmuasidir.

9. Axborot texnologiyalari ta’minotlari. Kompyuter va uning periferiyasi negizida ma’lumotlar ustida amallarni bajarishning mujassam holdagi ta’minotlari axborot texnologiyalarining ta’minotlari deyiladi.

Axborot texnologiyalari quyidagi ko‘rinishdagi komponentlarni, ya’ni ta’minotlarni o‘z ichiga oladi: dasturiy (kompyuter dasturlari to‘plami); texnik (barcha texnik vositalar majmui); matematik (matematik modellar, usullar va ma’lumotlar bazasini boshqarish algoritmlari); axborot (axborotni joylashtirish va tashkil qilish bo‘yicha uslub va vositalar yig‘indisi); lingvistik (inson va tizim orasidagi muloqotni ishlab chiqish hamda ta’minlash uchun axborotlarga ishlov berishda va foydalanishning turli bosqichlarida ishlatiladigan til vositalari yig‘indisi); tashkiliy (axborot texnologiyalaridan foydalanish, unga samarali axborot xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar va boshqarish hujjatlari majmuasi); huquqiy (axborot texnologiyalarini yaratish va funksiyalashtirishni tartibga soluvchi huquqiy meyorlar yig‘indisi).

Axborot texnologiyalari ta’minotining keltirilgan turlarining birgalikda mavjudligi axborotlarni qayta ishlashda axborot texnologiyalari vazifalarini bajarish imkoniyatlarini beradi.

10. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar. “Axborot-kommunikatsion texnologiyalar - bu talabalarning muayyan yo‘nalishdagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini takomillashtirishda yangi texnik universal didaktik vosita bo‘lib, u talabalarning amaliy tafakkurini kengaytiradi hamda chuqurlashtiradi, ulardagi o‘sha yo‘nalish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yuqori darajaga ko‘taradi”.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar negizida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi kompyuterli tizimlarni ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Ulardagi tarkibiy qismlar asosan quyidagilardan iborat: o‘qitish-o‘rgatish tizimlari; maslahat beruvchi tizimlar; axborot-qidiruv tizimlari; talabalar bilimini baholash va nazorat qilish tizimlari.

11. Axborot tizimlari. Axborot tizimi – bu axborotlar ustida amallar bajarish va uning natijalaridan foydalanish imkonini beradigan tashkiliy jihatdan tartibga solingan axborot resurslari, axborot texnologiyalari, aloqa vositalari, shuningdek, o‘z tarkibida kompyuter, kompyuter tarmoqlari, axborot va dasturiy ta’minot hamda odamlarning birgalikdagi faoliyat yuritish jarayonini aks ettiruvchi, iste’molchi uchun axborot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oluvchi tizimdir.

Axborot tizimlariga berilgan ta’riflar ichida quyidagi ta’rif ahamiyatlidir: “Axborot tizimlari – bu belgilangan maqsadga erishish uchun axborotlarni shakl va mazmuniga ko‘ra turlarga ajratish, ularni saqlash, izlash va qayta ishlash tamoyillari, qayta ishlashda

qo‘llaniladigan usullar, shaxslar hamda vositalarning o‘zaro bog‘langan majmui”.

Bu ikki ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, axborot tizimlari boshqaruv xizmati xodimlarining ishini yengillashtiradi, ya’ni axborotlarni yig‘ish, saqlash, ularni tadqiqot maqsadiga mos sinflarga ajratish va uzatish jarayonlarini samarali amalga oshiradi. Ushbu jarayonlardagi yo‘naltiruvchi faoliyat esa ma’lumotlar, axborotlar, axborotlarni o‘zlashtirish hamda axborotli tizimni ishlab chiqish va ularni kerakli manbalarga (iste’molchiga, tadqiqotchiga, keyingi boshqaruv tizimiga va shu kabilarga) uzatishlardan iborat bo‘lar ekan.

12. Axborotlarni faksimil uzatish. Bu axborot resurslari (axborot tizimi tarkibida mavjud bo‘lgan elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar bazasi) va axborot tarmoqlari (ilova tizimlarida kompyuterlar yordamida axborotlashtirishga xizmat qiluvchi qurulmalarning bir-biri bilan bog‘langan xolati) negizidagi odamlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi bo‘lib, uning yordamida matn (qo‘lyozma, gazeta va h.k.), grafika, fotografiya va shu kabi har qanday hujjatni bir obyektdan ikkinchisiga uzatiladi. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, uzatilayotgan axborot (matn, jadval, grafik, xujjat va shu kabilar) asl nushasidek qilib kerakli obyektga yetkaziladi. Bu axborotlashtirilgan ta’lim muhitidagi ilmiy-metodik ta’minot va boshqa didaktik materiallarni hududiy obyektlarga yetkazishda ishonchli vosita bo‘lib xisoblanadi va tadqiqot natijalarining ma’naviy jihatdan eskirishining oldini olishda didaktik ko‘mak bo‘la oladi.

13. Axborotli ta’lim muhiti. “Axborotli ta’lim muhiti - bu o‘rganuvchi, o‘rgatuvchi (o‘qituvchi) va yangi axborot texnologiyalari vositalari o‘rtasidagi o‘quv-axborotli hatti-harakatlar jarayoni paydo bo‘lishi va rivojlanishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar majmuasi hamda muayyan o‘quv kursi bo‘yicha predmet mazmuni muhiti komponentlari (kompyuterga ulanuvchi turli xil o‘quv, namoyish qiluvchi jihozlar, dasturiy vositalar va tizimlar, o‘quv ko‘rgazmali va boshqalar) jamlangan sharoitda o‘rganuvchilarning (o‘rgatuvchilarning ham) faol bo‘lish faoliyatini shakllantirish jarayonidir”.

Demak, axborotli ta’lim muhiti axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi to‘g‘ri va teskari aloqalar jarayonining yo‘lga qo‘yilishi va undagi imkoniyatlar kengayishiga sharoit yaratuvchi majmua darajasida talabaning o‘quv-biluv faoliyatini keng qamrovliligini ta’minlash jarayonidan iborat ekan. Bularga asoslanib axborotli ta’lim muhitining asosiy maqsadini istemolchi (tadqiqotchi, o‘qituvchi, talaba va shu kabilar) ning ijobiy tashabbuskorlik qobiliyati va intellektual potensialini rivojlantirish asosida ta’lim oluvchilarga bilimlarni mustaqil egallash va ularni sifatli o‘zlashtirish uchun shart- sharoit yaratish hamda o‘qitish natijalarini tahlil qilishni avtomatlash-tirishni ta’minlashdan iborat, deb belgilab olishimiz mumkin.

14. Axborotlashtirilgan ta’lim muhiti. “Axborotlashtirilgan ta’lim muhiti (ATM) - bu dasturli-kommunikatsion muhitdan iborat bo‘lib, u ihtiyoriy sondagi ta’lim muassasalarining ta’lim darajasi va kasbiy jihatdan ixtisoslashuvidan qat’iy nazar, ularning axborotli ta’minoti va “Internet” muhitidagi dalillar bilan asoslangan o‘quv jarayonini olib borishni yaxlit texnologik tizimini ta’minlaydi”.

Demak, ATM o‘z tarkibiga tashkiliy-tuzulmaviy, madaniy-ma’rifiy, intellektual, dasturiy-didaktik, dasturiy-metodik, texnik-texnologik ta’minotlarni jamlab olar ekan va uning o‘zi ochiq tizimdan iborat bo‘ladi. Shulardan kelib chiqqan holda axborotlashtirilgan ta’lim muhitining asosiy maqsadini zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalardan xususan, axborotli ta’lim muhitlaridan foydalangan holda ulardan keng ko‘lamdagi mutaxassisliklarni egallashi bo‘yicha bilim olishga bo‘lgan talablarini qondirishdan iborat, deb belgilab olish mumkin.

Ushbu maqsadni og‘ishmay amalga oshirish uchun mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni

olib borishga oid jihatlar, talablar, shart-sharoitlar negizidagi uning funksional vazifalarni belgilab olish hamda ularning innovatsion faoliyatni tashkil etishdagi o‘rinlari bo‘yicha ilmiy-metodik jihatdan asoslab olish maqsadga muvofiq ekan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash orqali ularda ta’limni intellektuallashtirish va axborotlashtirishdek muhim yo‘nalishlarida ham kompitensiyalarni rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ATM o‘rni beqiyosligidan dalolat beradi. Shuning uchun biz bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion faoliyatning tashkiliy-tuzilmaviy modelini ishlab chiqish va har bir tarkibiy tuzilmaning funksional vazifalarini ilmiy-metodik asoslash hamda amalda qo‘llashni asos sifatida kiritdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboyev J., To‘raqulov X.A., Xaydarov M., Xasanboyeva O., Usmonov N.O‘. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B. 672.

2. To‘raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. MonografiY. – T.: Fan, 2007. – B. 248.

3. Nasriddinov I.X., Xadjaboyev A.R. Novaya informatsionnaya texnologiya // O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimining rahbar, pedagog va muxandis- pedagog kadrlarini malakasini oshirishning ilmiy-pedagogik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: OO‘MKHTTKMO va O‘QTI, 2003. – B. 142-144.

4. Филатов О.К. Значение современных технологий обучения // Информатика и образование. – М.: 2009. – №2. – С. 10.

5. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: O‘qituvchi, 2002. – B. 133.

6. To‘raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashninig ilmiy-metodik ta’minoti. MonografiY. – T.: O‘MKHTTKMO va O‘QTI 2010. – B. 156.

T.M. ISAQULOV,
Oriental universiteti,
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi" dotsent v.b

DARSLARDA UCH O'LCHOVLI KOMPYUTER GRAFIKASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada darslarda uch o'lchovli kompyuter grafikasidan foydalanish va o'quvchilarni darsda 3D texnologiyalaridan foydalananishga o'rgatishga qo'yiladigan asosiy pedagogik talablar yoritilgan.

Kalit so'zlar. 3D tasvir, 3D videolar, (video, foto va animatsiya), 3D loyiha, 3D ilova, dasturlar, texnologiyalar.

В статье освещены основные педагогические требования к использованию трехмерной компьютерной графики на уроках и к обучению учащихся использованию 3D-технологий на уроке.

Ключевые слова. 3D изображение, 3D видео, (Видео, Фото и анимация), 3D проект, 3D приложение, приложения, технологии.

The article covers the main pedagogical requirements for the use of three-dimensional computer graphics in classes and for teaching students to use 3D technologies in the lesson.

Key words. 3D image, 3D videos, (video, photo and animation), 3D logic, 3D application, applications, technology.

Bugungi kunda texnik taraqqiyot hayotning barcha sohalariga, ya'ni ta'limga tobora keng kirib bormoqda. Bugun kompyuterni, multimedia kartasini yoki projektorni ishlatmay uch o'lchovli kompyuter grafikasidan foydalanishni tasavvur qila olmaymiz. XXI asrning ikkinchi o'n yilliklaridan boshlab 3D texnologiyalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'llash boshlandi. Zamonaviy 3D texnologiyalari joriy etilishi yangi standart bo'yicha belgilangan vazifalarni hal etishga yordam beradi. Yangi jihozlar o'quv mashg'ulotlarida nazariyani amaliyotga joriy etishga, o'quvchilarga o'quv materialini yaxshiroq tushunish va yaxshiroq o'rganishlariga yordam beradi. Bundan tashqari, yangi texnologiyalardan foydalanish bilan mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish, bilimlarini tizimlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlarni egallashlariga va kelajakda ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Uch o'lchovli kompyuter grafikasi nazariyasiga ingliz olimi Charlz Wheatstsone asos solgan XIX asrning o'rtalariga kelib Charlz Wheatstsone operasiya prinsipi asosida o'ng va chap ko'z bilan tasvirning farqlanishiga asos bo'lgan qurilmani ixtiro qildi. Nazariy jihatdan, yangi qurilma moslamalarni tekis emas, balki hajmda ko'rish imkonini berdi va axborot texnologiyalari ta'lim sifatini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuterlar va kompyuter tizimlari, turli elektron asboblar, audio va video texnika vositalari alohida rol o'ynashi mumkinligiga sabab bo'ldi.

Uch o'lchovli kompyuter grafikalari ta'lim texnologiyalarida qo'llanla boshlangan bo'lsada, darslarda 3D texnologiyasidan foydalanish Respublikamizda ishlab chiqilmagan. Interaktiv 3D texnologiyasini yaratishda, 3D animatsion fragmentlar, videokliplar, kompyuter modellarini tatbiq etish dasturlari, grafik obye'ktlarni foto-realistik qilish

lozim hisoblanadi. Bunda 3D grafik ma’lumotlarning o‘quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinishini, ayni paytda tizim potensial foydalanuvchilar resurslariga moslashtirilishini ta’minlash zarur. Shu bilan birga, foydalanuvchilar ma’lumotlarni ko‘rish uchun dasturlar foydalanishga joriy qilinishi kerak.

Texnologiyalar davrining hozirgi bosqichida biz loyihalar va ishlab chiqishda 3D funktsiyasi bilan dasturlardan foydalanadigan dizaynerlar, me’morlar, fiziklar, biologlar va boshqalarni ko‘rmoqdamiz. Lekin informatika va axborot texnologiyalarini o‘rgatishda foydalanilmagan. Tabiiyki, bu yangilik ta’lim tizimini chetlab o‘tmaydi.

Darslarda 3D texnologiyalaridan foydalanishda quyidagilarga etibor qaratish lozim:

• o‘quvchilarning darslarga e’tiborini jalb etish;

• murakkab mavzular va darslarni namoyish qilish;

• o‘quvchilarning 3D tasvirlari va 3D videolarini ongli qabul qilishiga erishish;

• o‘quvchilarni ijodkorlik va kasbiy yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun ushbu texnologiyalardan foydalanish;

• sinfdan tashqari tadbirlar, qiziqishlar bo‘yicha klublar tashkil etish;

• tanlov va boshqa tadbirlarni o‘tkazish.

Ko‘rib turganimizdek, bugungi kunda jamiyat va ta’limni AKTdan alohida holda tasavvur qilishning imkoni yo‘q. Hozirgi kunda o‘quvchilar ko‘pincha turli xil texnologik qurilmalar, kompyuterlar, mobil telefon va boshqalardan foydalanadilar. Bundan tashqari, ularning aksariyati 3D filmlarni tomosha qilishdan tashqari 3D texnologiyani yaxshi tushinadilar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarda uch o‘lchovli modellash turli xil texnik qurilmalar, ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. 3D texnologiyasining asosiy tendentsiyalari ularni tortishishdan ilovaga o‘tish va 3D kontent yaratish (video, foto va animatsiya) va ta’limda 3D texnologiyani joriy etish bu tendentsiyalarni ta’kidlaydi. 3D bilan virtualizatsiya qilish o‘quvchilarning harakat tamoyilini yaxshiroq tushunishiga imkon beradi va butunlay bir narsa ko‘rgan holda, ular har bir qismning maqsadini yaxshi tushunadilar.

Shubhasiz, o‘quv jarayonida 3D texnologiyadan foydalanish “pedagogik murakkablik” bilan bog‘liq masalalarda 3D texnologiya ma’lumotni taqdim etish kerak bo‘lgan mavzularda zarurdir. Eng istiqbolli ta’lim texnologiyalaridan biri “Virtual 3D texnologiya” dir. Bunday virtual 3D texnologiya yordamida ma’lumot yaxshiroq eslab qolinadi, chunki odam ko‘rgan, eshitadigan va bajaradigan ma’lumot eng yaxshi esda tutilgan va bularning barchasi virtual 3D texnologiyada amalga oshiriladi. Bugungi kunda o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyadan foydalangan holda, video, foto va animatsion mahsulotlarni ko‘radilar va ta’lim olish uchun yetarli bo‘lgan uch o‘lchamli fotosuratlar va 3D video materiallar yaratiganligi sababli, o‘qituvchilar 3D texnologiyasidan foydalangan holda o‘zlarining darslarini yaxshiroq tushinishlari mumkin. Ta’limni modernizatsiya qilish strategiyasi barcha darajalarda ta’lim metodlari va texnologiyalarini o‘zgartirish, axborotni tahlil qilish, o‘quvchilarning mustaqil ishini rag‘batlantirish, mas’uliyatli tanlov va mas’uliyatli faoliyat tajribasini yaratish uchun amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradigan texnologiyaning og‘irligini oshirishga urg‘u beradi. Darslarda 3D o‘lchovli kompyuter grafikasidan foydalanishning asosiy vazifasi ta’limning zamonaviy sifatini yaxshilashga qaratilgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning samaradorligini oshirish. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida bilimlar, malakalar va qobiliyatlarning ajralmas tizimini, shuningdek, ta’lim mazmunining zamonaviy sifatini belgilaydigan o‘quvchilarning mustaqil faoliyati va shaxsiy mas’uliyat tajribasini shakllantiriga xizmat qiladi.

3D texnologiyalari (video, foto va animatsiya) sistemalarga mo‘ljallangan texnologiya hisoblanadi. Hozirgi vaqtda 3D texnologiyalari amaliy maqsadlar uchun va o‘quvchilarning tasavurini oshirish va turli xil texnologik qurilmalardan foydalanishga yordam beruvchi texnologiyadir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sinfda o‘quv jarayonida tobora ko‘proq foydalanilmoqda va darsda 3D texnologiyasidan 10-15 minutdan ortiq bo‘lmagan holda foydalanish tavsiya etiladi.

3D texnologiyasidan foydalangan holda darslar yanada samarali bo‘lishi va o‘quvchilar materiallarni yaxshi tushuniladi, fikrlash va tasavvur kuchayadi. 3D ko‘rinishi o‘quvchilarga harakat tamoyilini tushunishga imkon beradi. Murakkab tushunchalar tasvirlarga bo‘lingan holda ularni yaxshiroq tushinish osonroq. Grafik virtuallashtirish tufayli bolalarga murakkablikning ob’yektlarini idrok etish mumkin, chunki animatsiya ularni tarkibiy qismlarni ko‘rish va ishlash tamoyilini tushunishga imkon beradi. Ta’lim jarayonida 3D dan foydalanish xatti-harakatlar va aloqa modellarida ijobiy o‘zgarishlar, shuningdek, sinfdagilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilash imkonini beradi.

Ta’limda 3D ning xususiyatlari emas, balki uning ta’limda ishlatilishi muhim sanaladigan ya’ni, 3D ta’limda “pedagogik murakkablik” va virtual axborot taqdim etish zarurati bilan mavzularda to‘g‘ri qo‘llanilishi kerak. Kelajakdagi ta’lim texnologiyalaridan biri virtual 3D simulyatorlar hisoblanadi va u masofaviy ta’lim va nazorat qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan vazifalarga ega bo‘lgan interaktiv 3D ilovalar - texnik qurilmalar yoki jarayonlarning modellarini o‘z ichiga oladi. Ular nafaqat axborotni keng hajmli taqdim etishning afzalliklariga ega bo‘lishlari bilan birga, o‘quvchining virtual muhit bilan ishlashiga imkon beradi.

Ko‘pincha o‘qituvchilar o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga e’tiborsizligi yoki mutlaqo befarqligi muammosiga duch kelishadi. Aniq va tabiy fanlarni o‘rganish borasida vaziyat keskinlashadi, chunki murakkab nazariyalarni so‘zlar bilan ifodalash qiyin kechadi. Bu yerda 3D texnologiyasi o‘quvchilarga dars kitoblarida o‘rganayotgan narsalar bilan to‘liq tanishishga imkon beruvchi texnologiya hisoblanadi. Ushbu texnologiya yordamida o‘quv jarayonini tushunish uchun osonlik bilan o‘tish mumkin, shuningdek, juda qiziq.

3D texnologiyadan foydalanish uchun tavsiya etilgan tizim bularga 3D foto, 3D video va 3D ilovalar kiradi. Maktabda kelajakda foydali bo‘ladigan eng yangi texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati bo‘ladi. Bu kelajakda noyob va shubhasiz izlanadigan tajriba.

3D texnologiyasi o‘quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bugungi kunda 3D texnologiyasi o‘quv tizimiga faol ravishda jalb qilinmoqda, chunki o‘quvchilarga o‘quv jarayonini qiziqarli va tushunarli qilish imkonini beradi; ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Virtualnaya realnost. Nauchno-populyarnыy jurnal “Mir 3D WORLD” №6(14), 2013.

2. Isaqulov T.M. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 3D formatdagi interaktiv elektron o‘quv qo‘llanmadan foydalanish // Pedagogika. – Toshkent, 2020. – 2-son. – B. 109-112. (13.00.00 № 6).

3. Isaqulov T.M. The challenges of creating 3D interactive e-learning courses // Academicia an International Multidisciplinary Research Journal South Asian academic research Journals a publication of CDL college of education. – India, 2020. – P. 122-126. (Impact Factor-7.223). https://saarj.com

Azlarxon TILLABOYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika kafedrasi mudiri

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ASTROFIZIKANI O‘QITISHNING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida astrofizikani o‘qitishning ayrim masalalari yoritilgan hamda hozirgi zamon astronofizik kuzatish-tekshirish ishlari to‘liq axborot texnologiyalari muhitida bajarilishi va uni o‘qitishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli kameralar, kosmik observatoriya, raqamli texnika, raqamli texnologiya, model, simulyatsiya.

В данной статье освещаются некоторые вопросы преподавания астрофизики на основе цифровых технологий, а также раскрывается значение современных астрофизических наблюдений и верификации в среде информационных технологий и их значение в обучении.

Ключевые слова. Цифровые фотоаппараты, космическая обсерватория, цифровая техника, цифровые технологии, модель, моделирование.

In this article, some issues of teaching astrophysics on the basis of digital technologies are highlighted, and the importance of modern astrophysical observation and verification in the environment of information technologies and its importance in teaching is revealed.

Key words. Digital cameras, space observatory, digital technique, digital technology, model, simulation.

XXI asrning oxirgi besh yillaridan boshlab jamiyatda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni keskin jadallashdi. Jamiyatni raqamlashtirishda har bir ijtimoiy sohaning rivojlanish tendensiyalarining asosiy o‘zagida raqamli texnologiyalarni qo‘llash ko‘lamining kengligi nazarda tutildi. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, uning asosiy xususiyatlari qanday, degan savollar hozirgi zamon jamiyatidagi har bir fuqaroni qiziqtirishi tabiiy.

Ta’limda raqamli texnologiya bu – kompyuter dasturlari yordamida ikkilik sanoq tizimida ishlab chiqilgan, ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish hamda uning natijalarini inson omili ishtirokini kamaytirish asosida avtomatlashgan sistema asosida tashkil etish imkoniyatini beruchi dasturiy ta’minot.

Bunday ta’limni tashkil etishda esa bugungi kunda nashr adabiyotlarining takomillashtirilgan ko‘rinishlari multimediali ishlanmalar hamda virtual laboratoriya topshiriqlari, interaktiv ta’lim texnologiyalari qo‘llanib yaratilgan, fanning ma’ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta’lim shakillari to‘liq yoritilgan elektron darsliklarni qo‘llash zarur.

Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga raqamli texnologiyalarni qo‘llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– raqamli texnologiyalar modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi;

– multimedia vositalari asosida o‘qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter asosida to‘liq o‘qitish;

– ma’ruza matnlarini tahrir qilish;

– talabalar topshirgan nazorat natijalarining tahlili asosida ma’ruza matnlarini ba-

yon qilish uslubini yaxshilash;

talabalar axborot texnologiyalarini multimedia vositalari asosida animatsiya elementlarini mashg‘ulot jarayonida ko‘rishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Ta’limni raqamlashtirish, birinchi navbatda quyidagilarni nazarda tutadi:

– kompyuter texnikasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hamda texnik ta’minotning zamonaviy vositalarini tizimli o‘rganish, tashkil etish va foydalanishni;

– talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o‘quv va metodik ta’minlashni;

– pedagoglar tomonidan zaruriy metodik ta’minotni yaratish bo‘yicha ishlarni;

– axborot texnologiyalarini samarali qo‘llanilishidan vujudga kelayotgan yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi.

Bu jarayon, birinchidan, ilmiy-pedagogik ma’lumotlar bazasidan foydalanish asosida ta’lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirishni, ikkinchidan, zamonaviy axborot jamiyatida, shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta’lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni, uchinchidan, talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, unda mustaqil bilim olish malakasini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning metodik tizimini yaratishni va nihoyat, to‘rtinchidan, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning diagnostik metodlarini, xususan, kompyuter testlarini yaratishni va ulardan foydalanishni maqsad qiladi. Ta’limni raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni ta’limdagi tashkiliy shakllar va metodlarning o‘zgarishigagina emas, balki undagi yangi metodlarning shakllanishiga ham olib keladi.

Hozirgi zamon astronomik kuzatish-tekshirish ishlari to‘liq axborot texnologiyalari muhitida bajariladi. Avtomatik kosmik apparatlarda sinovdan o‘tgan, masofadan turib teleskop (masalan, Xabbl Kosmik Teleskopi)ni boshqarish tizimi Yerdagi teleskoplarda ham qo‘llanilmoqda. Astronom olim teleskop yonida turishiga va uni boshqarishiga zarurat yo‘qoldi. Teleskop va unga o‘rnatilgan o‘lchash asboblarini ulardan masofada (xatto, boshqa shaharda, qit’ada) bo‘lgan astronom kompyuter ekranida kuzatib turadi va u telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida kuzatishni nazorat qiladi va boshqaradi. Kuzatish-o‘lchash natijalari shu astronom-kuzatuvchining kompyuteri xotirasiga tushadi.

Oxirgi yillarda astronomik kuzatish-o‘lchash ishlariga raqamli kameralar tatbiq etilmoqda. Ular astronomik o‘lchashlarni raqamli tizimga o‘tkazishga va ularga hisoblash texnikasini qo‘llashga imkon berdi. Natijada, astronomik kuzatish natijalari magnit disklarda to‘plana boshlandi. Astronomik o‘lchash natijalari saqlanadigan internet banklar hosil bo‘ldi va ularda to‘plangan ma’lumotlar keng ilmiy jamoatchilik uchun ochiq deb e’lon qilindi. Bunday sharoitda internet nihoyatda katta xizmat ko‘rsatmoqda.

Astrofizikada o‘z-o‘zidan bizning hissiyotlarimizga ta’sir qilmaydigan hodisalar kuzatiladi. Bunday holda hodisaning mohiyatini modellashtirib tasvirlash mumkin. Model bu hodisaning aniq ta’rifi orqali uning tasvirini raqamli texnologiyalar asosida tasvirlashdir. Astrofizika bo‘yicha individual kuzatuvlar jarayonida kompyuter va raqamli texnologiyalarni teleskopga o‘rnatiladigan datchiklar va o‘lchash moslamalari bilan birgalikda qo‘llash, birinchi navbatda, kuzatuv eksperimentining ishlash vaqtidan va bir qator talablardan xalos bo‘lish, ikkinchidan, kuzatuv davomida osonlikcha boshqarilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyatini beradi. Agar kompyuter va tabiiy tajriba birlashtirilib, ko‘rib chiqilayotgan astrofizik jarayonlar farqini, shuningdek, nazariya va tajriba o‘rtasida astrofizik ilmiy ma’lumotlar o‘rinli modellashtirilganligi tasdiqlansa,

ta’limda bunday ishlanmalardan foydalanish metodik jihatdan samarador bo‘ladi.

Virtual ishlanmalardan foydalanish bugungi zamonaviy ta’limda tobora an’anaviy ko‘rinish kasb etib bo‘lgan. Ayni paytda astrofizika kuzatuv eksperimentlariga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot tizimlar va datchiklarning sxematik va raqamli kameralarning ishlash tamoyillari ham simulyator dasturlari asosida tushuntiriladi hamda ta’limda virtual ishlanmalar raqamli ko‘rgazmaviy vositalar vazifasini ham o‘taydi. Shu kabi ishlanmalar mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilmoqda.

Astrofizik kuzatuv eksperimentini (shuningdek, texnik ob’ektlarni) avtomatlashtirish va boshqarish uchun bunday dasturiy ta’minotdan foydalanish kompyuter uskunalarida va kompyuterning uzatuvchan xususiyatlarini bajara oladigan koinot ob’ektlarida astrofizik kuzatuv eksperimentini takomillashtirishda alohida o‘rinni belgilaydi.

Astrofizikani o‘rganayotganda talaba “vizual” klassik tasvirlardan qat’iyan voz kechishi kerak. Amalda astrofizik tushunchalardan foydalanish (masalan, aniq vazifalar uchun) ham albatta astronomiyaning ushbu sohasini hazm qilish kerak. Biroq, astrofizik tushunchalarni o‘zlashtirish qiyin, ayniqsa, talabalar ushbu material bilan birinchi marta astronomiya kursida uchrashganda qiyinchilik bo‘lganidek.

Simulyatsiya dasturining imkoniyatlari astrofizik kuzatuv tajribalarini iloji boricha to‘liq miqyosda o‘tkazishga imkon beradi. Shunday qilib, an’anaviy metodikada faqat samarali usulda taqdim etilganligini namoyish etish va tajribalar o‘tkazish mumkin. Bu o‘quv materialini yanada ko‘rgazmali namoyish etishga yordam beradi.

Astrofizikani o‘rganish uchun ishlatiladigan simulyatsiya va modellashtirish dasturlarini talabalar professor-o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ravishda rivojlantirishlari mumkin. Simulyator dasturidan foydalanish bilan birgalikda muammoli usul ushbu bo‘limni o‘rganishda juda samarali bo‘lishi mumkin. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda simulyatsiya modellashtirish imkoniyatlari muammoli o‘qitish usuli bilan birgalikda talabada tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolova P.M. Ko‘p funksiyali multimedia ilovalarini yaratish va ulardan mashg‘ulotlarda foydalanish uslublarini ishlab chiqish talablari // Ijtimoiy sohalarni raqamlashtirishda innovasion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar to‘plami. – Qarshi, 2020. - B. 157-160.

2. Jalolova P.M. Kredit-modul tizimida talabalarni “fizika” fanidan laboratoriya eksperimentlariga virtual ishlanmalar asosida tayyorlash metodikasi // “Fizika fanining rivojida iste’dodli yoshlarning o‘rni”. Respublika ilmiy anjumani materiallari. – O‘zMU. Toshkent, 2020. - B.331-334.

3. Tillaboyev A.M. (2021). Astronomiya fanining ilmiy-tadqiqot yutuqlarini ta’lim tizimiga qo‘llashning nazariy asoslari. Academic research in educational sciences, 2(2), 462-466.

4. Tillaboyev A.M. Astronomiya kursini elektron ta’lim resurslaridan foydalanib o‘qitish metodikasi / “Ta’lim sifati samaradorligini oshirishda xalqaro tajribadan foydalanish: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy oflayn/onlayn konferensiya, Chirchiq, 2021. 490-495 b.

F.S. MAXAMATOVA,
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti,
“Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM TIZIMIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA INTELLEKTUAL FAOLIYATGA OLIB KIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning intelektual salohiyatlarini raqamli ta’lim vositalari asosida takomillashtirish yo‘llari haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Intelektual salohiyat, kreativlik, raqamli ta’lim vositalari, raqamli ta’lim muhiti.

В статье рассматриваются пути повышения интеллектуального потенциала будущих преподавателей системы высшего образования на основе цифровых образовательных инструментов.

Ключевые слова. Интеллектуальный потенциал, креативность, цифровые образовательные инструменты, цифровая образовательная среда.

The article discusses ways to improve the intellectual potential of future teachers in the higher education system based on digital educational tools.

Key words. Intellectual potential, creativity, digital educational tools, digital educational environment.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Biz ilgari ta’lim dasturlarini an’anaviy usuli ya’ni ma’ruzani yirik xajmli kitoblar va qo‘llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatining u qadar yuqori bo‘lishini ta’minlamagan. Hozirda ta’lim sifatini ko‘tarishda ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan.

Raqamli texnologiyani o‘zi nima degan savolga quyidagicha javob beramiz: bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy ho‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko‘rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarm saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Biz bu maqolada ta’lim tizimida raqamlashtirishni o‘rniga to‘xtalib o‘tamiz.

Raqamli texnologiyalar orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg’ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma’lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi.

Jahonda o‘qituvchi va talabalar uchun elektron o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqishni takomillashtirish; axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida o‘quv loyi-

halarini tayyorlash; konstruktorlik ishlarini amalga oshirish; talabalar uchun kompyuter texnologiyalari vositasida intelektual faoliyatni tashkil etish; talabalarda muloqot, intelektual kompetentsiyalarni shakllantirishga yordam berish; ta’lim tizimlarini va pedagogik faoliyat turlarini shakllantirish va rivojlantirish ustuvor o‘rin tutadi. YuNESKO xalqaro komissiyasi raisi J.Delorning XXI asr ta’limiga bag’ishlangan “Ta’lim: hali ochilmagan xazina” mavzusidagi ma’ruzasida kasbiy kompetentlik negizida ta’lim jarayonini loyihalashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning intelektual malakalarini shakllantirish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg’u beriladi. Bugungi kunda Rossiya, Angliya, Frantsiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, AQSh davlatlarining oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida raqamli ta’lim muhitiga asoslanib, talabalarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash, ularning kasbiy kompetentsiya sifatlariga ega bo‘lishida dinamik natijalarga erishilmoqda. Natijada, raqamli ta’lim vositasidan samarali foydalanish, zamonaviy sharoitda talabalarning intelektual salohiyatini rivojlantirib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishilmoqda.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quv, ijodiy, amaliy va tadqiqot xarakteridagi kreativlik ishlanmalarini yaratishga talabalarni jalb etish, ularning intelektual madaniyatini kreativlik asosida rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, talabalarda raqamli ta’lim muhitida ularning intelektual faoliyatlari talab darajasida rivojlanmaganligi, ularda intelektuallikni rivojlantirishning nazariy tavsifini asoslash mexanizmini yaratish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar texnologiyasida “Sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy extiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning halqaro standartini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish” masalalari yoritilgan. Bu talabalar intelektual sifatlari, innovatsion hamda interfaol usullar asosida ta’lim jarayoniga tayyorlash malakalariga ega pedagog kadrlar tayyorlashga hizmat etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar texnologiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-3151-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning intelektual salohiyatlarini rivojlantirish hamda ularni intelektual faoliyatga olib kirish maqsadga m uvofiq omil hisoblanadi.

Yurtdoshimiz, yosh olima M.R.Qodirova o‘z tadqiqotlarida ta’lim jarayonlari samaradorligini baholash mezonlarini shakllantirishda: intellektual qobiliyatli, intellektual tashabbus, intellektual ijod va intellektual o‘z-o‘zini boshqarishni hisobga olgan. Tadqiqotda talabalarning ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish darajalari to‘ldirildi va tadbiq qilindi:

1) passiv talaba o‘zining imkoniyatlariga ishonmaydi, shu bilan birga, berilgan ma’lum ijodiy topshiriqlarni bajara olmaydi va hohlamaydi;

2) sust, bo‘sh talaba o‘z kuchi va imkoniyatlarida ikkilanadi, ijodiy topshiriqlarni faqatgina o‘qituvchi boshchiligida reproduktiv usul yordamida bajara oladi;

3) o‘rtacha talabaga ijodiy topshiriqlarni bajarishda qo‘shimcha omillar zarur va u o‘ylaganini amalga oshirish uchun yangi elementlar kiritadi. Bunda talaba individual ijodiy faoliyatga intilmasdan, kichik guruhlarda afzal ko‘rishi muhim;

4) kuchli talaba o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonadi, ba’zida ularga ortiqcha baho beradi.

Tadqiqot doirasida talabalarning ijodiy rivojlanishining keng tarqalgan ko‘rinishlari tavsiflangan:

– passiv-tanishtiruv (ijodiy faoliyatga qiziqish va ichki ehtiyoj);

– ijodiy-reproduktiv (talabalarning ijodiy faoliyatga intilishi bilan mos kelishi va uning reproduktiv xarakteri);

– qisman ijodiy (talabaning faolligi tizimli istak va xohishlarni talab qiladi, uning ijodiy faoliyati izlanuvchi xarakterga ega);

– xususiy ijodiy (talabaning o‘z faolligini boshqarishda uning bilishga oid faoliyati ijodga aylanadi).

Olima G.N.Ibragimova interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z tadqiqotlarida yoritib berganlar.

Hozirgi kunda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalariga eng ustivor vazifalar sifatida quyidagilar belgilangan:

– ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta’lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiytadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta’minlash;

– jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta’lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriyalar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni belgilash, ushbu yo‘nalishlarda yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va talabalar salmog`ini oshirish.

Ta’lim va bilim faoliyati maqsadi, vosita va tuzilishi oshirish murakkabligi muvofiq oliy professional ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash hozirgi holati ko‘lamini kengaytirish va talabalarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatini kuchini oshirish uchun beradi ta’lim jarayonini takomillashtirish o‘z ichiga oladi, professional malakasini oshirish uchun zarur bo‘lgan ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarkibiy qismlaridan biri tadqiqot faoliyati ko‘nikmalarini o‘zlashtirish.

Xulosa qilib shuni ta’kidlashimiz kerakki, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning intelektual qobiliyatlari rivojlanadi hamda ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining mazmuni o‘zgaradi: u faqat bilimning yetkazib beruvchidan to‘xtaydi va yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiquvchiga aylanadi. Talabaning o‘quv faoliyatining tabiati ham keskin o‘zgaradi, chunki u nafaqat o‘qituvchi va guruhdoshlari bilan, balki kompyuter bilan ham muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu zamonaviy OTMning asosiy vazifalaridan biri – ta’lim sifati muammosini hal qilish imkonini beradi. Bu asosda ularda intelekt hamda kreativlik rivojlanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 173 b

2. Safaraliyevna, M. F. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilarni intelektual faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy jihatdan zarurligi va ularni amalga oshirishning konseptual asoslari. integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 3(6), 168-172.

Mohinur MAMATALIYEVA,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

KREATIVLIK QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Bugungi kunda yangi innovatsiyalarga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim jarayoni, ko‘nikmalar, innovatsiya, kreativlik, intellect, individual qobiliyatlar.

Сегодня важной профессиональной задачей педагога высшего учебного заведения является развитие умения адаптироваться к новым инновациям, активно участвовать в процессах подготовки подрастающего поколения к жизни постоянно обновляющегося общества и совершенствования его в соответствии с требованиями времени.

Ключевые слова. Образовательный процесс, навыки, инновации, креативность, интеллект, индивидуальные способности.

Today, the development of the ability to adapt to new innovations, prepare the younger generation for the life of a constantly updated society and actively participate in the processes of improving it in accordance with the requirements of the time is an important professional task of the Educator of a higher educational institution.

Key words. Educational process, skills, innovation, creativity, intellect, individual abilities.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda talaba yoshlar har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida ularning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘liq anglash uchun avvalo “kreativlik” tushunchasining ma’nosini bilish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasi (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatini anglatadi.

Tarixga nazar solsak, kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 1960-yillarda paydo bo‘ldi. Bu atama individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar

hosil qilish qobiliyati, xislatlarini bildiradi. Tadqiqotchi J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni sanab o‘tgan:

– fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olish;

– o‘ziga xoslik (originallik);

– qiziquvchanlik;

– farazlar yaratish qobiliyati;

– hayol qila olish (fantaziya).

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo‘ladi: iste’dodning kreativligi va shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog‘langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko‘p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o‘z-o‘zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi – “ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi”, “ikkinchisi – ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz

ta’lim, kamolotga intiluvchanlik”.

Shuningdek, kreativlikning mezonlari Dj.P. Gilford va E.P. Torrans tomonidan belgilangan:

– ravonlik: ma’lum bir vaqt oralig‘ida ko‘plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

– o‘ziga xosligi: aniq, taniqli, umume’tirof etilgan, oddiy yoki qat’iy belgilanganidan farq qiluvchi g‘ayrioddiy, nostandart g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

– sezuvchanlik: g‘ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o’tishga tayyorlik;

– mo’tadillik: g‘ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo‘lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko‘rish qobiliyati;

– rivojlanish: paydo bo‘lgan g‘oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;

– to‘xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko‘rsatish, ya’ni muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko‘rsatish.

– noaniqlik: stimuldan mustaqil mantiqiy reaksiyagacha bo‘lgan qobiliyat;

– “nomlash”ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati, aslida, ahamiyatga ega bo‘lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qobiliyati (“nomlash” jarayoni mufassal shaklni, muammoning mohiyatini ko‘rish qobiliyatini, og‘zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi);

– ko‘p vazifalilik: bir vaqtning o‘zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati;

– samaradorligi: mahsulotning yaroqliligi, ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo‘lishi haqidagi idrok;

– mamnuniyat: kreativlikning natijasi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta’lim berish usullarini yangi holatga o‘tkazish imkoniyati; ilgari o‘rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan va an’anaviy mavjud bo‘lgan, aslida, to‘g‘ri deb o‘ylangan shablon yo‘nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo‘nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o‘z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo‘nalishlariga o‘zini safarbar eta olishdir.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi

Ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

– ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta’lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir ta’lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini ta’lim oluvchi shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish [3].

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi [5].

Ta’lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta’lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta’lim – ta’lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslangan o‘qitish metodlari tizimidir. Bunda o‘zaro harakat ta’lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o‘rnatish kabi tamoyillarga tayanadi. Demak, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta’lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o‘qituvchilar, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, quyida ayrimlarini keltirib o‘tish mumkin:

– kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayonida izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish;

– ta’lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

– ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

– ta’lim oluvchilarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo‘naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z mavqeyiga ega bo‘lish, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

– ta’lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo‘lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko‘p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o‘z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, bitiruv ishi doirasidagi “kreativlik”, “kreativ qobiliyat”, “pedagogik kreativlik”, “interfaol o‘qitish”, “interfaol o‘qitish sharoiti”, “talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish” kabi asosiy tushunchalar mohiyati ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Бубенов А.В. Коммуникатсионная культура: Философско-методологический анализ Электронный ресурс.: дис. канд. философ, наук. М., 2006.

3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. – С. 285.

4. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.

5. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik kobiliyatlarini rivojlantirish. / Monografiya. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2016. – B. 77.

6. Maslow A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.

7. Хуторской А. Ключевые компетенсии как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

Umida OTABOBOYEVA,
Jizzax davlat pedagogika unversteti pedagogika ta'lim nazariyasi o'qituvchisi

TALABALARNI BADIIY MEROS ASOSIDA MA'NAVIY-ESTETIK RIVOJLANTIRISH NAZARIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarni ma'naviy-estetik rivojlanishida she'riyat "yodgorliklari"dan ta'lim nazariyasini o'rganishda foydalanish - ota-bobolarining she'riy merosiga qiziqish uyg'otish; badiiy ufqni kengaytirish, hissiy va estetik madaniyatni shakllantirish, rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy –estetik rivojlanish, hissiy va estetik madaniyatni shakillantirish, xalqning she'riy merosi, tarixiy shaxslar, estetik ideal, milliy g'urur, milliy o'ziga xoslikni shakllantirish, Behzodning asarlari, Behzodning portret miniatyuralaridan foydalanish, o'quvchilarni estetik idrok kursiga jalb qilish

В данной статье рассматривается использование поэтических "памятников" при изучении педагогической теории в духовно-эстетическом развитии учащихся - для пробуждения интереса к поэтическому наследию своих предков; идет речь о расширении художественного кругозора, формировании и развитии эмоциональной и эстетической культуры.

Ключевые слова. Духовно –эстетическое развитие, формирование эмоционально-эстетической культуры, поэтическое наследие народа, исторических личностей, эстетический идеал, национальная гордость, формирование национального самосознания, творчество Бехзада, использование портретных миниатюр Бехзада, вовлечение читателей в курс эстетического восприятия

In this article, the use of poetry "monuments" in the study of educational theory in the spiritual and aesthetic development of students - to arouse interest in the poetic heritage of their ancestors; there is talk about expanding the artistic horizon, forming and developing emotional and aesthetic culture.

Key words. Spiritual and aesthetic development, formation of emotional and aesthetic culture, poetic heritage of the people, historical figures, aesthetic ideal, national pride, formation of national identity, Behzad's creativity, use of Behzad's portrait miniatures, involvement of readers in the course of aesthetic perception.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy-estetik rivojlanishida she'riyat "yodgorliklari"dan ta'lim nazariyasini o'rganishda foydalanish - ota-bobolarining she'riy merosiga qiziqish uyg'otish; badiiy ufqni kengaytirish, hissiy va estetik madaniyatni shakllantirish, she'riy asarning yuksak estetikasi va unutilmas yorqin xususiyatini "ko'rish" va anglash qobiliyatini shakllantirish; milliy ajdodlar bilan bir vaqtning o'zida o'tmish ajdodlar she'riyatidagi umumbashariylik bilan tanishish; milliy g'urur, milliy o'ziga xoslikni shakllantirish; bo'lajak o'qituvchilarni o'qituvchi faoliyatida bunday o'quv mashg'ulotlari zarurligiga ishontirish; xalqlarining she'riy merosida o'z bilimlarini boyitish istagini kuchaytirish maqsadlarida foydalaniladi.

O'rta asrlar Sharq miniatyurasi rangtasviri ba'zi san'at maktablarining minglab asarlarini o'zida aks ettiradi. Bular asosan o'sha davr buyuklari, tarixiy shaxslar, o'zbek podshohlarining portretlari. Miniatyuralar badiiy meros sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

O‘rta asr Uyg‘onish davrining taniqli miniatyurachilari: Ma’mud Muzohib, Muhammad chagra Muhasin, Abdulloh Buxoro, Muhammad Murod Samarqandiy, Davlet Muhammad va boshqalardir.

Sharqda miniatyuralar ustasi rassom, portret miniatyuralarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan buyuk shaxs Behzoddir. Bexzod portret xarakteristikasi orqali individual obrazni identifikatsiyalash bilan ma’lum bir odamga qiziqishini; hukmdorlar, zodagonlarning vakillari, ziyolilarning portretlari, o‘ziga xoslik va odob-axloq qoidalari doirasida yaratilgan. U tomonidan “SHayboniyxon portreti”, “SHoir Xattofiyning portreti”, “Amir portreti”, “Malika portreti”, “SHahzoda - shoir G‘arib Mirzo - Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li”, “Sulton Xusayn portreti”, “Dunyo portreti - Alisher Navoiy”, “Bobur portreti”, “Mo‘g‘ul asiri”, portretlari yaratilgan. SHu jumladan, Behzod “Sulton Xusayn portreti”, “Bobur portreti”, “Bog‘dod Darveshi” kabi miniatyuralarning muallifi hamdir.

Behzod portret maktabida individual xususiyatlarni nafaqat tashqi, balki ma’lum darajada ichki dunyo, ma’naviy holatini topishga qiziqish mavjud. Asosiy ob’ektlar - yuqori tabaqa vakillarining yuz qismini tasvirlash. Behzod - bu miniatyura portretining mohir ustasi, rangtasvir janrining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, u peyzaj rassomi - Markaziy Osiyoning go‘zal tabiatiga qoyil qolgan lirik ijodkordir. Bundan tashqari, uning miniatyura rangtasvirida me’moriy yodgorliklar qurilishi aks etgan. Uning miniatyuralarida o‘sha davr me’morchiligiga xos bo‘lgan unutilgan qadriyatlar juda ko‘p.

Behzodda temuriylar davrida musiqa asboblarining xilma-xilligi haqida tasavvur beradigan musiqiy mavzularga oid rasmlar ham mavjud bo‘lib, ular miniatyuraga ma’lum bir ohang bag‘ishlaydi. Haqiqiy, hayotga oid miniatyuralar g‘aroyib tushlar dunyosida, masalan, Behzod musiqa yaratuvchi personajlarni tasvirlashida ko‘rinadi. Musiqiy qahramonlar - saroy musiqachilari, tinglovchilarning ichki dunyosi va kayfiyatini to‘liq ochishga yordam beradi. Tasvirlarga ko‘ra xalq cholg‘ulari chang, doira, g‘ijjak kabi cholg‘u asboblarida asosan ayollar o‘ynagan, surnay va karnay, ayniqsa jang sahnalarida erkaklar o‘ynagan.

Pedagogik fanlarni o‘rganishda talabalar ma’naviy-estetik tarbiyasida Behzodning portret miniatyuralaridan foydalanish (“Pedagogika tarixi”, “Pedagogika nazariyasi” va boshqalar): tarixiy va madaniy ahamiyatga ega, O‘rta asrlarda SHarqning miniatyura rang tasvirga qiziqishini uyg‘otish, yuksak ma’naviy-estetik salohiyatga va badiiylikka ega bo‘lish – ma’naviy-estetik qadriyat; bo‘lajak o‘qituvchilarning asarlarini hissiy-estetik idrok etish, g‘oyaviy-badiiy idrok etish bilan tanishtirish, xususan, Behzod portretlarini yaratish, ularning ma’naviy-estetik yukini, asarlarning milliy o‘ziga xosligiga alohida e’tibor berish; milliy-badiiy meros sifatida miniatyura rangtasvirining asoslariga baho berish – ma’naviy-estetik tarbiya uchun qulay manba, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ota-bobolarimizning badiiy merosida miniatyura rang tasvirini mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun qo‘llanmadir.

Sharq miniatyura tasviriy san’ati. U O‘rta asrlar Sharqining estetik tamoyillarini aks ettiradi: “nima bo‘lishini emas, balki nima bo‘lishi kerakligini” tasvirlaydi. Estetik idealni, odamlarning ma’naviyatini, syujet va kompozitsiyalarning to‘liqligini aks ettirish muhim sanaladi.

Behzod sharqona tasviriy miniatyura ustasi hamdir. Uning SHarafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kitobiga chizgan “Jang rasmlari”, “Temur tomonidan Xiva qal’asini egallab olish”, “Samarqandda jamoat masjidining qurilishi” (ularning har biri - o‘sha davr xronikasi); Nizomiyning “Iskandarnoma” she’riga: “Iskandar qo‘shinlarining jangi”,

“Doro”, “Qal’a qurish”, “Iskandarning tog‘dagi darveshni ziyorat qilishi”, va boshqa suratlari ta’sviriy miniatyura na’munasidir.

Rassomning ilhom manbai: epik va afsonalarning an’anaviy hikoyalari, taniqli shaxslar bilan bog‘liq muhim voqealar (“Shahnoma”dagi kabi), oddiy odamlar, mehnatkash hayotidan yangi voqealar. Behzod ijodining o‘ziga xos xususiyati: ajdodlarimizning ma’naviy-estetik-axloqiy namayondalarining yuksak g‘oyalari aksi; vaqtning zarbasining hissi, kerakli semantik aloqalar bilan ajoyib an’anaviy hikoyalar, asarlarning mukammal shaklidir. Tasvirning o‘ziga xos xususiyati: mukammal she’riy shakli, plastik chiziqlari, maxsus uyg‘unlik, real inoyat va nafosat, rang uyg‘unligi, butunlik va tafsilotlar. Tafakkur ko‘lami panoramik tafakkur rassomga miniatyura anjumanlari doirasida fazoviy va chuqurlikni rivojlantirib, dunyo tasvirining to‘g‘ri hajmini topishga yordam berdi.

Behzodning asarlari yorqin va hayotning quvonchlariga to‘la. Masalan, Nizomiyning “Iskandarnoma” she’riga Behzodning miniatyura surati – “Iskandarning tog‘da bir darveshni ziyorat qilgani” shular jumlasidandir.Ushbu miniatyurada Nizomiyning she’riga binoan hayot uning barcha ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi va tushuniladi. Tasvir o‘zining ma’naviy-estetik printsipi bilan hayratga soladi. Behzod “go‘zal ilohiy olovni qalbi olovi bilan yondirdi”. Rassom o‘sha davrning dunyoqarashi va madaniyatini, muammosini, mavzusini individual ko‘rishi va tushunishni, uning ijodiy takrorlanishini ma’naviy-estetik darajada, yuqori badiiy-estetik darajada, rassom uslubining o‘ziga xosligi bilan aks ettiradi.

Behzod - O‘rta asrlar SHarq miniatyuralarining afsonaviy dahosi, XV asr SHarq miniatyuralarining mohir ustasi. Behzodning SHarq madaniyatiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. U jahon rangtasviri tarixida munosib o‘rin egallaydi. U ko‘p mamlakatlarda hurmatga sazovor ijodkor. U “o‘zining yorqin uyg‘unlashtirilgan aurasi sehrlari, unda mujassamlangan xilma-xil tabiat olamining sehrli go‘zalligi, inson, mehnatkash va ijodkorining ma’naviy hayotiga chuqur kirib borishi” hayratlanarli rang berish va chizish mahorati bilan diqqatni tortadi.” “Miniatyura - bu ajoyib san’at - xalqimiz yuksak ma’naviyatining timsoli”. Unga bo‘lgan qiziqish tugamaydi. Zamonaviy rassomlar, tarixchilarning Behzod merosiga bo‘lgan murojaatlari, ayniqsa ularning tarixiy o‘tmishga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib borayotgani bilan bog‘liqdir.

Pedagogik fanlarni (“Pedagogika tarixi”, “Pedagogika nazariyasi” va boshqalar) o‘rganish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik tarbiyalashda Behzodning tasviriy va miniatyura san’atidan foydalanish - bu talabalarning O‘rta asrlar SHarq estetikasini bilish, estetik ideal, ajdodlar ma’naviyati, milliy shakllanish davrda badiiy mahorat darajasi - estetik asos sifatida idrok qilishi; milliy g‘ururini shakllantirishga xizmat qilishi; o‘quvchilarni estetik idrok kursiga jalb qilish, rasmlarni g‘oyaviy va badiiy tahlil qilishi; badiiy asarlarni chuqurroq o‘zlashtirishi ma’naviy-estetik tarbiya manbai sifatida miniatyura rasmlarining ma’naviy-estetik potentsialini ochib berishi; SHarq Uyg‘onish davrida bo‘lajak o‘qituvchilarni kitob rasmlariga qiziqishini uyg‘otishi, o‘quvchilarga tegishli adabiyotlarni va olingan bilimlarni kelajakdagi pedagogik faoliyatda qo‘llash mumkin bo‘lgan variantlarini taklif qilish imkonini beradi.

Arxitektura yodgorliklari - me’moriy san’at sifatida. O‘zbekistonning me’moriy yodgorliklari insonga hissiy-ma’naviy ta’sir ko‘rsatadi hamda ma’naviy-estetik ma’lumot manbai hisoblanadi. Arxitektura san’atining rivojlanishi mo‘g‘ullar istilosidan keyin XIV asrda faollashdi. Bu arxitektura san’atini takomillashtirishning yangi bosqichidir. Qadimgi me’morchilik binolarida shakllarning buyukligi, ularning uyg‘unligi va go‘zalligi,

yodgorlikning nafisligi, ajoyib fayzli dekorativ bezaklari, murakkab yog‘och o‘ymakorligi, ganch va me’moriy yodgorliklar yaxlit badiiy qiyofasining boshqa muhim qismlariga katta hissiy va ruhiy kuch va qobiliyat bag‘ishlab, estetik ta’sir ko‘rsatadi. Arxitektura taraqqiyotida: me’moriy bezakda - rang, terakota qoplamasi, mozaik to‘plamlar, rangli palitralar, bezaklar, ularning boyligi va xilma-xilligi; buyurtma asosida o‘simlik naqshlari; marmar o‘ymakorligi, ko‘p miqdorda oltin ishlatilishi; oltin fonda ranglarning yorqinligi; soxta naqshinkor bezaklar, oqlangan bezaklar; boshqa ranglarning yengil kiritilishi bilan ko‘k va oq rangga bo‘yalgan; ideallashtirilgan manzara ko‘rinishi (odamsiz); yurishlar, janglar va Temur g‘alabalari to‘g‘risidagi rasmlari; astronomik rasmlar (Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi devorlarida); binoning maqsadli uslubidagi ustuvor dekorativ mural rang tasvir yangi bosqichdir.

Arxitekturada san’at sintezi birlashtirilmoqda. Ya’ni: bezak ishlari (naqshlash - geometrik, epigrafik, gulli), mozaikalar, naqshlar, yog‘och va tosh o‘ymakorligi. Arxitektura, xuddi o‘sha davrning yuksak ma’naviy-estetik sohalariga odatlanib qolgan. Yodgorliklarning majoziy shakli, ularning badiiy-estetik xususiyatlari, milliy rang-barangligi o‘rganilmoqda, boshqa san’atning ta’siri kuchaymoqda. Arxitektura inshootlarining ma’naviy-estetik ahamiyati ortib bormoqda, bu strukturaning estetikasi, badiiyligi, g‘oyaviy-semantik va funktsional yukini hissiy va mazmunli idrok qilishni talab qiladi.

Masalan, Samarqandning qadimiy yodgorliklari. Qadimiy Samarqand masjid va maqbaralari bilan milliy me’morchilik xazinasi hisoblanadi. Bu yerda o‘zining go‘zalligi bilan ajablantiradigan, me’moriy shakllariga xos bo‘lgan O‘rta asr me’morchiligining yodgorliklari, hunarmandlar - toshsozlar, duradgorlar, gipschilar, kulollar, duradgorlar (tosh, yog‘och, alabaster bo‘yicha), devorlarni bo‘yash bo‘yicha mutaxassislarning katta iste’dodi isbotidir. Samarqandning qadimiy yodgorliklari - Bibi-Xonim masjidi, Go‘r-Amir maqbarasi, SHohi-Zinda ansambli, shuningdek, madrasalar uchligi - Ulug‘bek, SHerdor va Tilla-Qori Registon maydonida - avlodlarni xursand qiladigan abadiy asarlardir.

O‘rta asrlar dunyosining eng mashhur shahri-Samarqand, Buyuk Temur davlatining poytaxti. Temur rejasiga ko‘ra, Samarqandning ulug‘vorligi va go‘zalligi dunyoning barcha poytaxtlarini o‘z ichiga qamrab olishi kerak edi. Bog‘lar, suvga to‘la kanallar, band savdo rastalari, ko‘p odamlar ... Musiqachilar, qo‘shiqchilar, raqqosalar ... Samarqandda me’morlarning ajoyib asarlari dunyoning me’moriy xazinasidir. Samarqandning me’moriy diqqatga sazovor joylari - o‘tgan asrlar yilnomasi hisoblanadi. Omon qolgan monumental yodgorliklar g‘oyat go‘zal, nafis va uyg‘un, xalqning milliy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Uch madrasadan iborat Registon maydoni - Ulug‘bek, Tilla-Qori, SHerdor - har bir madrasa unutilmas me’moriy majmua - o‘zining me’moriy va badiiy ustuvorligi va yuqori estetikasi bilan qadimiy me’morchilikning alohida asari sanaladi.

Samarqandning me’moriy yodgorliklari Misr, Hindiston, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimning mashhur me’moriy yodgorliklari bilan bir qatorda turadi. Samarqandning qadimiy arxitekturasi, shuningdek, Xiva, Buxoro va O‘zbekistonning boshqa shaharlari me’morchiligi eng buyuk milliy-badiiy merosdir, bu kabi milliy boyliklar ko‘plab avlodlar uchun ma’rifiy va ma’naviy merosdir.

Shuningdek, pedagogik fanlarni (“Pedagogika tarixi”, “Pedagogika nazariyasi” va boshqalar) o‘rganish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-estetik rivojlantirishda O‘zbekiston hududidagi me’moriy yodgorliklaridan foydalanishda: ma’lum ma’naviy-estetik ma’lumot manbalarni topish; ularning tarixiy va madaniy ufqlarni kengayti-

rish; o‘quvchilarga hissiy ruhiy va estetik ta’sir ko‘rsatish; ularni qadimiy monumental arxitekturaning ulug‘vorligi, uyg‘unligi va go‘zalligi, undagi san’at sintezi, yaxlit me’moriy qiyofadagi noyob rang-barang dekorativ va grafik tarkibiy qismlar bilan tanishtirish; Sharq Uyg‘onish davri badiiy madaniyatining yuksak ma’naviy-estetik sohalarini bilish; jahon me’morchilik durdonalari vositasida milliy g‘urur hissini uyg‘otish; me’moriy yodgorliklarining estetikasi, badiiyligi, g‘oyaviy, semantik va funktsional ahamiyatini o‘quvchilarni hissiy ma’naviy-estetik idrok etishga yo‘naltirish; talabalar shaxsini ma’naviy-estetik rivojlantirishda ushbu me’moriy san’atning ma’naviy-estetik potentsiali to‘g‘risida xabardor qilish; milliy badiiy did, milliy g‘urur va milliy o‘ziga xoslik kabi eng muhim milliy fazilatlarni shakllantirish orqali talabalarning kelajakdagi pedagogik faoliyatida ma’naviy-estetik tarbiya jarayonlari imkoniyatlarini ko‘rib chiqish; bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan O‘zbekistondagi eng qadimiy betakror me’morchilikni nafaqat ajdodlarimizning tarixiy va madaniy xazinasi sifatida, balki eng buyuk milliy-badiiy meros, milliy ma’naviy-estetik meros sifatida, ko‘plab avlodlar uchun ma’naviy-estetik tarbiya va ma’rifatning bitmas-tuganmas manbai sifatida anglashlariga erishish; ajdodlarimizning eng qadimiy yodgorliklariga qiziqish va me’moriy yodgorliklar to‘g‘risida mustaqil bilim olish zarurati oshirish kabi maqsadlar belgilanadi.

Xulosa o‘rnida pedagogik fanlarni o‘rganish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni milliy-badiiy qadriyatlardan foydalanish orqali ma’naviy-estetik rivojlantiradi, o‘quvchilar shaxsini qiziqish, istak va xabardorlik, ota-bobolarining badiiy merosini hissiy, hissiy va badiiy o‘rganish kabi asosiy ma’naviy-estetik fazilatlarga erishishini ta’minlaydi. Analitik intellektual-ijodiy asos sifatida ular kelajakda o‘quvchilarda juda zarur bo‘lgan ma’naviy-estetik manba sifatida ajdodlarimizning milliy-badiiy merosining boy ma’naviy-estetik potentsiali, uning milliy-umuminsoniy qadr-qimmati bilan faxrlanish hissini uyg‘otadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-estetik rivojlantirishda milliy-badiiy qadriyatlar ma’lum bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni shakllantiradi. Uzoq o‘tmish ajdodlarning badiiy merosini, o‘zbek xalqining badiiy madaniyatini mustaqil o‘rganish orqali o‘zlarini ma’naviy-estetik boyitish zaruriyatini tushunib yetadilar.

Demak, bu kabi milliy yodgorliklar bilan talabalarni pedgogik fanlarini o‘qitish jarayonida tanishtirib borish orqali biz ularning ma’naviy-estetik dunyoqarashini hamda milliy g‘urunini shakllantirish imkoniga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher, B. Xusanov, E.Umarov. Estetika. –T., 2008
2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T., 2000 y.
3. Vatan tuyg‘usi. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N., –T., 1996 y.
4. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. –T., 2000 y.
5. Zakirova Umida Ilhomovna. International Journal of Research. Possibilities For The Use Of Spiritually – Moral Education Of Our Great Ancestors In Innovative Pedagogical Technologies. 159-166

Lazokatxon SHABDULLAYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

IMOM BUXORIY ASARLARI ASOSIDA O’QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘ULARINI TARKIB TOPTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o’quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘ularini tarkib toptirishning rivojlanish tendentsiyalari o‘rganilgan, shuningdek, o‘quvchilar axloqiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari ham ochib berilgan bo‘lib, ularda iftixor tuyg‘ularini shakllantirishda imom Al-Buxoriy asarlari nechog‘lik ahamiyatli ekangi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Iftixor, axloqiy sifatlar, tendensiya, rivojlanish, o‘quvchi shaxsi, hadis, muhaddis, hidoyat.

В данной статье изучаются тенденции развития чувства национальной гордости у студентов, а также раскрываются процессы формирования и развития нравственных качеств студентов.

Ключевые слова. Гордость, моральные качества, склонность, развитие, личность ученика, хадисы, мухаддисы, руководство.

In this article, the development trends of the formation of the feelings of national pride in students are studied, as well as the processes of formation and development of moral qualities of students are revealed. It was discussed how important his works are.

Key words. Pride, moral qualities, tendency, development, personality of the student, hadith, muhaddis, guidance.

Bugungi kunda har bir sohada bo‘lgani kabi ta`lim tizimida ham ko‘plab o‘zgarishlar olib borilmoqda. Hozirgi davrda lm-fan rivoji xorijiy konferensiyalar va simpoziumlarda, xalqaro grantlardagi ilmiy loyihalarda, qo‘shma dasturlar tuzishda, shuningdek, mustaqillik yillarida asos solingan va alohida yo‘nalish sifatida rivojlanib borayotgan shaxsiy tashabbuslar, hamkorlik o‘rnatish yo‘llari orqali amalga oshirilmoqda. Ta’limda yangi yondashuvlarni ilgari suradigan konsepsiyalar, Davlat ta’lim standarti (DTSlari), o‘quv dasturi, darsliklar, o‘quv adabiyotlarining yangi avlodi yaratilib, maktab amaliyotida va oliy ta`lim muassasalarida joriy etilmoqda. Bunda o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish va kafolatlangan natijalarga erishish yo‘llarini ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda o‘quvchi va talabaga nisbatan passiv ob`ekt emas, balki faol ishtirokchi sifatida qarash va har bir mashg‘ulotni ana shunday yondashuv asosida tashkil etish bugungi ta`lim siyosatining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Bunday vaziyatda talabalarning bilimini baholash masalasi ham o‘ziga xos mazmun-mohiyat kasb etishi, shubhasiz. Ta`lim jarayoning ayni jihatiga bo‘lgan e’tibor va izlanishlar natijasi o‘laroq, yangi mexanizmlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi. Rivojlangan davlatlar ta`lim tizimi va milliy ta`lim-tarbiya sohamiz tajribalarini umumlashtirish natijasida yaratilgan bu mexanizmning afzalliklari bugun har bir pedagog xodimning ish jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Vatanimiz mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygach, ko‘hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga e’tibor kuchayib, ulug‘ ajdodlarimiz–o‘lmas asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarning hayoti va ijodini puxta o‘rganish va ulardan keng xalq ommasini bahramand qilish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ushbu tarixiy jarayonda, ayniqsa, muborak dinimizga bo‘lgan munosabatning batamom o‘zgarganini alohida ta`kidlashimiz o‘rinlidir. Azaldan umuminsoniy qadriyatlar, ma`naviyat va ma`rifatning mustahkam poydevori sanalgan diniy ilmlarga katta e’tibor berilayotgani, Qur`oni karim va payg‘ambarimiz alayhissalomning muborak hadislari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, keng ko‘lamda o‘rganilayotgani va ularning ruhiy, ijtimoiy-madaniy hayotimizga tobora singib borayotgani fikrimizning dalilidir.

Islom dunyosining eng mashxur kishilardan biri buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriydir. U kishini “Muhaddislar imomi” deydilar. Muhaddis- “hadis biluvchi, hadis aytuvchi” degani. Hadis esa payg‘ambarimiz so‘zlaridir. Hadislarni yig‘ish payg‘ambarimiz davrlaridan boshlangan. Lekin vaqt o‘tishi bilan ularni saralash, ishonchlilarini ishonchsizlaridan ajratib olish murakkablashib qiyinlashib borgan. Hadisshunoslik degan fan hadislarning “sahih” (ishonchli)larini, “nosahih” (ishonchsiz)laridan ajratish bilan shug‘ullangan. Imom Buxoriy mana shunday hadis ilmining Buxorodan etishib chiqqan va butun dunyoga shuxrat taratgan allomasi edi.

U kishining hayot yo‘llari ham biz uchun ibratlidir. O‘z zehni va yod olish quvvati bilan o‘n yoshlaridan ustozlarini shoshirib qo‘ya boshladi. O‘n olti yoshida minglab hadislarni yod bilar, ularni “sahih” va “nosahih”larini bilan birma-bir isbot qilib bera olardi. U ilm olishda bu bilan cheklanmadi. Kesh bilan Marvdan Makka-yu Madinagacha, Balx bilan Xirotdan Bag‘dod-u Basragacha, Nishopurdan Misr va Shomgacha yurtma-yurt, shaharma-shahar kezib, ilm o‘rgandi, o‘zi aytganidek, “mingdan ortiq ishonchli allomalardam hadis yozib oldi”. Ko‘pdan-ko‘p hadis ulamolari bilan uchrashdi. Sahobalar va tobeinlarni hayot sanalarini birma-bir tekshirib, ularning har bir hadisini Qur`oni karim oyatlariga va payg‘ambarimiz hayotlariga solishtirib chiqdi.

Bularning mahsuli sifatida bizga yigirmadan ortiq asar yozib qoldirdi. Buyuk alloma mehnatining naqadar kattaligini tasavvur qilish uchun birgina ma`lumot keltirib o‘taman. U birgina “Al-jome’as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) kitobi ustida o‘n olti yil ishlagan. Unga kiritilgan 7397 hadis 600ming hadisning ichidan saralab olingan.

Imom Buxoriy aql-u zakovati va tinimsiz mehnati bilan olis yurtlarda beqiyos shuxrat topgan,”muhaddislar imomi”, “muhaddislar sultoni” unvonlarini olgan.

Imom Buxoriy hayotining so‘nggi yillari Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida kechdi. Buyuk bobomiz to‘plab, saralab bergan minglab hadislar, necha asrlardirki, avlodlar uchun qo‘llanma va yo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

Quyida Imom Buxoriy kitoblaridan olingan ilmning fazilati to‘g‘risidagi hadislaridan keltirib o‘tamiz.

Alloh taolo Qur`oni karimda: ”Alloh taolo sizlarning orangizdagi imon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug‘ qilg‘aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Alloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir”,- deyilgan. Yana boshqa oyati karimasida esa: ”Yo Rabbiy, ilmimni ziyoda qilg‘aysen, deb ayt!”- deyilgan.

Rasullulloh sollallohu alayhi vassallam aytganlar: “Alloh taolo menga yuborgan hidoyat singari ilm ham ko‘p yog‘gan yomg‘irga o‘xshaydi. Ba`zi yer sof, unumdor bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradi-da, har-xil o‘simliklar va ko‘katlarni o‘stiradi va ba`zi yer qurg‘oq qattiq bo‘lib, suvni emmasdan, o‘ziga to‘playdi, undan Alloh taolo bandalarini

foydalantiradi. Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarni va ekinlarni sug‘oradi. Ba`zi yer esa, tekis bo‘lib suvni o‘zida tutib qolmaydi, ko‘katni ham ko‘kartirmaydi. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: Bir kishi Alloh ilmini (islomni) teran o‘rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi. Va Alloh buyurgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadi. Ikkinchi bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga ham o‘rgatadi. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o‘zi ham o‘rganmaydi, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo‘min, ikkinchisi fosiq va uchinchisi kofirdir”.

Yuqorida keltirilgan ma`lumotlarga tayangan holda Imom Buxoriy hayot tarzi, ilm uchun fidoiyligi, e’tiqodining pokligi bilan barchaga ibrat bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin. Demak, ilm-ma`rifatni jam qilgan, ilm egallagan kishining ikki dunyosi oboddir.

Buyuk muhaddis imom Buxoriy bizga yigirmadan ortiq asar yozib qoldirdi. Buyuk alloma mehnatining naqadar kattaligini tasavvur qilish uchun birgina ma`lumot keltirib o‘taman. U birgina “Al-jome’as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) kitobi ustida o‘n olti yil ishlagan. Unga kiritilgan 7397 hadis 600ming hadisning ichidan saralab olingan.

Imom Buxoriy hayotining so‘nggi yillari Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida kechdi. Buyuk bobomiz to‘plab, saralab bergan minglab hadislar, necha asrlardirki, avlodlar uchun qo‘llanma va yo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi haqida tadqiqotchi-olimlar va siyosat arboblar o‘z fikrlarini bildirganlar (1-jadval).

1-jadval

Mualliflar	**Imom al-Buxoriy bobomizga ta`riflar**
Sh.M.Mirziyoyev	Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas’uliyatini his etadi.
I.A.Karimov	“Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “Muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – “Al Jome’ as-sahih” kitobi islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i 105 hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haqi va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda”
Allomaibn Saloh	Al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo‘lib, takrorlanmaidigan holda esa 4000 hadisdan iborat.
At-Termiziy	Men o‘z asarlarim uchun ko‘p ma’lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olganman.

Imom Ahmad ibn Xanbal	«Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas.”«Imom Buxoriy bilan bizlar ustozning darsini eshitardik. Ustoz rivoyat qilgan hadislarni bizlar yozib olardik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o‘tirardi. Bir necha kunlar o‘tib, shu orada ustoz 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga – Sen nega hadislarni yozmaysan? – deb aytganimizda, - Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og‘zidan yodlab olayotirman, - deb, ustoz rivoyat qilgan hadislarni bir chekkadan yoddan o‘qib berdi.
Xolid ibn Ismoil	«Imom Buxoriy bilan bizlar ustozning darsini eshitardik. Ustoz rivoyat qilgan hadislarni bizlar yozib olardik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o‘tirardi. Bir necha kunlar o‘tib, shu orada ustoz 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga – Sen nega hadislarni yozmaysan? – deb aytganimizda, - Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og‘zidan yodlab olayotirman, - deb, ustoz rivoyat qilgan hadislarni bir chekkadan yoddan o‘qib berdi».
Imom Muslim ibn al-Hajjoj	«Hasad qiluvchilardan bo‘lak hech kim sizga ta’na qilolmaydi. Dunyoda Sizga yetadigan muhaddis yo‘qligiga men guvohlik beraman». Yana bir rivoyatda shunday deyilgan: Siz hamma muhaddislar imomi va hadislarning illati, zaifligini yaxshi biladigan mohir tabibi ekansiz. Muborak oyog‘ingizni bersangiz, men bir bo‘sa olay.

Yuqorida keltirilgan ma`lumotlarga tayangan holda Imom Buxoriy hayot tarzi, ilm uchun fidoiyligi, e’tiqodining pokligi bilan barchaga ibrat bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin. Demak, ilm-ma`rifatni jam qilgan, ilm egallagan kishining ikki dunyosi obod-dir . Hadis ilmi sohasidagi allomaning buyuk xizmatlarini o‘z davrida ham, undan keying asrlarda ham ko‘plab mashhur olimlar yuksak baholab,bu ilmda uning tengi yo‘q , yakkayu-yagona alloma bo‘lganligini bir ovozdan ta`kidlaganlar. Shu bois ham imom al-Buxoriy hazratlari hech bir olimga nasib etmagan “Amir ul-mo‘miniyn fi-l-hadiys” (hadis ilmida barcha mo‘min musulmonlarning amiri), “Imom ad-dunya” (Butun dunyoning imomi), “Imom al-muhaddisiyn” (barcha muhaddislarning imomi)kabi o‘ta sharafli nomlarga sazovor bo‘lganlar. Vatanimiz nomini jumla jahonga doston qilgan shundaybuyuk zotga mansub avlodlar, munosib vorislar bo‘lish bizlar uchun ulkan sharaf va iftixordir va ayni paytda kata bir mas`uliyatdir. Yuqoridagi aqidadan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, imom al-Buxoriyning qimmatli ma`naviy meroslarini ilmiy asosda har tamonlama chuqur o‘rganish va uni kelajak avlodga etkazish biz pedagoglarni oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uvatov Ubaydullo. Donolardan saboqlar. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994-yil.

2. Uvatov U. Hadis ilmining sultoni. O‘zbekiston adabiyoti va san`ati. –Toshkent:2001-yil.

3. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Abu Abdulloh Muhamad ibn Ismoil. Al-Jome’ as-sahih (ishonarli to‘plam)/ mutarjim: Abdulg‘ani Abdulloh. Muharrirlar: professor Ne’matulloh Ibrohim ba shoir Mirzo Kenjabek. 4-jild. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1999.

4. Eshonjonov B. Imom Buxoriyl-A ovrupaliklar nigohida// Sharq mash`ali.-Toshkent, 1998-y

Furqat BAYJONOV,
Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya”kafedrasi
v.b., dotsenti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

OILA VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGIDA GENDER MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada oila va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari hamkorligida gender madaniyatni shakllantirish ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. Shu bilan birga oila va ta’lim muassasalarida gender munosabatlarni barqarorlashtirishga e’tibor qaratilgan. Yoshlarning kelajak hayot ya’ni oila qurishdan oldin zarur bilimlarga ega bo‘lishi kerakligi ta’kidlangan. Gender tenglikni ta’minlashda qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va shaffoflik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, o‘zaro bir birini tushunish tamoyillari muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar. Gender, gender madaniyat, stereotip, huquq, gender farqlar, xotin-qizlar, shaxs.

В данной научной статье показано формирование гендерной культуры во взаимодействии семьи и учреждений общего среднего образования. Это, в свою очередь, способствует обеспечению эффективности образовательного процесса. При этом внимание акцентируется на стабилизации гендерных отношений в семье и образовательных учреждениях. Было подчеркнуто, что молодые люди должны обладать необходимыми знаниями, прежде чем создавать семью. Принципы законности, демократии, открытости и прозрачности, равноправия женщин и мужчин, недискриминации по признаку пола, взаимопонимания играют важную роль в обеспечении гендерного равенства.

Ключевые слова. Гендер, гендерная культура, стереотип, права, гендерные различия, женщина, личность.

This scientific article shows the formation of gender culture in cooperation with the family and general secondary education institutions. This, in turn, helps ensure the effectiveness of the educational process. At the same time, attention is focused on stabilizing gender relations in the family and educational institutions. It was emphasized that young people should have the necessary knowledge before starting a family. The principles of legality, democracy, openness and transparency, equal rights of women and men, non-discrimination on the basis of gender, and mutual understanding play an important role in ensuring gender equality.

Key words. Gender, gender culture, stereotype, rights, gender differences, women, personality.

Respublikamizda oila institutini mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va gender tenglikning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilgan. “O‘zbekiston Respublikasida erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlarini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash va maqsadli islohotlarni amalga oshirish” kabi ustuvor vazifalar doirasida gender diskriminatsiyasini keng ommaga tarqatishni istisno qiladigan kitob va darsliklarni yaratish, davlat dasturlarida tenglik muammolariga mo‘ljallangan xorijiy tajribalar, kurslar, o‘quv-uslubiy ta’minotdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning madaniyati sifatlarini shakllantirish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy muhitni milliy qad-

riyatlar asosida rivojlantirish omillari, pedagogik shart-sharoitlari hamda didaktik talablarini aniqlashtirishni talab etadi.

Gender madaniyatini hosil qilishning zarurati O‘zbekiston Respublikasining ta’lim muassasalarida bilim oluvchilarning ta’lim-tarbiya konsepsiyasida o‘lkamizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy qilishi shaxsning har tomonlama to‘kis kamol topishining tamali o‘laroq bo‘y ko‘rsatadi. Dastur umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining gender madaniyatning asosiy uzviy qismlaridan biri sifatida tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Gender madaniyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

oiladada erkak va ayol jinsining hayotiy mohiyati, ularning o‘ziga xos ijobiy fazilat va fe’l-atvor xususiyatlari haqida qarashlarini kengaytirish;

oilada o‘g‘il va qizlarning jismoniy, ruhiy va axloqiy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib berish; erkak va ayol qadr-qimmati, insonning chinakam va tasavvurdagi go‘zalligi haqida fikrlarni boyitish.

Bordi-yu, siz so‘z yuritilayotgan muammoga xolis kirishsangiz, unda siz ayol va erkaklarda oila qurish, nasl qoldirishga ongli munosabatni chiroyli tarzda tarbiyalashingiz kerak. Demak, bu shuni bildiradiki, ta’lim sistemasining barcha bo‘g‘inlariga gender ta’limini joriy qilish lozim.

Ayni bugungi voqeligimizda genderga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarga alohida diqqat qilinayotgan bo‘lsa-da, keng xalq ommasining bu mavzudagi bilimlarni olishi, o‘zlashtirishi, hatto ba’zi o‘rinlarda shunchaki qiziqishlar ham cheklangan.

O‘zbekiston Mustaqillik yillarida turli xalqaro konvensiyalarga a’zo bo‘lib kirgach, ko‘plab yosh doktorantlar, yirik olimlarning ham genderga qiziqishlari sezilarli miqyosda ortdi.

Tadqiqot yakunlaridan ayon bo‘ladiki, onalari ma’lum saviyadagi bilimga ega bo‘lmagan ro‘zg‘orlarda farzandining oliy ta’lim olishga borishi qizlar va o‘g‘il bolalar uchun past darajada. Boz ustiga, onaning ma’lumotli emasligi balog‘at yoshidagi qizlarning darsdagi faol ishtirokiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bizga kelib tushgan xabarlardan ravshanlashishicha, o‘rta ma’lumotlilik o‘g‘il bolalarga majburiy ijtimoiy o‘lchov o‘laroq qabul qilinadi va bu yashash manzilidan qat’i nazar, har qanday topish-tutishi o‘rtadan yuqori oilalar uchun to‘g‘ri keladi. Qizlarga esa to‘liq o‘rta ma’lumot odatda majburiy ijtimoiy me’yorga kiritilgan, biroq biror murakkab vaziyat yuzaga kelishi bilan (masalan, uyda yordamga ehtiyoj, erta turmush qurish), oilalar qizlarini maktabdan chiqarishga urinish holatlari kuzatiladi.

Ko‘rib chiqilayotgan mazkur masalada biz jamiyat rivojining bosh ko‘rsatkichi sifatida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarining katta yoshdagi o‘quvchilari kesimida gender tengligini tahlil qilib, ta’lim sohasidagi gender xususiyatlarini kuzatdik. Izlanishlar davomida o‘quv dargohlari oldida ko‘ndalang turgan ta’lim vazifalarini hayotga tatbiq qilishda jamiyat talablari e’tiborda tutildi. Zero, bu gender ta’lim; o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlardan xabardor etish; erkak va ayolning hayotdagi mavqei borasidagi qarashlar, tuyg‘u va e’tiqodlarni shakllantirish, oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga, bolalarni tarbiyalashga qaratilgan oilaviy ta’lim. Birgalikda bularning barchasi gender masalalar bo‘yicha milliy pedagogikani rivojlantirish vazifalarini o‘z ichiga oladi.

O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan shug‘ullanuvchi mutaxassislar bir ovozdan gender yondashuvini o‘stirish o‘quv maskanlarida gender madaniyatini kamol toptirish konsepsiyasini ishlab chiqishning zaruriy sharti ekanligini uqtiradilar. Basharti, gender yondashuvning ishlab chiqilgan pedagogik nazariyasi ta’lim amaliyotiga tatbiq etilsa,

bu axloqiy tarbiyaning yaxshilanishini ancha yuksaltiradi, ta'lim oluvchilarning gender ongi va fikrlashini har tomonlama shakllantirish uchun sharoit hozirlaydi. Buning uchun mazkur konsepsiyani hayotga olib kirish, o'g'il va qiz bolalarni birgalikda o'qitish va tarbiyalash shartlariga amal qilish lozim; o'smir yoshdagi o'quvchilarda gender identifikatsiyasini taraqqiy ettirish; estetik gender shakllanishi va rivojlanishiga qodir tizim paydo qilish lozim ekan.

Yana, shuningdek, tayinlangan vazifani genderga binoan qabul qilish yoki inkor qilishga bo'lgan munosabatni, jamiyatda mavjud bo'lgan yozilmagan gender o'yin qoidalariga uyg'un jamiyatga qo'shilish xohishi yoki istamasligini o'z ichiga oladi.

A.V.Mudrikning qarashlarini kuzatadigan bo'lsak, uningcha, odam farzandi qanaqa o'sishi, uning rivojlanishi qanday bo'lishida hal qiluvchi rol uning hayotiga to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lgan odamlar o'ynaydi. Ular sotsializatsiya xabarchilari deyiladi. Bunda ota-onalar, aka-uka va opa-singillar, qarindoshlar, tengdoshlar, qo'shnilar, o'qituvchilar harakat qiladi.

Kuzatuvchilar gender fe'l-atvori har bir gender tarafidan qabul qilingan gender rollari yig'indisining haqiqiy "o'yinchisiga" to'g'ri keladi degan qarashda hamfikrdirlar.

Bugungi holatimizda vaziyat yuqori darajadagi maktab o'quv yurtlarining ta'lim muassasalari, gumanitar kasblar, milliy urf-odatlar va jamiyat me'yorlari vakillari sifatida ayollarga nisbatan aniq nomutanosiblik bilan tavsiflanadi.

Maktab o'quvchilariga uning qaysi jins vakili bo'lishidan qat'iy nazar, aloxida qobiliyatlari, biror fan yo'nalishiga bo'lgan iqtidori, qiziqishilarini rivojlantirish uchun har tomonlama imkoniyatlar yaratishga mo'ljallangan.

Zero, ular biror narsani tabiiy deb qabul qilmaydilar, boshqalarning qarashi, fikri, qarorlari, baholari bilan kirishib ketishga intilmaydilar, ular bu o'rinda darrov isbot talab qiladilar. Ular o'zlarining jamiyatga qo'shgan ulushlariga ehtiyotkorlik bilan yondashadi, shuningdek, kelajakdan ko'proq umidvor bo'lib, hayotda shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga ishonishadi va buni kasbga ko'tarilish vositasi, ya'ni, narvon sifatida ta'lim olish zarurligi bilan bog'laydilar. "Jamiyat tomonidan tan olinishi" va "faol harakatchan hayot" kabi qadriyatlar juda muhimdir.

Shunisi muhimki, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarning bir xilligidan bo'lsa kerak, yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy qadriyatlar ierarxiyasi, kutilganidek, jinsidan qat'iy nazar aynan ko'rsatichga ega bo'ldi. Boshqacharoq tushuntirish lozim bo'lsa, hayotning ushbu bosqichida, maktab bolasi mazkur sharoitda shakllanishning dastlabki bosqichidan o'tganida, ayol va erkak jinsi o'rtasidagi farq ko'rinmay qoladi. O'g'il bolalar uchun ham, qizlarga ham eng muhim qadriyat nishoni – bu oila, yaxshi oliy ma'lumot, kasbiy mahorat va do'stlar bo'lib qoladi va buni tabiiy deb qarash to'g'riroq deb uylaymiz. O'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisining (o'g'il va qiz) jamiyatdagi ijtimoiy mavqei uning jinsiga bog'liqmi degan savolimizga ko'yidagicha javob oldik:

Zero, bu, ko'rib turganingizdek, balog'at yoshidagi o'quvchilar tomonidan erishilgan ijtimoiy mavqening jinsga aloqadorligini baholash bilan bog'liq savolni shakllantirishdir. Ayonki, o'g'il va qiz bolalarning holatini individual baholash pog'onasiga ko'ra ko'rsatkichlari deyarli boshqacha manzara kasb etgan.

Ijtimoiyot fanida shaxsning jamiyatdagi mavqei maqomlari yig'indisiga bog'liq. Binobarin, har bir shaxs xilma-xil ijtimoiy guruh a'zosi va shunga muvofiq har xil statuslar sohibi hamdir. Bunda shaxsning o'zi nimani asosiy deb hisoblasa, o'sha bosh maqom deb ataladi. Bu qoida tariqasida kasbiy yoki oilaviy maqomi yoki u katta muvaf-

faqiyat qozonishi mumkin bo‘lgan guruhdagi mavqeini nazarda tutiladi.

Status tabiiy (ya’ni, har bir odam tug‘ilganidayoq jins, irq, millat sohibi) bo‘ladi va keyinchalik hayoti davomida erishilgan – kishining o‘z intilishlari, harakatlari tufayli qozonganlaridir. Aytish mumkinki, jamiyat qanchalar erkin bo‘lsa, belgilangan maqomlar shunchalar kam ahamiyatli bo‘ladi va erishish mumkin bo‘lgan status shunchalik muhim rol o‘ynay boshlaydi. Umumiy gender holati, unda hukmronlik etayotgan hokimiyat, madaniy va diniy iqlim, olib borilayotgan siyosat, insoniy munosabatlar tizimiga qarab butun ijtimoiy-gender guruhining, deylik xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Ayni vaziyatni baholab xulosa qilish mumkinki, patriarxal jamiyatda ayolning statusi erkaklarnikida ko‘ra atayin pastroqqa tushiriladi.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha ta’lim muassasa o‘quvchilari uchta guruh muammolarini o‘z mavqelariga tegishli deb hisoblashadi:

– tabiiy-madaniy – kishi o‘z jismini eshita bilishi; odob-axloq, ramziylik, jismoniy va jinsiy moyillikni o‘stirish; sog‘lom hayot tarzi; qobiliyati, jinsi, yoshi va shunga muvofiq individual imkoniyatlarini amaliyotga chiqarish;

– aniq ijtimoiy-madaniy sharoitlar bilan belgilanadigan ijtimoiy-madaniy, kognitiv, axloqiy, qiymat-semantik;

– ijtimoiy-psixologik – o‘z-o‘zini anglash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zini eshita bilish va o‘zini tasdiqlash.

O‘smirlarning ijtimoiylashuvi tengdoshlar guruhida muloqot orqali sodir bo‘ladi, ular ta’lim faoliyati doirasida jamiyat tomonidan o‘rnatilgan yaqin munosabatlarni o‘rnatadi va ko‘pincha shaxsiyatning gender komponenti, ya’ni o‘zini tutish sharoitida o‘zini boshqarishning ustun modellari ma’lum bir jinsning vakili sifatida xabardorlik bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ko‘p jihatdan gender tenglikni ta’minlashga bog‘liq.

Zero, bugun bizning jamiyatimiz yangi siyosiy munosabatlar shakllanishi, uchinchi renessans jarayonining ilk bosqichida turibdi.Ushbu jarayonda erkaklar va ayollar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa sohalarda gender tengligini ta’minlash, ayniqsa o‘g‘il-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini takomillashtirish talab etiladi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bu borada yuqori samaradorlikka erishishda quyidagilarga e’tiborni kuchaytirish lozim:

– ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga ushbu masala bo‘yicha ustuvorlik berish; ta’lim muassasalarida “Gender tenglik strategiyasi” maxsus kurslarini, nazariy-metodik laboratoriyalarni tashkil etish va ular uchun dasturiy mahsulotlarni yaratish maqsadga muvofiqdir;

– gender tenglikni ta’minlashning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, ruhiy va boshqa jihatlari bo‘yicha rukunli risolalar, esdaliklar, videomateriallar, onlayn dasturlar, ko‘rgazmali targ‘ibot mahsulotlari(plakatlar, bukletlar va b.q) va boshqalarni yaratish hamda ularni har bir oilaga va umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga kirib borishini ta’minlash mexanizmi yaratilishi zarur;

– gender muammolariga oid qiziqtirgan savollar bo‘yicha maslahatlar olish va berish maqsadida MOOKlar(Ommaviy ochiq onlayn saytlar)ni yo‘lga qo‘yish, vebinarlar (vebseminarlar, vebkonferensiyalar, vebdebatlar, veb murojaatlar, metodik vebsahifalar va b.q).

Ta’lim muassasalari o‘smir o‘g‘il-qizlarni gender madaniyatini rivojlantirishda multimediya mahsulotlarini yaratish va O‘zbekistonda gender muammolarini o‘rganish,

targ‘ib etish, monitoringini yuritish, gender tadqiqotlar elektron platformasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda esa yoshlarni sog‘lom oilaviy hayotga tayorlash masalalari bo‘yicha, yosh yigit va qizlarning turmush borasida qiziqtirgan savollariga javoblar topishda, oila, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kengayishida, namunali oilalar, erkaklar va ayollarning hayotiy tajribalaridan xabardor bo‘lishda juda keng auditoriya (turli toifa jinslar, oilalar, turli kasbdagi ota-onalar, qaynona-kelinlar, yigitlar va qizlar, mutaxassislar va b.q.) ning qamrab olinish imkoniyati vujudga keladi;

Bugungi kunda mamlakatimiz va xalqaro maydonda o‘z salohiyatini namoyon etgan gender muammolari bo‘yicha fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan ilmiy maktablarni yaratilishi, ular tomonidan gender masalalari bo‘yicha dolzarb muammolar yuzasidan metodik ta’minotni yaratish, tajriba-sinov natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarni oilalar, ta’lim muassasalari, barcha tashkilotlar amaliyotiga tadbiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Namazov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. (2018). O‘qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv masalalari (80th ed.). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.

2. Эгамбердиева Н., Камилова Р., Атаниязова Р., Исакова Л., Усманова М., Исломов А. (2021). Гигиенические аспекты формирования устойчивой социальной среды в семье.

3. Jamoldinova O. (2022). Ta’lim tizimida gender yondashuv tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O‘zbek ILMIY-METODIK JURNAL, 1, 15-22.

4. Norkulov H. (2023). O‘smirlarni oilaga tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari. Foreign Languages in Uzbekistan, 133-142.

5. Тожибоева Х.М. (2021) Гендер ёндашув асосида ўсмир ёшдаги ўқувчиларда “оммавий маданият” га қарши иммунитетни шакллантириш // Муғаллим ҳэм узлуксиз билимлендириу. - Нукус, 2021. – 5/2-сон. – Б.46-50.

6. Bayjonov, F. B. (2021). Stages of formation of gender culture in youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 9(4), 2021.

7. Bayjonov, F. (2023). Technologies for the development of gender culture in cooperation with the family and educational institutions. Bulletin of Science and Practice, (4), 531-534.

8. Bayjonov, F. B. (2021). Gender differences in the contemplation of teenagers. Theoretical & Applied Science, 98(06), 144-146.

Sayyora AZIMOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada farzand tarbiyasida ota-onalarning maktab yoshidagi farzandlari bilan o‘zaro munosabatlarida tarbiyaning zamonaviy metodlari bilan tanishtiriladi. Oiladagi pedagogik madaniyatini to‘g‘ri tashkil etish, zamonaviy texnologiyalar yordamida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlardan chiqish borasida tavsiyalar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, pedagogik madaniyat, ma’naviy tarbiya, ota-ona mas’uliyati, tarbiyaning zamonaviy texnologiyalari.

В статье изложено мнение касаюшейся современные методы воспитания во взаимоотношениях родителей с детьми школьного возраста. Даны рекомендации по правильной организации родительской культуры в семейных взаимодействиях при воспитании детей помощью современных технологий.

Ключевые слова. Воспитание, педагогическая культура, духовное воспитание, родительская ответственность, современные технологии воспитания.

The modern methods of education in the relationship of parents with their children of school age. Recommendations are given on proper organization of parenting culture in family interactions in child rearing, getting out of problematic situations with the help of modern technologies.

Key words. Education, Pedagogical culture, spiritual education, parental responsibility, modern educational technologies.

Jamiyatning rivojlanishi bevosita unda voyaga yetayotgan yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga uzviy bog‘liq. Farzand avvalo tarbiyani jamiyatning bosh bo‘g‘ini bo‘lmish oiladan oladi. Shu sabab o‘g‘il-qizlar tarbiyasi avvalo ota va ona, undan so‘ng esa MTT va maktablar zimmasiga yuklanadi. Sharq xalqlarida ta’lim va tarbiya bir-biriga uzviy tarzda olib boriladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev 2020 yil, 30 oktyabrda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida: “Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog‘langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta’kidlandi.”1 Yosh avlodga ta’lim berar ekanmiz, uni tarbiya bilan uzviy holda olib borish kerakligi takidlab o‘tdilar. Tarbiya masalasi davlat e’tiboridagi dolzarb masalalar qatoriga kiritildi.

Darhaqiqat, farzand o‘zi tug‘ilib, voyaga yetadigan xonadonda ota-onalarning o‘zaro munosabatlari sog‘lom tarzda kechsa, farzandlar ham komil bo‘lib voyaga yetadi. Bola tarbiyasi mas’uliyatli ish bo‘lib, uning ilmiy asos va xususiyatlari quyidagicha tasniflanadi.

Kongnetiv xususiyatlar farzand tarbiyalashda zarur bo‘lgan jismoniy, irsiy, ruhiy, tarbiyaviy va huquqiy bilimlar jamlanmasidan iborat bo‘ladi. Oilada farzand dunyoga kelgach, jisman o‘sadi, shakllanadi yuqorida keltirilgan bilim va ko‘nikmalarga ega ota-onalar bolalarini shu ko‘nikmalar asosida tarbiyalaydi. Ota-onalarning pedagogik bilimlari quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi.

Tashkiliy-tarkibiy qism – Oilada bola uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, uning

[1] Ш.Мирзиёев “Таълим-тарбия тизими: тараққиётнинг янги босқичи” мавзусида сўзлаган нутқиб 30 октябр 2020 йил, “Янги Ўзбекистон” газетаси.

qobiliyat va imkoniyatlarini to‘g‘ri anglagan holda, ularni shakllantirishga ko‘maklashish.

Maishiy-tarkibiy qisim – voyaga yetayotgan farzand uchun ota-onalar tomonidan qulay maishiy sharoit yaratib berish tushiniladi.

Harakatlar tarkibiy qismi – ota-onalar farzandlarining xatti-harakatlarini tanqidiy fikrlash orqali bolaga o‘z harakatlarini tahlil qilish va baholashni o‘rgatishlari talab etiladi.

Kutilmagan vaziyatlarda emotsional komponent – bolalar muammoli vaziyatlarga ko‘p tushishadi. Bunday qiyin va muammoli vaziyatlarda ota-onalar qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun farzandlariga yordam berishi va buning uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lishi zarurligi nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qator me’yoriy hujjatlarda ota-onaning farzand oldidagi burch va mas’uliyatlari aniq ko‘rsatib o‘tiladi. Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino ta’rifi bilan aytganda: “Oilada katta yoki kichik narsa bo‘lmaydi. Hamma narsa, hatto, eng oddiy bo‘lib ko‘ringan oilaviy munosabatlar ham bolaga ta’sir ko‘rsatadi. Aynisqa, rostgo‘ylik, samimiylik, sadoqatlilik, shirin suxan bo‘lish bola kamolotidagi zarur hayotiy vositalardan biridir”, deyiladi.

Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan muammolar, huquqbuzarliklarning aksar qismi ota-onalarning pedagogik madaniyatining shakllanmaganligidan yuzaga keladi.

Ota-onalarning pedagogik metodlariga quyidagilar kiradi:

– o‘rnak qilib ko‘rsatish;

– talab qilish;

– pedagogik mashqlar;

– singdirish, uqtirish;

– so‘z orqali ta’sir ko‘rsatish;

– o‘rgatish;

– rag‘batlantirish va jazolash[2].

Sharq xalqlarida asrlar davomida farzandlar tarbiyasiga avvalo ota va ona mas’ul bo‘lgan. Bolaga to‘g‘ri tarbiya berish go‘dak dunyoga kelgan kundan boshlab emas, balki ona farzandga xomiladorlik davridayoq berib borilgan. Tarbiyaning bu metodi bugungi kunda fanda to‘liq isbotini topgan.

“Ko‘zgu” metodi misol bo‘ladi – Ko‘zguga boqqanimizda o‘z aksimizni ko‘ramiz, bolalarning ijobiy fazilatlari ota-onalarning fe’l-atvori andozasidan shakllanadi. Bolalarda ijobiy fazilatlar ham atrof-muhit ta’sirida shakllanadi va avvalo bu fazilatlarni ota-onalar o‘zlarida mujassamlashtirmog‘i zarur. Ota-onalar oilaning katta-kichiklari bilan bo‘ladigan muloqotda o‘zaro xushmuomila bo‘lishlari, mavjud muammolarni o‘g‘il-qizlar oldida muhokama qilmasliklari zarur.

“Talab qilaman” – tarbiyaning bu metodida ota-ona farzandiga biror bir topshiriq berishi va uning natijasini talab qilishi bilan ifodalanadi ota-onalarning talabchangligi o‘g‘il-qizlarning kelajakda ularga yuklatilayotgan vazifalarga nisbatdan mas’uliyat bilan yondoshishni o‘rganadilar.

“Rag‘bat va jazo” – bolalarga tarbiya berishda ularning yosh xususiyatlari e’tiborga olinadi, chunki, kichik yoshdagi bolalar fiziologik jihatdan ko‘proq rag‘bat va maqtov eshitishga moyil bo‘ladi. O‘rta yoshdagi bolalar esa xatti-harakatlarini mustaqil boshqara oladilar va ular salbiy xatti-harakat qilsalar, ota-onalardan bunday illatlar takror-

[2] Зверева В. И., Неустроева Е. А. Методы воспитания детей в семье // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 26. – С. 288–291. – URL: http://e-koncept.ru

lamasligi uchun tanbeh berish taqazo etiladi.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish uzviy ravishda yillar davomida shakllanadi. Ota-onalarda pedagogik madaniyat to‘g‘ri shakllansa, ular tarbiyalayotgan farzandlar ham komil shaxslar bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yi, 30-oktabrda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 15.03.2017 yildagi 140-son, “Umumiy o‘rta ta’lim tog‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”

2. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. – T.: Fan, 1972. 962-b.

3.Abu Nasir Farobiy “Fozil odamlar shahri” www.book.uz

4. Kaykovus “Qobusnoma”. – T.: Istiqbol, 1994.84-b.

5. Зверева В. И., Неустроева Е. А. Методы воспитания детей в семье // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 26. – С. 288–291. – URL: http://e-koncept.ru

Baxodirjon ABDULLAYEV
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

IMKONIYATI CHYEKLANGAN BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar huquqiy madaniyatini shakllantirishning dolzarb masalalari, o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoniga qo'yiluvchi talablar va tamoyillar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Imkoniyati cheklangan bolalar, kar va zaif eshituvchi bolalar, maxsus maktab-internati, tarbiyaviy mashg'ulot, o'qituvchi, tarbiyachi, davlat, huquq, jamiyat, demokratiya, huquqiy tartib, qonun, insoniyat, erkinliklar, adolat, insonparvarlik, huquqiy madaniyat.

В данной статье излагаются актуальные вопросы формирования правовой культуры детей с ограниченными возможностями здоровья, требования и принципы, предъявляемые к процессу формирования правовой культуры на учебно-воспитательных занятиях.

Ключевые слова. Дети с ограниченными возможностями здоровья, глухие и слабослышащие дети, специальная школа-интернат, воспитательная деятельность, учитель, воспитатель, государство, право, общество, демократия, правопорядок, право, человечность, свободы, справедливость, гуманность, правовая культура.

This article describes the pressing issues of the formation of a legal culture of children with disabilities, the requirements and principles for the process of forming a legal culture in educational and educational activities.

Key words. Children with disabilities, deaf and weak hearing children, special boarding school, educational training, teacher, educator, state, law, society, democracy, legal order, law, humanity, Freedoms, Justice, Humanity, legal culture.

Mamlakatimizda sog'lom yoshlar qatorida imkoniyati cheklangan bolalarning huquqiy tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, huquqiy demokratik davlat barpo etishda yosh avlodni huquqiy tarbiyalash juda muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik jihatdan o'ziga xos rivojlanishi oqibatida ular birovlarning yolg'on va g'arazli niyatlarini tushunmagan holda turli darajadagi javobgarlikka tortiluvchi vaziyatlarga tushib qoladilar. Shuning uchun ularga huquqiy bilimlar tizimli o'rgatilsa bu kabi noxush vaziyatlardan yiroq bo'ladilar. Bilimli avlod hech qanday huquqbuzarlikka va jinoyatga qo'l urmaydi. Unga turli g'oyalar ta'sir qilmaydi. Qanchalik yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldi olinsa, shunchalik jamiyatda o'z o'rniga ega va mustaqil hayotda to'siqlarni oson yengib o'tuvchi insonlar ko'payadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning huquqiy madaniyatini ilk maktab ta'limi davridan shakllantirish uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida metodik ishlarni huquqiy yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarni huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash metodik muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Huquqiy madaniyat - jamiyatning qonunga nisbatan umumiy bilim darajasi va xolis munosabati; hayot jarayonida yaratilgan me'yorlar, e'tiqod va munosabatlar shaklidagi huquqiy bilimlar majmui. U o'zaro ta'sir sub'ektlarining ishida,

muloqotida va xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. U madaniy-huquqiy ta’lim va tarbiya tizimi ta’sirida shakllanadi.

Huquqiy madaniyat adolat, barqarorlik, mustaqillik, hech kimga zulm qilmaslik, xavfsizlik kabi tushunchalar doirasida insonlarning hayotida muhim o‘rin egallaydi.

Huquqiy madaniyat - bu inson madaniyatining bir qismi, muayyan jamiyatda odamlarning ijtimoiy-huquqiy yo‘nalganligini tavsiflaydigan normalar, qadriyatlar, huquqiy institutlar, jarayonlar va shakllar yig’indisidir.

Huquqiy jamiyatda shaxsning ehtiyojlari va manfaatlarini maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish, qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlashning samarali vositalaridan biri sifatida huquqiy madaniyat va huquqiy ong, huquqiy ta’lim alohida o‘rin tutishi kerak. Huquqiy madaniyat shakllanishida bilishning ahamiyati katta. Sog‘lom insonlar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar ham mavjud huquqiy manbalar, ularda ilgari surilgan g‘oya, dunyoqarash va nuqtayi nazarlarni o‘rganishi, o‘zlashtirishi kerak. Huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida kar va zaif eshituvchi bolalarning aqli, qobiliyati o‘sib, huquqiy madaniyati shakllanadi. Mazkur toifa bolalarni bilimlar, g‘oyalar hamda qarashlarni shunchaki qabul qilishga emas, balki ba’zi bir g‘oyalarni ma’qullashga, ulardan amaliyotda, ya’ni zaruriy hayotiy vaziyatlarda foydalanishga tayyorlash lozim. Shundagina kar va zaif eshituvchi bolalaar shaxsiy hayoti davomida huquqiy me’yorlarga rioya etishga intiladi, ba’zi birlaridan tanqidiy xulosa chiqaradi yoki inkor etadi. Bu jarayon bolalarda mustaqil fikrlashni, hurfikrlilikni rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, imkoniyati cheklangan bolalar asta-sekin huquqiy madaniyat orqali umuminsoniy va milliy huquqiy-madaniyatning mohiyatini chuqur anglaydi. Idrok etish, tafakkur qilish, xulosalar chiqarish asosida o‘zida tabiat va jamiyat qonunlariga haqqoniy munosabatni shakllantiradi.

Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni huquqiy madaniyatli etib tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari takomillashmoqda. Chunki yoshlar axborot olamida o‘zining ijtimoiy trayektoriyasini va kelajak rejalarini mustaqil tuzishiga ehtiyoj kuchaymoqda. Jamiyatning huquqiy ongi o‘zgarmoqda. Ommaviy axborot vositalari va targ‘ibot-tashviqot ishlari natijasida huquqiy ong, bilim, ko‘nikma va malakalarning tizimli shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar maydoni kengaymoqda. Biroq kar va zaif eshituvchi o‘smirlar va o‘spirinlar o‘zining sog‘lom tengdoshlariga nisbatan huquqiy munosabatlarni yetarlicha tahlil qilmaydilar, zaruriy bilimga ega emaslar. Shuning uchun aksariyat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarini tamomlagan kar va zaif eshituvchi yoshlar maktabdan keyingi ta’limda, kasbiy faoliyatda muayyan to‘siqlarga uchramoqdalar. Ular shartnoma tuzish, belgilangan imtiyozlarni tushunish va ulardan foydalanish, o‘zini namoyon etish orqali turmush sharoitini yaxshilash kabi jarayonlarda o‘zgalar yordamiga muxtojlik sezadilar.

Ma’lumki, huquqiy demokratik jamiyatda qonunni yaxshi bilish har bir fuqaro uchun hayotiy ehtiyojga aylanadi. Shu bois, bu boradagi bilimdonlikni inson o‘zi uchun qandaydir ustunlik beradigan imtiyoz deb tushunmasligi, shundan foydalanib, faqat shaxsiy manfaatlarini amalga oshirishga urinmasligi kerak.

Tasavvur qilaylik, agar inson qonunni bilsa, faqat o‘z manfaatini ko‘zlab ish tutsa, qonun asosida o‘z manfaatlarini himoya qilaman, deb o‘ylasa, uni huquqiy madaniyatli shaxs deb bo‘lmaydi. Qonunlar, eng avvalo, axloq va yuksak insonparvarlikka asoslanadi. Ular har kimdan o‘z huquq va erkinliklarini boshqalarga zarar etkazmasdan va xafa qilmasdan amalga oshirishni talab qiladi. Chunki qonunlarda insonning huquq va erkinliklari bilan bir qatorda fuqarolarning jamiyat va davlat oldidagi burch va majburiyatlari ham qat’iy belgilangan.

Imkoniyati cheklangan bolalarning huquqiy madaniyatni tushunishi uchun ular-

ning yoshiga mos ravishda ma’lumotlar berish, ularning o‘zlashtirish hususiyatlariga qarab qonuniy munosabatlarni tushuntirish kerak. Shuningdek, ularda huquqiy ong, tasavvur shakllanganligini muntazam nazoratga olish lozim. Shunda ular shaxsiy hayoti davomida o‘z huquqlarini anglagan holda talab qilishga, bu jarayonda madaniyatli bo‘lishga tayyor bo‘ladilar.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga huquqiy madaniyatni o‘rgatish uchun o‘qituvchi qulay usullardan foydalanishi talab etiladi. Bu usullar o‘quvchilarni o‘rganishga qiziqtirishi, axborotlarni oson tushunish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir. O‘qituvchi va tarbiyachi tomonidan usullarning tanlanishida kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanish darajalari inobatga olinadi. Xususan, huquqiy matnlarni tushunishi uchun zarur bo‘lgan nutqiy zaxiraning o‘quvchilarda yetarli bo‘lishi ham jarayondan kutilgan natijani ta’minlovchi pedagogik shartlardandir. Shu o‘rinda kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida huquqiy madaniyatni shakllantirishning umumiy va xususiy tamoyillarini aniqlashga zarurat tug‘iladi. Quyida mazkur tamoyillar keltiriladi:

Ko‘rgazmalilik tamoyili. Huquqiy ma’lumotlarning ko‘rgazmali va oson tushuniluvchi to‘ldirishlar bilan bezalgan bo‘lishi talab etiladi.

Oddiydan murakkabga o‘tish tamoyili. Kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari muayyan matnni tushunishlari uchun oddiy tushunchalarni taqdim etishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunda mazkur tamoyil ko‘rgazmalilik tamoyili bilan integratsiyalashadi. Chunki kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar aniq va mavhum tushunchalarni ko‘rgazmali ravishda berilsagina samarali o‘zlashtiradilar.

Takrorlash intervali ustuvorligi tamoyili. Kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari berilgan ma’lumotlarni qisqa muddatda takrorlanishi evaziga ularni uzoq muddat xotirada saqlaydilar.

Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillar kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich isnf o‘quvchilari huquqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ulardan maxsus ta’lim sharoitida korreksion yo‘nalganlikda qo‘llash yanada samarali natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” gi 09.01.2019 yildagi PF-5618-son farmoni.

2. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi-T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022

3. Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari-T.: “Fan va Texnologiya”, 2008.

Nafisa ABDULLAEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti prorektori, p.f.d (DSc), dotsent

MAKTABGACHA TA'LIMDA XUSUSIY MALAKA OSHIRISH INSTITUTI – TIZIM RAVNAQINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tizimida xususiy malaka oshirish institutlari faoliyatini yo'lga qo'yilishi, tizimda faoliyat olib borayotgan kadrlar saloxiyatiga ta'siri va uni tashkil etish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish instituti, xususiy malaka oshirish, kadrlar saloxiyati, mehnat bozori, ta'lim sifati, yondashuv.

В статье освещается становление деятельности частных институтов повышения квалификации в системе дошкольного образования, влияние на кадровый потенциал, функционирующий в системе, и этапы ее организации.

Ключевые слова. Институт повышения квалификации, частное профессиональное развитие, кадровый потенциал, рынок труда, качество образования, подход.

The article covers the activities of private professional development institutions in the preschool education system, the impact on the level of personnel functioning in the system and the stages of its organization.

Key words. Training institute, private professional development, personnel recovery, labor market, quality of education, approach.

Mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha maktabgacha ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yangi bilim, ko'nikma va ma'lumotlar olishning bosh manbasi sifatida maktabgacha ta'lim xodimlariga ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar va modernizatsiya jarayonlarining mazmun-mohiyatini yetkazadi va shu orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim sifati va samaradorligini bevosita oshirishga xizmat qiladi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'limga klasterli yondashuvni tatbiq etishga, yuqori texnologik sohalarda yetakchilik qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals)da mehnat bozorida talab katta bo'lgan kasbiy-texnik, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyatda raqobatbardoshlikni oshirish, ta'lim xizmatlari diversifikatsiyasini ta'minlash global indikatorlardan biri sifatida belgilangan. Bu o'z navbatida maktabgacha ta'lim va malaka oshirish tashkilotlarining integratsiyasini ta'minlovchi innovatsion kampus sifatidagi faoliyatini takomillashtirishni taqazo etmoqda.

Jahonni yetakchi ilmiy markazlari tadqiqotchilar tomonidan oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan ilmiy innovatsion ta’limni rivojlantirish, ta’lim menejmenti, ularning o‘zaro konstruktiv muloqot mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlar innovatsion faolligini oshirishning ochiq axborot tizimlarini yaratishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. YUNESKOning oliy ta’lim kvalifikatsiyalarini tan olish to‘g‘risidagi Global konvensiyasi (2019) da oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarning ta’lim jarayonlariga jalb qilinishi bevosita ularning tizimli tahlil va kreativ fikrlash ko‘nikmalari, innovatsion rivojlanishni ta’minlovchi kasbiy kompetensiyalarga egaligi bilan bog‘lanadi. Maktabgacha ta’lim va malaka oshirish integratsiyasini rivojlantirishda boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish, ta’lim innovatsion asoslarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasasining innovatsion faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirish kabi istiqbolli yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion axborot ta’lim muhitini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim va malaka oshirish тизимини интегратив yondashuv asosida takomillashtirish bilimlar transferini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim jarayonini yuqori darajada tashkil etish hamda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tizimli joriy etish zaruratini namoyon qilmoqda. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” vazifalari belgilanган.

2023 yilning avgust oyi holatiga ko’ra respublikamizda jami 30 792 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularning 6 734 tasi davlat va 24 058 tasi nodavlat (789 ta xususiy, 21 941 ta oilaviy va DXSH asosidagi 1 328 ta nodavlat MTT) maktabgacha ta’lim tashkilotlaridir. Shuningdek, MTTlarda 2 111 487 nafar yoki 72 foiz bolalar maktabgacha ta’limga qamrab olingan.

Hozirgi kunda respublikamizda maktabgacha ta’limning bir nechta shakllari yo‘l qo‘yilgan (davlat MTT, nodavlat MTT, davlat-xususiy sherikchilik asosidagi MTT, oilaviy MTT, xususiy MTT). Ushbu tashkilotlarda hozirgi vaqtda .ta pedagog hodim faoliyat olib bormoqda. Har bir pedagog hodimni malakasi oshirish bo‘yicha asosiy vazifalari “Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi davlat dasturi asosida faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishi, o‘z ustida ishlashi, bilimlarini kengaytirib borishi, AKTdan erkin foydalana olishi, bolalar psixologiyasini bilishi va ular bilan ishlashda yangi metodikalarni qo‘llay olishi, tashkilotdagi barcha pedagog-hodimlar bilan hamkorlik ishlarini tashkil eta olishi muhim vazifa sanaladi. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda hodimdan malakasini muntazam ravishda oshirib turishi talab qilinadi. Malakali kadrlarga mehnat bozorida talab ham yuqori bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-dekabrdagi “Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 1026-qarorida “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursi — yangi kasbiy bilimlar, mahorat, zamonaviy ko‘nikmalar hamda pedagogik faoliyatni yuritish uchun malaka talablariga muvofiq o‘quv-ta’lim jarayoniga talab qilinadigan sifatni ta’minlaydigan darajada vakolatlarni nazarda tutadigan o‘qitish shakli” ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Qarorga ko‘ra malakasini oshirishning maqsadi- O‘quv-tarbiya jarayonini malakaviy talablarga muvofiq yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlash, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni muntazam ravishda yangilab borish, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning yangi tamoyillari va zamonaviy usullari, malaka talablari, normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirib borish deb belgilangan.

Malakasini oshirishning vazifalari:

– pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, ko‘nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

– mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish, pedagogik nufuz va kompetentlikni rivojlantirish;

– o‘z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– ilmiy-pedagogik ijodkorlik metodologiyasi hamda pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarni singdirish;

– o‘quv-tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy ishlarni amalga oshirishda ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash;

– pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot hamda o‘quv-metodik ishlarni olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish deb belgilab qo‘yilgan.

Hozirgi vaqtda respublikamizda faoliyat olib borayotgan davlat MTTlarning rahbarlari 3 yilda va pedagog-hodimlarini 5 yilda o‘z malakalarini oshiradi va davlat namunasidagi 144 soatni tugatganligi to‘g‘risida sertifikat oladi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonda 39-maqsadda maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish rejalashtirilgan bo‘lib, bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022 – 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish asosiy vazifa etib belgilangan.

Hozirgi axborat almashish jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatda har bir rahbar va pedagog hodim o‘z malakalarini mustahkamlab borishi uchun muntazam yangi bilimlarni egallab borishi zarur. Davlat tomonidan moliyalashtirib boriladigan malaka oshirish muddatlarini, MTTlarning shakllari soni ortganini, pedagog-hodimlarning soni ko‘payib borayotgani va zamon talablarini inobatga olgan holda maktabgacha ta’lim tizimi hodimlari uchun xususiy malaka oshirish institutlarini tashkil etish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotchi Ye.I.Varchenko ta’lim sifatini oshirishni ta’lim sifatini ta’minlash, takomillashtirish, monitoring qilish va baholashga yo‘naltirilgan strategik va tezkor harakatlarning muntazam ravishda amalga oshiriladigan tizimi” ekanligini e’tirof etib, ta’lim muassasasining faoliyatida ushbu omilning ahamiyatini yuqori baholaydi.

Demak, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish shu soha mutaxassislaridan, avvalo, sifatni ta’minlashni (ta’lim va tarbiyani yaxshiroq holatga o‘tishini ta’minlaydigan xususiyatlar ustida ishlashni), rivojlanish tamoyiliga ko‘ra uni takomillashtirishni, oldingi va

keyingi holatni o‘zaro taqqoslash uchun doimiy baholash ishlarini va o‘z faoliyatlariga obyektiv monitoringni talab qiladi. Ushbu faoliyat turlarini muayyan tizimga solish va buni maktabgacha ta’lim sohasining strategiyasi, istiqbol rejalari bilan bog‘lash ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Mazkur dolzarb vazifalarni bajarishda maktabgacha ta’lim tizimi rahbarlari va pedagog xodimlarining funksional vazifasiga mos ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarining mazmunini takomillashtirish va rivojlantirish strategiyalarni tanlash hamda malaka oshirish jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ta’lim sifatini oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan tizimli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, maktabgacha ta’limi tizimi xodimlari malakasini oshirish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni, mavjud muammo va ziddiyatlarni hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash; uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligini ta’minlash asosida pedagogik tizimga xos xususiyatlarni o‘rganish; uzluksiz malaka oshirish tizimi komponentlarining o‘ziga xos xususiyatlariga mos ravishda ta’lim jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlovchi texnologiyalarni ishlab chiqish; uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorlikni ta’minlashda maktabgacha ta’lim tarbiyachi-pedagog xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish; maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini aniqlash, baholash mexanizmlarini takomillashtirish; tinglovchilar bilimini baholashning barcha uchun qulay bo‘lgan mexanizmlarini ishlab chiqish; tinglovchilar hamda professor-o‘qituvchilarda darsga bo‘lgan ijobiy munosabatlarni shakllantirish asosida maktabgacha ta’lim ta’lim sifatini oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida tashkil etiladigan ta’lim jarayonlari sifat va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’limga doir amaldagi qonunchilikda ta’lim sifatini baholashni litsenziyalash, attestatsiya va akkreditatsiyadan o‘tkazish, nazorat qilish kabi shakllar ko‘zda tutilgan. Mazkur baholash shakllarining me’yoriy-huquqiy jihatdan ta’minlanganlik va ilmiy jihatdan asoslanganlik borasidagi erishgan muvaffaqiyatlarga qaramay ularning faoliyati asosan miqdoriy ko‘rsatkichlarni epizodik tarzda yig‘ishga yo‘naltirilganini qayd etish lozim. Bu esa mavjud muammo va yutuqlarni aniqlash, maktabgacha ta’limning rivojlanishini va maktabgacha ta’lim sifatini oshirish shartlarini oldindan ko‘ra olish imkoniyatini berolmaydi. Malaka oshirish muassasalaridagi ichki nazorat jiddiy takomillashtirishga muhtoj. Maktabgacha ta’lim sifatini nazorat qilishning turli shakllarini o‘zaro muvofiqlashtirish masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

“Sifat” va “maktabgacha ta’lim sifatini oshirish” tushunchalariga asoslanib, maktabgacha ta’lim sifatini ochiq ta’lim tizimining holati va samaradorligini oshirish jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy kategoriya sifatida tushunish mumkin. Bunda, ta’lim sifatiga, birinchidan, ta’limning me’yoriy maqsadlariga; ikkinchidan, shaxslarning va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydigan yuqori ta’lim natijadorligi sifatida qarash lozim bo‘ladi.

Demokratik tamoyillar maktabgacha ta’limning sifatini oshirishning ochiqlik xususiyatini belgilaydi, bu esa ishtirok etish, ko‘maklashish, refleksivlik va ikki tomonlamalik tamoyillari bilan namoyon bo‘ladi. Sifat sohasidagi ishlar o‘quv jarayonining bevosita subyektlariga va o‘quv yurtining tashqi hamkorlariga (ota-onalar va ish beruvchilar, ijtimoiy sohalar) nisbatan maksimal darajada ochiqlikka intilishini talab qiladi. Ishtirok etish ta’lim faoliyati barcha subyektlarining sifat sohasidagi boshqaruv qarorlarini tay-

yorlash, muhokama qilish, qabul qilish va amalga oshirishda keng qatnashishlarini o‘z ichiga oladi. Maktabgacha таълимда sifat sohasidagi asosiy tarkibiy qismlarni shakllantirish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash ta’lim muassasasi ma’muriyatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tizimini sifat sohasidagi siyosatni amalga oshirish vositasi deyish mumkin.

Muayyan natijalarga erishish, maqsadlarni aniq belgilash, maktabgacha ta’lim sifat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish uchun aniq harakat dasturini taklif qilish ta’lim muassasasi xodimlarining kasbiy fazilatlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ularning pedagogik hamda metodik mahoratini oshirishlariga rag‘bat uyg‘otadi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar bilan shug‘ullangan olim Maykl Fullan ta’lim siyosatida keng miqyosli islohotlarga erishish va sifat samaradorligini ta’minlash borasida fikr bildirar ekan, agar o‘qituvchilar faqat o‘z sinflari darajasida fikrlasa va boshqa o‘qituvchilar va butun maktabning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo‘lmasa; agar maktab direktorlari o‘z maktablari darajasida o‘ylasa va o‘z tumanlaridagi boshqa direktorlar va maktablarning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo‘lmasa; agar tuman mutasaddilari rejalarini faqat o‘z tumanlari doirasida amalga oshirsa va boshqa tumanlarning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo‘lmasa, keng miqyosli ta’lim islohotiga erishib bo‘lmaydi. Tadqiqotchining ushbu fikrlari tizimni klaster yondashuvi asosida boshqarishni taqozo qiladi. Ushbu modelning pirovard maqsadi subyektlarni butun tizimning muvaffaqiyatiga jalb qilish, o‘zgarish jarayonlarida bevosita ishtirok etishni ta’minlashdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim xususiy malakaoshirishni tashkil etish pedagogik va o‘ziga xos xususiyat tamoyillariga asoslanishi lozim. O‘ziga xos xususiyatli tamoyillarga quyidagilarni keltirish mumkin:

– huquqiy mustaqillikning saqlanishi;

– qatnashchilarning umumiy strategik maqsadi;

– faoliyatni yagona muvofiqlashtirish tizimi;

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, hozirgi kunda saloxiyatli mutaxassisga extiyoj yuqori bo‘lgan bir davrda har bir kadr o‘z ustida ishlashi va ta’lim siyosatini asosiy strategiyasini bilishi va tizimni ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shishi juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/4646908

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5841063

N.J. ABDUSAMATOVA,
Namangan davlat universiteti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti

MAKTBAGACHA TA'IM TASHKILOTLARINING RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARIDAGI FAOLIYAT TURLARIGA INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda faollik markazlarining ahamiyati, integrativ yondashuv asosida olib boriladigan faoliyatlar, faollik markazlarini tashkil etish va rahbarlik qilish, rivojlantiruvchi markazlarning asosiy vazifalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Davlat o'quv dasturi, Davlat standartlari, faollik markazlari, integrativ yondashuv, maktab ta'limi, ruhiy tayyorgarlik, aqliy faoliyat.

В данной статье рассматривается значение центров активности в подготовке детей к школьному обучению в дошкольных образовательных организациях, деятельность, осуществляемая на основе интегративного подхода, организация и руководство центрами активности, основные задачи развивающих центров.

Ключевые слова. Государственная учебная программа, государственные стандарты, центры активности, интегративный подход, школьное образование, психологическая подготовка, умственная деятельность.

This article reflects on the importance of activity centers in the preparation of children for school education in preschool educational organizations, activities carried out on the basis of an integrative approach, the organization and leadership of activity centers, the main tasks of development centers.

Key words. State curriculum, state standards, activity centers, integrative approach, school education, mental training, mental activity.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda joriy etilgan ta'lim tizimi, uning turlari va shakllari orqali har bir fuqaroning ta'lim olishdagi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirib, ilmiy sohadagi rivojlanishlar keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu o'rinda yosh avlodni kichik yoshdan boshlab sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim-tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etish va bolalarni rivojlantirish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8 –moddasida[1]:

– Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

– Maktabgacha ta'lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi - deb ko'rsatilgan.

Maktabgacha ta'limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo'ladi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgu-

sida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida davlat o‘z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha majburiyatini oldi. 6-7 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan majburiy boshlang‘ich ta’limga bir yillik tayyorlash guruhlari, bolalarini to‘liq kunli maktabgacha ta’lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoki muayyan sabablarga ko‘ra, bolasini maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bermagan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishiga va istisnosiz barcha bolalarning ta’lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan.

Har qanday pedagog hech qanday vositalarsiz, pedagogik texnologiyalardan foydalanmay, bolani maktab ta’limiga sifatli tayyorlashni amalga oshira olmaydi. MTT tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to‘g‘ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo‘lishlari, davlat o‘quv dasturi va Davlat standartlari talablariga tayanishlari kerak.

MTT bolasi kun bo‘yi tuzilishi va mazmuni qiziq bo‘lgan turli xil faoliyatlar bilan shug‘ullanadi. Bola asosan, o‘z xohishi bo‘yicha o‘ynaydi yoki ish bilan shug‘ullanadi. Maktabga esa kunning birinchi qismini tartibli (sistemali)o‘qitish egallaydi, bundan tashqari kunning ikkinchi qismida ham ma’lum vaqtni darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o‘z xohishi va qiziqishi bilan tanlagan mashg‘ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo‘ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maklabga vaqtida kelishi, o‘quv qurollarini olib kelishi, maktab ta’lim sharoitlariga ko‘nikishi kerak. Darslarda ma’lum vaqt tinch o‘tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffusda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o‘z kuchlarini tiklab olishi kerak boladi.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o‘rganish uchun bola eng avval sog‘lom, jismoniy chiniqqan va chidamli bo‘lishi kerak. Sistemali ta’im uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya’ni, aniqrog‘i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bolaning yaxshi o‘qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug‘ullanish odatlari ta’sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya’ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim bolmaganlarni ajrata bilishi, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o‘rganishi kerak. Bola zehnli, ziyrak, topqir, mustaqil bo‘lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo bo‘ladi.

Ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan bola nutqining rviojlanish darajasiga, uning lug‘at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapira olishiga bog‘liq bo‘ladi. Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o‘rnida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamoasiga o‘tadi. Oldingi jamoada bola o‘zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bola o‘zini boshidan ko‘rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o‘qish bo‘lib qoladi.

Bola shaxsini rivojlantirishda ma’lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo‘naltirish berishga alohida e’tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o‘qitish zarur hisoblanadi.Maktabgacha davr inson

shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo‘llanilmasa, rivojlanish to‘xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og‘ir kechadi.

Maktabga tayyor bo‘lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, u o‘zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi. Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalami tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalami to‘g‘ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o‘z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko‘rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak.

Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e’tibor ajratishsa, uning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib yordam berishsa, maktabgacha muhlat ijobiy natija beradi.

MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat standarti va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi talablari asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik bepul tayyorgarlik ko‘rish uchun barcha guruhlarda rivojlanish markazlari, shu jumladan maktabgacha ta’limda kun bo‘yi bo‘lish uchun tayyorgarlik guruhlari mavjud. MTTda rivojlantiruvchi markazlrini tashkil etishdan maqsad bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o‘qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta’minlash uchun sharoit yaratishdan iborat. Rivojlantiruvchi markazlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish;

– individual manfaatlarni qo‘llab-quvvatlash;

– fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishni faollashtirish;

– rivojlanish faoliyati;

– nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish;

tashabbuskorlikni rivojlantirish, o‘z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;

– bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtiriish;

– vizual - majoziy idrokni rivojlantirivizual - majoziy idrokni rivojlantiriish;

– xotirani, nozik vosita ko‘nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish;

– kommunikativ ko‘nikmalarni, muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish;

– bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollarini kengaytirish;

– barkamol shaxsni rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir.

Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to‘ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallarlar tayyorlanadi va jihozlanadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida turli xususiyatdagi, yo‘nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko‘p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko‘lamli davlat islohotlari o‘tkaziladi, ta’limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yan-

giliklar kiritiladi. Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya bu bolalarni vositalar yordamida ta’lim materiallarini o‘rganish orqali nutqini rivojlantirish, o‘z fikrini erkin bayon eta olish, o‘zaro muloqot, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha talqin etishdir.

Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni sog‘lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta’limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Ta’lim-tarbiya tizimi markazida bola shaxsi turib, uning rivojlanishi va tabiiy salohiyatini tatbiq etish uchun qulay, bexatar va nizosiz sharoitlar yaratilishi ko‘zda tutiladi. Insonparvar shaxs texnologiyalari bu texnologiyalar bolaga hurmat va muhabbatni, uning ijodiy kuchlariga optimistik ishonchni targ‘ib qiladi, majburlashni man etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyachi mashg‘ulot uchun berilgan vaqtdan unumli foydalanishi, turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib turli mashg‘ulotlarni o‘tishi, tarbiyachi bu tajribalarni puxta o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababali ham tarbiyachi mashg‘ulotlarni zamonaviy, shu bilan birga interaktiv yondashuvlar asosida va turli mashg‘ulotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalardan foydalaninib ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish talab etiladi.

Tarbiyachi o‘quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o‘rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo‘yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo‘llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishlari kerak. Bola rivojlanishining o‘ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma’lum bosqichlarini bosib o‘tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o‘xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta’minlashlari uchun ularning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko‘rsatkichlari to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tibor bilan munosabatda bo‘lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta’kidlashadi.

Rivojlanish markazlari bolalarga o‘zlarining shaxsiy ko‘nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o‘ynaydilar, mashg‘ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta’min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg‘ulot turlarini o‘zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda yoki mustaqil.

Bolalarning o‘z tanlovlarini amalga - oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, indivdual maqsad qo‘yishi va unga erishishni bilishlari lozim. Faollik markazlarini tashkil etish va rahbarlik guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin.

Har bir guruhda 5 ta markaz bo‘lib, ularning har birida izlanish va o‘yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi. Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo‘lib, bolalar ulardan o‘z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko‘rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg‘ul bo‘lgan bolalar bu yerda juda

ko‘p narsalarni o‘zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o‘rganish mumkin.

Syujet-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik napia ko‘rinishlarini o‘ynashga xoxish-istak uyg‘otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo‘lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo‘layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o‘z o‘rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi.

Til va nutq markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o‘quv qurollari mavjud bo‘ladi. Bu tinch burchak bo‘lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o‘qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko‘ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o‘qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o‘z qo‘llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o‘ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig‘ishi va bo‘laklarga ajratishi mumkin bo‘lgan narsalar bo‘lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o‘yinlar ham bo‘lishi kerak. Bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko‘chadan topilgan narsalar bilan mashg‘ul bo‘lishlari uchun foydalaniladi.

San’at markazi bolalarning o‘z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish va amalga oshirishga rag‘batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo‘yoq, qog‘oz, qaychi, bo‘rchalar, qalamlar, gazlama bo‘laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar - yog‘och, barg, qum-tuproqni ham qo‘shib qo‘yish foydadan xoli emas. Markazdagi mashg‘ulotlar ijodiy qobiliyat, so‘z orqali va so‘zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining rivojlanish markazlaridagi jarayonlarga integrativ yondashuv bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishiga, mustahkamlashiga yordam beradi. Rivojlanish markazlarida to’g’ri amalga oshirilgan pedagogic jarayon bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish bilan birga ularni maktab ta’limiga tayyorlash samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2020 y.O’RQ- 637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Boshlang‘ich ta’limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 999-son Qarori.

3.Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim j., 2007. 6-son. -14 b.

4. Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. “Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi”. – T., 2004 yil.

5. Axmedova X. va boshqalar. Bolangiz maktabga tayyormi? – T., 2000 y.

6. Qodirova F., Toshpo’latova Sh., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik-T “Tafakkur” 2019.

D. XOMIDOVA
NamDU Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi
o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOGIK FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING MAHORATI

Annotatsiya

Maqolada ma’naviy kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantirisUshbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni etishshda tarbiyachining roli va mahorati, shaxsiy, kasbiy va refleksiv tayyorgarligi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, pedagogik faoliyatni ishda muvaffaqiyatga yetaklovchi muhim omillar, pedagogik jarayonlarning samaradorligi nimalarga bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Maxsus tayyorgarlik, shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik, refleksiv tayyorgarlik, ta’lim-tarbiya, mahorat, interfaol o‘yin, pedagogik jarayon samaradorligi.

В данной статье представлена информация о роли и умениях воспитателей, личностной, профессиональной и рефлексивной подготовке в развитии педагогического процесса в дошкольных образовательных организациях. Также показаны важные факторы, обуславливающие успех педагогической деятельности на практике, от чего зависит эффективность педагогических процессов.

Ключевые слова. Специальная подготовка, личностно-профессиональная подготовка, рефлексивная подготовка, образование, воспитание, мастерство, интерактивная игра, эффективность педагогического процесса.

This article provides information about the role and skills of educators, personal, professional and reflective training in the development of the pedagogical process in preschool educational organizations. It also shows important factors that determine the success of teaching activities in practice, on which the effectiveness of pedagogical processes depends.

Key words. Special training, personal and professional training, reflective training, education, upbringing, skill, interactive game, effectiveness of the pedagogical process.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilishda ta’lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir. Tarbiyachining ko‘p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo‘lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg‘ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo‘lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxslardir. Mustaqil O‘zbekistonda pedagoglik kasbiga hurmat e’tibor va uni sharaflash beqiyosdir, shu bilan birga ustozlar oldiga qo‘yiladigan mas’uliyat ham katta.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim va tarbiya jarayonlarida bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash va ta’limni tashkil etishning muhim shartlridan biri zamonaviy

texnologiyalarni joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy jarayonlarni qiziqarli pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdir. Bu jarayonlarni amalga oshirishda MTT tarbiyachisidan katta mahorat va ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish, innovatsiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak va quyidagilarga amal qilishi lozim:

– yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma’lumotli, kasbiy bilimlarni puxta egallab, zarur uslubiy adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan shaxs bo‘lishi lozim. kuzatuvchanlik qobiliyatini yaxshi egallagan;

– ularning xulq-atvori, hatti-harakatlarini tahlil etib, bolaga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa oladigan bo‘lishi;

– bilishga qiziqishlarini oshirish, ularning bogianishli nutqini rivojlantirish uchun tarbiyachining nutqi ravon, aniq, mantiqiy ixcham va tushunarli bo‘lishi kerak. Ta’lim-tarbiya berishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, tarbiya jarayonida ta’limning interfaol o‘yin uslublaridan samarali foydalana olishi;

– bolalarning har tomonlama uyg‘un rivojlanishlari uchun ularni faoliyatning xilma-xil turlariga faol jalb eta olishi, ularda qiziquvchanlik, izlanuvchanlikni oshirib borishi, bolalarning xulq-atvori, xattiharakatlarini muntazam tashxis etib, korreksion chora-tadbirlami amalga oshirib borishi;

– har bir mashg‘ulot uchun zarur materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi, tarbiyalanuvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib borilishiga erishishi, o‘rganilayotgan materiallarni tarbiyalanuvchilaming yosh xususiyatlariga mos bo‘lishini ta’minlashi;

– kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a’zoni e’tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi, ularning faoliyati (o‘quv, o‘yin, mehnat) mazmunli bo‘lishi uchun kerakli materiallar bilan ta’minlashi;

– bolalarning jismoniy va psixologik holatini to‘g'ri baholay olishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarida e'tiborga olishi;

– kun davomida olib borgan ta’lim-tarbiya ishini muntazam tahlil qila olishi va uni yanada takomillashtirish o‘yinlarini izlab topishi;

– tarbiyachi muntazam ravishda ota-onalar bilan individual va jamoaviy suhbatlar, uchrashuvlar o‘tkazishi, ularni bolalarni tarbiyalashga doir zajnonaviy uslubikalar bilan tanishtirib borishi, oilalarda qo‘llanilib kelayotgan ijobiy shakl, uslub va vositalardan o‘zining tarbiyaviy faoliyatida foydalanishi;

– tarbiyachi bolalarga xayribxoh munosabatda bo‘lishi, har bir bola uchun maqbul psixologik muhitni yuzaga keltirishi, bolaning qalbi va yuragiga joy topa olishi, qunt-sabrli bo‘lishi, bag‘ri keng va yuksak ishonchga ega bo‘lishi.

Yuqorida bayon etilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy faoliyatga doir funksiyalariga asoslangan holda zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligining uch aspektini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular: shaxsiy, kasbiy va refleksiv.

Shaxsiy tayyorgarlik - tarbiyachi shaxsida qaror topishi lozim bo‘lgan sifatlarni o’zida aks ettirib, ularga gnostik (bilishga doir) qobiliyatlar (ilmiy ma‘lumotlar bilan ishlay olish, ilmiy bilimlardan amaliyotda oqilona foydalana olish, pedagogik vazifalarni yuksak mahorat bilan hal eta olish); tashkilotchilik qobiliyatlari (ta’lim -tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mashg‘ulot shakl, uslub va vositalarini tanlay olish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, o‘quv jarayonini zaruriy jihozlar

bilan ta’minlash, ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkaza olish); kommunikativ qobiliyatlar (axborotni maktabgacha yosh davrlari bilan bog‘liqlikda tushunarli taqdim eta olish, vaziyat bilan bog‘liqlikda axborotlarni uzatish uslub va usullarini o‘zgartira olish, kasbiy faoliyat jarayonida muloqotni oqilona amalga oshira olish va boshqalar) ni kiritish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik – pedagog-tarbiyachilar chet tilini, xususan ingliz tili yoki rus tilini bilishlari kasbiy talab qilib belgilangan. Shuningdek, tarbiyachining kasbiy faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega boigan ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Pedagogik taktga doir sifatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– ta’lim - tarbiya berishning yangi, nostandart shakl, uslub va vositalarini izlash;

– tarbiyaviy ish jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni hal etishning samarali yoilarini tanlay olish;

– o‘z faoliyati, o‘quv jarayonida bolalarning individual rivojlanishi, innovatsion o‘quv reja va dasturlarni loyihalay olish va boshqalar.

Refleksiv tayyorgarlik- tarbiyaviy jarayon natijalariga asoslangan holda tarbiyachining kelgusi faoliyatini rejalashtirish imkoniyatini berib, uning uch turdagi refleksiv qobiliyatini o‘z ichiga qamrab oladi: ob’yektni his qilish, o‘lchovni bilish va dahldorlik hissi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatni loihalashtirishda muvaffaqiyatga yetaklovchi muhim omillar quyidagilar hisoblanadi:

– olib borilayotgan faoliyat bolaning yoshiga mosligi;

– faoliyatning vaqt jihatdan to‘g‘ri taqsimlanganligi;

– bolaning diqqati beqarorligi;

– har bir bolaning individual xususiyatlari;

– dam olish daqiqasining to‘g‘ri tashkil etilganligi;

– faoliyat davomida bolaning rag‘batlantirib borilishi;

– faoliyatning o‘yin orqali tashkil etilishi.

Pedagogik jarayonlarning samaradorligi nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yish, ta’lim oluvchilarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning refleksiv faoliyatini hamda o‘zaro ta’sir jarayonini tashkil etish zarur. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda shaxslararo munosabatlar, bola shaxsining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonining mavjudligi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olinishi zarur.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda mazkur jarayon ishtirokchilari, ya’ni pedagoglar hamda ta’lim oluvchilar o‘zaro ma’lum bir belgilangan munosabatda bo‘ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb ataladi.

Tarbiyaviy munosabatlar insonlar o‘rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo‘lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya’ni mustaqil ma’lumot, mustaqil ta’lim olish va o‘zini-o‘zi tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu pedagogik jarayon hisoblanadigan insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi, ya’ni mazkur jarayonda ishtirok etayotgan ma’lum bir insonning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san’at va tabiatga bo‘lgan munosabati hamda qiziqishi ikkinchi bir insonga va boshqa insonlarning faoliyatiga, ya’ni fikrlashi, tasavvuri va dunyoqarashining o‘zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ko‘zlangan maqsadlar yo‘nalishida erishilgan natijalar mazkur jarayonning samaradorligini ifodalaydi va u pedagogik jarayon subyektlari (mazkur jarayon ishtirokchilari) dunyoqarashining o‘zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishida o‘z ifodasini topadi. Pedagogik jarayon samaradorligi ko‘p jihatdan uning quyidagi jihatlarini inobatga olish zaruriyatini belgilaydi:

– pedagogik jarayon samaradorligi o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;

– pedagogik jarayonning o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan barcha tashkil etuvchi qismlari bir butun, yaxlit dinamik tashkiliy tuzilishga ega ekanligi;

– pedagogik jarayon dinamikasi protsessual xususiyatlarga ega ekanligi;

– pedagogik jarayonni tashkil etishda ikki tomonlama harakat, ya’ni to‘g‘ri va teskari jarayon mavjudligi;

– pedagogik jarayon komponentlarining o‘zgarishi pedagogik tizim samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonlar ikki kichik tizim doirasida, ya’ni mashg‘ulotda va mashg‘ulotdan tashqari faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni hamda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tashkil etuvchi qismlarning ichki tabiatiga xos bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga olgan hamkorlikdagi faoliyatlar, shuningdek, ichki sharoit va imkoniyatlar pedagogik tizimni tashkil etadi, bunda tizimning sub’yekti hisoblangan pedagog xodimlar, tarbiyachilar, bolalar, ota-onalar va rahbarlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagogik jarayonida loyiha usulidan foydalanishTa’lim berish va tarbiyalashda shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv asosida loyiha faoliyati, strategiyani ishlab chiqishda tarbiyachilar ijodiy faoliyatining rivojlanishiga hissa qo‘shadi, o‘quv jarayonining taktikasi va texnologiyalari, tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanishi, pedagogik faoliyatning sifatli natijalariga erishishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2019., 13-may, PQ 4312- son.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. – Toshkent, 2022.

3. Tolipov U., J.Usmonboyev “Pedagogik texnologiya: nazariyasi va amaliyoti” T: “Fan va texnologiya” 2002

4. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: Ilm ziyo, 2006.

5. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. 2013-yil.

Zilola JO‘RAYEVA
Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARIGA INTEGRATSION YONDASHISH ASOSIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari, vazifalari, shart-sharoitlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, barkamol avlod, ma’naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanish, ravon nutq, rivojlantirish kontseptsiyasi, yaxlit tizimli yondashuv.

В данной статье речь пойдет о возможностях, задачах, условиях духовно-нравственного воспитания дошкольников на основе интеграционного подхода к компетенциям сфер развития.

Ключевые слова. Интеграция, гармоничное поколение, духовно-нравственное, эстетическое, физическое развитие, беглость речи, концепция развития, целостный системный подход.

This article will focus on the possibilities, tasks, and conditions of spiritual and moral education of preschoolers based on an integration approach to the competencies of development spheres.

Key words. Integration, harmonious generation, spiritual and moral, aesthetic, physical development, fluency of speech, development concept, holistic systemic approach.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e’tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorida[1] maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Ustuvor yo‘nalishda maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, bolaning kelgusida o‘zini muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida olib borilishi zarur bo‘lgan ta’lim-tarbiya jarayoni bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga integrativ yondashish eng maqbul yo‘llardan biri bo‘lishi mumkinligiga asos bo‘ladi.

Xususan, Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartida[2] maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmunning tarkibiy qismlariga integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya Davlat standartining 1-ilovasi sifatida berilgan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan “Davlat talablari”da integratsiya tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan va integratsiya – bola ta’limi va

rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi jarayon ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

“Integratsiya” so‘zi lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, qayta qurish, tiklash, to‘ldirish (“integr” − to‘liq, butun, yaxlit) degan ma’noni anglatadi[3]. Shuningdek, boshqa lug‘atlarda “integratsiya” − o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, “интегрироват” − bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq, deyilsa, sohaviy lug‘atlarda “integratsiya” − o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi.

Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’naviy-axloqiy me’yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy tushunchalarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma’naviy-axloqiy ongni qaror toptirish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy sifatlar (vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, qat’iylik, ma’suliyatlilik, ozodalik, orastalik, o‘zaro do‘stlik, ahillik, shirinso‘zlik, saxiylik, jasurlik, go‘zallikni his qilish, go‘zallik yaratishga intilish va hokozolarni) qaror toptirish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanadigan ma’naviy-axloqiy sifatlar bevosita ularning yosh va individual xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir; go‘daklik davridan 3–4 yoshgacha bo‘lgan davrda salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, yaxshi va yomon to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlar, “mumkin”, “mumkin emas” tushunchalari, ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalari, odatlari, o‘zi tug‘ilib o‘sgan uyi, oila a’zolariga, atrof-muhitga, mehnatga, insonlarga mehr-muhabbat, kabi dastlabki ma’naviy-axloqiy sifatlar shakllantirilsa, 5–7 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vataniga, ota-onasiga, do‘stlariga mehr-muhabbat shakllantiriladi. Intizom, o‘zini tuta bilishlik, kamtarinlik, rostgo‘ylik, saxiylik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, go‘zallikni his qila olish, turli salbiy tahdidlarga o‘z munosabatini bildira olish, mardlik, shijoat, qat’iyat, zukkolik, jasorat, go‘zallik, olijanoblik, mehr-shafqat, oriyat kabi yuksak fazilatlarni jamlab olgan ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimi takomillashtiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashuv asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni “Til va nutq”; “Qurish yasash, konstruktsiyalash va matematika”; “San’at”; “Syujetli rolli o‘yinlar va dramalashtirish”; “Ilm-fan va tabiat” rivojlanish markazlarida amalga oshiriladi. Rivojlanish markazalarida bolalar faoliyatini amalga oshirish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalari talabalarini bajarilishini va tarbiyalanuvchilarda turli ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Jumladan, “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasida bolada sezgi organlari yordamida o‘z xatti-xarakatlarini boshqarish, o‘z salomatligini saqlash ko‘nikmalarini namoyon qilish, xavfsiz sog‘lom ovqat va hayotini saqlash qoidalarini o‘zlashtirish, o‘zini o‘z xususiyatlariga ega, ijobiy shaxs sifatida qabul qilishi, mustqail shaxs sifatida o‘ziga javob berish, “Ijtimoiy-xissiy rivojlanish” sohasida bola boshqalarning his-tuyg‘ularini farqlashi va o‘zining xis-tuyg‘ularini ifodalashi,

tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishi, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasida bola nutqni tinglash va tushunish, gapirish va muloqot qilish, asosiy harakatlarni egallash, qo‘llarning mayda motorli ko‘nikmasiga egalik, “Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasida bola qiziquvchan, faol, intiluvchan, bilishga qiziqish bildirish, boshlang‘ich matematik malakalarga egalik, o‘zining tabiiy muhitiga qiziqishini namoyon qilishi, yangiliklarni o‘rganishda faollik ko‘rsatishi, “Ijodiy rivojlanish” sohasida bola turli san’at vositalaridan foydalanib, dunyoni his etish va tushunishishini namoyish etishi, atrofdagi borliqni ijodiy o‘zgartirish kabi ko‘nikma va malakalarni egallab boradilar.

Tadqiqot doirasida tarbiyalanuvchilarda shakllanadigan ma’naviy-axloqiy sifatlarni bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish jarayonidagi imkoniyatlari tahlil etildi (1-rasmga qarang).

№	Rivojlanish sohalari	Ma’naviy-axloqiy sifatlar
1.	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi	Chaqqonlik, ziyraklik, matonatlilik, chidamlilik, botirlik, irodalilik, kuchlilik, jasurlik...
2.	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	Vatanparvarlik, o‘zaro do‘stlik, g‘amxo‘rlik, hayrixoxlik, ochiq ko‘ngillilik, o‘z-o‘zini baholay olish, ozodalilik, mustaqillik, ma’suliyatlilik, jasurlik...
3.	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari	Ravon nutq, kitobxonlik, mustaqil fikrlash, onglilik, muomalalilik, intizomlilik, kattalarni hurmat qilish, milliy g‘urur, badiiy asarlarni sevish...
4.	Bilish jarayonining rivojlanishi	Qiziquvchanlik, intiluvchanlik, faollik, erkin fikrlash, ma’naviy savodxonlik, tashabbuskorlik, g‘oyaviylik, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabat, tanqidiy fikrlash...
5.	Ijodiy rivojlanish	Go‘zallikni sevish, go‘zallik yaratishga intilish, mehnatsevarlik, boshqalar mehnatini qadrlash, nafosatlilik, boy tasavvurga ega bo‘lish, milliy an’analarni qadrlash...
Bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish jarayonida ushbu ma’naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit shakllantirishga erishiladi.		

1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish jarayonida shakllantiriladigan ma’naviy-axloqiy sifatlar

Masalan, “O‘zbekiston-jonajon yurtim” mavzusidagi mashg‘ulotini faollik markazlarida tashkil etish, mavzuga oid yangi bilimlarni berish, Vatanni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar, she’r va hikoyalar tinglash, mavzuga oid rasm chizish, aplikatsiya topshiriqlarini berish, harakatli yoki didaktik o‘yinlar o‘tkazish, kichik tajribalar o‘tkazish, shaxsga yo‘naltirilgan

yondashuvni amalga oshirish asosida bolalar rivojlanish sohalari kompetensiyalariga integratsion yondashish imkoniyati yuzaga keladi va ularda vatanparvarlik, o‘zaro do‘stlik, go‘zallikni his etish, mehnatsevarlik, millatparvarlik, ziyraklik, chaqqonlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit rivojlantirishga erishiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, rivojlanish sohalariga integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonining muhim xususiyatlaridan biri – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo‘naltirilganlik darajasini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312–son qarori

2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-son qarori.

3. Zunnunov M., Sulaymonov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash omillari. –Toshkent. 2004.–B.6.

4. Turdiyeva M.J. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion metodlari. Uslubiy qo‘llanma. Buxoro. Durdona nashr. 2021-y. 20-22-b.

5. Abdusamatova N.J. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish.: Ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2021. – B.23-25.

O'tkirbek MAMAJONOV,
Andijon davlat universiteti, Matematika
fakulteti o'quv ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MA'NAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ma'naviy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha adabiyotlar tahlili, oliy ta'limning zamonaviy pedagogik-psixologik muammolarida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy kompetentlikni tarkib toptirish imkoniyatlari, bo'lajak o'qituvchining o'quv-tarbiya jarayoni subekti sifatidagi o'ziga xosliklari, bunda ta'lim sifati, xalqaro tajribalarga hamda milliy ta'lim dasturlariga e'tibor qaratish zarurati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Ma'naviy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik-psixologik muammolar, ta'lim sifati, xalqaro tajribalar, jismoniy, huquqiy, psixik, ma'naviy axloqiy, ulg'ayish darajasi, fan-texnika, texnologiya, professional va ijtimoiy ko'nikmalar, siyosiy va axloqiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, mustaqil, ijodiy faoliyat.

В статье рассматриваются вопросы духовной компетентности, анализ литературы по вопросам развития духовной компетентности у будущих педагогов, возможности содержания духовной компетентности у будущих педагогов в современных педагогико-психологических проблемах высшего образования, специфика будущего педагога как субъекта учебно-воспитательного процесса, качество образования, необходимость ориентации на международный опыт и национальные образовательные программы.

Ключевые слова. Духовная компетентность, будущий учитель, педагогико-психологические проблемы, качество образования, международный опыт, физический, правовой, психический, духовно-нравственный, уровень взросления, наука и техника, технология, профессиональные и социальные навыки, политическая и нравственная культура, общественно-политическая деятельность, самостоятельная, творческая деятельность.

The article will talk about spiritual competence, literature analysis on the issues of developing spiritual competence in future teachers, the possibilities of content of spiritual competence in future teachers in modern pedagogical and psychological problems of higher education, the specifics of the future teacher as a subtext of the educational process, the quality of education, the need to focus on international experiences and national educational programs.

Key words. Spiritual competence, future teacher, pedagogical-psychological problems, quality of education, international experiences, physical, legal, psychic, spiritual ethics, level of growth, science-technology, technology, professional and social skills, political and moral culture, socio-political activity, independent, creative activity.

Oliy ta'limning zamonaviy pedagogik-psixologik muammolari yechimi bo'lajak o'qituvchining o'quv-tarbiya jarayoni subyekti sifatidagi o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lib, bunda ta'lim sifatiga e'tibor, xalqaro tajribalarga hamda milliy ta'lim dasturlariga e'tibor qaratish, aksiologik yondashuvlarga tayanish orqali natija ta'minlanadi. Bu jarayon birinchidan, talabaning o'zi shaxsiy va kasbiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi, ikkinchidan, oliy ta'limda tahsil olish jarayonida nafaqat jismoniy, huquqiy, psixik, balki ma'naviy axloqiy jihatdan ulg'ayish darajasi to'liq tarkib toptirilgan bo'lishi bilan belgilanadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi bilish, o‘rganish, tahli qilish va amaliyot, o‘z navbatida shaxsiy hayot ma’nosi va ahamiyati, uning namoyon bo‘lish shakl va usullarini taqdim etadigan moddiy borliqni yaratuvchisiga xos subyektivlik mezonini aniqlab oladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentliligini rivojlantirish muammosini o‘rganishda biz A.G.Asmolovning insonni shaxsiy tajribasi, potensial motivlari, xarakteri, qobiliyati, faoliyati natijalariga faol munosabatda bo‘ladigan shaxs, borliq, shu jumladan, o‘z-o‘zini kashf etadigan, takomillashtiradigan subyekt tanlovi sifatida o‘rganilishi zarurligi haqidagi nazariyasiga tayanib[1], ushbu g‘oyaning aniq mazmunini belgilash orqali biz “bo‘lajak o‘qituvchi uchun o‘rganilayotgan hodisaning mavjudligini tavsiflaydigan ma’no- mohiyat”ni aniqlashga harakat qildik.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar, xususan, talabalar mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy rivojining salohiyati, davlatchilik rivojining zaxira boyligi, uning kuch va quvvati sifatida baholanadi. Har bir mamlakat o‘zining istiqboldagi gullab-yashnashini xususan, talaba-yoshlar salohiyati va har tomonlama barkamol bo‘lib shakllanishisiz tasavvur eta olmaydi. Talaba-yoshlar davlatni himoya qilish, uning kadrlar zahirasini ta’minlash, iqtisodiyotni o‘stirish, mamlakatni inqirozlardan asrash, uning ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyotini ta’minlashda asosiy boylik va kuch hisoblanadi. Binobarin, butun mamlakat va jamiyatning kelgusi rivoji yoshlarda nechog‘lik, innovatsion ongning shakllanganligi, ularning innovatsion jarayonlarga jalb etilganligiga bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarining muhim maqsadlaridan biri sifatida yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, har tomonlama barkamol, butun hayot davomida o‘qib-o‘rganishga intiladigan, o‘zining bilimlar sohasini kengaytirib borishga qodir raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni ko‘zda tutadi. Talabalik davrining boshlanishi o‘spirinlik davri (16-17–20-21 yosh), katta, mustaqil hayotning boshlanishini qamrab oladi.

Bugungi jamiyat talablari, ilmiy-texnika va texnologiya sur’atlari o‘sib borishi, talaba-yoshlar bajarayotgan ijtimoiy funksiyalarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu ijtimoiy funksiyalar quyidagilardan iboratdir:

– jahon xalqlari hayotini, mamlakatimiz rivoji, taraqqiyotning O‘zbek modelining mohiyatini har tomonlama chuqur o‘rganish;

– fan-texnika va texnologiyalar asoslarini chuqur egallash;

– kasbga aloqador bo‘lgan professional va ijtimoiy ko‘nikmalarni mehnat bilan, siyosiy va axloqiy madaniyatni tinmay o‘stira borish yo‘li bilan hosil qilish;

– ijtimoiy-siyosiy faoliyatda o‘z mehnati bilan faol qatnashish;

– kelajakdagi mustaqil, ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan maxsus bilimlarni egallash, yangicha dunyoqarashni shakllantirish va hokazolar.

Bu xususiyatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning faol ijodiy mehnatida o‘z ifodasini topadi. Ular bu davrda o‘z mehnat faoliyati turini, o‘zining ma’naviy idealini belgilashi, muayyan turmush tarzini hosil qilishi lozim. Binobarin, talaba mehnati o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lgan aqliy mehnat ekan, demak bumehnat samarali ta’lim olishda, ilmiy-ijodiy faoliyatda va fan asoslarini chuqur o‘rganib o‘zlashtirishda o‘z ifodasini topadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar talabalik yillarida o‘quv-bilish faoliyatining rivojlanishi qator o‘ziga xosliklariga ega. Mazkur davrda o‘z-o‘zini tahlil etish qobiliyati va o‘zi haqidagi (o‘zining xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, xulq-atvori, xarakteri) bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish ehtiyojining oshib borishi kuzatiladi. O‘zini ma’lum bir ideallar bi-

lan qiyoslash yuzaga chiqadi, o‘z-o‘zini tarbiyalash imkoniyati faollashadi. O‘spirinlik davridagi fikrlash uslubi shaxsiy-emotsionallik bilan ajralib turadi. Ularning intellektual his- tuyg‘ulari faol rivojlanib, dunyoqarash va nazariy muammolariga qat’iy nuqtayi nazar namoyon bo‘ladi[4].Ijtimoiy voqelikka ochiq munosabat, ilmiy dunyoqarashga doir yondashuvlarga fundamental javob bera olish ishontirishning faol usullariga nisbatan irratsional ustanovkalarni shakllantirishga imkon beradi. Ta’lim jarayoni hamda o‘quv maqsad va vazifalarini amalga oshirishdagi shaxs xulq-atvori individual o‘quv uslubini o‘zida aks ettiruvchi barqaror tavsif va psixologik asoslarga ega.

Yoshlik davrida axloqiy ongning shakllanishi nuqtayi nazaridan G.S.Abramovaning “yechimi har bir insonning shaxsiy hayotidagi nozik masala bilan bog‘liq – “Men”i, ichki va tashqi erkinligi chegarasiga doir savollar”ga taalluqli hayotiy vazifalar sifatida ma’naviy o‘z-o‘zini anglash haqidagi g‘oyasi ham mavjud.

Adolat, burch, aybdorlik hissi, o‘lim, mas’uliyat, taqdir, hayot mazmuni kabi savollar har qanday yosh insonni tashvishga soladi. G.S.Abramova mazkur masalalar mohiyatini quyidagi tarzda aniq ifoda etgan: “Yoshlikda ma’naviy o‘zlikni anglash uchun barcha – abstrakt fikrlash, boshqa kishilar bilan aloqadorlik va ulardan alohidalikdan qayg‘urish, hayotiy vazifalarni hal etish – yaxlit voqelik sifatida hayotni tushunish predmeti sifatida xizmat qiladigan maqsad va vositalar haqidagi barcha shart-sharoitlar mavjud”.[8]Oliy ta’lim muassasasida o‘qish jarayonida yoshlar “talaba ma’naviyati”ni o‘zida ifoda etadi.

V.I.Slobodchikov va YE.I.Isayev yoshlik davrini individuallashtirish pog‘onasi sifatida tavsiflab, yoshlarni axloqqa alohida munosabat bildirishiga e’tibor qaratishgan. Ular individuallashtirish darajasini inson hayotining shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish, individual o‘ziga xoslik va betakrorlik bilan bog‘liq asosiy bosqichlardan iborat deb hisoblashgan. “Yoshlarning asosiy muammosi ijtimoiy borliq, submadaniyat va zamonga individual, haqiqiy shaxsiy munosabatlarini izlab topishdir”.

Yoshlar uchun jamiyatda o‘z o‘rnini topish, boshqalar bilan yangi munosabatlarni o‘rnatish, hayot mazmuni, o‘z taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan hayajonli, biroq mavhum kechinmalarni tushunish juda muhimdir. Bu barcha masalalar ekzistensial xusiyatga ega bo‘lib, xuddi ana shu asosdan ma’naviy- axloqiy muammolar, o‘z-o‘zini anglash va tushunishga qiziqish kelib chiqadi. Ajoyib ichki dunyo shakllanadi, axloqiy mezonlarni qabul qilish yoki rad etish yuz beradi, axloqiy refleksiya barcha jarayonlarni diqqat bilan kuzatib boradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim-tarbiya hamda mazkur holatda subyektivlikning namoyon bo‘lishi ham asosiy o‘rinni egallaydi.O‘quv faoliyatining muhim komponenti subyektning o‘zi bilan bog‘liqlikda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘zlashtirish darajasini baholashga doir xatti-harakatni ifoda etadi. Mazkur harakat orqali talaba qo‘yilgan o‘quv vazifasi to‘g‘ri amalga oshirildimi, kelgusida ko‘plab nazariy vazifalarni hal etishda qo‘llash bilan bog‘liq o‘quv harakatlari usullarini o‘zlashtirgan yoki o‘zlashtirmaganligini aniqlay oladi.O‘quv faoliyati nazariy bilimlarni va o‘quv-bilish faoliyati usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. O‘quv faoliyati o‘zida quyidagi komponentlarni aks ettiradi: maqsad qo‘yish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish, o‘z-o‘zini baholash, rejalashtirish, qaror qabul qilish, nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, korreksiya, motivatsiya, o‘zlashtirish.Yaxlitlikda o‘quv faoliyati o‘zaro birgalikdagi nazorat yoki refleksiya yordamida amalga oshiriladi.

G.P.SHedrovitskiyning konsepsiyasida ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayoni sifatida o‘qish-o‘rganish va o‘quv-bilish faoliyati farqlanadi. O‘qish-o‘rganish – bu to‘liq

anglanmagan o‘zlashtirish, o‘quv- bilish faoliyati – bu o‘quv vositalarini qo‘llash bilan bog‘liq maxsus tashkil etilgan o‘zlashtirish. O‘quv-bilish faoliyati: mazmun, o‘quv faoliyati natijasi, faoliyatni tashkil etish jarayonlari, psixik funksiyalar, qobiliyatlar va o‘zlashtirish jarayonlaridan tashkil topadi.

Professor M.G.Davletshin rahbarligida bu muammo yangicha ilmiy asosda o‘rganilgan. M.G.Davletshinning fikricha, yoshlar har xil sohalar mazmuniga o‘zlarining ongli ravishda yondashuvlari orqali ularda ilm olishga nisbatan to‘g‘ri va oqilona tasavvurlar ertaroq hosil bo‘ladi.

R.I.Sunnatova o‘z ilmiy tadqiqotlarida talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyatlarini o‘rganadi. Olima o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarining fikrlash faoliyatiga ta’sir etish xususiyatlarini quyidagicha izohlagan. Bir tomondan, talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarida qator o‘zgarishlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, talabalarda o‘quv faoliyatiga nisbatan qiziqishning oshib borishi hamda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida bilim olishga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanganligi ham ko‘rinadi. Shuningdek, talabalar o‘z- o‘zini boshqarish jarayonida o‘z-o‘zlarini tarbiyalash va o‘z qobiliyatlarini takomillashtirishga harakat qilganliklari ham kuzatiladi.

Z.T.Nishanova bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar majmuini ishlab chiqqan. Bu mashg‘ulotlarda asosiy diqqat tafakkur operatsiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsada, ijodiylikning tezligi, aniqligi, originalligi kabi xususiyatlarini rivojlantirish masalasi ham chetda qolmagan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy tarbiya va shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlaydigan omillar o‘rtasida aniq vazifalar nuqtayi nazaridan dolzarblik kasb etuvchi o‘quv fanlari, metod, usul va vositalar muhim sanaladi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlaydi, balki ularning shaxsiy sifatlarida shakllanishini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani mazmuni o‘z mohiyatiga ko‘ra insonning hayotiy maqsad va mo‘ljallarni to‘g‘ri belgilash uchun muhim hisoblangan axborotlar tashkil etib, ushbu axborotlar hayot mazmuni, insonning undagi o‘rni, insonparvar qadriyatlarni o‘zida ifoda etadi. Bu fan bo‘lajak o‘qituvchiga yaxshilik va yomonlik, burch va mas’uliyat, ya’ni ma’naviy yo‘nalganlik nuqtayi nazaridan boshqa kishilar bilan munosabatlarni tushunish orqali dunyoni ko‘rishga imkon beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy kompetentligini rivojlantirish barqaror, mustaqil va yaxlit hodisa sifatida mazkur fenomen oliy ta’lim muassasasi o‘quv-tarbiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi. Har bir shaxsning ma’naviy rivojlanish sohasi doirasida subyekt, shaxs va indiviuallik sifatida talabalarning yosh tavsifi bir tomondan, uning ma’naviy kamolotida tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining o‘rni va rolini hamda talabalik yillari o‘z-o‘zini namoyon etishda aks etadigan faol axloqiy tanlov davri ekanligini ko‘rsatadi.

Bu holat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– ma’naviy jihatdan o‘z- o‘zini anglash, o‘zining rejalarini faol tarzda amalga oshirish, hayotiy maqsadlarni belgilash;

– yaxlitlikda o‘z “Men”ini asoslash, boshqa kishilar va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatini aniqlashtirish;

– ma’naviy-axloqiy muammolarga qiziqish, ma’naviy qadriyatlarni tanlash, axloqiy ongning rolini kuchaytirish, ma’naviyatning ichki anglanganligi (interiorizatsiya), shaxsiy dunyoqarash tarkib toptirish;

-o‘z turmush tarzini belgilash, o‘z- o‘zini anglash, o‘z-o‘zini tushunish, refleksiya, o‘z-o‘zini hurmat qilish, ijtimoiy ochiqlik, tashabbuskorlik, mustaqillikka intilish.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda “ma’naviy kompetentlik” atamasi alohida qayd etib o‘tilmaydi. Biroq tadqiqot predmeti bilan bog‘liqlikda “ma’naviy kompetentlik” tushunchasining mohiyatini ham aniqlashtirish zarur, degan xulosaga kelindi. Muammo yechimiga javobni tayanch kompetensiyalarni tahlil etish orqali aniqlash mumkin, degan faraz ilgari surildi va o‘z tasdig‘ini topdi.

Ma’naviy kompetentlikning kompetensiyaviy yondashuv tizimidagi o‘rnini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili ijtimoiy hamda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, dunyo bilan o‘zaro uyg‘un munosabatlarga erishish, qadriyat va me’yorlarning turli tizimlari ichki birligini anglash uchun insonning o‘z ma’naviy olamini rivojlantirishi va amalga oshirishi kabi o‘ziga xos belgilarga ega qadriyatli-dunyoqarashga doir subkompetentlik sifatida talqin qilindi.

Ma’naviy kompetentlik shaxs integrativ xususiyati sifatida o‘zida ma’naviy bilimdonlik, ma’naviy qadriyatlar tizimida o‘z o‘rnini aniqlash imkoniyati va hayotiy vaziyatlarning keng ko‘lamida ma’naviy yetuklikni namoyon qilish qobiliyatini birlashtiradi. Mazkur kompetentlikning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: aksiologik, yo‘naltiruvchi va boshqaruvchi. Ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi maqsadga muvofiq ravishda quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: tanishtiruv- tahliliy, qadriyatli-yo‘naltiruvchi, refleksiv-faoliyatga doir.

Ma’naviy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni uchta o‘zaro bir- biri bilan bog‘liq bosqichlarni amalga oshirishni talab etadi: ma’naviy sohaga doir bilimlarni kengaytirish; ma’naviy qadriyatlarga yo‘nalganlik; shaxsiy ma’naviy qadriyatlar asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish.

Talabaning ma’naviy kompetentligini rivojlantirish barqaror, mustaqil va yaxlit hodisa sifatida mazkur fenomen oliy ta’lim muassasasi o‘quv-tarbiya, pedagogik-psixologik fanlarni o‘rganish jarayonida qisman aks etganligini ko‘rsatadi. Bu esa, unga qiziqishning mavjud emasligi, shunchalik noaniqlik doirasida uni o‘rganishning murakkabligi haqida guvohlik beradi.

Shaxsning ma’naviy rivojlanish sohasi doirasida subyekt, shaxs va individuallik sifatida talabalarning yosh tavsifi bir tomondan, uning ma’naviy kamolotida pedagogik-psixologik fanlarning o‘rni va roli hamda ikkinchi tomondan, talabalik yillari o‘z-o‘zini namoyon etishda aks etadigan faol axloqiy tanlov davri ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асмолов А.Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа. – М.: Смысл,2001.–С.346.

2. Колесникова И.АПедагогическая реальность: опыт межпарадигмальной рефлексии. Курс лекций по философии педагогики. – СПб.:«ДЕТСТВО-ПРЕСС», 2001. –С.12.

3. Аксенова П.Ю.Адаптация курсантов образовательных организаций ФСИН России к учебной деятельности. – Москва: Проспект, 2017. – С.39.

4. Кулагина И.Ю.Возрастная психология – М.:ТЦ Сфера, Юрайт,2017. – С.65.

5. Сагиев Р.Р. Индивидуально-стилевые особенности саморегуляции в учебной деятельности студентов: диссертация ... кандидата психологических наук. – Москва, 2013. – С.93.

Obid QODIROV,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Psixologiya" kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TURLI DAVLATLARDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PSIXOPROFILAKTIK XIZMATNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli davlatlarda ijtimoiy-psixologik va psixoprofilaktik xizmatning shakllanishi yoritilgan. Psixologik xizmatni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlillari va rivojlangan mamlakatlarda psixologik xizmatni tashkil etish tajribasi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Yoshlar, ma'naviy-axloqiy, jismoniy barkamol, ta'lim-tarbiya, maktab psixologiyasi, psixologik xizmat.

В данной статье описывается формирование социально-психологической и психопрофилактической службы в разных странах. Освещены анализы исследований по развитию психологической службы, опыт организации психологической службы в развитых странах.

Ключевые слова. Молодежь, духовно-нравственная, физическая подготовка, образование, школьная психология, психологическая служба.

This article describes the formation of socio-psychological and psychoprophylactic services in different countries. Analyzes of research on the development of psychological services and the experience of organizing psychological services in developed countries are covered.

Key words. Youth, spiritual and moral, physical training, education, school psychology, psychological service.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori vaVazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasida psixologik xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish" bo'yichachora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmat ko'rsatish faoliyatini tizimlashtirishga qaratilgan «Psixologik xizmat» konsepsiyasi loyihasi yaratildi.

Turli davlatlarda ijtimoiy-psixologik va psixoprofilaktik xizmatning shakllanish tarixi hamda ta'lim xizmati yoki maktab psixologiyasi ko'plab mamlakatlarda mavjud bo'lib, u bolani maktabgacha yoshdan maktabni bitirguncha o'qitish va tarbiyalashning butun tizimini qamrab oladi va deyarli asrlik tarixga yega. Misol sifatida biz bir qator mamlakatlarda maktab psixologiyasining tajribasi bilan tanishamiz.

Maktab psixologlari xalqaro assotsiatsiyasi homiyligida nashr etilgan "Zamonaviy dunyoda maktab psixologiyasining rivojlanish istiqbollari" kitobi (o'zgartirish kiritilgan R.A.Say, T.Oklend, 1989, 277-bet) muhokama qilinayotgan muammo tarixidagi muhim bosqich bo'ldi. Kitobda ushbu sohada boy an'analarga ega bo'lgan mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Kanada, Yaponiya va boshqalar) va psixologik xiz-

mat yendigina paydo bo‘lgan mamlakatlarda maktab psixologik xizmatlarining hozirgi holati, tarixi va rivojlanish istiqbollari haqida qisqacha ma’lumot berilgan. XX asr (Janubiy Afrika, Nigeriya, Iordaniya va boshqalar).

Psixologik ta’lim xizmati yoki AQShdagi maktab psixologiyasi. Ushbu xizmat Amerika Qo‘shma Shtatlarida eng keng tarqalgan bo‘lib, u yerda 1800-yillarning boshlarida rivojlana boshlagan va hozirgi kunda zamonaviy psixologiyaning eng muhim va samarali sohalaridan biri hisoblanadi. AQShda maktab psixologiyasi shtat ta’limi bo‘limida shunga o‘xshash xizmatni talab qiladigan qonun bilan mustahkamlangan. Ushbu bo‘lim maktab psixologlariga sertifikatlar berishga ruxsat beradi. AQShda birinchi amaliy psixologlar o‘z-o‘zini tarbiyalash muammolarini o‘rgangan eksperimental psixologlar edi. Ammo ko‘p o‘tmay, maktab psixologik xizmatining asosiy funksiyalari o‘lchov va sinovga aylandi va asosiy vazifa bolalarni maxsus dasturlarga o‘qitish uchun tanlash yedi. Shu bilan birga, maktab psixologiyasining evolyusiyasi va so‘nggi 35-40 yil ichida AQShda maktab psixologik xizmati nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishdagi muhim yutuqlarni ta’kidlash kerak. 60-yillarda maktab psixologlarining professional tashkiloti yaratildi. Maktab psixologik xizmatlarining rivojlanishi uchun Uelsda (1973) o‘tkazilgan konferensiyada maktab psixologik xizmatlarining maqsadi va roli, uning axloqiy va huquqiy asoslari, maktab psixologining kasbiy faoliyati muammolari, maktab psixologi uchun o‘quv dasturlarining mazmuni va boshqalar to‘g‘risidagi savollar ko‘rib chiqildi. O‘tgan asr 80-yillarida AQShda maktab psixologlari milliy assotsiatsiyasi (NASP) tashkil etildi. Ko‘pgina mutaxassislar o‘lchovni maktab psixologiyasi muammolarini hal qilishda qila oladigan yagona narsa sifatida qayta ko‘rib chiqishni boshladilar.

Psixologik xizmatning bir necha darajalari mavjud.

Birinchisi, asosan o‘quvchilarni maxsus ta’limga ajratish maqsadida test o‘tkazish.

Ikkinchidan, ish maxsus ma’lumotga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarga ham, shuningdek, ta’lim va xulq-atvor muammolarini o‘rtacha ifoda etganlarga ham qaratilgan.

Uchinchi daraja unga muhtoj bo‘lgan barcha o‘quvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri psixologik yordamni va rivojlanish psixologiyasi bo‘yicha maktab xodimlariga maslahat berishni o‘z ichiga oladi. Aslida, psixologik xizmat ikkinchi darajadan boshlab amalga oshiriladi, psixolog test natijalarini hisoblash va izohlashdan talabalarni psixologik va pedagogik klinik ko‘rikdan o‘tkazishga o‘tganda. Hozirgi kunda ko‘plab mutaxassislar o‘lchash va sinovdan o‘tkazishni faqat psixologik xizmatning keng sohasi, xususan, psixologik maslahat tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko‘rib chiqmoqdalar. XX asrning oxiriga kelib, AQShda maktab psixologik xizmati muammolari bo‘yicha juda ko‘p sonli turli xil adabiyotlar nashr etildi.

Psixologik xizmat o‘z ichiga oladi:

a) bolalar va yoshlarning “maktab faoliyati” ni psixologik va psixologik-pedagogik o‘lchash va baholash;

b) maktabning kognitiv, affektiv va ijtimoiy rivojlanishiga to‘liq ta’sirini ta’minlashga qaratilgan psixologning faol aralashuvi;

v) birinchi navbatda bolalarni parvarish qilish bo‘yicha o‘qituvchilar va ota-onalarga yordam berish - maktab xodimlari va ota-onalar uchun maxsus o‘quv dasturlari, ularga maslahatlar va boshqalar.

g) maktab xodimlari va yoki ota-onalar bilan o‘quvchilar va maktab xodimlarining kasb-hunar masalalari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berish va hamkorlik qilish.

Shunday qilib, dastlab bolalarni tanlash va tanlash uchun mo‘ljallangan puxta tashkil etilgan maktab psixologik xizmatida bolalarning amaliy psixologiyasida tashkiliy timsollar va keng amaliy taqsimotni topadigan yangi, progressiv tendensiyalar yanada

aniq namoyon bo‘ladi.

Fransiyadagi psixologik ta’lim xizmatining tarixi va hozirgi holati. Fransiyada maktab psixologik xizmatining rivojlanishi qiziqarli tajriba. Fransuz maktab psixologiyasining otasi Alfred Binet deb nomlanadi, u 1894 yilda ushbu sohada tadqiqot boshlagan. 1897-yilda uning ishi boshlang‘ich maktabning psixologik muammolari bo‘yicha nashr etildi.

1905-yilda Fransiya Ta’lim vazirligi Binetdan umumiy dasturda maktabga bora olmaydigan bolalar muammolarini psixologik tekshirishni so‘radi. Ushbu tadqiqot natijasida aqliy zaifligi bo‘lgan bolalarni aniqlashga imkon beradigan mashhur Binet-Simon testi paydo bo‘ldi. Shundan so‘ng bunday bolalar uchun maxsus maktab sinflari ochildi va 1909-yilda Fransiyada birinchi professional maktab psixologik xizmati ochildi. 1947-yilda Parijda professor A.Uollon rahbarligi ostida bir guruh maktab psixologlari ish boshladi. A.Binetning maktab psixologik xizmati oldiga qo‘ygan vazifalaridan farqli o‘laroq, A.Vallon uning maqsadi bolalarni biron bir alomatga qarab tanlab olish yemas, balki har bir bolaga psixologik yordam ko‘rsatish, barchasini o‘qitish va o‘qitish uchun maqbul sharoitlarni yaratishdan iborat deb hisoblaydi. bolalar uchun istisnolar. 1951-yilda Fransiya Ta’lim vazirligi birinchi bo‘lib maktab psixologlarining funksiyalari tavsifini taqdim yetdi. Ushbu hujjat tegishli ravishda 1952 va 1954 yillarda Gamburgda YuNESKO tomonidan tashkil etilgan maktab psixologiyasi bo‘yicha I va II xalqaro kolloksiyada muhokama qilindi. Biroq, ta’lim siyosatidagi o‘zgarishlar tufayli Fransiyada xizmat to‘xtatildi va maktab psixologlari boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari lavozimiga o‘tkazildi.

O‘tgan asr 50-60-yillarda maktab psixologlariga bo‘lgan ehtiyoj asosan aqliy rivojlanish va boshqa kasalliklar bilan og‘rigan bolalar sonining ko‘payishi hisobiga o‘sdi. Ta’lim vazirligi ommaviy maktabda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bolalarni tanlab olish uchun yana psixometrik usullarga murojaat qildi. Bu psixologik ta’lim xizmati boshlang‘ich maktabda to‘planganligi bilan bog‘liq, chunki turli xil maktablarda o‘qish uchun bolalarni bunday tanlash eng muhimdir.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun 1960-yilda to‘rtta psixologik markaz ochildi - Parij, Bordo, Grenobl va Besonsonda. Biroq, 1970-yildan beri psixologik va pedagogik yordam guruhlari deb nomlangan guruhlar, ularning har biri maktab psixologiyasi bo‘yicha bitta mutaxassis, o‘quv psixologiyasi bo‘yicha mutaxassis va psixomotor rivojlanish bo‘yicha bitta mutaxassis Fransiyada maktab psixologik xizmatining asosiy tashkiliy shakliga aylandi. Bunday jamoa 800 tadan 1000 tagacha o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘lib, bir maktabda joylashgan bo‘lsa ham, odatda bir nechta maktablarga xizmat qiladi.

Maktab psixologlarining aksariyati ishlaydigan psixologik va pedagogik yordam guruhlari ma’muriy jihatdan maxsus ta’lim bo‘limiga bo‘ysunadi. Ushbu guruhlarning faoliyat ob’ektlari asosan maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar (2-12 yosh) bo‘lib, asosiy ye’tibor 3-7 yoshli bolalar bilan ishlashga qaratilgan. Markazda o‘rganish va xulq-atvor muammolari mavjud bo‘lib, ular shunga mos ravishda turli mutaxassislar tomonidan hal qilinadi. Asosiy vazifalardan biri maxsus shakllar va o‘qitish usullariga muhtoj bolalarni aniqlashdir. Ota-onalar va o‘qituvchilarga ham ushbu masalalar bo‘yicha maslahat berilmoqda.

80-yillarning o‘rtalarida Fransiyada amaliy maktab psixologiyasining rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. 1985 yilda besh xil tashkilot vakillari - Milliy Psixologlar Uyushmasi (ANOP) a’zolaridan iborat ishchi guruhi tuzildi. Ushbu guruh Fransiyada pedagogik psixologning vazifalarini aniqlash uchun maxsus ishlarni amalga oshirdi. Ta’kidlandiki, pedagogik psixologning funksiyalari, shuningdek har qanday ama-

liy psixologning vazifasi mijozning ehtiyojlariga xizmat qilishni o‘z ichiga olishi kerak, ammo pedagogik psixologning yondashuvi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Pedagogik psixolog bolaning shaxsiyatining barcha tomonlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lganligi sababli, bolaning butun psixologik voqeligi bilan shug‘ullanadi; ammo, pedagogik psixolog ota-onalar va o‘qituvchilarni ushbu jarayonga bog‘lay oladi. Ayniqsa ta’kidlashicha, pedagogik psixolog maktab va oilaviy tarbiya tizimiga qarshi chiqishi mumkin, agar u bola shaxsining progressiv rivojlanishiga to‘sqinlik qilsa, bu ta’lim standartlarini o‘zgartirishi mumkin.

Keyinchalik Fransiyada maktab psixologlarining mavjud amaliyotini qayta tashkil yetish va shaxslarga, guruhlarga va butun institutlarga yordam berishga qaratilgan maktab psixologik xizmatining yagona tizimini yaratish loyihasi muhokama qilinmoqda. Ushbu yangi tizimning maqsadi: maktabda muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik, bolalarning ijtimoiy ta’limi va ijtimoiy moslashuvi, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘quvchilarning umumiy oqimiga qo‘shilishiga yordam berish (bu xizmatning oldingi bosqichlarida belgilangan maqsadga mutlaqo zid, bu bolalarni ajratish), umumiy ta’lim va kasbiy o‘sishni rag‘batlantirish. talabalar, o‘qituvchilar, ijtimoiy ishchilar, ma’muriyat va xalq ta’limi sohasidagi boshqa mutaxassislarning malakasini oshirish.

Hozirgi vaqtda o‘lchash va sinovdan o‘tkazish psixologik xizmat amaliyotida juda keng qo‘llanilayotganiga qaramay, dunyoning barcha mamlakatlaridagi ko‘plab olimlar maktab psixologlarining bunday cheklangan faoliyatidan qoniqishmaydi. Ular o‘lchovni bolalarga psixologik yordam muammosini hal qilishga yordam beradigan asosiy faoliyat sifatida qayta ko‘rib chiqishni boshladilar. Ta’kidlanishicha, test sinovlari talabalarning rivojlanish istiqbollarini aniqlashga imkon bermaydi, pastki ijtimoiy qatlamlardan va madaniy jihatdan orqada qolgan o‘spirinlarni tekshirishda noto‘g‘ri natijalar beradi. Bundan tashqari, ushbu uslub qobiliyatning faqat bitta turiga - intellektualga qaratilgan.

Sharqiy Yevropa psixologik ta’lim xizmatining tarixi va hozirgi holati. 20-asrning oxiriga kelib, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida maktab psixologik xizmatlarini tashkil yetish va faoliyatida ma’lum tajriba to‘plangan (Shvansara J., 1978; Cherni V., 1983; Vislak G., 1986 va boshqalar). Bu yerda maktabning psixologik xizmati o‘z oldiga vazifalarni qo‘ydi, ularning yechimi, birinchi navbatda, tanlash maqsadida o‘quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlashga emas, balki rivojlanishni rag‘batlantiradigan sharoitlarni yaratish uchun o‘quvchi yoki sinf xodimlari to‘g‘risida psixologik ma’lumotlarni olishga qaratilgan.

Maktabning psixologik xizmati Sharqiy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida psixologik-pedagogik tuman yoki mintaqaviy markazlar yoki konsultatsiyalar shaklida rivojlangan. Ushbu xizmat barcha bolalar, o‘smirlar va yoshlarni xalq ta’limi va tarbiyalash tizimining ajralmas qismi bo‘lgan. Vengriyada xalq ta’limi boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlangan ta’lim bo‘yicha maslahat berish bo‘yicha qo‘llanma nashr qilindi.

Ushbu mamlakatlarda psixologik xizmatning asosiy mazmuni sog‘lom shaxsning rivojlanishini ta’minlash, shaxsiyatni rivojlantirishdagi turli xil qiyinchiliklarni va kasbiy yo‘naltirish muammolarini tuzatishga yordam berish yedi. Masalan, Chexiya va Slovakiyada psixolog-maslahatchining asosiy funksiyasi psixodiagnostika faoliyatida namoyon bo‘ldi. Uning natijasi diagnostik xulosa bo‘lib, undan quyidagi tavsiyalar olingan:

♦ tashkiliy choralar - bolani maxsus yoki yordamchi maktabga, boshlang‘ich maktab ichidagi maxsus sinflarga, maxsus bolalar bog‘chasiga va hokazolarga qabul qilish;

♦ eng maqbul o‘quv turini, kasb tanlash uchun eng maqbul maydonni taklif qiladi;

♦ oilada va maktabda tarbiya va o‘qitishning tegishli usullaridan foydalanish, psixoterapiyaning turli shakllari, tibbiy ko‘rik (neropsixiyatrik, nutq terapiyasi va boshqalar).

Ota-onalar va bolalar bog‘chalari o‘qituvchilari maktabga yetarli darajada tayyor

bo‘lmagan bolalarning rivojlanishi bo‘yicha aniq tavsiyalar olishlari mumkin edi. Bir yil o‘tgach, maktabga kirishdan oldin, bu bolalar yana tibbiy ko‘rikdan o‘tishdi. Chexiya va Slovakiya mutaxassislarining tajribasi shuni ko‘rsatdiki, qonunga binoan maktabga borishi kerak bo‘lgan bolalarning taxminan 16 foizi aqlan hali bunga tayyor emas. Shu sababli, bolalarning maktabda o‘qishga psixologik tayyorgarligini zamonaviy baholash o‘quv mashg‘ulotlaridagi qiyinchiliklarning oldini olishning asosiy tadbirlaridan biriga aylandi.

Ushbu mamlakatlardagi maslahat markazlarida yoki maktablarda o‘qish bilan bog‘liq har xil qiyinchiliklar aniqlandi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘qishda qiyinchiliklarga duch keladigan o‘quvchilar orasida aqliy rivojlanishning yengil shakllariga asoslangan boshlang‘ich rivojlanish nuqsonlari bo‘lgan bolalar ham bor. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ushbu bolalarning maqbul rivojlanishi ko‘p jihatdan psixologik tekshiruvning to‘g‘ri xulosasiga bog‘liq bo‘lib, natijada ta’lim va tarbiya shartlari va usullari bo‘yicha tegishli tavsiyalar beriladi.

O‘sha davrdagi konsultatsiyalar va markazlar, shuningdek, shaxsiy xarakterdagi muammolar, xatti-harakatlarida, ta’limida qiyinchiliklarga duch kelgan talabalar bilan ham shug‘ullanadi. Markaz xodimlari ta’kidladilarki, boshlang‘ich maktablardagi «muammoli» o‘quvchilarning qariyb 30 foizi. Qiyin va pedagogik e’tiborsiz qolgan bolalarni malakali psixologik tekshiruv ularning muammolarining sabablarini aniqlaydi va ular bilan ishlashda ma’lum tavsiyalarni beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘sha davrdagi psixologik konsultatsiyalar va markazlar asosan ota-onalar yoki o‘qituvchilar ularga murojaat qiladigan aniq muammolarni hal qilish bilan shug‘ullanishgan. Bu ayniqsa, psixologlarga ota-onalarga maslahat berish bo‘yicha vengriya qo‘llanmasida aniq ko‘rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan, 25-dekabr 2020-yil, 18:00 siyosat.

2. Abdullayev M., Umarov E., Ochildiyev A., Yo‘ldoshev A., Abdullayev A. “Madaniyatshunoslik asoslari”. “Turon-Iqbol” nashriyoti, – T., 2006 y.

3. Imomnazarov M. “Milliy ma’naviyatimiz asoslar”. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, –T., 2006.

4. Oila psixologiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik. /Prof. F.B.Shoumarov tahriri ostida. – T., 2008.

5. Onalarga psixolog maslahati (Ona-bola munosabatlari psixologiyasiga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar). /Tuzuvchilar: G‘.B.Shoumarov va boshq. – T., 2002.

6. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (XVI-XIX asr I yarmi) –T.: Fan, 2006. - 240 b.

7. Qodirov O.S. Umumiy psixologiya // O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.

8. Qodirov O.S. Xotamov Sh.N. Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023.-360 b.

9. Ibragimovich Kh.I. Peculiarities of using credit-module technologies in the higher education system of Uzbekistan //Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2021. - P. 209-214.

Sunnatilla DANGALOV,
Respublika ta'lim markazining maxsus ta'lim bo'limi bosh metodisti.

KO'ZI OJIZ BOLALARNI SAVODGA O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan 6-7 yoshli bolalarga savod o'rgatish jarayonida tiflopedagog oldiga quyiladigan maqsadlari aytib o'tilgan. Shuningdek, ko'zi ojiz o'quvchilarga brayl alifbosini dastlab kolodka so'ng pribor, grifel orqali mukammal o'rgatish, bo'rtma nuqtali yozuvlarni ko'z bilan emas, balki qo'l barmoq uchlari bilan o'qish ko'nimasini shakllantirishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Brayl alifbosi, kolodka, so'ng pribor, grifel orqali mukammal o'rgatish, bo'rtma nuqtali yozuvlarni ko'z bilan emas, balki qo'l barmoq uchlari bilan o'qish ko'nimasi.

В статье изложены цели, которые ставятся перед тифлопедагогом в процессе обучения грамоте детей 6-7 лет с нарушениями зрения. Также было обнаружено, что отличное обучение слепым ученикам Брайлю сначала с помощью прибора, грифеля, а затем с помощью колодки формирует навык чтения рельефных точечных нот кончиками пальцев рук, а не глазами.


Ключевые слова. Отличное обучение Брайлю, колодке, затем прибору, грифелю, умение читать рельефные точечные надписи кончиками пальцев рук, а не глазом.

In the process of teaching baskets to 6-7-year-old children with visual impairment, the article mentions the goals of which are poured in front of the tiflopedagog. It is also revealed that the Braille alphabet was initially taught perfectly by pribor, Griffel, after kolodka, to blind students, forming a reading joint with the fingertips of the hand rather than with the eyes of embossed writing.

Key words. The Braille alphabet, kolodka, then pribor, is a perfect teaching through Griffel, reading the embossed-Dot writing with the fingertips of the hand rather than the eye.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola ijtimoiy hayotga moslashishda turli to'siqlarga duch keladi. Bu muammolarni bartaraf etishda tiflopedagog va maktabning o'rni beqiyos.


Bolaning nuqsoni ta'sirida paydo bo'ladigan ijtimoiy to'siqlarni korreksion mashg'ulot o'qituvchilari bartaraf qilsalar, ularning bo'rtma nuqtali brayl alifbosidagi savodini boshlang'ich sinf o'qituvchisi (ko'rishi sog'lom bo'lgan tiflopedagog) chiqaradi, albatta. Tayyorlov sinfiga o'quvchilar 6 yoshga to'lgandan so'ng qabul qilinadi va bo'rtma nuqtali harflarni savodga o'rgatish fani orqali o'zlashtirishadi. 6-7 yosh oralig'idagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar, ayniqsa, mutlaqo ko'rmaydigan bola uy muhitidan boshqa muhitga ya'ni internat maktab sharoitiga moslashishi biroz qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolaga savod o'rgatishdan oldin moslashish jaroyinini yetarlicha yo'lga qo'yib olish zarur. Ko'zi ojiz bolalar brayl yozuvini dastlab kolodkada o'rgangani maqsadga muvofiq, chunki kolodka orqali o'quvchilar 6 ta nuqta o'rnini mukammal tushunib olishi ancha yengil kechadi.



6 nuqta asosida turli bo‘rtma shakllarni hosil qilib olgandan so‘ng o‘quvchi tezda maxsus o‘quv qurollari pribor va grifeldan foydalana boshlagani maqsadga muvofiq, chunki o‘quvchi o‘ng tomondan yozib, pribordan maxsus 140-160 grammlik brayl yozuvi daftarni olgandan so‘ng chap tarafdan o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish yaxshi samara beradi.




Bu jarayonda ham ularga darhol harf o‘rgatilmaydi, balki grifel (igna) orqali 6 nuqtani hosil qilish, qarama-qarshi nuqtalarni hosil qilish, toq nuqtalarni hosil qilish, juft nuqtalarni hosil qilish va boshqalarni o‘rganib olgandan so‘ng ularga harf o‘rgatish joiz bo‘ladi. Tiflopedagog shuni unutmasligi kerakki, o‘quvchi brayl yozuvini yozish va o‘qish jarayonida ko‘zdan foydalanib yozishi va o‘qishi noto‘g‘ri metodik yondashuv hisoblanadi. O‘quvchi o‘ng qo‘ldagi grifel uchi bilan yozayotgan katak ichida mo‘ljal olsa, chap qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i bilan keyingi kataklar nazorat qilib boriladi.



Yozib bo‘lingan qog‘oz pribordan ya’ni matritsa va setka oralig‘idan olingandan so‘ng yozuvni faqat qo‘l barmoq uchlari bilan o‘qish lozim. Brayl yozuvini qo‘l barmoq uchlari bilan o‘qish eng yaxshi usul bo‘lib, bu orqali o‘quvchining saqlanib qolgan ko‘ruv o‘tkirligi himoya qilinadi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan 6-7 yoshli bolalarga savod o‘rgatish jarayonida tiflopedagog o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘ysa, metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘nalgan bo‘ladi: ko‘zi ojiz o‘quvchilarga brayl alifbosini dastlab kolodka so‘ng pribor, grifel orqali mu-

kammal o‘rgatish, bo‘rtma nuqtali yozuvlarni ko‘z bilan emas, balki qo‘l barmoq uchlari bilan o‘qish ko‘nimasini shakllantirish, harf, bo‘g‘in, fonemalarni o‘rgatish hamda har bir harfda kamida 3ta predmet va uning xususiyatlari to‘g‘risida atroflicha ma’lumot berish.



Natijada savodga o‘rgatish o‘quv predmetining vazifalari quyidagicha belgilab olinadi: o‘quvchini maktab hayoti bilan tayyorgarlik davrida tanishtirish, kolodka bilan ishlashga o‘rgatish, pribor va grifel bilan tanishtirish, alifbe saboqlarini o‘rgatish. Ushbu metodlar orqali maqsad va vazifa bajarilgandan so‘ng 7 yoshli o‘quvchi ko‘rishi sog‘lom tengqurlari singari birinchi sinfga yozish va o‘qishni o‘rgangan holda qadam qo‘yadi.

Ko‘zi ojiz bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab internatlarining o‘quvchilari quyidagi uch toifaga bo‘linishi bilan ta’lim jarayonini ancha murakkablashtiradi:

Mutlaqo ko‘rmaydigan o‘quvchilar

Zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar

Aqliy rivojlanishi orqada qolgan o‘quvchilar.

Aksariyat hollarda ushbu 3 toifa o‘quvchilar bitta sinfda jamlangan bo‘ladi. Bu jarayon o‘qituvchidan ulkan jasoratni va bir darsning o‘zida uch metod asosida dars o‘tishni talab qiladi. Ayniqsa, aqliy rivojlanishi sust bo‘lgan o‘quvchilar juda sekinlik bilan harf taniydi. Bu borada bir nechta kombinatsiyalardan iborat bo‘lgan brayl yozuvini o‘rgatish o‘ta mashaqqatli vazifadir. Shuning uchun bu turdagi o‘quvchilarga ta’limning dastlabki vaqtlarida o‘yin va og‘zaki metodlardan foydalanish yaxshi natija berganligi yillar davomida kuzatilgan hodisa sanaladi.

Ko‘rishida va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar brayl yozuvidagi harflar tarkibidagi nuqtalar o‘rnini eslab qolishlari uchun lego o‘yinchoqlari , sinf xonasidagi jihozlarning joylashish o‘rinlari hamda brayl yozuvi kubogidan foydalanish usuli ularga harflarni tasavvur qilishlari uchun eng samarali yo‘l sanaladi.

Bu yosh toifasidagi bolalarga savod o‘rgatish jarayonida birgina o‘qituvchi va tarbiyachining mehnati yetarli bo‘lmaydi. Mazkur jarayonda ota-onalarning ishtiroki hamda ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari maqsadga erishishning bosh bo‘g‘ini sanaladi. Shu borada ko‘zi ojizlar ta’limida hali kuzatilmagan bir metodni qo‘llashni tavsiya beramizki, bu orqali bolalarning ota-onalari uy sharoitida ham quyida berilgan bitta harf misolidagi rasm orqali brayl yozuvining o‘ngdan chapga qarab yozilishi va chapdan o‘ngga qarab o‘qilishini yaqqol anglash bilan birgalikda uy sharoitida farzandiga ham qiyinchiliksiz harf o‘rgata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dangalov S.M. (2022). Savodga o‘rgatish.
2. Dangalov S.M. (2010). Tiflopedagogika tarixi va uning ahamiyati.
3. Qodirova F.U.va Xusnuddinova Z.X. (2023). Tiflopedagogika.

Botirjon FOZILOV,
Andijon davlat universiteti doktoranti

ESHITISHIDA MUAMMOLARI BO‘LGAN BOLALARDA FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish kabi ijtimoiy-siyosiy vazifa doirasida bir qator ishlar amalga oshirilishi haqida fikr yyritilgan. Suningdek, boshlang‘ich sinflarda kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni fuqarolik pozitsiyalari bilan tanishtirish, shaxsiy fikr va mulohazalarni bildirishga o‘rgatishda o‘qituvchi va tarbiyachilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish lozimligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar..Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar, da’vat, bolalarning faol fuqarolik kompetensiyalari, fuqarolik pozitsiyalar, fikr va mulohazalar.

В статье излагается идея о том, что в рамках такой социально-политической задачи, как формирование активной гражданской компетентности у детей с нарушениями слуха, проводится ряд мероприятий. Также было отмечено, что в начальных классах необходимо усилить взаимодействие между учителем и воспитателями при ознакомлении глухих и слабослышащих учащихся с гражданской позицией, обучении выражению личных мнений и суждений.

К**лючевые слова**. Дети с проблемами слуха, побуждения, активные гражданские компетенции детей, гражданские позиции, мнения и суждения.

The article expresses the opinion that a number of works will be carried out within the framework of such a socio-political task as the formation of active civil competence in children with hearing problems. It was also mentioned that in elementary grades it is necessary to introduce deaf and weak hearing students to civic positions, to strengthen mutual cooperation between teachers and educators in teaching them to express personal opinions and opinions.

Key words. Children with hearing problems, calling, active civil competencies of children, civic positions, opinions and considerations.

Bugungi kunda rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolazrb masala sanalmoqda. Xususan, eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda faol fuqarolik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

Fuqaro-shaxsning jamiyatda o‘ziga xos o‘rni, mavqyei bor bo‘lib, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilgan har bir davlatning muhim vazifalaridandir. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy munosabatlarda, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb sanalmoqda. Darhaqiqat, yuksak ma’naviyatli, erkin va mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy vositalardan, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalana oladigan, jismonan, ruhan va ma’nan sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda yoshlarga oid davlat siyosatini o‘rni va ta’siri kattadir. Mazkur siyosatni izchil amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 6

fevraldagi PQ-2124-son «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror mamlakatimizda yoshlar ta’lim-tarbiyasi, mustaqil hayotga tayyor bo‘lishi, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlarni ko‘zda tutadi. Belgilangan vazifalarning to‘laqonli bajarilishida uzluksiz ta’limning har bir bo‘g‘inida olib borilayotgan izchil chora-tadbirlarning maqsadli va puxta ishlab chiqilishi muhim shartlardandir.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining asosiy qismini, taxminan 60 foizidan ziyodini 30 yoshga kirganlarning ulushi tashkil qiladi. Davlat va jamiyat rivojida munosib o‘ringa ega bo‘lgan yoshlar milliy o‘ziga xoslikni, davlat mustaqilligini saqlab qolish, mustahkamlash hamda avlodda-avlodga qoldirishda faollikni namoyon qilmoqda. Har qanday jarayonda faollik dahldorlik negizida yuzaga keladi. Bugungi kun yoshlari jamiyatning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlarda loqaydlik bilan emas, balki faol fuqarolik pozitsiyasidan yondashmoqda. Mamlakatda olib borilayotgan har qanday ishlar xalqarolashuvsiz amalga oshmaydi. Axborotlar to‘qnashuvi, manfaatlar kesishuvida har bir jamiyat a’zosining maqsadli ishtiroki muhimdir. Chunki fuqarolik jamiyatini qurishda har insonning fikri muhim, ishtiroki zarurdir.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda globallashuvga xos salbiy hodisalarning oldini olish, yot g‘oyalar oqibatlari, xavfini kamaytirishda yoshlarni ma’naviy jihatdan yetuk etib tarbiyalash hamda ularda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish zarurdir. Zero, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, turli salbiy jarayonlarga loqayd bo‘lmagan holda dahldorlikni namoyon etadigan yoshlargina jamiyatning asosiy maqsadlarini ro‘yobga chiqara oladi. Chunki ular mazkur maqsadlarning mohiyatini, nimadan iboratligini tushunib, xalq va jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur anglaydi va buning zamirida jamiyatdagi ijtimoiy mavqyeiga ega bo‘ladilar.

Yoshlar orasida eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar ham bor bo‘lib, ularga turli munosabatlarda faol bo‘lishni o‘rgatish o‘ta murakkab va dolzarb masaladir. Chunki eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos pedagogik va psixologik xususiyatlari ona tilini maqsadli va maxsus o‘rgatishni qanchalik taqozo etsa, til, nutq va psixik taraqqiyot negizida fuqaro-shaxs mavqyeini xis qildirishga undash ham shunchalik kompleks yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqot davomida faol fuqarolik nima?- degan savolga javob berish orqali tadqiqotning ilmiy konsepsiyasi shakllantirildi. Demak, arabchada “harakat qiluvchi, ta’sirchan” degan ma’nolarni anglatgan “faol” so‘ziga «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da: quyidagicha ta’rif berilgan: “...biror g‘oyaviy harakat yoki ishga g‘ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan; biror jamoaning ijtimoiy hayoti, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan, jamoatchi; harakatchan, ko‘p harakat qiladigan”- deya insonni ta’riflash uchun ishlatilishi keltirilgan.

Fuqaro o‘zi kim? Muayyan xududda mustaqil yashovchi shaxs. Fuqarolik esa, fuqaro ekanlikni, huquqiy holatga ega shaxs ma’nolarini anglatadi.

Aksariyat manbalarda va huquqiy kontekstlarda fuqarolik tushunchasiga yondosh sifatida pozitsiya (lotincha positio – holat, vaziyat) tushunchasi ishlatiladi. Pozitsiya bu har qanday kimsa yoki narsaning tutgan o‘rni, ishg‘ol qilib turgan joyi, mavqyei, holati, vaziyati hamda xarbiy ma’noda qo‘shinning mudofaa yoki hujum qilish maqsadida egallab turgan va muhandislik nuqtai nazaridan jihozlangan yer maydoni, shaxmat va shashka o‘yinida donalarning joylashish holati; biror masalada tutilgan yo‘l, nuqtai nazar; voqea-hodisaning muayyan bahosi kabi ma’nolarda keladi.

Sog‘lom bolalar qatori eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarda faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish kabi ijtimoiy-siyosiy vazifa doirasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

– har bir bolada o‘z xalqining tarixi, ma’naviy qadriyatlari, vatanimizning imkoniyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash, undan faxrlanish, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun daxldorlikni hissini tarkib toptirish;

– bolalarni o‘z huquqi bilan birgalikda burch va majburiyatlarini yaxshi bilishga undash;

– imkoniyati cheklangan bolalarga har qanday holatda ham milliy manfaatlarni himoya qila olishni o‘rgatish.

Sanab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirishda ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarida tizimli metodik ishlar olib borilishi taqozo etiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni fuqarolik pozitsiyalari bilan tanishtirish, shaxsiy fikr va mulohazalarni bildirishga o‘rgatishda o‘qituvchi va tarbiyachilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish lozim. Chunki darslar jarayonida o‘qituvchilar kerakli bilimlarni o‘quvchilarga taqdim etsalar, tushlikdan so‘ng tarbiyaviy mashg‘ulotlarda tarbiyachilar qo‘shimcha ma’lumotlar, turli tarqatmali materiallar yordamida o‘quvchilar bilimini mustahkamlaydilar.

Kar va zaif eshituvchi bolalar odatda, o‘zgalarning g‘arazli niyatlarini tez fursatda anglab yetmaydilar, ularning so‘zlagan nutqini boricha qabul qiladilar va da’vatiga ergashib ketishlari mumkin. Shu jarayonda mazkur toifa bolalarning faol fuqarolik kompetensiyalari shakllangan bo‘lsa, ular yovuz niyatli odamlar bilan muloqotda ehtiyotkorlik kerakligini bilgan holda o‘zini tutadilar. Aynan tarbiyachi va o‘qituvchilar dars va mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarga muloqotning o‘ziga xos tomonlarini o‘rgatadilar. Qanchalik bu bolalar faol fuqaro sifatida nafaqat o‘z taqdiriga, balki jamiyat taqdiriga ham befarq bo‘lmaslikka ertaroq moslashsalar, shunchalik ularning jamiyatdagi mavqyei mustahkam bo‘ladi. Ular ham jamiyatning turli munosabatlarida manfaatli muloqot qilishga o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. Кодирова, Ф. У., & Кабилова, Ш. Х. (2021). Повышение качества инклюзивного образования в условиях педагогического инновационного кластера. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 109-115.

3. Abdullayeva, G. S. (2021). The Use of Special Computer Technologies in Teaching Students with Hearing Impairment. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(12), 547-554.

4. Abdullayeva, G. S. (2022). INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION OF PERSONS WITH COMPLEX DEVELOPMENTAL DISORDERS. In Современная наука, общество, образование: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 214-216).

Xusnora YUNUSOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi p.f.f.d.,(PhD)

BO‘LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’lim muhitida o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning metodik tizimi hamda ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butun ekanligi, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini berishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta’lim, malakali pedagog, faoliyat, metodika, ta’lim.

В данной статье говорится о методической системе подготовки будущих специальных педагогов к организации деятельности учащихся в инклюзивной образовательной среде, а также о том, что научные и научно-методические структуры представляют собой единое целое, а их общие задачи позволяют поднять систему педагогического образования на новый уровень качества сохраняется.

Ключевые слова. Дети с ограниченными возможностями здоровья, инклюзивное образование, квалифицированный педагог, деятельность, методика, воспитание.

This article talks about the methodical system of preparing future special pedagogues to organize students’ activities in an inclusive educational environment, and the fact that scientific and scientific-methodical structures are a whole, and their shared tasks allow raising the pedagogical education system to a new level in terms of quality is maintained.

Key words. Children with disabilities, inclusive education, qualified educator, activity, methodology, education.

Har bir davlatning rivojlanish darajasi mamlakatdagi imkoniyati cheklangan shaxslarga bo‘lgan munosabatga qarab belgilanadi. Shu sababli ham O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim shiddat bilan rivojlanib bormoqda.

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini jahon miqyosida yanada takomillashtirish orqali bo‘lajak defektologlarni mehnat bozoriga mos raqobatbardoshlilik, muhitga moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlarda oson va tez yechim topa olish, innovatsion kasbiy mahorat elementlarini o‘zida qaror toptirish talab etilmoqda. Shu sababli yuqori malakali, jahon andozalariga mos, inklyuziv ta’limga tayyor pedagoglarining kerakli kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, uzluksiz ta’limning barqaror rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, inklyuziv ta’lim berish dasturlarini mazmunan yangilash, ixtisoslik fanlar mazmunini amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirish, mutaxassislarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sharoitlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimida modullarni o‘qitish jarayoniga jahonning ilg‘or tendensiyalarini joriy etish, uzluksiz ta’lim tizimida o‘zaro manfaatdor hamkorlikni kuchaytirish, maqsadlarni integratsiyalash, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishning me’yoriy asoslari yaratildi. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” kabi

vazifalar belgilab berildi.1. Bu vazifalarning tizimli davomi sifatida amaliyotga klaster yondashuvini joriy etish ustuvor masala sifatida dolzarblik kasb etdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar asosida jamiyatda o'qituvchilik kasbining mavqeini yanada mustahkamlash, sohaga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsiyalarni jalb qilish, ta'lim-fan-ishlab chiqarish izchilligini ta'minlash, ta'limning asosiy va yordamchi tuzilmalarini zamonga mos holda takomillashtirish, ta'lim jarayonida o'zini namoyon qila olgan o'quvchilar bilan ish tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Bugungi kunga kelib, jahonda yangiliklarga va asl texnologik yechimlarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda, integratsiyalashuv jarayonining yangi, zamonaviy usullaridan biri sifatida ommalashib borayotgan klaster yondashuvining ilmiy-pedagogik jihatlarini tahlil qilish, uning samarador usul ekanligini ilmiy-nazariy asoslab berish, amaliyotga joriy etish yo'llari bo'yicha takliflar ishlab chiqish bugungi kun pedagogikamizning bosh masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tizimli ishlar ushbu tushuncha muayyan subyektlarning o'zaro hamkorlik aloqalarini tizimli shakllantirish va ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida birgalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilmaga birlashishini anglash jarayonini takomillashtirishni ko'rsatmoqda.

Imkoniyati cheklanganlik – qobiliyatsizlik emas. Har qanday holatda ham kamchilikda ham bola rivojlanishda davom etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan ko'proq e'tibor va yordam talab qiladi holos. Ular topshiriq va vazifalarni tez, mukammal bajaramasliklari mumkin, lekin imkoniyat darajasida bajara oladilar.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelayotgan ta'lim turi hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim intensiv ravishda amaliyotga kirib keladi va buning oqibati ko'plab savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Inklyuziv ta'lim xorij mamalakatlarida sezilarli darajada rivojlangan bo'lib, ilmiy-amaliy jihatlari turli tadqiqotlar orqali asoslab berilgan.

Ta'lim jarayoniga inklyuziv ta'lim amaliyotini joriy etish murakkab jarayon hisoblanib, ijtimoiy-ruhiy ta'sir doirasi, subyektiv va obyektiv ta'sir o'tkazish, o'rganilayotgan fanning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy hamda pedagogik xususiyatlar, vazifalar asosida, prinsp va yondashuv xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, inklyuziv ta'lim har bir alohida yordamga muhtoj o'quvchining psixologik- pedagogik, ijtimoiy, jismoniy, fiziologik va yosh xususiyatlari inobatga olgan holda tadbiq qilinadi. Shaxsiy rivojlanishi uchun esa pedagogik shart-sharoitlar yaratish taqazo etiladi. Bunday muhitni yaratib olish birmuncha murakkab hamda vaqt talab etadigan jarayon hisoblanib, maxsus ta'lim uchun dasturlar ishlab chiqishga tayangan holda o'qitish va ta'lim usullarini, maxsus adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalar, texnik-dasturiy vositalari, yordamchi xizmat turlaridan fordalanish, alohida yordamga muhtoj bolalarni kerakli texnik hamda metodik yordam bilan ta'minlab berish, guruhli, bolani o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda individual va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishni taqazo etadi.

Inklyuziv ta'lim – faqatgina nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi emas, balki hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinf xonasida – bir xil sharoitda ta'lim olishi hisoblanadi.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasining rivojlanishi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari yuqori darajada ekanligi, ta’limning gumanistik mazmun mohiyati, har bir insonning bilim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarining ta’minlab berilganligi, ta’lim olishdagi teng huquqlilikning kafolatlanishiga tayanadi.

Ta’lim sohasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi: ta’lim sohasidagi fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolatlanganligi; ta’lim olishdagi tenglik, shu bilan birga, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarga, ularning sog‘lig‘i hamda bilim qobiliyatlariga asosan, asosiy ta’limning barcha jabhalarida va qo‘shimcha ta’lim olishda shart-sharoitlar yaratilganligi; ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarga maxsus ta’lim olish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularga pedagogik-psixologik hamda korreksion ko‘mak berish; shaxsning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni kamol topishida, yetuk kadrlarni tayyorlashda jamiyat bilan birga davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Zamonaviy jamiyatda kasbiy kompetensiyalar shakllanganligining yuqori darajasiga ega, pedagogik muammolarini hal ega oluvchi mutaxassislar talab etiladi. Bu asosda, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy tarbiyalash orqali amalga oshiriladigan defektologlarning kasbiy faoliyatining ijtimoiy-pedagogik funksiyalari kengaymoqda.

Inklyuziv ta’lim – bu rivojlanishida va ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalarning umumta’lim maktabida alohida sinfda emas, balki sog‘lom tengdoshlari bilan bir sinfda ta’lim olish jarayonidir.

Hamkorlikdagi (inklyuziv) ta’lim butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olingan. Respublikamizda inklyuziv ta’lim jahon tajribasi va siyosati kabi eng muhim, zamonaviy siyosat bo‘lib kelmoqda.

Inklyuziv ta’lim – bu shunday ta’lim-tarbiya jarayoni-ki unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat’iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o‘z uyi va hududida ularning ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan, ularning ta’limdagi ehtiyojlari hisobga olingan holda maxsus yordam ko‘zda tutilgan maktablarda o‘z tenqurlari bilan ta’lim olishi demakdir.

Bizning tadqiqotlarimiz aynan ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan yoshlarni o‘qitish hamda tarbiyalash, ularni kasb-hunarga tayyorlash va ijtimoiy hayotga moslashtirish muammosiga qaratilganligi bois biz Respublikamiz hamda hamdo‘stlik mamlakatlarida maxsus pedagogika sohasi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga ko‘proq to‘xtalib o‘tdik.

Maxsus pedagogika sohasiga ulkan hissa qo‘shgan olima L.R.Mo‘minova tomonidan maktabgacha yoshdagi alohida yordamga muhtoj bolalarning nutqidagi nuqsonni bartaraf etish yuzasidan korreksion-pedagogik ishlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan hamda bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish metodikasi yaratilib amaliyotga joriy etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” Toshkent, Iqtisod-Moliya 2011

2. Бизяева. А.А Рефлексивные процессы в сознании и деятельности учителья Дисс канд психол наук-С-Пб-1993

3. www.ziyonet.uz

Shoira ABDUJALILOVA,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ABDURAUF FITRATNING PEDAGOGIK TA'LIMOTIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada Abdurauf Fitratning pedagogik ta'limotidan foydalanish zaruriyati to'g'risida fikr yuritilgan va uning muallif tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy dasturi taqdim etilgan. Shuningdek, Fitratning pedagogik ta'limotini o'rganish va foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kuchaytirilishi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ta'limot, pedagogika, Fitrat, foydalanish, zaruriyat, tajriba, mahorat, malaka.

В статье рассматривается актуальность использования педагогической доктрины Абдурауфа Фитрата и представлена его примерная программа, разработанная автором. Также было упомянуто, что изучение и использование педагогической доктрины Фитрата укрепляет профессиональную компетентность будущих учителей.

Ключевые слова. Обучение, педагогика, сущность, использование, необходимость, опыт, умение, компетентность.

The article discusses the relevance of using the pedagogical doctrine of Abdurauf Fitrat and presents its approximate program developed by the author. It is also mentioned that the study and use of the pedagogical teaching of Fitrat will strengthen the professional competence of future teachers.

Key words. Training, pedagogy, essence, use, necessity, experience, skill, competence.

Fitrat jadid pedagogi va birinchi o'zbek professori sifatida Qur'on, hadis, mantiq, tibbiyot, psixologiya va sotsiologiya asoslariga tayangan holda hozirgi zamon oila pedagogikasiga doir ilg'or pedagogik qarashlari bilan bugungi kun uchun ahamiyatini yo'qotmagan va o'ziga xos yo'nalishi, uslubi va tamoyillariga ega pedagogik ta'limotga asos solgan.

Fitratning hozirgi zamon "Ijtimoiy pedagogika" fanining nazariy masalalari bborasidagi qarashlari o'z davriga mos ravishda "ijtimoiy pedaogogik ta'lim" tushunchasining hayotiy muammolarni hal qilishga yordam beradigan va taraqqiyotga olib chiqadigan ijtimoiy tuzum hamda muhitga olib chiqishga yo'naltirishi, ta'lim va tarbiya vositasida shaxsning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Jadidchilik harakati o'z vaqtida Fitrat pedagogik qarashlarining rivojlanishi uchun muhim ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy omil sifatida xizmat qildi. Ijtimoiy ta'lim va tarbiyaning maqsadi insonni aqliy rivojlantirib, ijtimoiy voyaga yetkazishdan iborat ekanligi Fitrat pedagogik qarashlarining mohiyatini tashkil qiladi. Shaxsning o'zligini tarbiyalash, oila institutining ahamiyatini oshirish, milliy va umuminsoniy g'oyalarni ro'yobga chiqarishning usul va yo'llari orqali olim ijtimoiy pedagogik ta'lim vazifalari va metodologiyasini o'ziga xos tarzda asoslab bergan.

Abdurauf Fitratning oila va ijtimoiy pedagogika borasidagi qarashlari olimning oila ta'lim-tarbiyasi va ijtimoiy pedagogik ta'lim xususiyatlariga doir tahlillarini zamonaviy pedagogik paradigmalar aspektida pedagogik ta'lim amaliyotiga tatbiq etishga yordam beradi.

"Musiqa pedagogikasi", "Huquq pedagogikasi" va "Pedagogik mahorat" kabi za-

monaviy pedagogika fanlarining Fitrat pedagogik qarashlari bilan aloqadorligi manbalarni ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, ilmiy metodologik asoslash kabi usullari vositasida chog‘ishtirma tahlil qilish asosida aniqlashtirilgani mazkur fanlarning metodologik asoslarini ochib berishga, fanlararo integratsiyani tizimli ta’minlashga yordam beradi.

O‘zbekistonning hozirgi ijtimoiy taraqqiyoti va ta’lim-tarbiya jarayonida pedagog kadrlarning tutgan o‘rni va ahamiyatini inobatga olganda, pedagogik ta’limda mutaxassislik fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘qitish omilidan samarali foydalanish dolzarb masala ekanligi oydinlashadi. Shu ma’noda, olimning “Musiqa pedagogikasi” mutaxassislik fani milliy musiqa tarixini o‘rganishi, musiqa nazariyasini o‘rgatishi va musiqa ijrochiligini o‘qitishi hamda bo‘lajak musiqa pedagoglarini ana shu asoslar bilan qurollantirish metodologiyasiga tayanishi kerakligi haqidagi fikrlari pedagogik fanlarni o‘qitishda didaktik va metodik ta’minot juda muhim ekanligini dalillaydi.

Fitratning pedagogik ta’limotida hozirgi zamon “Huquq pedagogikasi” mutaxassislik fani omillari ham tahlil etilgan bo‘lib, unga ko‘ra huquq pedagogikasining tayanch omillarini tarixiy huquqiy-pedagogik manbalar va zamonaviy huquqiy-pedagogik tajribalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Uning qarashlariga ko‘ra, huquqiy ta’lim va tarbiya muhit, makon va ehtiyojlar omiliga asosan amalga oshiriladi [2].

Fitrat pedagogik ta’limotidan foydalanishning modulli tizimi pedagogik ta’limning tashkiliy, klaster va baholash shakllarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etishning umumlashtirilgan va universal tuzilmasini vitagen ta’lim integratsiyasini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlariga mos tarzda ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Fitratning pedagogik ta’limotida hozirgi zamon “Pedagogik mahorat” mutaxassislik fani usullariga doir o‘ziga xos yondashuv mavjud bo‘lib, uning asosini tahsil asoslarini chuqur o‘zlashtirish (kasbiy bilim), tahsil usullarini o‘rganish va tahsil samaradorligiga erishish (kasbiy natija) kabi bosqichlar tashkil qiladi. Olim pedagog uchun kasbiy layoqat va pedagogik fazilatlarga ega bo‘lish muhimligini ta’kidlaydi.

Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limoti keng ko‘lamli yangicha yondashuvlarga, dolzarblik va ijtimoiy zarurat kabi xususiyatlarga ega bo‘lib, oliy pedagogik ta’limda uning pedagogik ta’limotini o‘rganishning modulli tizimidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik fanlarni o‘qitishning metodik va didaktik ta’minotini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy pedagogik ta’limda Fitrat pedagogik ta’limotini o‘rganishning modulli tizimidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik ta’limni kopetensaviy va akmeologik yondashuvlarga asosan qaror toptirishni hamda ular asosida ta’limning rivojlantiruvchi maqsadlarini ta’lim tamoyillariga nisbatan muvofiqlashtirishni taqozo qiladi .

Бунинг натижасида қуйидагиларни тавсия этиш мақсадга мувофиқ бўлади:

– oliy pedagogik ta’lim muassasalarida “Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limoti” maxsus kursini tashkil etish bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonini kuchaytiradi;

– hozirgi zamon “Oila pedagogikasi”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Musiqa pedagogikasi”, “Huquq pedagogikasi” va “Pedagogik mahorat” o‘quv fanlari bo‘yicha yangi avlod darsliklarini tayyorlashda Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limotidan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Biz tomonimizdan Abdurauf Fitratning pedagogik ta'limotidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish bo‘yicha quyidagi namunaviy Dastur ishlab chiqildi:

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarga Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limoti bo‘yicha nazariy bilim va kasbiy kompetitsiya berishdan iborat.

Fanning vazifasi: bo‘lajak o‘qituvchilarga Abdurauf Fitratning:

- pedagogik ta’limotining nazariy masalalarini tushuntirish;
- pedagogik ta’limotining asoslari bo‘yicha bilim berish;
- pedagogik ta’limotidan foydalanish ko‘nikmasini tarkib toptirish;
- pedagogik ta’limotini o‘rganishga yo‘naltirish.

II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-modul. Fitratning “Oila pedagogikasi” asoslariga doir qarashlari

1-mavzu: Oilada ta’lim va tarbiya xususiyatlari

“Pedagogik ta’lim ta’limoti” tushunchasi. Shaxsning oila fenomenining anglashi. Shaxsning oilada ta’lim va tarbiyani amalga oshirish asoslarini bilishi.

2-mavzu: Oilada tarbiya asoslari

Oilada bolani o‘qitish zaruriyati. Oilada aqliy va jismoniy tarbiya. Oila tarbiyasida oila a’zolarining ishtiroki.

2-modul. Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limotida “Ijtimoiy pedagogika” asoslariga oid yondoshuvlari

3-mavzu: “Ijtimoiy pedagogik ta’limot” tahlili

“Ijtimoiy pedagogik ta’limot” tushunchasi. Ijtimoiy tuzim va muhit. Ijtimoiy munosabat.

4-mavzu: Ijtimoiy pedagogik ta’limot vazifalari

Shaxsni ijtimoyilashtirish. Shaxsni ijtimoiylashtirishda oila va jamoatchilikning vazifalari. Shaxsni ijtimoiylashtirishning umumpedagogik vazifalari.

5-mavzu: Ijtimoiy pedagogik ta’limot metodologiyasi

Fitratning ijtimoiy adolat metodologiyasi. Ijtimoiy bilimlar xususiyatlari. Ijtimoiy ko‘nikma masalasi.

3-modul. Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limotida hozirgi zamon mutaxassislik fanlari omillari

6-mavzu: “Musiqa pedagogikasi” xususiyatlari

Milliy musiqa tarixini o‘rganish. Musiqa nazariyasini o‘rganish. Musiqa ijrochiligini o‘zlashtirish.

7-mavzu: “Huquq pedagogikasi” asoslari

Huquq manbalari. Shaxsga huquqiy bilim berish va uni huquqiy munosabatga o‘rgatish. Shaxsni huquqiy faollashtirish.

8-mavzu: “Pedagogik mahorat” omillari

Tahsil manbalari. Tahsil usullari. Tahsil samaradorligi.

4-modul. Abdurauf Fitratning pedagogik ta’limotidan foydalanish amaliyoti

9-mavzu:Fitratning pedagogik ta’limotni o‘rganishni tashkil etish

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida Fitratning pedagogik ta’limotini maxsus kurs vositasida o‘rganish. Talabalarni mutafakkirning pedagogik ta’limoti bo‘yicha o‘zlashtirganlarini haftalik amaliyot davrida sinovdan o‘tkazishga o‘rgatish. Talabalarni olimning pedagogik ta’limotini tadqiq etish bo‘yicha ko‘nikmasini shakllantirish.

10- mavzu: Fitratning pedagogik ta’limotini klaster moduli asosida o‘rganish

Klaster moduli to‘g‘risida tushuncha. Fitratning pedagogik ta’limotini fanlar integratsiyasi asosida o‘rganish. Mazkur ta’limotni mutaxassisliklar kesimida o‘rganish.

11-mavzu: Fitratning pedagogik ta’limotini o‘zlashtirganlik darajasini modulli baholash

Modulli baholash mazmuni. Fitratning pedagogik ta’limotini o‘zlashtirganlik darajasini baholashning bilim mezoni. Mazkur ta’limotni o‘zlashtirganlik darajasini baholashning ko‘nikma mezoni.

Fan/modul kodi Um.Ped.202 (bakalavri-yat)	**O‘quv yili**	**Semestr** 5-6	**ESTS - Kreditlar** 5	
Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek/rus		**Haftadagi dars soatlari 4**	
	Fanning nomi	**Auditoriya mashg‘ulotlari (kredit)**	**Mustaqil ta’lim (kredit)**	**Jami yuklama (kredit)**
	Umumiy pedagogika	30+30=90	90	150

Mazkur dastur asosida Fitratning pedagogik ta'limotini o‘rganish va foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kuchaytiradi.

Shunday qilib Fitratning pedagogik ta'limotidan foydalanishda maxsus yondoshish va modulli tizimga asoslanish kutilgan samarani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. www.ziyonet.uz

2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar.5 jildli.-Toshkent, 2000-2010

3. Abdujalilova Sh.A. Abdurauf Fitratning pedagogik ta'lim ta'limoti.- Toshkent, 2022

Muqaddas SOIPNAZAROVA,
katta o‘qituvchi

ABDURAUF FITRAT ASARLARINING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat asarlarida vatanparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalarining ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Millat, milliy g‘urur, madaniy meros, ta’lim, ma’rifat, ilm, adabiyot, vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, g‘oya.

В данной статье подчеркивается значение идей патриотизма и национализма в творчестве Абдурауфа Фитрата.

Ключевые слова. Нация, национальная гордость, культурное наследие, образование, просвещение, наука, литература, патриотизм, гуманизм, национализм, просвещение, идея.

This article emphasizes the importance of the ideas of patriotism and nationalism in the work of Abdurauf Fitrat.

Key wordsю Nation, national pride, cultural heritage, education, enlightenment, science, literature, patriotism, humanism, nationalism, enlightenment, idea.

An’analarimizni tiklash, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’naviy – ma’rifiy, madaniy meroslarni avlodlarimizga bekami ko‘st yetkazib berish kabi muhim vazifalar o‘z ahamiyati jihatidan dolzarb bo‘lib qoldi.

Ma’lumki, har qanday millat ravnaqida eng avvalo shu millat vakillari, ayniqsa yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash uchun esa har bir millatning tarixi, ajdodlari bunyod etgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar asosiy manbalardan hisoblanadi. Qaysi millatning o‘tmishida mana shu manbaa qanchalik salmoqli bo‘lsa, yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirish tezroq samaraga olib keladi. Sharq, balki, jahon sivilizatsiyasi uchun muhim ekanligi ayni haqiqatdir.

“Bu, avvalambor, ta’lim va ma’rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo‘naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog‘liq ekanini biz yaxshi anglaymiz. 1997 yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishi natijasida mazkur soha tubdan isloh, qilindi, zamonaviy uzluksiz ta’lim – tarbiya tizimi yaratildi” – deb ta’kidlaydi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev[1].

Barkamol shaxsni har tomonlama shakllantirish borasida buyuk allomalarning ijodlariga bo‘lgan qiziqishlarini yanada mustahkamlashda Abdurauf Fitrat asarlarini o‘rganish barkamol avlodning ilmiy dunyoqarashlari, fikrlash faoliyati, his – tuyg‘u hamda ijobiy sifatlarining shakllanishiga ta’sir etadi.

Abdurauf Fitrat Vatanni sevdi, Vatanni bizning valine’matimiz deb bildi.

Fitrat o‘z asarlarida Vatanning go‘zalligini tsvirlab deydi:

Qardoshlari, mana, sizga bir o‘lka –

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.: Ўзбекистон. 2017 й. 31-бет.

Kim, topilmas yer yuzida singari.
Har yonida keng, yam – yashil uchmohlar,
Jon suvidan yetishgandir gullari...[2]

Fitrat o‘z vatandoshlarini aziz diyori Turkistonni sevishga, uni asrashga chorladi. U yoshlarga xitob qilib, ularni shu Vatan va millat saodati, baxti, ravnaqi uchun fidoyilik ko‘rsatishga, jasoratli bo‘lishga da’vat etdi:

Og‘ir yigit, seni go‘zal, nurli ko‘zingda
Bu millatning saodatin, baxtin o‘qidim.
O‘ylashingda, turmushingda hamda o‘zingda
Bu yurt uchun qutilishning borligin ko‘rdim.
Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal.
Hurkma – kurash, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma – qo‘zg‘al.[3]

Fitrat «Hurriyat» gazetasida e’lon qilgan bir maqolasida shunday yozadi:

‘‘... har bir kishi o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonishi lozim. Kimki o‘z kuchiga ishonmay, orzu qilgan maqsadlariga intilsa, u, albatta, yarim yo‘lda yiqilib qoladi. Kimki ishonsa, u, albatta, boshlagan ishini oxiriga olib boradi. Insonga xos bu his – tuyg‘ularni biz millatda ham ko‘ramiz. O‘zining milliy kuchlariga ishonmaydigan millatlar, albatta, parokanda bo‘ladi. O‘z intilishlarini amalga oshirish uchun tashqaridan yordam kutayotgan xalq sekin – asta jarlik qa’rigaag‘anaydi...’’[4]

Fitrat 1917-yil fevral va oktyabr inqilobi oralig‘ida milliy kuchlarning birlikka intilishi haqida fikr bildirib, ularga xitob qilib dedi:

‘‘Turkiston musulmonlari, keling, Alloh nomi bilan, payg‘ambar, din, millat nomi bilan birlashaylik: bizdagi mavjud da’volar va sinfiy bo‘linishlarga ko‘zimizni yumaylik. Islomningbosh amri nomi bilan, birodarlik va birlik nomi bilan, Alloh uchun, din, vatan va millat uchun biz barchamiz – jadidlar, qadimiylar, mulla va boylar birlashaylik, bir joyga yig‘ilib, bir – birimizga yordam beraylik’’.[5]

Fitrat ilm – ma’rifatning jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti, madaniyat rivojida muhim ahamiyatga molikligini yuqori baholadi.

Fitratning ‘‘O‘quv’’ kitobidan o‘rin olgan ‘‘Imom G‘azzoliy’’ nomli hikoyada bayon qilinishicha, Imom G‘azzoliy va Bag‘dod shahrida bir madrasadao‘qib, uni tugatgach, kitoblarini xurjunga solib, otga yuklaydi va o‘zi ham minib, o‘z shahriga yo‘l oladi. Tog‘ tepasiga chiqqanda qaroqchilarga yo‘liqadi. Qaroqchilar butun boyligi, kitoblarini olib, uni yalang‘och holda qoldiradilar. Imom G‘azzoliy ularning ketidan keta beradi. Shunda bosh qaroqchi orqasiga qarab, uniko‘rgach, orqalaridan bormasligini, yo‘qsa, boshini olishini aytadi.

G‘azzoliy o‘tinib kitoblarini qaytarib berishlarini so‘radi. Kitob bo‘lmasa bilimsiz bo‘lib qolishini aytadi.

Fitrat inson kamolotida oila, jamoa muhim o‘rin egallashi va aqlning komil bo‘lishi, axloqiy poklik, donishmandlik, shijoatlik, adolatlik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘ladi, inson aqliy quvvatning natijasisiz, aqlning rahbarligisiz saodatga erisha olmasligini ta’kidladi. Bu sohada o‘qituvchilar rahnomalik qilishlari kerakligini aytib o‘qituvchilarga murojaat qildi, ularni turk eliga to‘g‘ri yo‘llarni ko‘rsatishga chorladi:

Orqadoshlar, to‘planaylik jahlning uyin yiqqali,

[2] Абдурауф Фитрат. Чин севги. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1996, 34-бет.
[3] Ўша китоб, 36-бет.
[4] «Ҳуррият» газетаси, 1917, 4-август.
[5] «Ҳуррият» газетаси, 1917, 15-июн.

El ko‘zin olgan qorong‘u pardalarni yirtqali.
Biz erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari,
To‘planaylk turk eliga to‘g‘ri yo‘llar ochqali.

Fitrat uchun millat tinchligi va ravnaqi har qanday qadriyatlardan ulug‘dir. Uning ta’kidlashicha, odamlar qanday din, mazhab, qavm va millatga bo‘linmasinlar, bir otaning farzandlaridirlar, bir jinsdirlar. Demak, ular o‘zaro ahil bo‘lmoqlari kerak.

Abdurauf Fitrat o‘zining ilmiy, adabiy, ma’rifiy asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini bayon etdi, ma’rifatni keng yoyishni o‘zining vijdoniy burchi deb bildi.

Fitrat Vatan ravnaqi, xalq, millat ozodligi, farovonligi uchun kurashdi. Bu yo‘lda o‘zi fidoyilik timsoli, namunasi bo‘ldi, yoshlar haqida qayg‘urib, ularni jismonan sog‘lom, ilm – fan sohibi qilib kamol toptirish xususida fikr bildirdi. Uning vatanparvarlik, xalqparvarlik, ilm – fan taraqqiyoti haqidagi g‘oyalari hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: O‘zbekiston. 2017 y.
2. Abdurauf Fitrat. Chin sevgi. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1996 y.
3. “Hurriyat” gazetasi, 1917 yil.

Нилуфар ЭРГАШЕВА,
Студент 1 курса магистратуры университета BUCHEON

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗЕ.

Annotatsiya

Ushbu maqola universitetda chet tilini o'rganishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini, shuningdek uning talabalar va o'qituvchilar uchun afzalliklarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Neyrolingvistik dasturlash (sun'iy intellekt va tilshunoslikni birlashtirgan va inson tilini avtomatlashtirilgan qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan soha), mashina va chuqur o'rganish (keng ma'lumotlar to'plamlarida o'rganish uchun sun'iy neyron tarmoqlardan foydalanadigan usul) ga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, sun'iy intellekt, neyrolingvistik dasturlash (NLP), mashinani o'rganish, chuqur o'rganish, chet tili.

Данная статья посвящена рассмотрению возможностей применения технологий искусственного интеллекта при изучении иностранного языка в вузе, а также его преимуществ как для студентов, так и для преподавателей. Особое внимание уделено нейролингвистическому программированию (область, которая объединяет искусственный интеллект и лингвистику и связана с автоматизированной обработкой человеческого языка), машинному и глубокому обучению (метод, при котором используются искусственные нейронные сети для обучения на обширных наборах данных).

Ключевые слова. Образование, искусственный интеллект, нейролингвистическое программирование (НЛП), машинное обучение, глубокое обучение, иностранный язык.

This article deals with the features of using AI technologies in foreign language learning at universities, as well as its advantages for both students and teachers. Special attention is paid to neurolinguistic programming (an area that combines artificial intelligence and linguistics, and is associated with automated processing of human language), machine and deep learning (a method that uses artificial neural networks to learn from large datasets).

Key words. Education, artificial intelligence, neuro-linguistic programming (NLP), machine learning, deep learning, foreign language.

Повсеместное внедрение цифровых технологий затрагивает все сферы деятельности человека, включая производственные и бизнес – процессы, социальная сфера жизни общества, систему образования. Огромное влияние цифровое развитие оказывает и на сферу образования, в том числе на совершенствование деятельности высших учебных заведений. Современный период в деятельности вузов все шире используются цифровые технологические решения, которые позволяют осуществить переход к персонализированному обучению, необходимого для достижения самых высоких результатов образовательной деятельности. Цифровые технологии эффективно влияют на развитие цифровой инфраструктуры вузов. Данный аспект подразумевает развитие каналов связи, приобретение новых устройств для применения в учебном процессе цифровых учебно-методических материалов.

В современный период уже невозможно представить деятельность высше-

го учебного заведения без комплексного использования компьютерных сетей, цифровых платформ, виртуальных библиотек, электронных курсов и учебных изданий, передовых технологических и педагогических решений в основе которых лежит применение передовых информационно-коммуникационных технологий. Цифровые технологии в современный период оказывают свое позитивное влияние на развитие программ академической мобильности, привлечение ведущих ученых, специалистов-практиков для повышения качества обучения.

Изучению отдельных аспектов цифровизации образования, проблемам, с которыми приходится сталкиваться преподавателям и обучающимся в процессе применения компьютерных технологий, посвящен ряд отечественных и зарубежных исследований. Цифровые технологии полностью меняют устоявшуюся модель образования. В отличие от занятий, проводимых в традиционной форме, процесс обучения с использованием цифровых инструментов становится более интересным и продуктивным. В рамках данной работы обратимся к рассмотрению возможностей применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) при изучении иностранного языка в вузе. В системе высшего образования группы по изучению иностранного языка нередко насчитывают более 20 студентов, и преподавателю практически невозможно одновременно найти верный подход ко всем. Но благодаря использованию искусственного интеллекта для изучения неродного языка можно акцентировать внимание на образовательных потребностях каждого отдельного обучающегося.

Применяя технологические решения на основе ИИ, интегрированные в учебный процесс, преподаватели могут собирать массу данных об обучающихся, их интересах, способностях и так далее. При анализе эти данные могут проложить путь к персонализированному обучению. Платформы для изучения языков на основе ИИ позволяют студентам работать в своем собственном темпе, повторяя темы и акцентируя внимание на том, с чем у них возникают проблемы. Обучающая платформа на основе ИИ может автоматически оценивать тесты и даже эссе сразу после их сдачи, мгновенно идентифицируя ошибки и предлагая способы избежать их при выполнении последующих заданий. Это позволяет обучающимся мгновенно предпринимать меры для исправления своих ошибок и, возможно, лучше сдать будущие тесты. Что касается преподавателей, решения для изучения языков с помощью искусственного интеллекта могут выявить слабые места в учебной программе и помочь педагогам увидеть, что можно улучшить в их лекциях или практических заданиях. Благодаря внедрению искусственного интеллекта в образовательный процесс у преподавателей остается больше времени для координации учебной деятельности и наставничества обучающихся. Кроме того, преподаватели могут попробовать себя в роли специалистов по данным, анализируя и используя сведения, полученные в процессе обучения. При изучении языка с использованием технологий ИИ ускоряется процесс получения обратной связи.

В свою очередь, обучающиеся получают возможность ставить собственные цели и следовать индивидуальной программе. Как отмечает Рольгайзер А.А., на сегодняшний день наиболее востребованными инструментами искусственного интеллекта, находящими применение при изучении иностранных языков, являются сервисы распознавания и анализа текста (голосовые помощники, чат-боты, онлайн-переводчики, сервисы для проверки орфографии, пунктуации, грамма-

тики и стилистики текста). Языковые чат-боты, разработанные на основе искусственного интеллекта, способны представлять персональные ответы на сообщения студентов, могут оценивать их работу или давать советы о том, что им нужно улучшить. В последнее время использование нейронных сетей позволило машинному переводу сделать гигантский скачок вперед, что делает возможным включать данную технологию в процесс изучения иностранного языка. Например, машинный перевод как плохая модель представляет собой педагогический метод, с помощью которого обучающиеся выявляют несоответствия и ошибки в переведенном тексте и исправляют их. Это помогает студентам лучше воспринимать иностранный язык и его особенности, понять структуру предложений и расширить словарный запас. Поскольку студенты учатся по-разному и с разной скоростью, неразумно ожидать, что все будут следовать одному и тому же учебнику и добиваться одинакового успеха. Именно поэтому персонализированные учебники так важны. Когда интеллектуальное решение для изучения языка знает о прогрессе и адаптируется к потребностям на основе личных данных, оно может предоставить необходимые учебные материалы. Адаптация учебников также может быть полезной для преподавателей. К примеру, если бы педагоги имели возможность загружать свои образовательные программы в систему, созданную на основе искусственного интеллекта, система сама могла бы создавать учебники, адаптированные для конкретного курса или даже группы обучающихся.

Нейролингвистическое программирование (НЛП), извлечение словосочетаний и точечная взаимная информация часто используются, чтобы помочь искусственному интеллекту стать ценным инструментом для изучения языка. НЛП позволяет машинам читать и понимать человеческий язык, а извлечение словосочетаний можно использовать для получения информации, классификации документов и решения проблем языковой генерации. Когда дело доходит до внедрения искусственного интеллекта в изучение языка, то здесь имеется большой выбор Android, iOS и приложений для обучения НЛП, которые помогают обучающимся овладеть словарным запасом изучаемого языка. В некоторых приложениях используются данные Оксфордских словарей и интегрирован искусственный интеллект под названием FeeBu (Feedback Butterfly), чтобы воспроизводить поведение преподавателя, который дает автоматизированную интеллектуальную обратную связь. Приложение имеет доступ к огромному корпусу аутентичных английских текстов, тем самым обеспечивая контекстуализированный словарный запас.

FeeBu использует четыре базовых критерия для оценки успеха при изучении языка: грамматика, правописание, значение и выбор слов. В приложении на основе FeeBu реализован компонент, который автоматически создает упражнения с пробелами и варианты ответов при наличии заглавного слова и семантического контекста. Кроме того, применяется система, которая автоматически оценивает текст и анализирует его с целью выявления грамматических ошибок. Для быстрой обратной связи внедрен компонент на стороне сервера, выполняющий анализ ответов студентов с помощью обработки НЛП. Анализ корпуса с помощью модели n-грамм, извлечение словосочетаний и точечная взаимная информация позволяют извлекать словосочетания из огромного корпуса английского языка, чтобы обеспечить надежную оценку беглости речи. Данное приложение оказалось настолько успешным, что издательство Oxford University Press, круп-

нейший в мире издатель учебных материалов по английскому языку, приобрело его и лицензировало технологию для распространения по всему миру. Резюмируя, следует отметить общие ключевые концепции использования технологий искусственного интеллекта с точки зрения изучения языка:

1. Нейролингвистическое программирование (НЛП) – это область, объединяющая искусственный интеллект и лингвистику, целью которой является автоматизированная обработка человеческого языка. НЛП направлено на создание и анализ письменной и устной речи, хотя обработка речи часто рассматривается как отдельная область. НЛП можно рассматривать как прикладную сторону компьютерной лингвистики, междисциплинарной области исследований, связанной с формальным анализом и моделированием языка и его приложений на стыке лингвистики, информатики и психологии

2. Машинное обучение является частью искусственного интеллекта. Это относится к системам, которые получают информацию или учатся на основе опыта. Машинное обучение «помогает найти решения многих проблем с речью, распознаванием и робототехникой».

3. Глубокое обучение – это область искусственного интеллекта, разновидность машинного обучения, где используются искусственные нейронные сети (вычислительные системы, напоминающие определенные нейронные сети человеческого мозга) для обучения на обширных наборах данных . Глубокое обучение в основном фокусируется на категориях, основанных на видении (например, различении изображений), но также может использоваться для целей НЛП. Эксперты полагают, что инструменты на основе искусственного интеллекта «предлагают возможность обучения, которое является более персонализированным, гибким, инклюзивным и увлекательным» , и есть свидетельства того, что обучение языку с помощью цифровых технологий само по себе стало более динамичным и адаптивным. Специально для вспомогательных и адаптивных сценариев изучения языка (когда алгоритм поддерживает преподавателя и студента и создает индивидуальный путь обучения), в игру вступают так называемые узкие технологии искусственного интеллекта.

Их можно разделить на следующие категории:

1. Инструменты искусственного интеллекта, ориентированные на обучающегося, которые помогают совершенствоваться в конкретном предмете с помощью конкретных моделей практики, механизмов рефлексивной обратной связи или поведенческих упражнений.

2. Системы, ориентированные на преподавателя: инструменты, ориентированные на педагога, которые направлены на минимизацию рабочей нагрузки, в основном в автоматизированных процессах (таких как выставление оценок, механизмы обратной связи, управление аудиторией, административные вопросы).

3. Системные инструменты искусственного интеллекта: алгоритмы, предоставляющие обработанные данные в основном администраторам учреждения или заинтересованным сторонам, например, программное обеспечение, которое обрабатывает работы студентов и рассчитывает их будущую успеваемость. Таким образом, внедрение ИИ в образовательный процесс в значительной степени меняет подходы к работе преподавателя. Уже несколько лет в ведущих вузах пытаются модернизировать учебный лингвистический процесс с помощью искусственного интеллекта. Однако с момента введения онлайн-обучения в этом

секторе изменения еще не столь масштабны.

С развитием материально-технической базы вуза появляется возможность применения технологий машинного обучения, робототехники, искусственного интеллекта. Помимо этого, развитие цифровых технологий требует от профессорско-преподавательского состава постоянного совершенствования квалификации в области использования передовых инновационных технологий. Искусственный интеллект уже является неотъемлемым компонентом фундамента современной системы образования. Исходя из этого, одной из задач проекта является изучение и исстематизация основных модулей в системах управления образованием. Основное внимание предполагается уделить интерактивным лекциям, индивидуальным и групповым тренингам, журнализации результатов обучения. Рассматривается возможность вовлечение процесс образовательной коммуникации не только самих обучающихся, педагогических и административных работников вуза, но и представителей семей обучающихся путем организации широкого информирования о результатах учебной деятельности.

Целью изучения компонентов учебных систем, использующих элементы искусственного интеллекта, является построение индивидуальных траекторий обучения одновременной автоматизацией проверки результатов обучения и механизмов самоконтроля, изучение алгоритмов учета контрольных точек занятий, отслеживание прогресса учащихся, выявление наиболее затруднительных для усвоения элементов курса и информирование о них преподавателя. Отдельным аспектом проекта является исследование технологий геймификации обучения, использование игровых заданий не только при проведении занятий, но и при организации аттестационных испытаний. Для организации учебной коммуникации рассматривается использование чат-ботов, форумов и т..д, которые помогают поддерживать образовательный диалог, наладить сопровождение траектории обучения. Как одно из перспективных направлений модификации классических компонентов языковой подготовки рассматривается адаптивное управление обучением. Одной из задач проекта является изучение различных аспектов алгоритмов формирования учебной траектории изучения иностранного языка с учетом особенностей функционирования языковых единиц, присущих этому языку.

Использованная литература:

1. Амаса С. (2016). Анализ ошибок учащихся турецкого языка EFL: тематическое исследование. Процедура – Социальные и поведенческие науки, 232, 478-487. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.007

2. Брумфит, К. (1984). Коммуникативная методология в преподавании языка: роль беглости и точности. Кембридж: Издательство Кембриджского университета.

3. Картон, Ф. К. (2007). Переключение кодов у двуязычных детей. Дордрехт, Спрингер.

4. Кайноз, Дж. (2007). Приобретение прагматической компетенции и многоязычия в иноязычных контекстах. В Е. Алкон Солер, М.П. Сафон Жорда (ред.), Межкультурное использование языка и изучение языка, 123-140. Прыгун. https://doi.org/10.1007/978-1-4020-5639-0_7

5. Чемберс, Ф. (1997). Что мы подразумеваем под беглостью? Система, 24(4), 535-544. https://doi.org/10.1016/S0346-251X (97)00046-8

Сайора МУХАММАДИЕВА,
Джизакский государственный педагогический университет им. А. Кадыри,
Кафедра общей педагогики, старший преподаватель

ВОСПИТАНИЕ НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ В РАБОТЕ АХМАДА ЯССАВИ

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarbiyaning tarixiy ildizlari, yurtimizda inson ma'naviy-axloqiy tarbiyasi muammosi bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalar, xususan Xo`ja Ahmad Yassaviyning insonparvarlik g'oyalarining bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Pedagogika, ta'lim, tarbiya, axloq, insonparvarlik, halollik, nafs tarbiyasi, ma'naviy meros.

В этой статье рассматриваются исторические корни образования, идеи, выдвинутые в исследованиях по проблеме духовно-нравственного воспитания в нашей стране, в частности, важность гуманитарных идей Ходжи Ахмада Яссави в воспитании молодежи сегодня.

Ключевые слова. Педагогика, образование, воспитание, нравственность, гуманизм, честность, воспитание эго, духовное наследие.

This article discusses the historical roots of education, the ideas put forward in research on the problems of spiritual and moral education in our country, in particular, the importance of the humanitarian ideas of Hodja Ahmad Yassavi in the education of young people today.

Key words. Pedagogy, education, upbringing, morality, humanism, honesty, ego education, spiritual heritage.

Наука суфизма складывается сегодня как педагогическая проблема и в нашей независимой Республике, и во всем мире, и воспитывает молодежь в целом. Это приобретает большое значение в обучении в цифровом духе. При выяснении научно-методических основ использования суфизма, в том числе учения Ахмада Ясави, в преподавании педагогических наук следует обратить внимание на то, что суфизмские течения возникли в рамках ислама, в соответствии с учением Корана, хадисы и страны Востока наряду с исламом стали широко распространяться. Не следует упускать из виду, что возникновение суфизма и его дальнейшее развитие неразрывно связаны с восточными суевериями.

Уникальные для Средней Азии пути суфизма веками высоко ценились всем человечеством. Суфизм возник в Средней Азии как протест против социальной несправедливости. В религиозно-философских и педагогических воззрениях представителей этого течения заложены благородные идеи осуждения углубляющегося неравенства и несправедливости среди людей, призыв каждого зарабатывать на жизнь честным трудом. В суфизме преобладают социально-гуманистические идеи.

В Туркестане Юсуф Хамадони основал свою школу суфизма, из которой выросли основатели сект ‘‘Яссавия’’ и ‘‘Ходжагония’’, ставших популярными в Туркестане.

Выше мы упоминали, что секта Яссавия была создана на основе учения великого поэта и мыслителя Кул Худжи Ахмеда Яссави. В связи с тем, что этот орден формировался в период, когда гнет Моголов и его трагические последствия были чрезвычайно сильны, в нем преобладают настроения депрессии. Суть ордена Яссавия заключается в предотвращении духовного беспорядка, возникшего в результате притеснения инородцев в обществе, в укреплении настроения смотреть в будущее с надеждой через крепкую веру в Бога . Яссави ‘‘Не беспокойтесь о мире, ничего не говорите о себе. Стих ‘‘Не ешь чужого имущества, оставишь его для бедных’’ — яркое тому доказательство.

Секта Яссавия веками занимала большое место в духовных ценностях всех тюркских народов.

Согласно представлениям суфизма, совершенный человек (шейх Азисудди Насафи в 13 веке) — это человек, у которого совершенны четыре вещи: добрые слова, добрые дела, хорошее поведение и просветление.

Сегодня молодое поколения наслаждается продвижением передовых общечеловеческих ценностей, таких как чистота, честность, правильность, мусульманская вера, доброта, вера, трудолюбие и патриотизм великих мыслителей.

Точно так же мы можем широко использовать просветительские взгляды Ахмада Ясави в воспитании молодого поколения. Его учения и взгляды являются ценным ресурсом для преподавания педагогической теории, истории педагогики, семейной педагогики, народной педагогики и социальной педагогики.

Мы попытались определить осведомленность о наследии, оставленном нашими великими учеными и мыслителями. Также мы старались учитывать уровень знаний, мышления и культуры, интересы и потребности, инициативу и активность учащихся. Мы провели интервью и опросы среди студентов и попытались выяснить их отношение к наследию Яссави и их нравственные взгляды. Мы предложили учащимся ответить на следующие вопросы:

Кого вы знаете из наших величайших ученых и писателей?

Как насчет наших великих ученых вы видели пьесы и фильмы ?

Вы читали художественный книги о наших великих ученых?

О каких религиях вы слышали ?

Что вы знаете об исламе ?

Кого вы знаете из ученых суфизма?

Кто такой Ахмед Яссави и где он родился?

Узнали ли вы о мудрость Яссави? ?

Было ли в вашей группе или колледже мероприятие, посвященное Яссави?

Какого человека вы понимаете, когда говорите об идеальном человеке?

Что бы вы хотели узнать о Яссави?

После этого в целях информирования студентов о Яссави и донесения до них его просветительских взглядов была проведена лекция на тему ‘‘Использование мудрости Ходжи Ахмада Яссави в семейном воспитании’’, ‘‘Гуманитаризм в мудрости Яссави’’, ‘‘Мы писали очерки на такие темы, как патриотизм в мудрости Яссави, ‘‘Представления о совершенном человеке в суфизме’’. Сделали самостоятельную работу по теме ‘‘Об Абдурауфе Фитрате Яссави’’.

Мы убедились, что знакомство с мудростью и педагогическими идеями Ахмада Ясави важно для нравственного воспитания учащихся.

Изучая мудрость Яссави, ученики развивают духовные и нравственные ка-

чества, такие как любовь, доброта и следствие, великодушие, великодушие, религиозность, довольство, трудолюбие, справедливость, терпение, честность, понимание, проницательность.

Одним словом , специальные формы обучения студентов колледжей, основанные на мудрости Яссави, включают следующее: чтение - изучение литературы, художественных произведений, мудрости, созданной мудрецом; знакомство с жизнью и творчеством ученых-суфизмистов, проведение бесед на такие темы, как “Великие ученые-суфисты о совершенном человеке’’, “Яссави – великий фанатик’’, “Суфии о смирении’’, “Чистота исходит из веры’’, самостоятельные работа над педагогическими воззрениями Яссави, подготовка рефератов, просмотр телепередач о жизни и деятельности ученых-суфизмистов , просмотр фильмов, поездки в исторические музеи, организация круглых бесед с историками, философами и учеными-педагогами.

Использованная литература:

1. Ахмад Ясави. Ибрагим Н а qq ул. – Т. : Изд-во Гафур Гулом, 2001.

2. Аль-Бухари. Хадис, Аль-джаме ас-сахих. – Т .: “Словари’’ главный редактор , 1991-1992 , кн . 1-4 .

3. Н. Комилов . Суфизм._ _ _ – Т.: “Писатель’’, 1996 г.

4. Н. Комилов. “4 трактата об идеальном человеке’’. – Т.: “Духовность’’, 1997.

5. Кубро Шейх Наджмуддин . Джамал скажи мне : Рубаи / Персидский Матназар Абдулхаким перевод . – Т.: Литература а также искусство изд-во , 1994.-64 с.

6. Пардаева К., Тангиров А. и Мухаммадиева С. (2020). Использование гуманистических идей Ходжи Ахмеда Ясави I+-9n в преподавании педагогических наук. Архив Научных Публикация JSPI .

7. Мухаммадиева С. и Фарсахонова Д. (2020). Педагогика восточных мыслителей проблема этического воспитания в их взглядах. Архив научных публикаций JSPI .

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Abduqodirova Shohida Akmalxo‘ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2023.